

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«BANK ISHI» KAFEDRASI



S.S. Togayev

BANK RISKLARI

O`quv qo`llanma

SAMARQAND-2019

UDK 336.71

BBK 65.9(5O'z)

B 28

S.S. Togayev. Bank risklari. O`quv qo`llanma.

SamISI. Samarqand 2019 y. **222**-bet.

ISBN _____

Mazkur o`quv qo`llanma “Bank risklari” fani mavzular to’plami sifatida “Bank ishi” ta’lim yo’nalishidagi bakalavrlar uchun tayyorlangan bo’lib, o`quv dasturdagi mavzular doirasida bayon qilingan bo’lib, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2013 yil 2 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o`quv adabiyotlari bilan ta’minalashni takomillashtirish to’g’risida”gi 278-sonli buyrug’i talablari asosida tayyorlangan.

Ushbu o`quv qo`llanmani tayyorlashda muallif bank ishiga oid chiqarilgan darsliklar, o`quv qo`llanmalar va ma’ruza matnlari hamda O’zbekiston Respublikasining normative-huquqiy hujjatlari, internet hamda dayriy nashr ma’lumotlaridan ham foydalandi.

Undan talabalar, magistrler, malaka oshirish fakulteti tinglovchilar, bank xodimlari hamda bank ishiga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Ushbu o`quv qo`llanma muallifning mazkur sohadagi ilk urinishlaridan biri bo’lib, tabiiyki, ayrim xato-kamchiliklar va nuqsonlardan holi bo’lmasi, shuningdek undagi ayrim fikrlar bahs – munozaraga sabab bo’lishi mumkin.

Muallif bildiriladigan fikr-mulohazalarni mammuniyat bilan qabul qiladi va tashakkur izhor etadi.

Muallif

Taqrizchilar: F.Zubaydullayev - SamISI, «Bank va jamg’arma ishi» kafedrasи katta o’qituvchisi, i.f.n.

S.S. Rustamov -AT “Aloqabank” Samarqand filiali kredit bo`limi boshlig`i

O`quv qo`llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o`quv-uslubiy Kengashida muhokama etilgan hamda chop etishga tavsiya qilingan. («____»
____ 2019 yildagi ____ - son majlis bayonnomasi)

© SamISI. Samarqand 2019 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
I-MAVZU: “BANK RISKLARI” FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA BOSHQA FANLAR BILAN O’ZARO BOG’LIQLIGI	7
1.1. “BANK RISKLARI” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI....	7
1.2. “BANK RISKLARI” FANINING BOSHQA IQTOSODIY FANLAR BILAN O’ZARO BOG’LIQLIGI	12
1.3. RISKLARNING TURLICHA TALQIN QILINISHI	13
II-MAVZU: UMUMIQTISODIY RISKLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI, YUZAGA KELISH SABABLARI VA TURLARI	20
2.1. UMUMIQTISODIY RISKLAR VA ULARNING TASNIFLANISHI.	20
2.2. UMUMIQTISODIY RISKLARNING PAYDO BO’LISH SABABLARI VA OMILLARI.....	24
III-MAVZU: BANK RISKLARINING MAZMUNI VA UNING TASNIFLANISHI. BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA’SIRI	29
3.1. BANK RISKLARINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	29
3.2. BANK RISKLARINING TURLARI VA ULARNI TASNIFFLASH	34
3.3. BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA’SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNING ASOSIY MEZONLARI	49
IV-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH FAOLIYATI BILAN BOG’LIQ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	59
4.1. KREDIT RISKI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARNING PAYDO BO’LISH SABABLARI	59
4.2. KREDIT RISKLARIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH BOSQICHLARI	62
4.3. KREDIT RISKLARINI ANIQLASH, BAHOLASH VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI	64
4.4. KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH VA KAMAYTIRISH.....	70
V-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING OPERATSION RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	94
5.1. OPERATSION RISK TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA’SIRI	94

5.2. OPERATSION RISKLARINING TURLARI VA ULARNI TASNIFFLASH	104
5.3. OPERATSION RISKLARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH	116
5.4. OPERATSION RISKLARNI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI..	118
5.5. OPERATSION RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH133 VI-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLILIK RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	146
6.1. LIKVIDLILIK RISK TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI	146
6.2. LIKVIDLILIK RISKLARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH	148
6.3. LIKVIDLILIK RISKLARNI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI..	153
6.4. LIKVIDLILIK RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH165 VII-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING BOZOR RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.	170
7.1. BOZOR RISKI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI.....	170
7.2. BOZOR RISKLARIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH	173
7.3. BOZOR RISKLARINI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI..	175
7.4. BOZOR RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH	178
VIII-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING FOIZ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.	187
8.1. FOIZ RISKI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI.....	187
8.2. FOIZ RISKLARINING TURLARI VA ULARNI TASNIFFLASH	190
8.3. FOIZ RISKLARINI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI.....	193
8.4. FOIZ RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH.....	196
IX-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING MAMLAKAT VA HUQUQIY HATTI-HARAKATLARI BILAN BOG'LIQ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.	207

9.1. TIJORAT BANKLARINING MAMLAKAT RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI	207
9.2. TIJORAT BANKLARINING HUQUQIY HATTI-HARAKATLARI BILAN BOG'LIQ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.....	215
X-MAVZU: TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI TARTIBGA SOLISH VA ULARNI KAMAYTIRISHDA MARKAZIY BANKNING O'RNI.....	220
10.1. BANK RISKLARINI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR.....	220
10.2. RISLARNI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI VA TAHLILI.....	233
10.3. RISLARNI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	239
10.4. RISLARNI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA KAMAYTIRISH SAMARALI YO'LLARI	258
FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI.....	260
QAYDLAR UCHUN	264

«Agar biz risklarni boshqarmasak, ular
bizni boshqarishni boshlashadi...»¹

Д.А.Марцынковский

KIRISH

¹ Д.А.Марцынковский “Обзор основных аспектов риск-менеджмента”. Журнал “Day Management” № 1. 2009 г. стр. 54

I-MAVZU: “BANK RISKLARI” FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA BOSHQA FANLAR BILAN O’ZARO BOG’LIQLIGI

1.1. “BANK RISKLARI” FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari faoliyati davomida bir qator risklarga uchrashi mumkin. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarida “Bank risklari” fani o’qilib kelinadi.

«**Bank risklari**» fani tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi xavf-xatar va risklarni tasniflash sohasida kasbiy bilim beruvchi, bo‘lg‘usi bankirlarni mazkur risklarni aniqlash, tahlil qilish, baholash, oldini olish hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirishga yo‘naltiruvchi boshqarish usullarini **o‘rgatuvchi fandir.**

«**Bank risklari**» fani tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi risklar, ularning turlari, tahlili va ularni hisoblash yo‘llari, tijorat banklari kredit siyosati va uning mezonlari, tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha yuzaga keluvchi risklar, kreditlash jarayoni bilan bog‘liq risklar, mijozning kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlari va ularni takomillashtirish yo‘llari, tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi boshqa risklar va ularni boshqarish masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan xomcho‘t qilish, risk tufayli yuzaga keladigan salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik yoki ularning ta’sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig‘indisidan iborat.

Bank riskini boshqarish tizimining **ob’ekti** banklar faoliyatida yuzaga keluvchi risklar bo‘lsa, uning **sub’ekti** sifatida riskga o‘z ta’sirini o’tkazuvchi guruh, bank xodimi yoki menejeri hisoblanadi.

Ma’lumki, tijorat banklarida risklarni minimallashtirishga yoki ularni oldini olishga risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay bilish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyatlari bo‘yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo‘jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarni bilish lozim.

Bankning risklarni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to‘la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish va bank risklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida risk bu - tadbirkorlikning eng asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Riskning o‘ziga xos xususiyatlari² bu – noaniqlik, kutilmagan holat, ishonchsizlik va tahmin. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida risk darajasi oshadi.

“Iqtisodiy riskni” asosiy fuknsiyalari:

1. Riskni analistik funksiyasi – turli xil variantlarni tahlil qilish va maqsadga yetish (maksimum daromad va riskning mu’tadil darajasi). Ba’zi bir masalalarni yechish uchun tajribani ishlatish kerak.
2. Riskni innovatsion funksiyasi – noan’anaviy qarirlarni uylab topish bilan bog‘liq faoliyat.(yangilik)
3. Riskni regulyativ funksiyasi – ikki xil shaklda bo‘lish mumkin: konstruktiv va dekonstruktiv.

Konstruktiv shakli :

- a) Qarama – qarshilik, alternativlarni yuqori noaniqlik bilan yechish risk holatida afzallik natijalarga ega bo‘lish;(foyda)

Dekonstruktiv shakli :

- b) “Riskni” oqlash qoidasiga qarshi asossiz qarirlarni qabul qilish va ushbu qaror bo‘yicha harakat qilish(zarar).

² «Риски в экономике» Л.Н.Тэпман. Проф В.А.Швандарнинг редакцияси остида, Москва-2002 г., 8-с.

4. Riskni himoyalash funksiyasi – turli xil risk holatini (manfi) salbiy oqibatlardan chiqishni vositalar va uslublarni topish bilan bog‘liq faoliyatdir.

Bulardan tashqari riskning yana quyidagi xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular qarama-qarshilik, alternativlilik va noaniqliliklardir.

Qarama-qarshiliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladilar: risk bir tomonlama muhim iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-ahloqiy natijalarga olib keladi, ya’ni ijtimoiy, texnik rivojlanishni tezlashtiradi, jamiyatning fikr va ma’naviy muhitiga ijobiy ta’sir qiladi. Ikkinchi tomonlama esa, aksincha ta’sir qilishi mumkin, ya’ni risk ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishga to‘sinqlik qilishi mumkin.

Qarama – qarshiligi – ya’ni noan’anaviy qarorlarni qabul qilishlik, holatlarni realligi va ularni sub’ektiv nuqtai nazardan baholash o‘rtalarida bo‘lgan qarama – qarshilik.

Alternativlilik, bu bir yoki bir qancha ko‘rinishdagi qarorlarni tezlik bilan tanlashda namoyon bo‘ladi. Tanlash lozim bo‘lmagan joyda riskli jarayonlar ham vujudga kelmaydi va risk bo‘lmaydi.

Noaniqlilik, bu albatta noaniq, ya’ni kutilmagan holatlar bilan bog‘liq. Uning yuzaga kelish va tus olish shakli noaniq bo‘lib qolaveradi. **A.Marshal, Dj.fon Neyman, O.Morgenshtern, F.Naytlar** riskga quyidagicha yondashganlar³: «Risk va noaniqlilik kategoriyasi iqtisodiy munosabatlarda katta rol o‘ynaydi. Xo‘jalik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan noaniqlilik barcha murakkab va muxim iqtisodiy xodisalarning asosida yotadi. Noaniqlilik mohiyati riskda namoyon bo‘ladi».

O‘tgan asrning 20-yillarida **F.Nayt**⁴ birinchilardan bo‘lib daromad doim noaniqlilik bilan bog‘liq degan fikrni olg‘a suradi. **P.Samuelson** esa, quyidagilarni ta’kidlagan: «Noaniqlilik qarama-qarshiliklar natijasida kelib

³ «Система страхования банковских рисков» Ю.А.Соколов, Н.А.Амосова, Москва-2003 г., 6-с.

⁴ Shu manba, 7-с.

chiqadi, ya’ni insonlar nimalarni kutmoqdalar-u, nimalar sodir bo‘lmoqda, buning natijasi esa foyda yoki zararda namoyon bo‘ladi».

Samarali tashkil qilingan bozor iqtisodiyotida mahsulot ishlab chiqarish kam harajat qilish bilan, uning taqsimoti esa bozor talabiga asosan amalga oshiriladi. Raqobat korxonalarining harajatlarini iloji boricha minimum darajagacha kamaytirishga, tovarlar ishlab chiqarishni strategik rejalashtirishga va faqat bozor talabiga mos keluvchi tovarlar ishlab chiqarishga majbur qiladi.

Ma’lumki, faqat iqtisodiy erkinlik, mulkchilik huquqi, raqobat va boshqa bozor atributlari mavjud bo‘lgan holda iqtisodiyot samarali bo‘lishi mumkin.

Bozorning eng muhim atributlaridan biri – bu iqtisodiy erkinlik hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy erkinlik asosida faoliyat ko‘rsatish **makro**, **mezo** va **mikro** darajada turli xil risklarga bog‘liq bo‘ladi. Agar O‘zbekistonda davlat taktikasini shartli ravishda:

- davlat boshqaruvi bilan bozor mexanizmining samarali bog‘lanishi bo‘yicha;

- ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan holda raqobatbardosh sohalarni rivojlantirish, tadbirkorlik yo‘lini tanlash;

- aholi daromadlariniadolatli taqsimlash yo‘nalishini bosh yo‘nalish deb tanlash kabilar bo‘yicha o‘tkazilishini inobatga oladigan bo‘lsak, shu ochiq maqsadli siyosat modelida ham bir necha guruh risklar – ijtimoiy-siyosiy, fiskalmonetar va iqtisodiy risklarning bo‘lishi muqarrar.

Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma’noga ega bo‘lgan ko‘p qirrali tushuncha. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligiga erishish, uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta’sir qilish tomonlarini chuqur o‘rganib chiqish zarur.

Iqtisodiyotda risklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- iqtisodiy risk;
- ijtimoiy-siyosiy risk;

- fiskal-monetary risk.

Iqtisodiy risk deganda, umumiy yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YAIMning o'sish sur'atini jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o'rnatish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg'unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi, davlatning antitsiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o'tkazishini taqozo qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy risk deganda, umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, davlatning narxni shakllantirish siyosatiga, shuningdek, mulk va intellektual boylik jamg'armalarining manbalarini:

- aholining barcha guruhini umumiy tavsifdagi risklardan ijtimoiy himoyani ta'minlashga;
- daromadlarning adolatli taqsimlanishiga;
- ishsizlikni qisqartirishga;
- taklif yoki talabning jismoniy hajmlarini narx va boshqalar orqali tartibga solishga safarbar etish va jamlash bo'yicha masalalarni yechishga aralashuvida yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi.

Siyosiy risk – bu korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga siyosiy ahvoldagi o'zgarishlar ta'siridir, bunga chegaralarning bekilishi, boshqa davlatlarga mahsulot, xom ashyo olib chiqish taqiqlanishi va aksincha boshqa davlatlardan mahsulot, xom ashyo olib kirilishining ta'qiqlanishi.

Fiskal-monetary risk davlat o'tkazayotgan moliyaviy va byudjet siyosati yordamida, narhlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining ta'minoti va kon'yukturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuidan iborat.

Tarmoqlar riski ham mavjud bo‘lib, u ma’lum bir tarmoqning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatidagi boshqa tarmoqlarga nisbatan o‘zgarib turish darajasi bilan to’g‘ridan-to’g‘ri bog‘liqdir. Tarmoq riskini boshqarishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi:

- alternativ tarmoqlar faoliyati qay darajada, tarmoqlar natijalari o‘rtasidagi farq va sabablari;
- yaxshi faoliyat ko‘rsatib kelayotgan tarmoqda keskin o‘zgarishlar bor bo‘lsa, sababi nimadan iborat;
- bank mablag‘idan foydalanmoqchi bo‘lgan korxonaning moliyaviy natijasi bilan o‘z tarmog‘i ichidagi o‘xshash korxonalar moliyaviy natijalari o‘rtasidagi farq.

Tarmoq riskini boshqarishda ishlataladigan tushuncha bu **tizimtik risk** deb yuritiladi. U orqali tarmoqlarda yuz berayotgan tebranishlar darajasi butun iqtisodda yuz berayotgan tebranishlar darajasiga nisbatan solishtiriladi.

1.2. “BANK RISKLARI” FANINING BOSHQA IQTOSODIY FANLAR BILAN O’ZARO BOG’LIQLIGI

Risk insoniyat faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan tarixiy va iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u kishilar faoliyatida yoki tabiiy hodisalarda mumkin bo‘lgan yuqotishlar salmog‘ini bildirgan hamda tarixan jamiyat rivojlanishi bilan odamlarning haloqatdan qo‘rqish darajasiga moslashib borgan.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va sub’ektlar faoliyatida mustahkam o‘rnashib olishiga imkoniyat yaratdi. Shuning uchun ham risklar bizni tunu-kun, har yer va har joyda o‘rab kelmoqda. U bizning hayotimizda har doim ham qochib bo‘lmaydigan va yechish lozim bo‘lgan bir jarayon bo‘lib biror-bir natijani yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Bunday natija salbiy va ijobjiy bo‘lishi mumkin.

Riskning sinonimi sifatida biz ishonchizlikni, imkoniyatsizlikni, bir voqeal-

bo‘lish bo‘lmasligini oldindan aytib bera olmaslik kabilarni misol qilib ko‘rsatishimiz ham mumkin.

Shuning uchun talabalarga ushbu muammolarni hal etish maqsadida “Bank risklari” fanini o‘rgatish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Ushbu o‘quv qo`llanma yordamida bank risklari mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari, ta’sir etuvchi omillari, bank faoliyatida vujudga keladigan kredit, foiz, valyuta rirslari hamda ularni bartaraf etishda kredit siyosatining ahamiyati keng tatqiq etilgan.

“Bank risklari” fanini chuqur o‘rganishda O’zbekiston Respublikasining Qonunlari, Farmon va farmoyishlari, ko‘rsatma va yo‘riqnomalardan keng foydalanadilar. Shu bilan birga bank ishi, iqtisodiy nazariya, pul, kredit va banklar, moliyaviy menejment, bank menejmenti va marketingi, statistika, buxgalteriya hisobi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari kabi fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, talabalar ushbu fanlardan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

1.3. RISKLARNING TURLICHA TALQIN QILINISHI

Insoniyat tabiatan riskdan qochishga intiladi. Agar biz riskni nazorat qila olmasak, odatda, undan qochishga harakat qilamiz chunki, har qanday ishonchsizlik o‘ziga xos tarzda ma’lum darajadagi yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Biz hayotimizda riskning mavjudligini tan ola turib, har bir harakatimizda riskning minimum darajaga tushirishga harakat qilamiz. Shu bilan birga, ko‘proq turdagি riskga duch kelganimizda eng kam zarar qilishga yoki qandaydir foya (daromad) olishimiz mumkin bo‘lsa, riskning bo‘lishiga biroz bo‘lsada rozi bo‘lamiz.

Bank risklari to‘g‘risida iqtisodchi olimlarning fikrlari xilma-xil bo‘lib, ular bu tushunchaning **mohiyatini** turlicha talqin qilganlar. Buning sababi

shundaki, risk keng ma'noli, faoliyatning, jarayonlarning turli bosqichlarida uchrab turuvchi ko'p qirrali tushunchadir.

Risklar haqida so'z ketganda, birinchi navbatda, ushbu so'zning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblayman. «Risk» so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, «suv ostidagi qoyatosh» ma'nosini anglatadi. Qadimda dengizchilar suv osti toshlarining chiqib qolish xatarini risk deb atagan. Shuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli mavjudligini ifoda qiladi.

Ba'zi xorijiy iqtisodchi olimlarning shu sohadagi ishlari bilan tanishib, ular tomonidan ham bank risklarining mohiyatiga turli xil ta'rif va tasnif berilganligini ko'rish mumkin.

Taniqli lug'atchi **S.N.Ojegovning** rus tili lug'atida «risk» bu «muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid» degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskga «xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli», deb qaralgan. **V.T.Sevruk** «risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'lidan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir» degan ta'rif beradi⁵.

Professor **V.M.Usoskin**⁶ «Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'limgan voqealar bilan bog'liq bo'ladi» deb izohlaydi. Ba'zi mualliflar tomonidan risk bu noaniqlik deb ta'riflanadi.

E.S.Stoyanova⁷ «Risk - bu rejalahtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir» deb ta'rif keltirgan.

P.G.Graboviy, S.N.Petrova, S.I.Poltalsevlarning «Riski v sovremennom biznese»⁸ kitobida «Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha harajatlar qilish xavfidir», deb ta'rif bergenlar.

⁵ «Банк рисклари ва кредитлаш» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил, 59-бет.

⁶ Усоскин В.М. «Современный коммерческий банк» М. ИПЦ 1994 г., 26-с.

⁷ Стоянова Е.С. «Финансовый менеджмент», М: Перспектива, 1993 г, 121-с.

⁸ П.Г.Грабовий, С.Н.Петрова, С.И.Полтальцев «Риски в современном бизнесе». М. «Аланс», 1994 г., 27-с.

Iqtisodchi olim **O.I.Lavrushin** «Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o‘lchovi bo‘lib, u yo‘qotishlarga olib keladi» degan fikrni ilgari suradi.

Rossiyalik yana bir iqtisodchi **G.Panova** «Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo‘qotish xavfi yoki imkoniyatidir» deb ta’rif beradi. U o‘z ta’rifi orqali ikki asosiy yo‘nalishni asoslab bermoqchi bo‘ladi. Bular, birinchidan, Professor O.Lavrushinning risk to‘g‘risidagi fikri bilan hamohang bo‘lib, u ham risk bu yo‘qotishlarni ifodalaydi deb o‘qtirsa, ikkinchidan risk bu kutilmagan hodisa ekanligini aytadi.

Chet ellik olimlar risklarni ta’riflashdan ko‘ra ularning alohida olingen turlarini ko‘rishni afzal hisoblaydilar. Masalan, **K.D.Valravenning** fikricha G‘arb mamlakatlari banklari ko‘proq likvidlik riski, kredit, portfel, sanoat, mamlakat, valyuta, foiz riskiga duchor bo‘ladilar. «Bankovskiy menejment» kitobi muallifi **P.S.Rouz** bank risklarga kengroq tushuncha berib, u bank riski oltita asosiy turdagи risk - kredit riski, foyda ololmaslik riski, likvidlik riski, bozor riski, foiz riski, to‘lay olmaslik riskidan tashkil topgan bo‘lib, bu risklar bank faoliyatida juda muhim, xal qiluvchi risklar hisoblanadi, deydi. Bank uchun ikkinchi darajada bo‘lgan risklarga P.Rouz siyosiy riskni, suiste’mol riskini, valyuta riskini kiritadi.

Tadbirkorlik riskining **klassik** va **neoklassik**⁹ ko‘rinishi ham ishlab chiqilgan bo‘lib, Klassik nazariyada tadbirkorlik riski qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarning matematik kutilishi bilan tenglashtiriladi deyilgan. Ushbu qarashlar klassik nazariya namoyandalari **Dj.Mill** va **I.U.Seniorlar** tomonidan bildirilgan.

XX-asrning 30-yillarida iqtisodchilar **A.Marshall** va **A.Pigu** tadbirkorlik riskining neoklassik nazariyasini yaratdilar. U quyidagilardan iborat: noaniqlilik sharoitida ishlayotgan, daromadi o‘zgarib turadigan tadbirkor, bitim tuzayotganda ikkita kriteriyaga asoslanishi lozim:

- kutilayotgan foyda hajmiga;

⁹ «Риски в экономике» Л.Н.Тэпман. Профессор В.А.Швандар, Москва-2002йил, 10-бет.

- uning ikkilanishlari hajmiga.

Bu shundan dalolat beradiki, bir xil daromad beradigan ikkita kapital qo‘yilmalari orasidan tadbirkor qaysi biriga ko‘proq ikkilanayotgan bo‘lsa, o‘sha kapital qo‘yilmani tanlamaslikka harakat qiladi.

A.Smit tadbirkorlik faoliyatining ba’zi bir xususiyatlari haqida gapirib o‘tganda, quyidagilarni ta’kidlagan:¹⁰ «Foydaning odatdagি ko‘rinishi doimo ozmi-ko‘pmi risk bilan o‘sib boradi. Biroq unga proporsional tarzda o‘smaydi. Insonlar tavakkal qilib ishlashlari riskga olib keladi».

Yuqorida keltirilgan ta’riflarning barchasida risk qandaydir xavf-xatar va zararlar ko‘rishdan iborat ekanligi to‘g‘risida fikrlar aytib o’tilgan.

Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo‘lishi mumkin. Biroq ularni risk mazmunida ifoda qilib bo’lmaydi.

Xavf-xatar deganda biz oldindan biron salbiy natija beruvchi yoki biron-bir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini tushunamiz va biz qo‘rquv, hadiksirash bilan shu hodisaga yondashamiz.

Yuqoridagilarga o‘xshagan ta’riflarni mahalliy iqtisodchilarimizning ishlarida ham uchratish mumkin. Undan tashqari oxirgi yillarda chop qilinayotgan ko‘pgina mualliflarning ishlarida “risk” so‘zini o‘zbekchaga ag‘darishga harakat qilinmoda. Natijada hozirgi kunda turli mualliflar tomonidan “risk” termini turlicha nom bilan talqin qilinmoqda.

O‘zbekistonda birinchilar qatorida risk muammosi bilan shug‘ullangan professor Sh.Z. Abdullayeva ushbu ta’riflar riskning tub mohiyatini ochib bermasligi va risk iqtisodiy kategoriya sifatida biror hodisaning, vogelikning amalga oshishi yoki oshmasligini ifoda etadi degan ta’rifni beradi. Professor Sh.Z. Abdullayeva va boshqa iqisodchi olimlar tomonidan riskka berilgan ta’riflarni tahlil etgan holda, risk va uning sinonimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi jadvalda ifoda etishimiz mumkin.

1-jadval

¹⁰ «Система страхования банковских рисков» Ю.А.Соколов, Н.А.Амосова, Москва-2003 г., 6-с.

Risk va uning sinonimlari o‘rtasidagi bog‘liqlik¹¹

№	Sinonimlar	Yaqinshlashish foizi
1.	Xavf, tahdid, xatar	25
2.	Ehtimollik	20
3.	Imkoniyat	15
4.	Mavhumlik, noaniqlik	10
5.	Og‘ish, chetga chiqish	6
6.	Harakat tarzi	5
7.	Faoliyatning vaziyatli tavsifi	2
8.	Imkon	2
9.	O‘zgarish	2
10.	Istiqlol	2
11.	Vaziyat	2
12.	Faoliyat	1
13.	Vaziyatlar birligi	1
14.	Individual va guruhiy ustunlik	1
15.	Harakat	1
16.	Umid	5
Jami		100

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta’kidlamoqchimanki, risk va xavfxatar bir xil tushuncha emas. Bu xulosamizning asosi bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, xavf-xatar riskga nisbatan askariyat hollarda birlamchi tushunchadir. (albatta, ba’zi hollarda birlamchi xavf-xatardan keyin yana ikkilamchi xavf-xatar ham yuzaga kelishi mumkin);

ikkinchidan, xavf-xatar darajasi past bo‘lgan hollarda risk qilinadi;

¹¹ Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

uchinchidan, xavf-xatar va risk bir-biriga teskari proporsional bo‘lgan jarayondir;

to‘rtinchidan, xavf-xatar darajasi (ko‘lami) yuqori bo‘lgan holda risk «0» bo‘ladi.

Biroq, «Bank risklari va kreditlash»¹² kitobi muallifi **Sh.Z.Abdullayeva** G.Panovaning yuqorida riskga berib o‘tgan ta’rifiga qo‘silmagan va quyidagicha ta’kidlagan: «Bank amaliyotida risk har doim ham kutilmagan xodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog‘liq. Bank shu faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bila turib, shu operatsiyani amalgalashishga qaror qiladi yoki amalgalashishga qaror qiladi. Shu sababli biz G.Panovaning bank riskiga bergen ta’rifiga to‘la qo‘sila olmaymiz». Shu o‘rinda aytib o’tish kerakki, olimaning bu fikrlarini men ham ma’qullayman.

Bank riskining mohiyati ko‘pgina mahalliy iqtisodchilar tomonidan masalan, «Kredit. 100 savolga – 100 javob» kitobi muallifi Yo.Abdullayev va T.Boboqulovlar tomonidan bank tavakkalchiligi, «kredit xavf-xatari»¹³, «Iqtisodiyot nazariyasi» kitobi muallifi A.O‘lmasov va M.Sharifxo‘jayevlar tomonidan esa «bank xatari»¹⁴ deb yuritiladi. Bank foyda ko‘rishi uchun esa bu xatarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi lozim.

«Bank ishi» kitobi muallifi **I.R.Toymuhammedov** esa bank riskiga quyidagicha ta’rif bergen: «Risk - bu ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasida bo‘lgan ishonchsizlik, ba’zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo‘qotishlardan iborat jarayondir. Risklar bank faoliyatida o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalaridan olgan zarariga, yo‘qotgan daromadiga teng bo‘ladi»¹⁵.

¹² «Банк рисклари ва кредитлаш» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил, 88-бет.

¹³ «Кредит. 100 саволга – 100жавоб», Ё.Абдуллаев, Т.Бобоулов. Тошкент-1999йил, 80-бет.

¹⁴ «Иктисодийт назарияси» А.Улмасов, М.Шарифхужаев. Тошкент-1995йил, 387-бет.

¹⁵ «Банк иши» И.Р.Тоймухамедов, 2005 йил, 105-бет.

Albatta, riskga borish esa, noaniqlikka majbur etadi. Noaniqlik esa ba’zi hollarda chuqur hisob-kitob qilinmagan bo‘lsa, salbiy natijaga olib kelishi mumkin. Risk bilan noaniqlik tushunchasi mohiyati jihatidan bir - biridan tubdan farq qiladi. Iqtisodiy jarayonlarda risk bilan bog‘liq ikki xil holat yuzaga kelishi mumkin. Birinchisi - bu noaniqlik, hisob-kitoblar chuqur qilinmagan hollarda bank o‘z resurslarining bir qismini yo‘qotishi, daromadlarini to‘la to‘kis ola olmasligi yoki qo‘sishimcha harajatlarning vujudga kelishi xavfi bo‘lsa, ikkinchisi esa buning teskarisi, ya’ni ma’lum tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida ko‘zlangan miqdorda foyda ko‘rish imkoniyatidir.

Bundan kelib chiqadiki, risk ma’lum miqdorda noaniqlikn ni o‘z ichiga olsada, uning natijasi aniq bo‘lib, undan aksariyat hollarda ijobiy natija kutiladi.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. “Bank risklari” fani predmeti nima?
2. “Bank risklari” fanining obekti va subekti?
3. “Risk” so’zi ispanchada qanday ma’noni anglatadi?
4. O’zbekistonlik olma Sh. Abdullaeya “risk”ka qanday ta’rif began?

II-MAVZU: UMUMIQTISODIY RISKLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI, YUZAGA KELISH SABABLARI VA TURLARI

2.1. UMUMIQTISODIY RISKLAR VA ULARNING TASNIFLANISHI

Riskning barcha aspektlarini ko‘p fanlar, nazariy va amaliy nuqtai nazaridan o‘rganadilar. Biz riskni iqtisodiy jihatini o‘rganamiz, ya’ni tadbirkorlik, bank, sug‘urta, firmalar, kompaniyalar bilan bog‘liq risklarni fan elementi sifatida urganamiz.

Iqtisodiy risk deganda, umumiylar yirik tizim va uning tarkibiy rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YAIMning o‘sish sur’atini jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o‘rnatish maqsadi qo‘yilgan bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg‘unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi.

Me’yoriy hujjatlarda **iqtisodiy risklarga** – “mamlakat yoki bankning iqtisodiy ahvolidagi salbiy o‘zgarishlar oqibatida yuzaga keladigan risklar. Eng ko‘p tarqalgan iqtisodiy risk turiga balanslashmagan likvidlilik riski kiradi, ya’ni majburiyatlar bo‘yicha to’lovlarini o‘z vaqtida bajara olmaslik” deb ta’rif berilgan¹⁶.

Risklar konkret holatda zarar yoki yo‘qotishlarga, mo‘ljallangan daromadni olmasligiga yoki qo‘shimcha harajatlar bo‘lishiga ifodalanadi. Zarar yoki foyda orqali risk o‘zining natijasini ko’rsatadi.

Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiylar iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi.

Tuzilish belgilariga ko‘ra iqtisodiy risklar mulkiy, tarmoq va moliyaviy risklarga bo‘linadi.

¹⁶O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom

Mulkiy risklar o‘g‘rilik, terrorchilik harakati, ekologik tanglik va boshqa sabablarga ko‘ra mulkni yo‘qotish ehtimoli bilan bog‘liq.

Tarmoq risklari iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahvolning o‘zgaruvchanligi tufayli yuzaga keladi.

Moliyaviy risklar pulning harid quvvati o‘zgarishi natijasida pul mablarlarini yo‘qotish ehtimoli bilan bog‘liq. Unga pulning qadrsizlanishi va deflyatsiya risklari kiradi.

Quyilgan maqsadning funksionalligi, vazifalarning umumiyligi, operatsiyalar o‘xshashligining darajasi va boshqa omillarga qarab iqtisodiy risklarni iqtisodiyotning makro, mezo va mikro darajada tasniflanishi ko‘rsatilgan.

2-jadval: Iqtisodiy risklar tasnifi.¹⁷

Iqtisodiyotni boshqarish darajasi	Boshqarish sohasi	Risklar nomi
I. Makrodjarajada	Iqtisodiyotni umumiy tartibga solish, ichki raqobat qonunlari va boshqalar. Siyosiy barqarorlik, davlatning yetakchi roli va boshqalar. Davlatning byudjet yoki moliyaviy siyosati.	Iqtisodiy Ijtimoiy-siyosiy Fiskal-monetary
II. Mezodarajada	Mulkchiliikning korporativ shakllari, to‘la xo‘jalik mustaqilligi, firmalarning tarmoqqa kirish va undan chiqish huquqi va boshqalar	Sanoat Agrar Xizmat ko‘rsatish sohasi
III. Mikrodarajada	Namoyon bo‘lish bosqichi bo‘yicha -	I. Tadbirkorlik

¹⁷ «Банк risklari va kreditlash» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил, 75-bet.

	<p>sub'ektlarning xo‘jalik faoliyati riski va loyiha riski.</p> <p>Funksional maqsadi - moliyaviy va tijorat operatsiyalarini boshqarish.</p> <p>Funksional maqsadi - anik loyiha turlariga bog‘lash.</p>	II. Investitsiya
		<p>Tadbirkorlik riski uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Moliyaviy. 2.Tijorat.
	Xo‘jalik sub'ektining faoliyati	<p>Moliyaviy bank riski uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.1.Valyuta. 1.2.Kredit. 1.3.Foiz. 1.4.Bozor (portfel). 1.5.Marketing. 1.6.Ishbilarmonlik.
		<p>Valyuta riski Kredit riski.</p>

Mamlakat miqyosida makrodarajada iqtisodiy risklarni aniqlash juda muhim bo‘lib, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatish, chetdan investitsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy qo‘yilmalar jalb qilishda katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyotning mezo va mikrodarajalarida risklarning turlari va ta’sirchanlik darajasi har xil bo‘lishi mumkin. Bu o‘z navbatida risklarga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Xo‘jalik sub'ektlari faoliyatida mavjud

risklarga ta'sir etuvchi barcha omillarni shartli ravishda ikki guruhga: ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga korxona yoki firmaga bevosita bog'liq bo'lмаган omillar (inflyatsiya, raqobat, iqtisodiy inqirozlar, ob-havo sharoitlari) kiradi.

Ikkinci guruhga muayyan korxona yoki firmaning faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan omillar (ishlab chiqarish – texnikaviy imkoniyati, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, texnika xavfsizligi darajasi va h.k.), shuningdek firmaning xo'jalik-moliyaviy faoliyatida juda muhim hisoblangan kontragent firmalar (mol yetkazib beruvchilar, subpudratchilar, loyihalash tiruvchilar) va raqobatchi firmalarni tavsiflovchi omillar kiradi.

Iqtisodiyotning mezodarajadagi risklarining salmoqli turi - sanoat riski ma'lum tarmoqning ichida ham, boshqa tarmoqlarga nisbatan ham alohida olingan tarmoq iqtisodiy ahvolning o'zgarishi, uning rivojlanishi va amal qilishining o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Xo'jalik tarmog'iga nisbatan soliq me'yorlaridagi, tarmoq yo'riqnomalari, kredit olish shartlari va boshqalardagi o'zgarishlar risk manbai bo'lib hisoblanadi.

Sanoat riskini baholashda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- alohida olingan tarmoqning bir-biriga bog'liq tarmoqlar bilan o'zaro aloqada ma'lum vaqt mobaynidagi faoliyati (tarmoqning hayotiy davri);
- bir-biriga bog'liq tarmoqlar faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan qanchali barqaror bo'lishi;
- korxona yoki firmalarning o'z kapital qo'yilmalarini boshqa tarmoqlarga o'tkazish imkoniyati;
- firmalarning bajarayotgan ish hajmi, ishlaydiganlar soni, tarmoq ichidagi ularning xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari bo'yicha qay darajada tasnif qilinganligi va h.k.

Ijtimoiy-siyosiy risklarga avvalo huquqiy omillar kiradi. Davlat savdo va valyuta orqali iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshiradi, valyuta cheklowlari

va valyuta intervensiyalari, kvotalash, litsenziya berish, bojxona bojlari, subsidiyalar va boshqalardan foydalanadi. Bunda barcha vositalar o‘zaro uzviy bog‘liq. Ijtimoiy siyosatdagi o‘zgarishlar ish bilan bandlik, daromadlar darajasi, milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmi, import va eksport miqdorlariga ta’sir qiladi. Risklar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning barcha vositalariga ta’sir darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish muhim. Chunki har bir harakat risk bilan bog‘liq bo‘ladi va demak, risklar bir-biridan alohida amal qilolmaydilar.

Fiskal-monetary risk ham ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida bo‘lib, u davlatning fiskal-monetary siyosatini o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Davlatning fiskal va monetar siyosati iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlashtirishga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Fiskal-monetary risklar davlatning daromadlar va harajatlar sohasidagi antitsiklik chora-tadbirlar yordamida tarmoq va firmalarning ish bilan faollik sohasini aniqlashni talab qiladi. Fiskal risklarning tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy-byudjet siyosati hisoblanadi.

2.2. UMUMIQTISODIY RISKLARNING PAYDO BO’LISH SABABLARI VA OMILLARI

Har bir mamlakatning rivojlanish mavqeい bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy risklar, halqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo‘lgan risklar bilan bevosita bog‘liq. Bu risklarning paydo bo‘lishi va ularning darajasi esa import yoki eksport qiluvchi davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq. Har bir mamlakatda iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi iqtisodiy risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo‘shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dorlzarbdir. Bank amaliyotida uning raxbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto‘g‘ri baho berish natijasida ko‘pgina xatolarga yo‘l

qo‘yishlari mumkin. Shuning uchun biror bir davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o‘rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog‘liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Jahon amaliyotida shu maqsadda tavsiya etiladigan yo‘llardan biri bu mamlakat iqtisodiy risklari hajmini tahlil qiluvchi BERI indeksidan foydalilanadi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi.

Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek amaliy ma’lumotlar va nisbatlarni o‘rganishga asoslangan miqdor ko‘rsatkichlariga tayanishi kerak.

Tahlilning ikki turi (sifat va miqdor)ning uyg‘unlashuvi aniq va ravon bo‘lishi barcha jadvallar va taqqoslangan ma’lumotlar tahlilni yengil qilish va uning samaradorligini oshirish uchun qisqartmalarni ohib berilishini o‘z ichiga olishi kerak.

Shu asosiy tamoyillar mamlakat riskini aniqlashda tahlil qilinayotgan statistik va analitik yo‘nalishlarning ikki pog‘onali tizimini tashkil qilishga olib keladi. Birinchi pog‘onada o‘lkadagi holat to‘g‘risidagi hisobot tashkil qilinadi (qisqacha iqtisodiy ahvol ta’rifi). Eng avvalo tahlilning muhim bo‘limi keltiriladi, ya’ni mamlakat iqtisodiy riskining darjasini haqida xulosa, ya’ni mamlakatning iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy ma’lumotlar va asosiy xulosalar tahlil qilinadi.

Tahlilning ikkinchi pog‘onasida aniq iqtisodiy-siyosiy vaziyat tahlil qilinadi, marketing taddiqining natijalari ko‘rib chiqiladi va omillar riski chizmasi bo‘yicha davlatning iqtisodiy riski darjasini aniqlanadi.

Makrodarajada mamlakat iqtisodiy riskini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar tahlil qilinishi mumkin:

- iqtisodiyotning samaradorligi (bunda YAMMning o‘rtacha yillik o‘sish hisoblanadi);
- siyosiy risk darjasи;

- jahon banki ma'lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo'yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib tulash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar;
- bank kreditlarini olish imkoniyati;
- qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;
- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;
- fors-mojor holatlarining yuzaga kelishi;
- mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;
- tashqi qarzlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, iqtisodiyotning tabaqaqalik darajasidagi risklarning asosiy qismi banklar faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu risklar bankning turi va xususiyatiga, uning faoliyati, harakteri, hamda uning mijozlari tarkibiga bog'liq bo'ladi. Ixtisoslashgan, tarmoqlashgan va universal tijorat banklarining har birida riskning hamma turlari mavjud bo'ladi, biroq ularning paydo bo'lish ehtimoli va xususiyati bank muassasasining turiga bog'likdir. Halqaro bank amaliyotida universal tijorat banklarining faoliyati turlicha bo'lib, ular iqtisodiyot bilan bog'liq hamma xizmat turlari bilan shug'ullanadilar. Ixtisoslashtirilgan tijorat banklari asosan o'z faoliyatlarini aniq bir sohaga xizmat ko'rsatishga, ya'ni aniq bir ob'ektga yo'naltirilgan faoliyatga qaratgan bo'ladi. Shu jihatdan iqtisodiyotning shu sohasida mavjud risklar ixtisoslashgan banklar faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, faoliyati bo'yicha innovatsion, investitsiyaviy, ssuda, jamg'arma, ipoteka, depozit, kliring, ma'lum bir mijozlar turiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, tarmoq bo'yicha yoki funksional belgisi bo'yicha faoliyat olib boruvchi banklar keng qamrovli faoliyat ko'rsatib turli xil iqtisodiy risklarga duchor bo'lishlari mumkin.

Undan tashqari halqaro bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashtirilgan tijorat banklarining faoliyati iqtisodiyotning rivojlanishiga, bozorga yo'naltirilgan bo'lib, ular hududiy, hududlararo va transmilliy bo'lishi

va hududlar, mintaqalarda yuzaga keluvchi ob'ektiv va sub'ektiv risklar ular faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Ichki risklarning har xil turlari va darajalari bilan tijorat banklarining to‘qnashishi asosan ular faoliyatining xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarining sub’ektlari hisoblangan korxonalar, xorijiy investorlar, davlat, yakka xujaliklar va ular bilan bog‘liq ashyoviy (tovar) va monetar (pul) oqimi tebratadi. Xujalik oborotining g‘ildiragi bu – pul mablag‘lari bo‘lib, ular banklar va boshqa moliyaviy muassasalar orqali oqib o‘tadi. Shuning uchun iqtisodiyotning qaysidir bir sohasi yoki kanalida mavjud risklar banklar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Iqtisodiyotda nafaqat pul oqimida, balki barcha jarayonlarda riskning yuzaga kelishi uni yuzaga keltiruvchi manbalarga bog‘liq bo‘ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, risk bu faoliyat ko‘rsatuvchi sub’ektlar amaliyotida yuzaga kelib iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda aniq va yechimi bo‘lmagan holatning son va sifat jihatdan bog‘liq bo‘lgan vokeliqni anglatadi.

Risklar va noaniqliklarni sabablari quyidaglardan biri bo’lishi mumkin:

- 1) Resurslarning yetishmovchiligi;
- 2) Alovida bir hodisalarini kelishini oldindan bilishini nomumkinligi;
- 3) Biznes bo‘yicha raqobatchilarni maqsadli yo‘naltirilgan qarshi harakatlari;
- 4) Bir necha qarama – qarshi maqsadlarga bir vaqt ni o‘ziga yetishish zarurligi;
- 5) Axborotlarni yo‘qligi, haqiqiy emasligi va qarama – qarshligi;
- 6) Raxbarni psixologik holati (riskga moyilligi, holatlarga oqilona baho berishi va hokazo);
- 7) Kadrlar va ularning tayyor emasligi;

Riskli xodisani(holatni) shunday tavsiflasa bo‘ladi: haqiqatli aniq holatdan noaniq holatga o‘tishlik.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

III-MAVZU: BANK RISKLARINING MAZMUNI VA UNING TASNIFLANISHI. BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI

3.1. BANK RISKLARINING MAZMUN VA MOHIYATI

Bugungi kunda risklarni oldini olish va kamaytirish g‘oyasi bank nazariyasida ham, amaliyotida ham talab qilinadigan tushunchaga aylanib bormoqda.

Bank risklari tadqiqot ob’ekti sifatida nafaqat zamonaviy jamiyatga xos, balki XYIII va XIX asrlardayoq bank faoliyatini tartibga solishda tadqiqotchilar uning ahamiyatini qayd etganlar. Risk deyilganda odatda muvaffaqiyatsizlik, xavf-xatar tushuniladi; muvaffaqiyat uchun harakatlar esa ijobiy natijaga erishish imkonini beradi.

Bank faoliyati bilan bog‘liq risklar va ularni oqilona boshqarish orqali daromadlilik muammolarini tadqiq qilish, risklarni kamaytirish yo‘llarini aniqlash, ularni hal qilish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining jahon andozasiga mos keluvchi yuqori likvidlikka ega bo‘lgan bank sifatida faoliyat ko‘rsatishga imkon yaratib berishini asoslash va boshqa shu kabi muammolar iqtisodiy fanlar sohasida o‘z yechimini kutayotgan masalalar bo‘lib ularning chuqur tadqiq qilinishi banklar faoliyatini yanada takomillashtirishga olib kelishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori riskka asoslangan holda faoliyat ko‘rsatuvchi sub’ekt sifatida tijorat banklari faoliyatining boshqa sub’ektlar faoliyatidan farq qiladigan quyidagi asosiy xususiyatlarni ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, faqat banklarga o‘zлари uchun xos bo‘lgan qarz majburiyatları (depozit, omonat sertifikatlari va boshqalar) chiqaradilar va shu yo‘l bilan yig‘ilgan mablag‘larni boshqa sub’ektlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘oz va boshqa qarz majburiyatlarga joylashtiradilar. Bankning bu

xususiyati moliya bozorida o‘z qarz majburiyatisiz faoliyat ko‘rsatuvchi moliyaviy broker va dilerlardan farq qiladi.

Ikkinchidan, banklar jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini jalg qilish orqali investitsiya fondlari va boshqa moliya institatlari faoliyatidan farqli qat’iy belgilangan qarz majburiyatlarini oladilar. Investitsiya fondlari esa o‘z aktivlari va passivlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarni o‘z aktsiyadorlari zimmasiga yuklaydilar.

Masalan, bank faoliyatida risk bank foydasining ko‘payishi yoki kamayishida, bank resurs bazasining ko‘payishi yoki kamayishida, berilgan kreditlar bo‘yicha to‘lanmagan qarzlarning ko‘payishi yoki kamayishida, foizlarning to‘lanmasligi va boshqalarda o‘z aksini topishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek, tijorat banklari faoliyatidan ko‘zlangan natija ham birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi maqsad – bu risk va foydalilik o‘rtasidagi optimal darajaga erishishdir.

O‘zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq risklarni boshqa xo‘jalik sub’ektlariga nisbatan ko‘proq o‘rganishlarini talab etadi. Chunki tijorat banklari o‘z faoliyatlari bilan bir tomondan, o‘z aktsiyadorlari oldida javobgar bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, o‘z mablag‘larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Mustaqil O‘zbekiston bank tizimi haqida SH.Z.Abdullaeva uzining kitobida shunday deydi – “rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari shu jumladan, respublikamiz banklari faoliyati yanada ko‘proq riskka ega bo‘lmoqda. **Buning asosiy sababi** rejali iqtisodiyot davridagi bank faoliyatini bugungi davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etilmaganligi va yangi turdagি bank operatsiyalarini amalga oshirishda yetarli

tajribaning yo‘qligi banklar faoliyatidagi risk darajasining yanada oshishiga olib kelmoqda.”¹⁸

Shu tufayli bank riski, uning mohiyati, turlari, kelib chiqishi sabablarini chuqur o‘rganish amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bank riski iqtisodiy risklarning bir qismini tashkil qilib bank bilan jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga tayanadi.

Bank tavakkalchiliga 2229-sonli nizomda shunday ta’rif berilgan - bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy, texnologik ichki va (yoki) tashqi omillarga bog‘liq bo‘lgan holatlar natijasida bank faoliyatiga xos bo‘lgan moliyaviy zararlar ko‘rish va (yoki) bank likvidligi (bank o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarish qobiliyati)ni to‘liq yoki qisman yo‘qotish xavfining mavjudligi.

Mablag‘larning kreditlash tamoyiliga rioya qilingan holda mijozlarga berilishi, banklar ishining ma’lum tamoyillar asosida tashkil qilinishi ular faoliyatining turlari risk bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu xol bank riskining **ob’ektivligini** ifodalasa, bank faoliyatiga boshqa omillarning ta’siri, ularning natijasini hisoblash imkoniyatining mavjudligi va bir turdagи riskning turli sharoitda bo‘lishi, uni turlicha qabul qilish va hisoblay olish uning yuzaga kelishining **sub’ektiv** sabablari hisoblanadi.

Bank faoliyatida riskning yuzaga kelishi ba’zi bir salmog‘i, ta’siri, shakli jihatdan turlicha bo‘lgan noaniqliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki bank faoliyati tashqi muhitga bog‘liq bo‘lib, unga ob’ektiv iqtisodiy va siyosiy jarayonlar va ulardagi bo‘ladigan o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

-bozorni yaxshi o‘rganmaslik;

-resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma’lumotlarning yetarli emasligi;

¹⁸ «Банк рисклари ва кредитлаш» Ш.З.Абдуллаева, «Молия» нашриёти 2002 йил, 85-bet.

-kreditlanadigan loyiha, ob'ekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;

-tarmoqlar faoliyatini xususiyatining inobatga olinmasligi;

-sub'ektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag'lardan foydalanish bo'yicha bilimi va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar hisoblanadi. Shu sababli bank risklarining iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rifi uning ob'ektiv va sub'ektiv sabab va oqibatlarini o'zida ifoda qilmog'i lozim.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, bank riski bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad ololmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdir, degan ta'rif kelib chiqadi. Bunda birinchidan, banklarning turli operatsiyalari, xox u resurslar jalb qilish bilan bog'liq operatsiya bo'lsin, xox u mablag'larni investitsiya qilish yoki kredit berish, yuqori daromad olish maqsadida xavfli valyuta operatsiyalarini o'tkazish bo'lsin – bankning barcha operatsiyalari uning ma'lum bir yo'qotishlar bilan bog'liq sharoitda ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ikkinchidan, bank doimo har bir operatsiyasi unga ijobiy natija keltirishga umid qilgan holda bir turdag'i operatsiyani amalga oshiradi.

Bank faoliyatining risk bilan bog'liq bo'lishi harajatlar, zararlar va yo'qotishlar kabi kategoriyalarning doimiy uchrab turishini va ular bank amaliyotining kunlik monitoringida bo'lishini taqozo qiladi. Banklarda harajatlar, zarar yoki yo'qotishlar - bular o'z-o'zidan risk hisoblanmaydi. Bu tushunchalarining har biri o'zining mohiyatiga ega.

Bankning depozitlar, jamg'armalar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz to'lash, boshqa moliya-kredit institutlaridan jalb qilingan mablag'lar uchun foizlar to'lash, bank hodimlari uchun ish haqi to'lash va boshqa operatsion harajatlari bilan bog'liq risklari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar aholi jamg'armalari bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalarini oshirishda, kredit

resurslarining yetarli emasligi, kredit resurslarini sotib olish qiymatining oshishi, bank hodimlarining ish haqi bilan bog‘liq harajatlarini oshirish kabilarda o‘z ifodasini topadi. Bank harajatlarining me’yordan oshishi, daromad ola olmasligi bankga zarar olib keladi.

Bankning zarar ko‘rishi bank faoliyatida uchraydigan risklarning oldini ololmaslik, undan qocha olmaslik natijasida yuzaga keladi. Bank faoliyatida risklar kelajakda amalga oshiriladigan operatsiyalarini oldindan obdan tahlil qilmaslik, holatni yaxshi o‘rganmaslik, mablag‘larni samarali joylashtirmaslik, bozor imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bermaslik, bank faoliyati uchun salbiy natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarni oldindan sezalmaslik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Zararlarning yuqori bo‘lishi banklarda yo‘qotishlar bo‘lishiga olib keladi. Yo‘qotishlar esa bank foydasini kamaytiruvchi omil hisoblanib, u bank faoliyatining risklilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Riskning hajmi bank amalga oshiradigan operatsiyalarining risklilik darajasiga, bankning risk sohasidagi strategiyasi sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Bank rahbariyatining foydani ko‘paytirishga intilishi ehtimoliy zararlarni imkon qadar kamaytirish bilan birga kechadi. Ushbu ikki maqsad bir-biriga muayyan darajada zid bo‘lib, bu bank ma’muriyati va uning omonatchilari manfaatlarining qarama-qarshiligi bilan bog‘liqdir. Bank ma’muriyati foydani ko‘paytirishga intiladi va qo‘srimcha foyda olish uchun risk qilishga tayyor turadi. Omonatchi uchun esa, mablag‘larining saqlanishi va bankga ishonch masalasi muhimroqdir. Daromadlilik va risk o‘rtasidagi maqbul nisbatni saqlab turish bankni boshqarishning eng asosiy va murakkab muammolaridan biridir.

3.2. BANK RISKLARINING TURLARI VA ULARNI TASNIFLASH

«Bankovskiy menedjment» darsligi muallifi P.S. Rouz¹⁹ risklarga kengroq tushuncha berib, u bank risklarini quyidagi oltita asosiy turga ajratadi:

- kredit riski;
- foyda olmaslik riski;
- likvidlik riski;
- foiz riski;
- to‘lay olmaslik riski;
- bozor (raqobat, talab va taklif, inflatsiya va h.k.) riski.

Bank uchun ikkinchi darajada bo‘lgan risklar tarkibiga P.Rouz siyosiy, suyiste’mol va valyuta risklarini kiritadi.

Shunday qilib, bank faoliyati turli-tuman risklarga bog‘liq bo‘lib, ular «Bank tomonidan berilgan kredit o‘z vaqtida qaytib keladimi?», «Keyingi oyda depozitlar salmog‘i oshadimi?», «Bank aktsiyasining bahosi va bank foydasi oshadimi?», «Keyingi oyda (kvartalda) foiz stavkalari qanday bo‘ladi, ular bank foydasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?» kabi ehtimollik, tavakkalchilik bilan bog‘liq holda faoliyat olib boradilar. Shu holatlarning tahliliga asoslangan holda bank mablag‘larni investitsiya qiladi, ijobiy natijaga erishishni maqsad qilib qo‘yadi.

Bank faoliyatini kengaytirilgan doirasi (sferasi) va bank mahsulotlari hamda xizmatlarining turli xilligi sharoitida ularni klassifikatsiyalash zarur. Ma’lum kriteriya (me’zon)larga bog‘liq ravishda uni quyidagi tarzda ifodalash mumkin. (3-jadvalga qarang)

3-jadval

Bank risklarining klassifikatsiyasi

¹⁹Роуз П. С. Банковский менеджмент. – М.: Дело ЛТД. 1995, стр.142

Klassifikatsiya me'zoni	Bank risklarining turlari
Risk darajasi	Riskka nisbatan makrodarajadagi risklar
Bank mahsulotlari, xizmatlari va operatsiyalarining harakteri	Balanslashtirilgan operatsiyalar bo'yicha risk. Kredit, hisob-kitob, valyuta, operatsion risk va boshqalar.
Bankni barqaror rivojlantirishni ta'minlash darajasi	<p>1. Balanslashtirilmagan likvidlik riski.</p> <p>2. Foiz riski.</p> <p>3. Daromadlarni yo'qotish riski.</p> <p>4. Kapital bazasi riski.</p> <p>5. Menejment – riski.</p>
Riskni tashkil etuvchi faktorlar	<p>Tashqi risklar(siyosiy, iqtisodiy, demografik, sotsial(ijtimoiy), geografik va boshqalar)</p> <p>Ichki risklar(bank aktivlari va passivlari bilan bog'liq bo'lган asosiy va yordamchi faoliyatlar riskini boshqarish sifati va moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklar)</p>
Risk harakatining doira (sfera)si va ko'lami(masshtabi)	<p>Davlatdan keladigan risklar bankni ma'lum tindagi faoliyati bilan bog'liq risk.</p> <p>Moliyaviy javobgarlik markaz faoliyatları bilan bog'liq risklar.</p> <p>Bank operatsiyalaridan keladigan risklar jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'lum turdagи operatsiyalar guruhidan keladigan (risk yig'indisi); -ma'lum mijoz bilan alohida operatsiyalar riski (individual risk).
Riskni bankkabog'liqlik	Bank faoliyatiga bog'liq risk.

darajasi	Bank faoliyatiga bog‘liq bo‘limgan risk
Bank turi	Maxsuslashtirilgan bank riski tarmoq (soha) banki riski
Risk o‘lchami (miqdori)	Past risklar Tonsiz risklar To‘liq risklar
Mijozlar bazasi tarkibi	Yirik, o‘rtal va mayda mijozlardan keladigan risklar mijozlarni tarmoq (soha) strukturasi (tarkibi, tuzilmasi) dan keladigan risklar
Klassifikatsiyalar kriteriyasi	Bank risklarining turlari
Operatsiyalar hisobining harakteri	Balans operatsiyalari bo‘yicha risklar. Balansdan tashqari operatsiyalar bo‘yicha risklar

Bank risklarini turlanish jihatlariga qarab ham bir necha turlarga ajratish mumkin:

4-jadval. Bank risklari va ularning turlari

Turlanish belgilari	Risk turlari	
	2	3
1. Vujudga kelish sohasi bo‘yicha	1. Ichki risklar: <ul style="list-style-type: none"> • tijorat banklari turi bo‘yicha • mijozlar tarkibi bo‘yicha • bank operatsiyalari turi bo‘yicha • balansdan tashqari operatsiyalar bo‘yicha • moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha 	

		<p>2. Tashqi risklar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • siyosiy • ijtimoiy • tabiiy
2.	Qamrab olish darajasi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • makro darajadagi risklar • mego darajadagi risklar • mezo darajadagi risklar • mikro darajadagi risklar
3.	Ta'sir qilish vaqtি bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • retrospektiv risklar • joriy risklar • istiqbolli risklar
4.	Passiv operatsiyalar bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • diversifikatsiya riski • inflatsiya riski • jamg'armalar riski • depozitlar riski • foiz stavkalarining o'zgarishi riski
5.	Aktiv operatsiyalar bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> • kredit riski • hisob-kitob risklari • kassa riski • bozor riski • valyuta kliring riski • riski • lizing operatsiyalari riski • faktoring riski • investitsiya riski

		<ul style="list-style-type: none"> • bank portfeli riski • barter riski
6.	Balansdan tashqari operatsiyalar bo‘yicha	<ul style="list-style-type: none"> • bankrotlik riski • balanslashmagan likvidlik riski • foiz riski • foyda ololmaslik riski • suiiste’mol riski yoki iqtisodiy bilim va tashkilotchilik darajasi riski
7.	Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bo‘yicha	<ul style="list-style-type: none"> • operatsion va texnologik risklar • innovatsiya riski • bank xavfsizligi riski va boshqalar

Kelib chiqish sabablariga ko‘ra risklar ikkiga bo‘linadi:

- sof (ob’ektiv) risklar;
- sun’iy (sub’ektiv) risklar.

Sof risklar ko‘pincha ob’ektiv harakterga ega bo‘ladi va salbiy («-» yoki «0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarga tabiiy, ekologik, transport va tijorat riskining bir qismi kiradi.

Sun’iy risklar sub’ektiv harakterga ega bo‘lib, nafaqat salbiy, shu bilan birlgilikda ijobiy natijaga erishish ehtimolini bildiradi.

Bank faoliyati ikki asosiy risk turi – tizimli va tizimsiz risklarga duch kelishi mumkin.

Tizimli risklar umumiy iqtisodiy sharoitlar va makroiqtisodiy siyosat xossalardan kelib chiqadi. Bank tizimining turg'un rivojlanishi umuman iqtisodiyotning qanday holatda ekanligiga bog'liq. Shuning uchun makroiqtisodiy, avvalambor, monetar siyosat va bank risklarini samarali boshqarish tizimli risklarni kamaytirish va oldini olish imkonini beradi.

Tizimsiz yoki nomuntazam risklar bank tizimida umumiy ahvol barqaror saqlangan holda ayrim olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimolligiga bog'liq bo'ladi. Bu risklar, o'z navbatida, bank operatsiyalari va tadbirkorlik risklarini o'z ichiga oladi.

Bank operatsiyalari bilan bog'liq risklar ikki guruh – to'lovga noqobililik va likvidlik risklariga bo'linadi. Birinchi guruhga: kredit riski, foiz riski, bozor riski, valyuta riski, investitsiya risklari kiradi.

Boshqarish usuli va imkoniyatiga qarab risklar ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. **Ochiq risklarni** tartibga solib bo'lmaydi. **Yopiq risklarni** esa boshqarish mumkin. Ular diversifikatsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilan tartibga solinadi.

Banklarda ko'pincha mijoz tanlashda yanglishish natijasida **balanslashmagan likvidlik riski** yuzaga keladi. Bunday risklar odatda iqtisodi beqaror bo'lgan korxonalarni kreditlashga ustunlik berilgan hollarda yuzaga keladi.

Balanslashmagan likvidlik riski bank boshqaruvi va xodimlar malakasining sayozligi, bank faoliyati nazoratining sust tashkil qilinishi, risklarni tartibga solishda qo'llaniladigan usullarning takomillashmaganligi, ayrim olingan bank operatsiyalari yoki ularning guruhlari bo'yicha risklar koeffitsiyenti shkalalarini o'rnatishda yo'l quyilgan kamchiliklar natijasida yuzaga keladi.

Mamlakatimiz bank tizimida risk toifalarining darajalanishi bank aktivlari bo'yicha risk darajalarini hisobga olgan holda guruhanadi. hisoblash usuliga ko'ra risklar umumiy yoki yakka ko'rinishda hisoblanishi mumkin. **Umumiy**

risk bank riskining umumiy hajmi, uning umumiy daromadi va likvidligi me'yorlariga asoslanib baholanadi yoki taxmin qilinadi.

Ichki risklar bevosita bank faoliyati natijasida vujudga keladi. Bu risklar bank faoliyatiga sezilarli ta'sir qiluvchi risklar bo'lib, ular bankning o'z faoliyati, uning mijoz (qarzdor)lari yoki uning muayyan kontragentlari bilan bo'lgan faoliyatlariga bog'liq bo'ladi. Bank rahbarlari, ularning tadbirkorligi, marketing strategiyasining optimalligi, taktikaning to'g'ri ta'minlanganligi kabi omillar ichki risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillardir.

Tashqi risklar makromuhit darajasida yuzaga keladi. Ular bank faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tashqi risklarga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular tarkibida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy risklarni alohida ajratish lozim. Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqadi.

Tashqi risklar urushlar, milliy lashtirish, chetga to'lovlarni taqiqlash, qarzlarni konsolidatsiyalash, embargo joriy qilish, importga litsenziyani bekor qilish, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlarni o'ziga jamlaydi. Bu risklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bank daromadiga, operatsiyalar samaradorligiga va umuman, bank kelajagiga katta zarar yetkazadi.

Bank operatsiyalari xususiyatiga ko'ra risklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- balans operatsiyalari riski;
- balansdan tashqari operatsiyalar riski;
- moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog'liq risklar.

Balans operatsiyalari riski o'z navbatida:

- bankning aktiv operatsiyalari riski;
- bankning passiv operatsiyalari riski;
- aktiv va passivlarni boshqarish sifati bilan bog'liq risklarga bo'linadi.

Balansdan tashqari operatsiyalar risklari, avvalo, mijozlarning majburiyatlari yuzasidan berilgan kafolatlar bo'yicha to'lov majburiyati yuzaga

kelishi ehtimoli bilan bog‘liq.

Bankning aktiv operatsiyalari risklari quyidagi turlarga bo‘linadi (5-jadvalga qarang):

5-jadval. Bankning aktiv operatsiyalari risklari²⁰

Aktiv operatsiyalar risklari	Izoh
1. Kredit riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo‘yicha foizlarni to‘lay olmaslik ehtimoli bo‘lganda yuzaga keladi, ya’ni bu risk qarz oluvchi o‘z qarzini qaytarmasligi oqibatida zarar ko‘rilishi bilan bog‘liq bo‘lgan riskdir. Buning manbayi faqat kreditlar emas, balki qimmatli qog‘ozlar, jumladan veksellar, akseptlar hamda kafolat va kafililiklar singari balansdan tashqari vositalar ham bo‘lishi mumkin. Bank mablag‘i yetarliligi uning aktivlariga tegishli sarmoya ulushi bilan ta’minlanganligini anglatadi.
2. Hisob-kitob risklari	<ul style="list-style-type: none"> bu risklar bankning kelishilgan shartnoma bo‘yicha mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida o‘tkaza olmasligi sharoitida yuzaga keladi.
3. Kassa risklari	<ul style="list-style-type: none"> bu risklar bank kassasi orqali o‘tuvchi naqd pullarni saqlanishi bilan bog‘liq xavfli holatlar natijasida yuzaga chiqadi.
4. Bozor riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risklar nisbiy bozor narxlari darajasining keskin o‘zgarishi natijasida bank aktivlari haqiqiy qiymatining pasayishini anglatadi. Bu bozor narxlari nomaqbtl o‘zgarishi oqibatida ehtimoliy zarar ko‘rilishi tufayli ro‘y

²⁰Абдуллаева И.З. “Банк иши” ўкув кўлланмаТ. “Иктисад-Молия” 2010.-3416.

		beradi. Bozor narxi harid qiymatidan past bo‘lsa, banklar aktivlarining pasayish summasiga kamaymasligi uchun zaxiralar yaratishga majbur. Zaxiralar ehtimoliy zararlar sifatida ko‘riladigan bank harajatlari hisobiga yaratiladi.
5.	Valyuta riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk valyuta almashtirish kursining o‘zgarishi natijasida chet el valyutasida olib boriladigan operatsiyalar bo‘yicha yo‘qotishlar yoki yuqori foyda olish ehtimolini ifodalaydi. Bu risk - valyuta kursining ba’zi qarz oluvchilar moliya holatini yomonlashtira-digan tomonga o‘zgarishi natijasida ko‘riladigan zararlardir. Ayirboshlash kursining nobarqarorligi va uning yuqori darajada aniq emasligi bank operatsiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 1995 yilda Meksikadagi moliya tangligi bilan bog‘liq gumonsirash ko‘plab Lotin Amerikasi mamlakatlarida moliya muammolariga sabab bo‘ldi va Meksikadan ancha uzoqdagi bozorlarda ham keskinlik tug‘dirdi. Devalvatsiya ehtimoli moliyalarning xorijiy valyuta bozoriga oqib ketishiga olib keladi, banklar moliya vositachiligi darajasini pasaytiradi, pul-kredit siyosatini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Masalan, Boliviya dollarlashtirish 90 foizgacha yetganida monetar siyosat vositalarini qo‘llash samaradoraligini keskin cheklab qo‘yadi. Moliya vositachiligidagi dollarlashtirishni kengaytirish valyuta riskini kamaytiradi, albatta. Chunki milliy valyutaning qadrsizlanishi qarz oluvchilarga xorijiy valyutadagi majburiyatlarini qaytarish qobiliyatini cheklaydi.
6.	Investitsiya	<ul style="list-style-type: none"> bu risk qimmatli qog‘oz emitentining moliyaviy

	riski	holati yomonlashishi oqibatida investitsiyalar portfelining kamayishi yoki quyilgan mablag‘larni yo‘qotish riskini ifodalaydi. Bu risklar bank sotib olgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha oladigan daromadlarining tushib ketishi yoki uni oshirish bilan bog‘liq risklar hisoblanadi.
7.	Lizing operatsiyalari bo‘yicha risk	<ul style="list-style-type: none"> bu risk ijarachining bankdan olgan mulkidan samarali foydalana olmasligi, shuningdek, shartnomada ko‘rsatilgan to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshira olmasligi natijasida yuzaga keladi.
8.	Faktoring operatsiyalari bo‘yicha risk	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bankning uchinchi shaxsdan sotib olgan qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshira olmaslik natijasida yuzaga keladi.
9.	Bank portfeli riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risklar qimmatli qog‘ozlarning ayrim turlari hamda ssudalarning barcha kategoriyalari bo‘yicha zarar ko‘rish ehtimolligi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.

Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog‘liq risklarga quyidagi risklar kiradi (**6-jadvalga** qarang):

6-jadval. Aktivlar va passivlarni boshqarish sifati bilan bog‘liq risklar²¹

	Riskturlari	Izoh
	2	3
1.	Bankrotlik riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk o‘z kapitali va resurslarini yo‘qotish oqibatida o‘z majburiyatlari bo‘yicha to‘lovga layoqatsiz bo‘lish va faoliyatni to‘xtatish natijasida vujudga keladigan riskdir.
2.	Balanslashmagan	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bankning resurs sifatida jalb qilgan

²¹Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010.-341b.

	likvidlik riski	mablag‘lari bilan kreditga bergan mablag‘lari summasi, muddati, foiz stavkasining darajasi bo‘yicha mos kelmasligi tufayli yuzaga keladi.
3.	Foiz riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bankning kreditga bergan mablag‘lari bo‘yicha oladigan foiz stavkasiga nisbatan jalb qilgan resurslari bo‘yicha yuqori stavkalar bilan to‘lashga majbur bo‘lgan holda yuzaga keladi.
4.	Foyda ololmaslik riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bankning o‘z resurslarini yo‘qotishi, ulardan samarali foydalana olmasligi natijasida yuzaga keladi.
5.	Suiiste’mol riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bank boshqaruvchilari, xodimlari yoki mijozlari o‘z vazifalarini suiiste’mol qilib, shaxsiy manfaatlari yo‘lida amaldagi qonunchilikka, bank faoliyatini tartibga solib turuvchi me’yoriy hujjatlar talablariga zid ravishda faoliyat ko‘rsatishlari natijasida bank katta yo‘qotishlarga uchrashi hatto, inqirozga uchrashi mumkin.
6.	Likvidlik riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bankning o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘z vaqtida pul to‘lashga qobil emasligi bilan bog‘liq bo‘lib, buning oqibatida majburiyatlar oshganda ham qisqa muddatlarda maqbo‘l narxlarda aktivlarni sotishda ham, mablag‘ olish imkonini bo‘limganligi sababli zarar ko‘riladi.

7-jadvalda keltirilganidek, moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq risklarga quyidagi risk turlari kiradi:

7-jadval. Moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq

risklar.²²

	Risk turlari	Izoh
	2	3
1.	Operatsion va texnologik risklar	<ul style="list-style-type: none"> bu risklar bank texnika-texnologiyasida uchrab turadigan axborot tizimidagi uzilishlar, kompyuter tizimidagi yo‘qotishlar, hujjatlarning yo‘qotilishi, bank xodimlari faoliyatida yo‘l quyilgan xatolar tufayli vujudga keladi.
2.	Innovatsiya riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk ma’lum bir sabablar tufayli bankning innovatsiyaga yo‘llagan mablag‘lari mo‘ljallangan samara bermasa yoki yo‘qotilgan hollarda yuzaga keladi.
3.	Bank xavfsizligi riski	<ul style="list-style-type: none"> bu risk bank binosi, undagi mavjud axborot jamlamasi, kompyuter tarmoqlarining xavfsizligi bilan bog‘liq omillar ta’sirida yuzaga keladi.

Mazkur risklarni minimallashtirib (kamaytirib) bank bir tomonidan o‘z mahsulot va xizmatlar sonini kengaytiradi, faoliyatini diversifikatsiyalaydi, boshqa tomonidan esa – o‘z operatsiyalari sifatini oshiradi.


Bugungi kunda qonunchilikka ko’ra bank faoliyatida, asosan, quyidagi bank tavakkalchiliklari yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydi²³:

1-rasm.

Bank risklari turlari

²²Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010.-341b.

²³O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sun bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom




a) **kredit tavakkalchiligi** - qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo‘yicha bank oldidagi o‘z moliyaviy majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

b) **bozor tavakkalchiligi** - bankning qimmatli qog‘ozlar portfelidagi instrumentlari narxlarining, shuningdek, chet el valyutasi va qimmatbaho metallar kurslarining salbiy o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik. Bozor tavakkalchiligi fond, valyuta va foiz tavakkalchiliklarini o‘z ichiga oladi, bunda:

2-rasm.

Bozor riski va uning turlari



fond tavakkalchiligi - qimmatli qog‘ozlari portfelidagi instrumentlarning bozor narxlaridagi salbiy o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

valyuta tavakkalchiligi - chet el valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo‘yicha shu chet el valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

foiz tavakkalchiligi - aktivlar, passivlar va ko‘zda tutilmagan holatlardagi instrumentlar bo‘yicha foiz stavkalarining salbiy o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

v) **likvidlilik tavakkalchiligi** - bankning o‘z moliyaviy majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik. Bankning likvidlilik tavakkalchiligi asosan, aktiv va passivlarning so‘ndirilish muddatlarining o‘zaro

nomuvofiqligi oqibatida yuzaga keladi. Bankning likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish "Tijorat bankining likvidliligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 559, 1998 yil 2 dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi;

g) **operatsion tavakkalchilik** - bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo'l qo'yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan tabiiy ofatlar, natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

3-rasm.

Kredit, operatsion va likvidlik risklari.



d) **mamlakat tavakkalchiligi** - bankning xorijiy hamkorlari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar sababli o'z moliyaviy majburiyatlarining bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

e) **huquqiy tavakkalchilik** - bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmaslik, ish jarayonida huquqiy

xatoliklarga (noto‘g‘ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto‘g‘ri tuzilishi) yo‘l qo‘yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik;

j) **biznesda obro‘-e’tiborni yo‘qotish tavakkalchiligi** - bankning moliyaviy barqarorligi to‘g‘risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli, mijozlar sonining kamayishi, ko‘rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, bankda zararlar yuzaga kelishi tavakkalchiligi;

z) **firibgarlik tavakkalchiligi** - bankda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy xatti-harakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko‘rish xatari. Bankdan naqd pul va boshqa qimmatliklarning o‘g‘irlanishi hamda bank xodimlari tomonidan ataylab moliyaviy hisob va hisobotlarda zararlarni (vaqtincha yoki tekshirish orqali aniqlanguncha) yashirilishi natijasida bankning moliyaviy ziyon ko‘rishi.

3.3. BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA’SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNING ASOSIY MEZONLARI

Bank amaliyotida muhim muammolardan biri – bu bank risklarini to‘g‘ri baholay olmaslikdir. Uni to‘g‘ri baholash, uning o‘z vaqtida oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Risklarni aniqlash ularning darajasini hisoblashdan boshlanadi.

Risk darajasi muayyan faoliyatda maqsad nimaga yo‘naltirilganiga qarab zararlar bo‘lishini yoki xo‘jalik sub’ektining faoliyat natijasi ma’lum bir yo‘qotishlar bilan tugashi yoki yuqori daromad olishi mumkinligini ifodalaydi.

Ana shu risk darajasi va u bilan bog‘liq yo‘qotishlar ehtimolini aniqlashning bir necha usullari mavjud:

- ekspert (sub’ektiv) baholash usuli;

- statistik usul;
- tahliliy (kompleks) usul.

Ekspert baholash usuli riskni tahlil qiluvchi iqtisodchi (ekspert)ning malaka darajasiga asoslanadi. Bunda bankning faoliyatida o'tkazilgan barcha operatsiyalar bo'yicha mavjud ma'lumotlar tahlil qilinib, imkonи boricha ko'proq yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalar tahlilga jalb qilinadi. Bu jarayonda bankning o'zidagi, shuningdek, yuz berish ehtimoli bo'lgan yo'qotishlar va ularning davr oralig'i aniqlanadi:

$$Y = \frac{YH}{N}$$

Bu yerda:

Y – yo'qotishlar darajasi (koeffitsiyentda);

YH – yo'qotishlarga olib keluvchi holatlar soni;

N – tahlilga jalb qilingan holatlarning umumiyligi.

Formuladagi N bankning faqat yo'qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalarning sonini emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan, foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Yo'qotish darajasi $0 < Y < 1$ oralig'ida bo'ladi. «Y» qancha «0» ga yaqin bo'lsa, risk darajasi shuncha kichik bo'ladi. Agar «Y» qanchalik «1» soniga yaqin bo'lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Statistik usul ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar ehtimolini variatsiya koeffitsiyenti (V) ni hisoblash yordamida aniqlanadi:

$$V = \frac{\sigma \cdot 100}{\bar{x}}$$

Bu yerda:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x - \bar{x})^2 n}{\sum n}},$$

Ya’ni, o‘rtacha kvadratik farqlanish;

x – kuzatishga jalb qilingan operatsiyalar va ulardan kutilayotgan natija;

\bar{x} – barcha operatsiyalarda kutilayotgan o‘rtacha natija;

n – operatsiyalar soni.

Bu koeffitsiyent ham 0 dan 1 gacha o‘zgarishda bo‘ladi va u qanchalik yuqori bo‘lsa, farqlanish yoki risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Prof. Sh. Abdullayeva ushbu koeffitsiyent darajasini baholashda quyidagi intervallardan foydalanishni tavsiya etadi.²⁴

0,10 gacha – kam (sezilarli bo‘lmagan farqlanish);

0,10-0,25 – me’yorida yoki sezilarli farqlanish;

0,25 va undan yuqori – katta farqlanish.

Variatsiya koeffitsiyentining darajasi bank tomonidan amalga oshiradigan operatsiyalar bo‘yicha risk darajasining past yoki yuqori bo‘lishiga bog‘liq., ya’ni bankning operatsiyalari bo‘yicha risk darajasi variatsiya koeffitsiyentiga to‘g‘ri proporsionaldir. Shu sababli bank o‘z faoliyatida riskni kamaytirish va bank likvidligini oshirish uchun o‘z mablag‘larini farqlanishi eng kam bo‘lgan operatsiyalar (variant)ga quyishga harakat qilishi kerak.

Tahliliy-kompleks usuli o‘yinlar nazariyasini qo‘llashga asoslanadi. U bankning nafaqat o‘z harakatlarini, shuningdek, atrofidagi kontragentlarning ham amalga oshirishi mumkin bo‘lgan barcha muqobil harakatlarini ko‘rib chiqishni taqozo etadi. O‘yinlar nazariyasi unsurlaridan foydalangan holda

²⁴Абдуллаева Ш. Банк рисклари ва кредитлаш.– Т.: Молия, 2002, 117-bet.

vazifalarni hal qilish jarayoni juda ulkan va murakkab bo‘lib, juda ko‘p vaqt sarflashni talab etadi.

Bank bo‘yicha yo‘l quyilishi mumkin bo‘lgan risk darajasi yoki ko‘rsatkichi (Kr) quyidagicha hisoblanadi:

Kr=	Ko‘rilgan maksimal zararlar
	o‘z mablag‘lar

$$\text{yoki } Kr = \frac{\sum Z}{QM} \cdot E$$

Bu yerda:

Kr – bank bo‘yicha yo‘l quyilishi mumkin bo‘lgan risk darajasi;

ΣZ – shu bankning barcha operatsiyalar bo‘yicha ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlar yig‘indisi;

QM – bankning o‘z mablag‘lari;

E – bank tashqi risklarining me’yoriy koeffitsiyenti.

Xalqaro amaliyotda tashqi risklarni tahlil qilishning ikki bosqichli tizimi mavjud. Birinchi bosqichda mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat tahlil qilinadi, ikkinchi bosqichda mamlakatdagi riskning umumiy darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida hisoblab chiqiladi:

- yalpi milliy mahsulotning o‘sish sur’atlari;
- jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM va uning o‘sish sur’atlari;
- inflatsiya darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- davlat budgetining taqchilligi;
- investitsiyalarning samaradorligi;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;

- savdo va to‘lov balanslari;
- siyosiy xatar darajasi va boshqalar.

Mamlakatdagi risklarni tahlil qilganda jahondagi ko‘pgina yetakchi mamlakatlarning statistika xizmatlari tomonidan maxsus e’lon qilgan ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha ekspert baholari va reytinglaridan ham foydalaniladi.

Riskning haqiqiy darajasini aniqlashda risk koeffitsiyentidan foydalanish mumkin.(8-jadvalga qarang)

8-jadval. Risk koeffitsiyentini aniqlash tartibi²⁵

	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Variantlar	
			I	II
1.	Bankning o‘z mablag‘lari	mln. so‘m	1000 0	60000
2.	Ehtimol qilinayotgan yo‘qotishlarning maksimal summasi	mln.so‘ m	6000	24000
3.	Risk koeffitsiyenti (2q:1q)	koef.	0,6	0,4

Ko‘rib turibmizki, II variant bo‘yicha kapital quyish (yoki kredit berish) riski I variantga nisbatan 1,5 marta kam ($0,6:0,4=1,5$). Risk koeffitsiyentini to‘g‘ri taxminlash beriladigan kredit summasini optimallashtirish yo‘llarini ishlab chiqishga, kredit risklarini minimallashtirishga yordam beradi.

Mijozning kreditga layoqatliliginini aniqlash bosqichida beriladigan kredit bo‘yicha risk darajasini quyidagicha xomcho‘t qilish mumkin:

1. Risksiz zonada yo‘qotishlar yo‘q, ya’ni uning darajasi «0»ga teng. Bu holda foya darajasi yuqori bo‘ladi. Bo‘lishi ehtimol qilinadigan risk oldindan aniq bo‘lgan, yuqori darajada xavf tug‘dirmaydigan risk bo‘lib, uning darajasi sezilarsiz, doimo olinadigan foydadan past bo‘ladi.
2. Kritik risk zonasasi yo‘qotishlar bo‘lish xavfi borligini ifodalaydi,


²⁵Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010.-341b.

olinadigan foydadan bir qismining biron jarayon uchun yo‘naltirilganligini va shu mablag‘larning qaytib kelishida xavf borligini ifodalaydi.

Banklar mablag‘lar yo‘qligi tufayli yuzaga keladigan to‘lovga qobiliyatsizlik, moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lmaslik kabi risklardan ehtiyot bo‘lishlari lozim. Agar bank berilgan kredit talabnomasini yaxshilab tahlil qilmasdan, juda katta miqdorda kreditlar bergen bo‘lsa, ularning qaytmaslik ehtimoli mavjud bo‘lsa, bunday «**yomon**» kreditlar bankka katta zarar keltirishi mumkin. Buni oldini olish uchun esa kreditlash jarayonida riskli holatlarni aniqlash juda muhimdir.(3-chizmaga qarang)

Shuni ta’kidlash lozimki, bank faoliyatida gap riskdan umuman ochish to‘g‘risida emas, balki uni oldindan chamalash, ko‘ra bilish va uni minimal darajaga tushirish haqida boradi. Riskni boshqarish o‘z oldiga aksariyat hollarda bankning o‘z mablag‘larining bir qismini yo‘qotish «xavfi», daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo‘srimcha harajatlarga yo‘l quyib bo‘lsa-da, faoliyatni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo‘yadi.

Kreditlash jarayoni va riskli holatlarni aniqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi(1-chizmaga qarang):




1-chizma. Kreditlash jarayoni va riskli holatlarni aniqlash chizmasi.²⁶

Umuman bank riskini boshqarish riskni yuzaga kelish ehtimolini xomcho't qilish, risk tufayli yuzaga keladigan noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

²⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan

Riskni boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi (2-chizmaga qarang):

2-chizma. Riskni boshqarish jarayoni.²⁷

Bank amaliyotida bank risklariga barham berish choralarining asosiyлари сифатида оидагиларни көрсгимиз мумкин:

1. Riskdan qochish
2. Riskni kamaytirish yoki uni boshqarish:
 - ❖ riskni sug'urtalash va garovni ishlatish;
 - ❖ riskni taqsimlash;
 - ❖ Markaziy bank tomonidan о'rnatilgan ma'lum normativlar asosida riskni chegaralash

²⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan.

3. Bank balansida riskni chamlash

Tijorat banklari faoliyatida yangidan – yangi ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari soni ortib borishi asnosida, bank risklarining har xil shakllari paydo bo‘lmoqda hamda ularni oldini olish va kamaytirish oldingiga nisbatan yanada ahamiyatliroq bo‘lib bormoqda.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Bank risklariga qaysilar kiradi?
2. Risk darajasi deganda nimani tushunasiz?
3. Riskni aniqlashning qanday usullari mavjud?
4. Riskni boshqarishning qanday usullarini bilasiz?

IV-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA- TADBIRLARI

4.1. KREDIT RISKI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARNING PAYDO BO'LISH SABABLARI

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirish sharoitida barcha tijorat banklari nafaqat foyda olishi, balki o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini ham to'laqonli bajara olishi juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tijorat banklarining kredit faoliyati aynan shu ikki maqsadni birlashtiruvchi omil hosoblanadi, ya'ni yuqori daromad keltiradi hamda mijozlarining asosiy talabi - kreditga bo'lган talabini qondiradi.

Banklarning aktivlarni joylashtirishi, shu jumladan, kreditlar berish bilan bog'liq faoliyati eng yuqori daromad keltiruvchi faoliyat bo'lishi bilan birga, eng yuqori tavakkalchilikka asoslangan faoliyat hamdir.

Bankning kredit faoliyati, uni boshqa nobank tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Juhon amaliyotida aynan kreditlash bilan bank foydasining talaygina qismi bog'liq. Shu bilan bir vaqtda, kreditlarning, asosan, yirik kreditlarning qaytarilmasligi, bankning bankrot bo'lishiga olib kelishi ham mumkin.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalari bank faoliyatining muhim turlaridan biri hisoblanadi. Kredit riski, shu tarzda, bank riskini asosiy turi bo'lib qoladi.

Me'yoriy hujjatlarda **kredit tavakkalchiligi** - qarzdorning shartnomada belgilangan shartlar bo'yicha bank oldidagi o'z moliyaviy majburiyatlarini

qisman yoki to‘liq bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladiga moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik-deb ta’rif berilgan.²⁸

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi. Shuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat bankning rivojlanish va taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlataladigan kurash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit riskining yuzaga kelishiga qo‘yidagilar sabab bo‘lishi mumkin.

- kredit siyosatining yaxshi ishlab chiqilmaganligi;
- kreditlash tarmog‘ini to‘g‘ri tahlil qila olmaganligi;
- qarzdorni yetarli darajada o‘rganib chiqilmaganligi;
- mijoz bilan muloqotning kamligi;
- garov qiymati va sifati bo‘yicha ishonchning yo‘qligi;
- kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash borasida rezervlarning to‘g‘ri shakllanmaganligi;
- qarzdorning hujjatlari ustidan nazoratning kamligi;
- yuqori bilimga ega bo‘lgan bank xodimlari va huquq madaniyatiga ega bo‘lmagan mijozlarning kamligi.

Kredit risklari vujudga kelishining asosiy sabablaridan yana biri kreditlarning bir soha, bir tarmoqqa ko‘p ajratilishi, bir qarzdorga to‘g‘ri keluvchi riskka rioya qilmaslik tufayli ham bo‘lishi mumkin.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr: kredit beruvchi va qarz oluvchining o‘z funksiyalarini qay darajada bajarilishiga bog‘liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo‘yicha loyiha tayyorlash kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Bu bosqichda kredit beruvchi:

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sodan bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom

-qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma’naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, marketingi, moliyaviy boshqaruvi va boshqalarni;

-kreditga bo‘lgan talabning qanchalik darajada to‘g‘ri asoslanganligi va shu asosning korxonaning real iqtisodiy holatidan kelib chiqqanligi;

-kreditning maqsadi bank manfaati uchun ham to‘g‘ri kelishi kabi savollarga to‘liq va aniq javob olishi lozim. Zero bu kreid riskining paydo bo’lishini oldini oladi.

Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichlarida yangi korxona, firmalar tashkil topayotgan va ular to‘g‘risida aniq axborot mavjud emasligi sharoitida **birinchi savolga** javob berish juda muhim. **Ikkinchchi savolni** kredit oluvchi tomon to‘ldirishini inobatga oladigan bo‘lsak, uning moliyaviy ahvoli, undagi hisob-kitoblar holati, auditorlik tekshiruvlar bo‘yicha hisobotlar va xulosalar, korxona balansi, pul oqimi to‘g‘risida hisobot, daromadlar to‘g‘risida va boshqa ma’lumotlarni yaxshilab tahlil qilish bank uchun zarur hamda bu hujjatlarning mavjudligi korxonaning o‘z moliyaviy resurslarini muvafaqqiyatli boshqarayotganligidan dalolat beradi.

Uchinchi savolda esa bank u berayotgan kredit uning kredit portfeliga mos keladimi yoki yo‘qmi shuni aniqlashi lozim. Agar bu beriladigan kredit bankning kredit portfelining yanada ko‘proq diversifikatsiyalanishiga olib kelsa, bu bankning kredit portfeli riskini kamaytiradi. Agar bu kredit bir tarmoqqa kreditlarning yig‘ilishini kuchaytiradigan, to‘lash muddati bir vaqtda to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, kredit portfelining riski oshishi mumkin. Bunda bank xodimlari kredit berish, kreditni baholash sohasida yetarli bilimga egami, ular bozor munosabatlari o‘zgarishlarini inobatga olgan holda bank ishining texnikasini bilishi, kredit berish bo‘yicha oxirgi qarorni qabul qilmasada, u kreditni baholash jarayoniga javobgar hisoblanadi.

Kredit riskning yuqori bo‘lishi bank tomonidan pul bozoriga murojaat qilish va uning mablag‘laridan foydalanishda ehtiyyotkor bo‘lishiga da’vat qiladi.

Kredit risklarini tahlil qilish nafaqat qarz oluvchining moliyaviy holatini o‘rganish, shuningdek bankning ichki faoliyatini yaxshilash uchun zarur axborotlar yig‘ish imkoniyatini yaratadi. Kreditlarni risk bo‘yicha jihatlarga bo‘lish, ularni minimallashtirish yo‘llarini ishlab chiqish, bank manfaatlarini himoya qilish kredit risklarini kamaytirishga asos bo‘lishi mumkin.

4.2. KREDIT RISKLARIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHYLIL QILISH BOSQICHLARI

Bankning kreditlash jarayonidagi nazorat va tahliliy ishlari quyidagilarga qaratiladi:

- kredit shartnomasidagi shartlarni bajarilishi;
- kredit oluvchining kreditdan samarali foydalanishini ta’minlash;
- kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishi;
- kreditdan foydalanishning butun davri mobaynida, kredit oluvchi bilan yaqin aloqalarni saqlab turish.

Mijozning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tahlil qilinishida esa quyidagilar o‘rganiladi:

- buyurtmalar portfeli tarkibi va bank kreditidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar bozori va kredit oluvchining hamkorlari to‘g‘risida ma’lumot hamda ular bilan tuzilgan shartnomalarga (buyurtma) muvofiq mahsulot yetqazib berish majburiyatlarini bajarilishi;
- ishlab chiqarish hajmlarini bajarilishi;
- noishlab chiqarish harajatlari;
- muomala harajatlari, foyda va o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligining dinamikasi;
- tovar-moddiy boyliklari zahirasi holati va aylanma mablag‘larning aylanish tezligi.

Kredit riskini oldini olish va uni kamaytirishda unga ta'sir qiluvchi omillar tahlili juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit riskining darajasi quyidagi faktor(omil)larga bog'liq bo'ladi:

- mamlakatdagi va mintaqadagi iqtisodiy hamda siyosiy vaziyat, ya'ni unga makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy faktorlar ta'sir ko'rsatadi (o'tish davri iqtisodiyotini krizis (inqiroz)li holati, bank tizimi shakllanishining tugallanmaganligi va h.k.):

- iqtisodiyot o'zgarishlariga ta'sirchan bo'lgan alohida tarmoq (soha)larda kredit faoliyati konsentratsiyasining darajasi (ya'ni tarmoq yoki zayomchilarni tor doirasiga berilgan kattagina hajmdagi summa);

- mulkchilik shakli, ularni tegishliligi bo'yicha zayomchilarning tipi (xili), reputatsiyasi (obro'-e'tibori, nufuzi), kreditga layoqatliligi hamda mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar bilan o'zaro munosabatlari;

- qarz oluvchilarning bankrotligi;

- moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan mijozlarga to'g'ri keluvchi kreditlarni va boshqa bank vositalarini kattagina yalpi ulushi;

- kreditlashni kam o'rganilgan, yalpi noodatiy soha (sfera)larida kredit tashkiloti faoliyatining konsentratsiyasi (lizing, faktoring va h.k.)

- bankdagi yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lмаган yangi va yaqinda jalb qilingan mijozlarni yalpi ulushi (hissasi).

- zayomchi tomonidan xizmatni (mansabiy) suiste'mol qilish, tovlamachilik;

- garov (kafolat) sifatida qiyin realizatsiya qilinadigan yoki qimmatliklarni tezda qadrsizlanishi yoki kredit uchun mos ravishdagi ta'minotni ololmaslik, garov (kafolat)ni yo'qotib qo'yish:

- kredit portfelini diversifikatsiyalash;

- kredit shartnomalarini va tijorat yoki investitsion loyihani texnik-iqtisodiy asoslanishining aniqligi;

- predmetlarni taqdim etish va berilgan kreditlar portfelin shakllantirish bo'yicha kredit tashkilotining siyosatiga o'zgarishlar kiritish;
- taqdim etilayotgan kredit turi, shakli va miqdori hamda uni ta'minoti.

Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor(bank)da qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtida bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida foydaning asosiy qismi berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi, yoki umuman to'lamasligi bank foydasining kamayishi oqibatida bankning kelajakdag'i mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun barcha tijorat banklari bergen mablag'larning qaytishi bilan bog'liq risklarni kamaytirishga harakat qiladilar.

4.3. KREDIT RISKLARINI ANIQLASH, BAHOLASH VA ULARNI OLDINI OLİSH CHORA-TADBIRLARI

Kredit riskini baholashning 5 asosiy unsurini keltirish mumkin:

Reputatsiya. Mazkur jarayon shaxsiy muomala, ham shaxsiy, ham ish bo'yicha tajribasidan iborat bo'lishi kerak (kreditor, mahsulot yetishtirib beruvchilar va mijozlarni tekshirish)

Imkoniyatlar. Qarz oluvchining o'zining barcha operatsiyalari bo'yicha (o'zining butun faoliyati davomida qarz oluvchining olgan pullari) yoki aniq loyiha bo'yicha mablag' olish qobiliyati va pul vositalarini boshqarish qobiliyati (bu avvalgi loyihalardan ma'lum bo'lishi kerak).

Kapital. Qarz oluvchining kapital bazasi va kredit so'ralgan loyiha uchun o'zining mablag'larini sarflashga doir qat'iyligi, qarz oluvchi loyiha xavfi mas'uliyatini kredit beruvchi bank bilan birga o'z zimmasiga olishi, o'zining

hissadorlik kapitalining qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qismini taqdim etib, o‘ziga tegishli bo‘lgan majburiyatlarini o‘z zimmasiga olishi kerak.

Shart-sharoitlar. Mahalliy, hududiy va umummilliy iqtisodning joriy ahvoli va tavsifi, shuningdek qarz oluvchi xujaligining sohalari.

Garov. Kreditni garov yoki kafillik shaklida ishonchli ta’minlash boshqa tomondan kuchsizliklarni yuqqa chiqarib qo‘yadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yaxshi bir qoida bor: “**faqat garov va kafillik asosida hech vaqt kredit bermang**”. Ya’ni, boshqa tomonlariga ham qarash lozim, jumladan pul oqimlariga.

Kredit riskini tartibda solish(oldini olish)da Markaziy bank tomonidan bir necha iqtisodiy normativlar joriy etilgan:

1. Bir mijozga yoki mijozlar guruhiga berilgan ta’minlangan kreditlar uchun riskning maksimal miqdori birinchi darajali kapitalning 25 foizidan oshib ketmasligi lozim. Mazkur normativ birinchi darajali kapitalga nisbatan o‘rnatilgan bo‘lib, uning bajarilishi bankning kredit portfelini diversifikatsiya darajasini tavsiflaydi. Uning darajasi qanchalik kichik bo‘lsa, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

8-jadval. OATB “Kapitalbank”ning bir mijozga yoki mijozlar guruhiga berilgan ta’minlangan kreditlar uchun riskning maksimal miqdori normativi bo‘yicha
holati

(ming so‘mda)

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Bitta qarzdorga yoki o‘zaro aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan ta’minlangan kreditlar uchun	0.000	0.009	0.017	0.000	0.103

riskning maksimal miqdori					
Belgilangan norma(ko'rsatkich birlikda)	Mak 0.25				

Qo'yidagi jadvaldan ko'riniq turibdiki, OATB "Kapitalbank" ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to'liq rioya etib kelgan.²⁹

2. Bir mijozga yoki mijozlar guruhiga berilgan ta'minlanmagan(ishonchli) kreditlar uchun riskning maksimal miqdori. Bu normativ ham birinchi darajali kapitalga nisbatan o'rnatilgan bo'lib, uning maksimal darajasi 0,05 qilib belgilangan. Mazkur normativning bajarilishi bankning kredit riskidan sezilarli darajada himoyalanish imkonini beradi. Chunki mijozlarning pul oqimiga tashqi taqsirlar kuchli tarzda ta'sir etib turgan hozirgi sharoitda ta'minlanmagan ssudalarni bitta mijozga yoki mijozlar guruhiga yirik miqdorda berilishi bankni jiddiy tarzda kredit riskiga duchor qilishi mumkin.

9-jadval. OATB "Kapitalbank"ning bir mijozga yoki mijozlar guruhiga berilgan ta'minlangan(ishonchli) kreditlar uchun riskning maksimal miqdori normativi
bo'yicha holati

(ming so'mda)

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Bitta qarzdorga yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan ta'minlanmagan(ishonchli) kreditlar uchun riskning	0.000	0.009	0.017	0.000	0.103

²⁹ OATB "Kapitalbank"ning o'sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob-kitobi

maksimal miqdori					
Belgilangan norma	Mak 0.05				

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to‘liq rioya etib kelgan³⁰:

3. Barcha yirik kreditlar uchun riskning maksimal miqdori normativi birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilangan bo‘lib, uning maksimal miqdori 8,00 qilib belgilangan. Ya’ni, bank tomonidan berilgan barcha yirik kreditlar miqdori birinchi darajali bank kapitali so‘mmasidan 8 martadan oshib ketmasligi lozim.

10-jadval. OATB “Kapitalbank”ning barcha yirik kreditlar uchun riskning maksimal miqdori normativi bo‘yicha holati

(ming so‘mda)

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Barcha yirik kreditlar uchun riskning maksimal miqdori - N7	0.000	0.013	0.004	0.102	0.173
Belgilangan norma	Mak 8.00				

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to‘liq rioya etib kelgan.³¹

Yirik kredit deganda bitta mijozga beriladigan, bank kapitalining 15 foizidan oshadigan kreditga aytildi. Yirik kreditlarga nisbatan o‘rnatilgan mazkur normativ xalqaro andozalardan kelib chiqqan holda o‘rnatilgan.

³⁰ OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob-kitobi

³¹ OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob-kitobi

Masalan, Germaniyada ham yirik kreditlarning umumiy summasi uchun kapitalga nisbatan 8 martalik limit belgilangan.

Fransiyada bitta mijozga beriladigan kreditlar summasi bank aksionerlik kapitalining 40 foizidan oshmasligi va yirik kreditlarning umumiy summasi bank kapitalidan 8 martadan oshib ketmasligi lozim.

4. Bankka dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan bitta kreditning hajmi normativi бир ёки ўзаро дахлдор қарз олувчилар гуруҳига бериладиган битта кредит таваккалчилигининг максимал микдорига нисбатан тартибга солинади. Яъни, ссудалар биринчи даражали капиталнинг 25 фоизидан ошмаслиги лозим.³²

11-jadval. OATB “Kapitalbank”ning **Bankka dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan bitta kreditning hajmi** normativi bo'yicha holati
(ming so'mda)

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Bankka dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan bitta kreditning hajmi	0.050	0.019	0.038	0.015	0.074
Belgilangan norma	Mak 0.25				

Qo'yidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to'liq rioya etib kelgan:³³

³²O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankni Boshqaruvi tomonidan 1998 yil 2 noyabrla tasdiqlangan va Adliya vazirligida 1998 yil 2 dekabrda 556-1-son bilan davlat ro'yxatiga olingan “Banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar to'g'risida” gi Nizom.

³³OATB “Kapitalbank”ning o'sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob-kitobi.

O‘zaro bog‘liq mijozlar deganda ikki va undan ortiq mijozlar tushunilib, ularning o‘zaro munosabati shu darajadaki, birining faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga kelishi unga aloqador boshqa mijozlarning ham moliyaviy ahvolini yomonlashuviga olib keladi.

5. Bankka dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan ishonchli(ta’minlanmagan) bitta kreditning hajmi normativi birinchi darajali bank kapitaliga nisbatan belgilangan bo‘lib, uning maksimal miqdori 0,05 ni tashkil etadi.

12-jadval. OATB “Kapitalbank”ning **Bankka dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan ishonchli(ta’minlanmagan) bitta kreditning hajmi** normativi bo'yicha holati

(ming so‘mda)

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Bankka dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan ishonchli(ta’minlanmagan) bitta kreditning hajmi	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000
Belgilangan norma	Mak 0.05				

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to‘liq rioya etib kelgan³⁴:

Ushbu iqtisodiy normativni bajarilishi banklarni bitta yoki bir necha o‘zaro bog‘liq mijozlarga kredit berishi natijasida yuzaga keladigan yuqori darajadagi kredit riskini minimallashtirishga xizmat qiladi.

6. Bankning barcha dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan kreditlarning umumiy hajmi normativining maksimal miqdori 1,00 qilib

³⁴ OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob-kitobi

belgilangan. Ya’ni birinchi darajali kapitalning bir barobaridan oshib ketmasligi lozim.

13-jadval. OATB “Kapitalbank”ning Bankning barcha dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan kreditlarning umumiy hajmi normativi bo’yicha holati

(ming so‘mda)

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Bankning barcha dahldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan kreditlarning umumiy hajmi	0.002	0.004	0.002	0.001	0.003
Belgilangan norma	Mak 1.00				

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to‘liq rioya etib kelgan³⁵:

4.4. KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH VA KAMAYTIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi iqtisodiyotda tijorat banklarining asosiy daromadli faoliyati- kredit faoliyatidagi risklarini boshqarish orqali ularni oldini olish va kamaytirish juda muhim hisoblanadi.

Risklarni boshqarish daromad bilan risk o‘rtasidagi optimal nisbatni topish, mavjud riskni minimallashtirishni o‘z ichiga oladi.

14-jadval. Risklarni boshqarish usullariga quyidagilarga kiritish mumkin.³⁶

³⁵ OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob-kitobi

Risklarni boshqarish usullari	
1.	Diversifikatsiya siyosatini o‘tkazish;
2.	Depozit sertifikatlarini joriy qilish;
3.	O‘zgaruvchan, suzib yuruvchi foiz stavkalari asosida kredit berish;
4.	Kreditlarni va depozitlarni sug‘urtalash;
5.	Garov asosida kreditlarni kengaytirish;
6.	Banklarning hisobga olish operatsiyalarini kengaytirish;
7.	Yirik kreditlarni faqat konsorsional asosda berish (banklararo bitimlarga asosan risklarni taqsimlash);
8.	Real kafolatlar asosida kreditlashni qo‘llash;
9.	Tashqi risklar (tarmoq, tarmoqlararo, mintaqaviy va boshq.)ni hisobga olish;
10.	Bank mijozining moliyaviy ahvolini muntazam nazorat qilib borish, to‘lovga layoqatliligi, reytingini baholab borish;
11.	Risklarni boshqarishda e’tiborga olish zarur bo‘lgan tamoyillar va talablarga rioya qilish;
12.	Risklarni aniqlash usullari va ularning natijalarini risklarni boshqarishda keng qo‘llash va h.k.

Tijorat bankning kredit risklarini boshqarish bosqichlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb ugrayman:

1. Bankning kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
2. Risk omillarining kelib chiqish sabablarini o‘rganish, kredit riskini baholash;
3. Qarzdorning moliyaviy holatini tahlil qilish;
4. Qarzdorning kreditlash tarixini, uning aloqalarini aniqlash;

³⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

5. Kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
6. Kreditlarning qaytarilmaslik riskini tahlil qilish;
7. Barcha ssudalar portfeli bo‘yicha qarzdorning kredit monitoringi nazoratini yo‘lga qo‘yish;
8. Muddati o‘tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Kredit siyosati butun kreditlarni boshqarish jarayonining asosini yaratadi.U qarzlarni berish, rasmiylashtirish va ularni boshqarish uchun javobgar hisoblangan bank xodimlari amal qilishi lozim bo‘lgan ob’ektiv standartlarni aniqlashtiradi. Agar kredit siyosati to‘g‘ri shakllantirilsa, tezda aniq amalga oshirilad va bankning barcha bo‘limlarida yaxshi tushunarli bo‘ladi. Bu bank boshqaruvida kredit sohasida to‘g‘ri standartlarni ushlab turish, ortiqcha riskdan qochish va ishni rivojlantirish imkoniyatini to‘g‘ri baholashga sharoit yaratib beradi.

Kredit riskini boshqarish uchun bank xodimi ssudalar portfelining sifatli tarkibi va tuzilishi ustidan doimo nazorat olib borishi kerak.

Tijorat banklarining dolzarb muammolaridan biri balans ma’lumotlari va kredit portfelining tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi.

Kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash uchun tashkil qilinadigan zahira fondlari kredit risklarining o‘ziga xos amortizatori bo‘lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko‘ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi³⁷:

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 14 iyulda 2696-sodan bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida»gi NIZOM.

Standart kreditlar. Qarzlarning o‘z muddatida to‘lanishiga shubha tug‘dirmaydigan aktivlar sifati «standart» deb tasniflanadi. Bunda qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlarni, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag‘lari oqimiga, shuningdek amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan strategik rejaga, bozorda raqobatdoshlik qobiliyatiga, yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga va o‘z mahsuloti bo‘yicha marketing rejasiga ega bo‘ladi. Ta’midot «yaxshi ta’minlangan» kredit mezonlariga mos keladi. Ta’midot turlari notarial jihatdan tasdiqlangan bo‘lishi (agar qonun hujjatlarida notarial tasdiqlanishi nazarda tutilgan bo‘lsa), zarur hollarda, tegishli mulk bitimini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatga olinishi, shu jumladan, tijorat bankining garov mol-mulkiga doir huquqlari to‘g‘risidagi yozuv garov reestrida aks ettirilishi lozim. Tijorat banki kredit qaytarilmagan holda cheklovatarsiz va erkin ravishda uni ta’midot hisobidan undirib olishga haqli. Ta’midotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim.

Sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi. Bunda asosiy qarz summasining va foizlarining hech qanday qismi muddati o‘tgan yoki shartlari qayta ko‘rib chiqilmagan bo‘lishi lozim. Asosiy qarz summasi yoki foizlardan muddati o‘tgan va shartlari qayta ko‘rilgan aktivlar sifati «standart» deb tasniflanishi mumkin emas.

Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida standart aktivlarga yaratiladigan zaxira shakllantirishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langandan so‘ng qolgan sof foyda hisobidan mazkur Nizom kuchga kirgan kundan keyin ajratilib, hisobot sanasiga sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar qoldig‘idan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Substandart kreditlar. Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, biroq ayrim salbiy holatlar yoki tendensiyalar mavjud bo‘lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki qarzdorning aktivni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan aktivlar sifati «substandart» deb tasniflanadi. Bunda moliyaviy holati yoki ta’mnotinazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo‘lgan, kredit hujjatlarida yetaricha axborot bo‘lmagan yoki ta’mnotin bo‘yicha hujjatlari bo‘lmagan «standart» deb tasniflangan aktivlarning sifati ham «substandart» deb tasniflanishi lozim.

Tijorat banki sifati «substandart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o‘n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Qoniqarsiz kreditlar. Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarning sifati «qoniqarsiz» deb tasniflanadi:

- ✓ asosiy to‘lov manbalari qarz to‘lash uchun yetarli bo‘lmasa, ta’mnotin qo‘yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo‘sishmcha to‘lov manbalarini topish talab etiladigan bo‘lsa;
- ✓ qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag‘larining mo‘ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo‘lmasa;
- ✓ qarz oluvchining kapitali yetarli darajada bo‘lmasa;
- ✓ ushbu sohaga nisbatan tendensiya va istiqbollar barqaror bo‘lmasa;
- ✓ ta’mnotin qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo‘lmaganda asosiy qarzning to‘lanmagan summasiga teng bo‘lsa;
- ✓ asosiy qarz va foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo‘lsa.

Tijorat banki sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Shubhali kreditlar. Sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lib, mavjud sharoitda aktivlarning to‘liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo‘yadigan aktivlar sifati «shubhali» deb tasniflanadi. Bunda yo‘qotishlar ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘lgan, biroq ayrim ijobiy omillari mavjud bo‘lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha «umidsiz» deb tasniflanmaydi.

Quyida keltirilgan omillardan hech bo‘lmaganda bittasi mavjud bo‘lsa, aktivlarning sifati «shubhali» deb tasniflanadi:

- ❖ «qoniqarsiz» aktivlarning hech bo‘lmaganda birorta ko‘rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo‘lsa (bozorda oson sotiladigan ta’minotning mavjud emasligi yoki ta’milangan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e’lon qilinishi);
- ❖ yaqin kelajakda aktivning qisman to‘lanish ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- ❖ asosiy qarz va foizlar bo‘yicha 90 kundan ortiq biroq, 180 kundan oshmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa.

Tijorat banki sifati «shubhali» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Umidsiz kreditlar. Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo‘lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar sifati «umidsiz» deb tasniflanadi. Bunday tasniflash aktivlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Biroq, tijorat banklari o‘z balanslarida bunday aktivlarning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga

muvofig emas. Tijorat banki tomonidan ta'minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo'llanishi lozim.

Quyida keltirilgan omillardan hech bo'limganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «umidsiz» deb tasniflanadi:

- aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo'lsa;
- qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanish yo'li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanimagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanimay qo'yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo'lsa;
- aktivlarning to'lash muddati uzaytirilgan bo'lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa.

Tijorat banki sifati «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Agar tijorat bankida bitta qarzdorga berilgan bir necha aktivlar mavjud bo'lsa, qarzdor tomonidan tijorat bankiga qaytariladigan barcha aktivlar sifati ulardan eng past toifada tasniflangan aktivlar sifatidek tasniflanishi lozim.

Agar qarzdorning bir nechta tijorat banklari oldida qarzi mavjud bo'lib, ularning birida qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlar sifati eng past toifada tasniflangan bo'lsa, boshqa tijorat banklari ham ushbu qarzdorga berilgan aktivlar sifatini mazkur toifada tasniflashlari shart. Bunda tijorat banklari qarzdorga boshqa tijorat banklari tomonidan berilgan aktivlar sifatining tasnifini aniqlash uchun kredit axboroti ma'lumotlar bazasidan foydalanishlari lozim.

15-jadval

*Kreditlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zahiralar
normasi*

Kreditlarning sifati bo'yichasinfari	Ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar uchun ajratmalar normasi
Standart	1%
Substandart	10%
Qoniqarsiz	25%
Shubhali	50%
Ishonchsiz	100%

Kredit risklarini boshqarish usullari

Tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit quyilmalar - bu muammoli kreditlar shakliga kirgan quyilmalardir. Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lash uchun yetarli pul mablag'lari bo'limgan holda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning schetida mablag'i bo'la turib, kreditni to'lashni hohlamaganda ham yuzaga keladi. Pul mablag'larining yetishmasligi ba'zida birdan yuzaga kelishi, ba'zi hollarda bunday ahvol asta-sekinlik bilan rivojiana borib yuzaga kelishi mumkin. Pul mablag'lari yetishmovchiligining ichki va tashqi belgilari bo'lishi mumkin. Kredit bo'limi xodimlari shu belgilar yuzaga kelishini birinchi bo'lib sezmoqliklari va bankni kredit bo'yicha yuqotishlardan saqlovchi chegara bo'lishlari lozim. Ular bank va mijoz manfaatini saqlab qolgan holda bu moliyaviy qiyinchiliklardan chiqish yo'llarini ishlab chiqishga yordam berishlari, boshqa so'z bilan aytganda banklar to'lov kuni kreditni undirishni uylab o'tirmasdan, mijoz faoliyatida muammolar yuzaga kelgan vaqt dan boshlab mijozga yordam berishlari, ularga ta'sir ko'rsatishlari zarur. Buning uchun bank doimo mijozning faoliyatidan baxabar bo'lishi, o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib, tahlil qilib borishi ijobiy natija berishi mumkin.

Amaliyotda bankning kredit bo'limi xodimlari berilgan kreditlar ustidan yetarli nazorat olib bormasliklari bilan birga, mijozning inkirozli holati aniqlangandan keyin ham shu to'g'rida bank boshqaruviga, kredit qo'mitasiga

uz vaqtida axborot bermaydilar yoki mijozning iltimosiga ko‘ra ahvolning yaxshilanishini kutadilar. Ba’zi hollarda mijozning ahvoli kredit bo‘limi xodimi aniqlagandan ham yomon bo‘lib chiqishi mumkin. Bo‘larning barchasi vaqtning utishiga, binobarin, muammoli kreditning yanada muammolashuviga olib keladi.

Bunday hollarning oldini olish uchun kredit bo‘limi faoliyati tez-tez ichki audit tomonidan tekshirilib turishi, muammoli kreditlar, ularning sabablari aniqlanib turilishi lozim.

Muammoli kreditlar aniqlanganda kredit bo‘limi xodimi avvalam bor axborotlar, ma’lumotlar yig‘ishi va ularga asosan inqirozning oldini oluvchi strategiya ishlab chiqmog‘i lozim. Har bir muammoli kredit bo‘yicha alohida uning oldini olish yo‘llarini ishlab chiqishi zarur. Agar korxona samarali faoliyat olib boradigan bo‘lsa, muammoli kredit sohasidan ham o‘zi ijobiy natija bilan chiqishi mumkin. Aksincha korxona faoliyati pastroq bo‘lsa, u muammolarni osonlikcha yecha olmasligi mumkin. Shuning uchun kredit bo‘limi xodimi muammoli kredit yuzaga kelganini aniqlaganidan keyin quyidagi ishlarni amalga oshirishi zarur:

- qarz oluvchining muammolarini tahlil qilish;
- mijozning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida raxbariyatni xabardor qilish va bank boshqa bo‘limlar bilan mijoz to‘g‘risida maslahatlashishi;
- mijozning umumiyligi tashkiliy asosi, yuqori tashkiloti to‘g‘risida ma’lumot yig‘ishi;
- kredit hujjatlarini, kafolat, garov, veksel, shartnomalarini va boshqalarni ko‘rib chiqish;
- muammoli holatdan chiqish rejasini ishlab chiqishi.

Bank faoliyati doimo riskli operatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, ular faoliyatida doimo muammoli kreditlar yuzaga keladi. Respublika tijorat banklari kredit portfelining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ba’zi bir banklarda bunday kreditlar salmog‘i ancha yuqori. Bu kreditlarni boshqarish, ularni o‘z vaqtida undirib olish ancha vaqt va mehnatni talab qiladi. Hozirgi vaqtda tijorat

banklarida muammoli kreditlar bo‘yicha ishlarni kredit bo‘limi xodimlari olib boradi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, kredit bo‘limi xodimi shu kreditni bergenligi uchun mijozni, uning moliyaviy ahvolini yaxshi bilishi mumkin. Ikkinchi tomondan shu bank xodimi yetarli nazorat olib bormaganligi sababli shunday muammoli kredit yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Yana qolaversa, bu kredit xodimi shu kredit sohasida mijozga yon berishi mumkin. Shu sababli biz tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlovchi maxsus bo‘limlar tashkil qilish zarurligini taklif qilmoqchi edik.

Bankning ichki audit xodimlari yoki kredit bo‘limi xodimi tomonidan muammoli kredit yuzaga kelganligi yoki mavjudligi to‘g‘risida axborot aniqlangandan keyin bu kreditni boshqarish muammoli kreditlar bilan ishslash bo‘limiga topshirilishi lozim. Bu bo‘lim kredit bo‘limi bilan hamkorlikda ma’lumotlar yana bir bor tahlil qilib, muammoli holatdan chiqish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Buning uchun muammoli kreditlarni ularni berish bo‘yicha belgilariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lib, tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- bankning o‘z qarori bo‘yicha berilgan kreditlar;
- hukumat qarori bo‘yicha berilgan kreditlar;
- vazirliklar kafolati bo‘yicha berilgan kreditlar;
- boshqa turli qaror va kafolatlar bo‘yicha berilgan kreditlar.

Agar bank barcha riskni o‘ziga qabul qilgan holda o‘zi kredit berishga qaror qilib, bu kredit bo‘yicha muammolar yuzaga kelgan bo‘lsa, u holda bank bizning fikrimizcha mijozning aktsiyadorlik munosabatini ko‘rib chiqishi lozim. Agar mijoz bankning aktsiyadori bo‘lsa, kreditni qaytarish masalasini uning aktsiyadorlik jamiyatidan salmog‘i hisobidan amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kredit risklarini boshqarish usullari

Differensiatsiya— qarz oluvchilarning kreditga qobiligini baholash hamda uning reytingidan kelib chiqqan holda kreditlash shartlarini belgilash.

Kredit mablag'larining diversifikatsiyasi – kreditlashning turli xil ob'ekt va ko'rinishlarini amaliyotga joriy etish, muddati bo'yicha kredit portfelining muvofiqligini ta'minlash va boshqalar.

Risklarni chegaralash – alohida tarmoqlar va bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi kredit miqdorlarining limitini o'rnatish, yirik qarz oluvchilar uchun kredit miqdorining limitini belgilash va muammoli kreditlarni boshqarish.

Risklarni xedjirlash - hosilaviy moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish.

Risklarni bo'lish – yirik loyihalarni hamkorlikda kreditlash doirasida boshqa banklar bilan munosabatlar o'rnatish.

1. Diversifikasiya so'zi lotincha so'z bo'lib "diversus" har xil, + sacere - qilish, ya'ni har xillashtirish, turli-tumanlashtirish degan ma'noni bildiradi. bankning kredit portfelining diversifikasiyasini – bu bankning ba'zi mijozlaridan ko'rgan zararlarni boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlash demakdir. Diversifikasiyalashni uch xil yo'nalish bo'yicha olib borish mumkin. Bular portfel, geografik va kreditlarni to'lash muddatlariga qarab o'tkaziladigan diversifikasiya turlaridir. Banklarning kredit portfelini diversifikasiya qilish bankning kreditlarini har xil sohadagi bir necha mijozlar o'rtasida taqsimlashni o'z ichiga oladi. Diversifikasiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori risk bilan bog'liq bo'ladi.

Banklar uchun kredit portfelini diversifikasiyalash oson, kreditni kam summada turli sohalarga turli mintakalarga ajratishga erishish lozim.

Kreditlarni ta'minlanganligi bo'yicha diversifikasiya qilishda ta'minlash asos qilib olingan ob'ektning likvidlik darajasiga e'tibor berish zarur. Kredit ta'minlanganligi likvidlilik darjasini qancha yuqori bo'lsa, kredit va u bo'yicha foizning ham o'z vaqtida qaytishi oson va tez bo'ladi.

2. Xedjirlash – moliyaviy aktivlarning qimmatini barqarorlashtiruvchi instrumentdir.

Xedjirlashni 2 usulda amalga oshirish mumkin:

1. Tabiiy usul, u holda pozitsiyalar doirasida tanlov aniq aktivning so‘ndirish muddatlari bo‘yicha mos bo‘lgan passiviga mos holda amalga oshiriladi.

Agar portfel davomiyligi bo‘yicha mos bo‘lsa:

Da=Dp=T,

Bu holda, T-rejalashtirish muddati; Da, Dp-aktiv(passiv)larning davomiyligi bo‘lganda, u istalgan hattoki aktiv va passivlar miqdoran va yo‘nalishi bir xil bo‘lmagan holatlardagi foiz o‘zgarishidan ham himoyalangan.

2. Sintetik usul:

- Birinchidan, balans bo‘lmagan faoliyat turlari asosida suzib yuruvchi foizli bankning moliyaviy to‘lov larga (foizli svoplar) berilgans sudalari to‘lovlar bo‘yicha almashuv amalga oshiriladi.

Agar bankda aktiv va passivlar bo‘yicha foizlar suzib yuruvchi stavkalarda o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda ushbu bank quyidagilarni inobatga olishi zarur:

a) foiz stavkalarining o‘sishi ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, aktivlar summasi jalg qilinayotgan passivlar summasidan ko‘proq bo‘lishi mumkin;

b) foiz stavkalarining tushishi ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, passivlar summasi jalg qilinayotgan aktivlar summasidan ko‘proq bo‘lishi mumkin.

- Ikkinchidan, bank foiz stavkalarining oldindan aniqlangan yuqori va quyi chegaralaridan chiqib ketishidan himoya qiladi.

3. Kreditlash bo‘yicha limitlarni o‘rnatish.

Quyidagi parametrlar hisobga olgan holda kredit me’yorlari (limit) o‘rnatiladi;

• qarzdorlikning bir qarzdor (bevosita, bilvosita, va shartli majburiyatlar) bo‘yicha yuqori tavakkalchiligi 1-darajali bank kapitalining 25% i miqdorida;

- ishonchli kreditlarga bir qarzdor (bevosita, bilvosita, va shartli majburiyatlar) bo‘yicha yuqori tavakkalchiligi 1-darajali bank kapitalining 5%i miqdorida;
- qarzdorlar guruhi, bir-biri bilan bog‘liq va bankka dahldor qarzdorliklar bo‘yicha 1-darajali bank kapitalining 25%i miqdorida;
- bir soha va sektor doirasida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik sub’ektlariga 1-darajali bank kapitalining 25%i miqdorida.

4. Ma’lumki, kredit risklarini boshqarishningyana bir asosiyusullaridan biri bu -*qarz oluvchining kreditga layoqatliliginani aniqlash* hisoblanadi.

Kreditga qobililik – bu xo‘jalik sub’ektlari tomonidan kreditni o‘z vaqtida va to‘laligicha qaytara olish qobiliyatini hamda moliyaviy ahvoliga beriladigan bahodir.

Tijorat banklarining kreditga qobilikni baholash usullari uning o‘z majburiyatlarini vaqtida va batamom bajarish qobiliyatini nazorat qilishga imkon beradi. Kreditga qobilikni baholashning xususiyati - qarz oluvchining likvidligini, o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘larining tuzilishini, uning kredit va depozit siyosatining hamda ularni bat afsil tahlil etishidan iborat deb xulosa chiqarish mumkin. Moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanish bankning mijozni ahvolini va kreditga qobilligini to‘la-to‘kis ko‘rsatish imkonini beradi va bu esa bankning moliyaviy ahvolini va barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Kredit tavakkalchilagini boshqarish bank tomonidan kredit portfeli tarkibi va uning sifat tarkibi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirishni taqozo etadi.

Kredit tavakkalchilagini boshqarish prinsiplari tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilib, o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi:

A. Kredit tavakkalchilagini boshqarishga mos bo‘lgan muhitni yaratish.

1-Prinsip: Bank Kengashi bank kredit siyosati va kredit tavakkalchilagini boshqarish strategiyasini tasdiqlash va unga rioya qilinishini nazorat qilish

bo‘yicha javobgardir. Strategiya bankning tavakkalchilikka nisbatan ehtiyyotkorligi hamda bank tomonidan zimmaga olingan kredit risklarining daromadlilik darajasini aks ettirishi lozim.

2-Prinsip: Boshqaruv Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan kredit tavakkalchiligi bo‘yicha strategiyani amaliyatga joriy etish bo‘yicha javobgardir. U shuningdek kredit tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring va nazorat qilish mezonlarini ishlab chiqadi. Bunday siyosat va mezonlar bank faoliyatining barcha jabhalarda yuzaga keladigan kredit tavakkalchiligini qamrab olishi shart.

3-Prinsip: Faoliyatning barcha yo‘nalishlari va xizmatlar bilan bog‘liq kredit tavakkalchiligini aniqlash va boshqarish zarur. Bank o‘z zimmasiga yangi faoliyat yoki xizmat turlarining joriy etilishi bildan bog‘liq kredit tavakkalchiligini qabul qilishdan oldin tegishli mezonlarni ishlab chiqishi hamda bankning oliy rahbariyati yoki tegishli qumita tomonidan tavakkalchilikni zimmaga olinishi tasdiqlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

B. Asoslangan kreditlarni berish chog‘idagi faoliyat.

4-Prinsip. Bank qat’iy aniqlangan va belgilangan mezonlar doirasida kreditlarni berish faoliyatini amalga oshiradi. Bunday mezonlar jumlasiga bank ish olib borayotgan bozorning aniq ko‘rsatilishi, qarzdor yoki kontr hamkor to‘g‘risida to‘liq ma’lumot bo‘lishi, shuningdek kreditning yo‘nalishi va strukturasi hamda uni so‘ndirish manbalari aniq ko‘rsatilishini oladi.

5-Prinsip. Bank tegishli kitoblar, balans va balansdan tashqari hisob raqamlarda qarzdorlar va kontrhamkorlar, shuningdek o‘zaro bog‘liq kontrhamkorlar darajasida turli turdagи tavakkalchiliklarni taqqoslash va ahamiyatini aniqlash asosida umumiyl kredit me’yorlarini belgilashi zarur.

6 -Prinsip. Bankning kreditlarni tasdiqlashning hamda mavjud kreditlarga tegishli o‘zgartirishlar, yangiliklar kiritishning aniq o‘rnatilgan tizimiga ega bo‘lishi kerak

S. Kredit boshqaruvini olib borish.

7-Prinsip. Bankda turli kredit portfellarini boshqarish tizimi bo‘lishi kerak.

8-Prinsip. Bankda rezervlarga ajratmalar va rezervlar adekvatligini aniqlashni o‘z ichiga oluvchi alohida kreditlar holati yuzasidan monitoring tizimi bo‘lishi lozim.

9-Prinsip. Bank kredit tavakkalchiligi boshqarish uchun kreditlarning ichki reytingi tizimini ishlab chiqishi va undan foydalanishi zarur. Reyting tizimi bank faoliyatining turi, ko‘لامи va murakkabligiga mos kelishi kerak.

10-Prinsip. Bankda rahbariyat tomonidan balans va balansdan tashqari faoliyatga oid kredit tavakkalchiligini boshqarish imkoniyatini beruvchi informatsion tizimlar va analitik texnologiyalar bo‘lishi kerak.

11-Prinsip. Bankda kredit portfelining umumiy tarkibi va sifati monitoringini o‘tkazish tizimi bo‘lishi lozim.

12-Prinsip. Aloida kreditlar, shuningdek umuman kredit portfelini baholashda bank kelajakda iqtisodiy sharoitning o‘zgarishini hamda noqulay sharoitda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kredit tavakkalchiligini hisobga olishi zarur.


V. Tegishli kredit nazoratini ta’minlash.

13-Prinsip. Bank kredit tavakkalchilagini boshqarish jarayonlarini baholashning mustaqil tizimini tashkil etishi va tahlil ma’lumotlarini Bank Kengashi yoki oliy rahbariyatga to‘g‘ridan – to‘g‘ri taqdim etishi kerak.

14-Prinsip. Bank kreditlarni berish jarayonlarini boshqarishni ta’minlashi va kreditlar standartlar va me’yorlar doirasida berilayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

15-Prinsip. Bankda kredit tavakkalchilagini boshqarishdagi muammolarni tezkorlik bilan hal qilish tizimini bo‘lishi lozim.

Risklarni boshqarish jarayoning asosiy bosqichlarini quyidagi 8-chizmada bat afsil ko‘rib o‘tishimiz mumkin.



3-chizma. Riskni pasaytirish omillari

3- чизма. Рискни бошқариш жараёни босқичлари

Tijorat banklarida kredit berish asosiy operatsiyalardan biri bo‘lganligi hamda daromadning asosiy qismi aynan shu xizmatdan kelishini inobatga olib doimiy ravishda kredit riskini oldini olish va kamaytirish borasida choratadbirlarni joriy etib turishlari lozim hisoblanadi.

Bugungi kunda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunda muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan belgilab berilgan, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini

yaratish, uni yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi amal bo‘lib hisoblanadi.

Bank risklarini oldini olish va uni kamaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini tartibga soluvchi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi, “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Lizing to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi, “Istemol krediti to‘g‘risida”gi, “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi, “Ipoteka krediti to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida”gi va boshqa qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Markaziy bank tomonidan:

- ✓ Jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo‘yicha hisob-kitob qilish hamda omonatlarni jalb etish hamda to‘lovlarini amalga oshirish operatsiyasini tartibga soluvchi 45 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- ✓ Kreditlarning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z mablag‘lari va jadb qilingan mablag‘lar hisobidan o‘z nomidan kreditlar berish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, lizing hamda faktoring xizmatlarini ko‘rsatishga bog‘liq 40 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- ✓ Chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishga oid 30 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- ✓ Qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirishga oid 30 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar;
- ✓ Shuningdek, kredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, tartibga solish hamda ular faoliyatini inspeksiya qilishga doir 40 ga yaqin me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib amaliyatga tadbiq etilgan.³⁸

³⁸ «Bozor, pul va kredit» jurnali, №3, 2012y

Biroq shunga qaramay bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish juda muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi nafaqat uning mijozlari, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Quyida bank risklarining ayrim turlarida uchrayotgan muammolar yoki ularni yuzaga keltirayotgan ichki va tashqi omillarni keltirib o‘tmoxchiman.

Zamonaviy sharoitlarda kredit riskini boshqarishdagi asosiy muammolar bo‘lib, har tomonlama va chuqur kredit jarayonining tahlil tizimini va keng qamrovli metodologik bazaning mavjud emasligi, ma’lumotlar to‘liq bo‘lmagan sharoitlarda noto‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisoblanadi.

Kredit tashkiloti uchun kredit riskini xavfli oqibatlarini bartaraf etish maqsadida baholash jarayonini ma’muriyat kuzatish, nazorat qilish, kreditlarni qaytarish, avanslar, kafolat va boshqa instrumentlarni har tomonlama tahlil qilish zarur, ayniqsa bu investitsion kreditlashga tegishlidir.

Kreditlashda riskni boshqarish tizimiga qo‘yiladigan majburiy talab - kuzatuvchanlik, ya’ni, yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida qo‘shimcha chora-tadbirlar, monitoring usullari, metodlari, konkret natijalarini qayd qilish (fiksatsiya) imkoniyati; kredit tashkilotini amaliy faoliyatida nazariy metodik (uslubiy) ishlanmalardan foydalanish; kreditlashdagi risklarni kamaytirishga erishishga qaratilgan bank ichki nazorati xizmati va risklarni boshqarish, kredit boshqaruvini amal qilishi va kredit jarayonini samarali o‘tishini baholash uchun maxsus ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish.

Kreditlarning hajmi va soni oshgan sayin kreditning qaytarmaslik xatari ham ortib borishi bank amaliyotida ma’lum hodisadir. Bunday xatarlarni oldini olish uchun kredit tashkilotlarida mijozlarning kreditning qaytarishi qobiliyatini aniqlash maqsadida moliyaviy ko‘rsatkichlari (moliyaviy hisoboti), ta’minot, kreditlanayotgan loyiha (biznes reja, texnik iqtisodiy asos) tahlil qilinadi.

Bank sohasi amaliyotchilari va nazariyotchilari kredit xatari, jumladan, mijozning kreditni qaytarish qobiliyati tahlili masalasida ayrim hollarda mijoz taqdim etgan loyiha hujjatlari ko‘rib chiqilib, unga ijobjiy xulosa berilgan, ya’ni korxona barqaror (kutilayotgan pul oqimi kreditni qaytarish uchun yetarli bo‘lsa-da, kredit berilgandan so‘ng yoki qaytarish muddati yetib kelgach, uning qaytarilishida muammolar paydo bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Kredit riskini kamaytirish va oldini olish maqsadida qarz oluvchilarning moliyaviy holati va taqdim etilgan loyihalarni tahlil qilishdan tashqari, kreditning qaytmaslik xatarini kamaytirishning muhim omillaridan biri qarz oluvchilar to‘g‘risida axborotga ega bo‘lishdir. Bu axborot o‘z ichiga kredit olishga talabgor bo‘lgan shaxsning ilgari olgan kreditlarini qanday qaytarganligini, hozirgi vaqtda boshqa banklarda so‘ndirilmagan krediti yoki bo‘lmasa kafilliklarining mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oladi.

Tijorat banklari mijozlardan jalb etgan mablag‘lar evaziga tavakkalchilik asosida daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirish jarayonida Markaziy bank tomonidan ma’lum cheklovlarni o‘rnatalishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy normativlarning bajarilishini nazorat qilish uchun har oyda risklar va tarmoqlar bo‘yicha kredit portfeli shakllantiriladi. Bu hisobotni va analitik hujjatni shakllantirish bankka zarur bo‘lganda kredit portfelini diversifikatsiyalash bo‘yicha choralar qabul kilish imkonini beradi vashu bilankredit risklari minimallashtiriladi.

Bizning fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida bitta tarmoq korxonalariga berilgan kreditlarinng salmog‘ini 30 foizdan oshishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Bank kreditlarini likvidli aktiv turlariga ham diversifikasiyasini amalgalashish bank uchun juda ham unumli daromad keltirishi mumkin. Bizning amaliyotimizda bank kreditlari likvidli aktivlar sifatida qaralmaydi. Bu orqali bank kredit portfelining qanchalik likvidli ekanligini baholash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida kreditlarning yangi hosilaviy instrumentlarini tashkil

etishga imkoniyat yaratadi. Chunki hozirgi kunda banklar kredit portfelini faqatgina aktivlarni tasniflanganlik darajasiga e'tibor beradilar xolos. Vaholanki, albatda tijorat banklari o'z faolligini qo'rsatish maqsadida yaxshi kreditlar salmog'ini oshirib ko'rsatishga intiladilar. Buning oqibatida banklar o'zini – o'zi aldash bilan faoliyatini yomonlashishiga olib keladi.

Mamlakatimizda banklarni qarzdorlar to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash, bank tizimida kredit xatarini kamaytirish, kredit intizomini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 apreldagi 197-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida Kredit axboroti milliy instituti (KAMI, departament hududida) va O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi qoshida Banklararo kredit byurosi tashkil etildi. 2011 yil 1 yanvar holatiga KAMIga 732 mingdan ortiq qarzdorning 1 mln. 243 mingdan ortiq kredit shartnomasi to'g'risida axborot, ya'ni bank tizimi kredit qo'yilmasi to'liq kiritilgan. Har kuni banklarning 97 mingdan ziyod operatsiyalari qayta ishlanmoqda³⁹.

Banklar kredit risklarini boshqarish uchun mustahkam ishlab chiqarish jarayoniga ega emaslar. Ko'p uchraydigan kamchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ◆ siyosat izohining hujjat shaklida yozilganlining yo'qligi;
- ◆ portfel to'planishiga nisbatan cheklovlar yo'qligi;
- ◆ kredit boshqaruvining ortiqcha markazlashuvi yoki markazlashmasligi;
- ◆ kreditlanayotgan tarmoqni yaxshi tahlil qilmaslik;
- ◆ qarz oluvchilarning yuzaki moliyaviy tahlili;
- ◆ mijozlar bilan tez-tez aloqalarning bo'lmasligi;
- ◆ kreditlash jarayonini yetarlicha tekshirmaslik va muvozanatning yo'qligi;
- ◆ qarzlar ustidan nazoratning yo'qligi;

³⁹«Bozor, pul va kredit» jurnalining 2011 yil 9-soni.

- ◆ kredit sifatining yomonlashuvi oqibatida qarz qiymatini oshirish imkon yo‘qligi;
- ◆ qarzlarni hujjatlashtirish ustidan nazoratning yaxshi emasligi;
- ◆ qarz mablag‘laridan ko‘p foydalanish;
- ◆ kredit dokumentatsiyasining to‘liqmasligi;
- ◆ kreditlar bo‘yicha zararlarni qoplash uchun rezervlarni shakllantirishda aktivlar va standartlarni guruhlarga ajratishning yo‘qligi;
- ◆ kredit jarayonini samarali nazorat qilish va audit qilishning yetishmasligi.

Bu kamchiliklar kredit portfelining zaiflashishiga ta’sir etib, o‘z ichiga bir tarmoqqa yoki xo‘jalik sektoriga yo‘naltirilgan kreditlarning to‘planib qolishiga, turib qolishiga, katta miqdordagi kredit portfellari, kredit bo‘yicha zararlar, to‘lovga qobiliyatsizlik va nolikvidlilikni oladi.

Kredit riskini boshqarishda bank oldida turli xil jiddiy muammolar turadi. Davlat tomonidan nazorat, siyosiy tusdagi ichki va tashqi vaziyatlarning ta’siri, ishlab chiqarishning murakkablashuvi, moliyaviy cheklovlari, bozordagi holat, ishlab chiqarish grafiklari va rejaliarining buzilishi, biznes hamda ishlab chiqarish sohasidagi nobarqaror holatlar qarz oluvchining moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari moliyaviy axborot ko‘p hollarda ishonchsiz bo‘ladi. Huqukiy tuzilma ko‘p hollarda qarzni uzish bilan bog‘liq majburiyatlarni amalga oshirishga imkon bermaydi.

Bank amaliyotida kredit berish barcha operatsiyalar tarkibida eng salmoqli o‘rinni egallaydi. Shu bois kredit riskini minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish o‘ta dolzarb masala bo‘lib qolaveradi. Bu tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi. (16-jadvalga qarang).

16-jadval. Kredit riskini kamaytirish usullari⁴⁰

⁴⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

	Riskni kamaytirish choralari	Izoh
1.	Mijozning kreditga layoqatliliginin baholash	<ul style="list-style-type: none"> Bu usul mijozning reytingini aniqlashni ko‘zda tutadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashgan bo‘lib, uning amaliyotdagi mavqeyidan kelib chiqishi va vaqtiga bilan qayta ko‘rib chiqilishi lozim.
2.	Bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning summasini kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> Bu usul mijozning kreditga layoqatliliga to‘liq amin bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi.
3.	Kreditlarni sug‘urtalash	<ul style="list-style-type: none"> Kreditni sug‘urtalash uning qaytmaslik riskini to‘liq sug‘urtalash bilan shug‘ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini nazarda tutadi.
4.	Yeterli ta’mnotin talab qilish	<ul style="list-style-type: none"> Bu usul bankdan berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi.
5.	Diskontli ssudalar berish	<ul style="list-style-type: none"> Bu ssudalar unchalik katta bo‘lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usullarda kredit berish kreditga minimum to‘lov olishni ta’minlaydi.

Ushbu usullar yanada samara berishi uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bulardi:

- tijorat banklarining ssudalardan olinadigan foiz shaklidagi daromadlarini oshirish maqsadida, avvalo, ssudalarning bank aktivlari tarkibidagi salmog‘ini oshirish lozim.

- banklarning passivlari tarkibida markazlashgan resurslar va boshqa banklardan olingan kreditlarning salmog‘ini keskin kamaytirish va ularning o‘rniga muddatli va jamg‘arma depozitlarning salmog‘ini oshirish lozim.

- tijorat banklarida mijozning kredit to‘loviga layoqatlilagini baholash tizimini takomillashtirish lozim. Banklarda shunday baholash tizimi yuzaga keltirilishi lozimki, u mijozning real pul oqimini aniq belgilash va prognozlash imkonini bersin. Muhimi ushbu tizimni amaliyotga joriy qilish lozim. Bundan tashqari, baholash tizimida mijozning kredit yig‘ma jildini yuritishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

- kreditlash shakllaridan keng ko‘lamda foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Har bir kreditlash shakli unga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj natijasida yuzaga keladi va ularning risk darajasiga qarab bankning foiz stavkasi belgilanadi.

- kredit riskini kamaytirishga asosiy o‘rinni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy normativlarga qattiq rioya qilish lozim.

- kreditlar bo‘yicha hosil qilingan zahiralar kredit risklarining amortizatori vazifasini bajarsada, bankning to‘lovga qobilligiga to‘g‘rdan-to‘g‘ri xavf soladi. Chunki kreditlarning yuqori risklilik darajasi bankning o‘z mablag‘larini ma’lum qismini yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin.

- Tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog‘ini pasaytirish maqsadida:

– bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda biznes-rejalardagi ko‘rsatkichlarning ishonchli ekanligini tekshirish va ularga ta’sir qiluvchi omillarni baholash tartibini takomillashtirish lozim;

–o‘zini oqlamagan loyihalarga berilgan kreditlarning garov ta’mintoni sotishni tezlashtirish va boshqa ta’midot ob’ektlari realiazsiyasi ijrosini ta’minalash;

–muddati o‘tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog‘ining 5 foizdan oshmasligi xususidagi talab alohida ko‘rsatkich sifatida Milliy bankning kredit siyosatida belgilab qo‘yilishi va unga rioya qilish ustidan monitoring va nazorat Bank Boshqaruvi va Kengashi tomonidan doimiy ravishda olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kredit risklarini boshqarishning muhim elementlari bo‘lib, mukammal ishlab chiqilgan kredit siyosati va kreditlash jarayonini samarali olib borish, kredit portfelini oqilona boshqarish, yuksak saviyali kadrlarga ega bo‘lish hisoblanadi. Kredit risklarini boshqarish tijorat banklari faoliyatining standartiga aylanishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida banklarning barqaror faoliyati va xavfsizligini ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Kredit riskiga ta’rif bering?
2. Kredit riskining paydo bo’lish sabablari?
3. Kredit riskining qanday turlarinin bilasiz?
4. Kredit shartnomasi deganda nimani tushunasiz?
5. Insayder-bu?
6. Risklarni xedjirlash tushunchasini tushuntirib bering?

V-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING OPERATSION RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.

5.1. OPERATSION RISK TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI

Iqtisodiy adabiyotlarda hozircha operatsion risk haqida bir ma'noli tasavvur shakllanmagan bo'lib, bu hol ushbu turdag'i risk mohiyati va uni boshqarish usullarining turlich'a talqin etilishiga olib keladi. Ko'pincha operatsion risk ta'riflarida e'tibor uning quyidagi holatlarda namoyon bo'lishiga qaratiladi:

- axborot tizimlarida va ichki nazorat tizimlarida moliyaviy yo'qotishlarga olib keluvchi nuqsonlarning paydo bo'lishi. Ushbu risklar insonlarning hatolari, tizimlardagi uzelishlar va samarasiz nazorat tizimlarining mavjudligi bilan bog'liq;
- ichki jarayonlarga xos bo'lgan, ya'ni ichki jarayonlarda muammolar va nuqsonlarning paydo bo'lishi oqibatida yuzaga keladigan kamchiliklar;
- xizmatlar ko'rsatish yoki mahsulotlarni sotish bilan bog'liq kapital yoki daromadlar tavakkalchiligi.

Chet el iqtisodiy adabiyotlarida iqtisodiy risk haqida yuzaga kelgan to'rtta eng keng tarqalgan nuqtai nazarga to'xtalib o'tamiz.

Operatsion risklar jumlasiga azaldan moliyaviy risklarning boshqa turdag'i risklardan farq qiluvchi turlari (masalan, bozor va kredit risklari) kiritilgan. Albatta, bunday ta'rif juda keng hisoblanadi, chunki risklarning kredit tashkilotlari duch keladigan boshqa turlarining ro'yxati ancha katta bo'lib, masalan, biznes yuritishning rivojlanish strategiyasini tanlash, bozorda o'z mavqeiga ega bo'lish, menejmentning omilkorligi, nou-xau, raqobat ustunliklarini amalga oshirish usullari kabi jihatlarini qamrab oluvchi biznes-riskni o'z ichiga oladi. Risklar paydo bo'lishi sohalarining yuqorida keltirilgan

ro‘yxati, odatda, bevosita menejer tavakkalchiligining vakolatiga kirmaydi. Bundan tashqari, teskari holatdan tuzilgan ta’rif tadqiqot predmeti haqidagi bilimlarning to‘liqsizligiga olib kelish bilan birga, risklarni tasniflash va baholashni murakkablashtiradi.

Operatsion riskning ta’rifiga nisbatan boshqa bir nuqtai nazar uning yuzaga kelish sohasi bilan, birinchi galda, moliyaviy operatsiyalarning amalga oshirilishi bilan bog‘liq. U ma’lumotlarga ishlov berishdagi hatolar, axborot tizimlaridagi uzilishlar, jihozlarning texnologik nosozligi, operatsiyalarning noto‘g‘ri bajarilishi tufayli paydo bo‘lishi mumkin.

Mazkur holatdagi ta’rifda asosiy e’tibor operatsiyalarga ishlov berishning barcha bosqichlari bo‘yicha ularni bajarish tartibiga qaratiladi, biroq, masalan, tashkilot ichidagi firibgarlik, operatsiyalarni ruxsatsiz amalga oshirish, moliyaviy vositalarni baholashda modellardan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq risklar hisobga olinmaydi.

Uchinchi yondashuv e’tiborni tashkilot tomonidan operatsion risklar ustidan nazoratning amalga oshirilishiga qaratadi. Operatsion risk deganda tashkilotda ichki nazorat tizimi samarasiz faoliyat ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladigan risklar tushuniladi (biznes-risk bundan mustasno). Operatsion risklarning bunday talqin etilishida, masalan, tashqi firibgarlik, tabiiy ofatlar, xavfsizlik tizimining buzilishi va hokazolar nazardan chetda qoladi.

Va nihoyat, *to‘rtinchи nuqtai nazar* operatsion riskni biznes-jarayonlarni noto‘g‘ri tuzilishi, ichki nazorat tartiblarining samarasizligi, texnologik uzilishlar, xodimlarning ruxsatsiz xatti-harakatlari yoki tashqi ta’sir natijasida ko‘riladigan bevosita yoki bilvosita zararlar sifatida talqin etadi.

Ushbu ta’rif, bizningcha, yuqorida keltirilgan ta’riflardan farqli ravishda operatsion riskning o‘ziga xosligini, paydo bo‘lish sabablarini va uning kredit tashkiloti faoliyatiga ta’siri oqibatlarini to‘liq va aniq tavsiflaydi. Biroq, 2001 yilda Bazel qo‘mitasining yangi qoidasi qabul qilinishi bilan operatsion riskning mazkur hujjatda berilgan ta’rifi umumiylashtirildi.

Kapital bo'yicha yangi Bazel-2 kelishuviga muvofiq, "operatsion risk ichki jarayonlarni amalga oshirishda xodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar yoki hatolar, axborot tizimlari va texnologiyalarining faoliyat ko'rsatishi natijasida, shuningdek, tashqi voqealar oqibatida zararlar paydo bo'lishi tavakkalchiligi sifatida belgilanadi". Bunda Bazel qo'mitasining materiallarida operatsion risk yuridik (huquqiy) riskni ham o'z ichiga olishi alohida ta'kidlangan.

Bizning nazarimizda, Bazel qo'mitasining materiallarida keltirilgan ta'rif operatsion riskni yetarli darajada to'liq ochib bergen holda universal xususiyatga ega. U tijorat banklari uchun ham, boshqa moliyaviy institutlar uchun ham bir xil adolatli bo'lib, operatsion risklarning salbiy ta'siri natijasida zararlar ko'rishga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablar va muammolarning to'liq va tushunarli ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Rossiya Banki ham "operatsion risk" tushunchasini talqin etgan. Unga ko'ra operatsion risk deganda "bank operatsiyalari va boshqa bitimlarni amalga oshirish ichki tartib-qoidalarining kredit tashkiloti faoliyatining xususiyatiga va ko'lamlariga hamda (yoki) amaldagi qonun hujjatlariga mos kelmasligi, ularning kredit tashkilotining xizmatchilari va (yoki) boshqa shaxslar tomonidan (bexosdan yoki qasddan qilingan harakatlar yoki harakatsizliklar oqibatida) buzilishi, kredit tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan axborot, texnologik va boshqa tizimlar funksional imkoniyatlari (xususiyatlari)ning mos kelmasligi (yetarsizligi) va (yoki) ularning ishdan chiqishi (faoliyat ko'rsatishining buzilishi), shuningdek, tashqi voqealar ta'siri natijasida zararlar paydo bo'lishi tavakkalchiligi tushuniladi".

Operatsion riskning Rossiya Bankining hujjatida ifodalangan ta'rifi ancha keng bo'lib, bu bir vaqt ni o'zida uni beuxshov qiladi va tushunishni qiyinlashtiradi. Unda operatsion risklarning paydo bo'lishi sabablari va sohalari aniq belgilangan, bu, bir tomon dan, muhim belgilarni og'irlashtiradi, ikkinchi tomon dan esa tasniflashni amalga oshirish uchun asos yaratadi va kredit


tashkilotlariga operatsion riskning oldini olish a ularni boshqarish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Bizningcha, 2229-soni Nizomda berilgan tariff operatsion risk ta’riflarining yuqorida keltirilgan ro‘yxati ichida eng to‘liq va bir vaqtning o‘zida lo‘ndasi bo‘lib hisoblanadi.

Me’yoriy hujjatlarda **operatsion tavakkalchilik** - bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan tabiiy ofatlar, natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik -deb ta’rif berilgan.⁴¹

An’anaviy tarzda, risk tashkilot faoliyat ko‘rsatishi uchun salbiy natija, qandaydir ko‘ngilsiz oqibatlarning paydo bo‘lishi ehtimolini o‘zida namoyon etadi. Odatda risklar uchta turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi: birinchidan, risk – bu noaniqlik; ikkinchilan, risk tashkilotga raqobat ustunliklariga erishish imkonini beruvchi yangi imkoniyatlarni o‘zida mujassam etadi; uchinchidan, risk kompaniya (bank) faoliyatiga barbod qilish darajasida ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar duch keladigan barcha xildagi risklarni shartli ravishda uchta toifaga ajratish mumkin: voqealari (biznes-risklar), moliyaviy risklar va operatsion risklar.

⁴¹O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-soni bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom




4-rasm. Operatsion risk bilan riskning boshqa sohalari o‘rtasidagi nisbat

Kredit tashkilotlariga riskning yuqorida sanab o‘tilan barcha turlari xos bo‘lib, biroq, shuni alohida ta’kidlash lozimki, Rossiya va chet el banklarining hozirgi amaliyotida asosiy e’tibor moliyaviy riskka qaratiladi, chunki ularning tabiatи bank biznesining mohiyatidan kelib chiqqan holda bozor kon’yunkturasining o‘zgarib turishlari, ular tomonidan turli bozorlarda amalga oshiriladigan operatsiyalar xususiyati, likvidlilikni saqlab turishga bo‘lgan ehtiyoj bilan shartlangan. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, bugungi kunda oqibatlari va namoyon bo‘lishi nisbatan kichik bo‘lib, paydo bo‘lish ehtimoli esa ancha yuqori bo‘lgan strategik va operatsion riskka yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Shu munosabat bilan operatsion risklarni tasniflash, ularning paydo bo‘lishi sohalariga va manbalariga aniqliklar kiritish bilan bog‘liq mammolarni, ularni xolisona baholash usullarini ishlab chiqish va metodologik darajada operatsion risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish kredit tashkilotining joriy faoliyatida uchraydigan salbiy oqibatlarning oldini olish imkonini beradi.

Risklarni, shu jumladan operatsion risklarni tasniflash ajratilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bunday mezonlar sifatida quyidagilar ishtirok etishi

mumkin: risklarning paydo bo‘lish manbalari, risklar sohasi, kredit tashkiloti faoliyatining turi.

Operatsion risklarning ularning paydo bo‘lish manbalariga ko‘ra tasniflanishini sxema ko‘rinishida quyidagi tarzda namoyon etish mumkin.



rasm. Operatsion riskning paydo bo‘lish manbalari

Sxemada ko‘rsatilganidek, paydo bo‘lish manbalariga ko‘ra operatsion risklarni boshqaruvning qoniqarsiz sifati, tizimlar ishlashidagi kamchiliklar, xodimlar harakatlari, jarayonlarni tashkil etish va fors-major holatlar tufayli yuzaga keladigan turlarga bo‘lish mumkin.

Taqdim etilgan tasnifdan shu narsa kelib chiqadiki, operatsion risklarning katta qismi inson faoliyati bilan bog‘liq. Masalan, bevosita va bilvosita yo‘qotishlar (zararlar) xodimlarning ichki reglamentlar va tartiblarga amal qilish borasidagi hatolari, o‘g‘irlik, suiiste’molliklar, kadrlar bilimining yetishmasligi va ular malakasining past darajasi tufayli paydo bo‘ladi. Boz ustiga, hatto zararlar telekommunikatsiyalar, hisoblash texnikasi va axborot tizimlari ishlashidagi uzilishlar tufayli kelib chiqqan hollarda ham ko‘p hollarda ularning asosida insonlarning hatolari yotadi. Yuqoridagi sxemada keltirilgan beshta manbaning to‘rttasi xodimlar faoliyati bilan bog‘liqligi bejizga emas: boshqaruv sifati, tizimlar risklari, inson omili, jarayonlar. Faqat fors-major holatlar bundan mustasno.

Menejerlar shuni unutmasliklari lozimki, xodimlar – bu kompaniyaning asosiy aktivi, bu fikr ularni saqlab turishning yuqori harajatlari bilan tasdiqlanadi. Xodimlar bilan bog‘liq risklarni tavsiflovchi bir qator muayyan manbalarni ajratish mumkin. Bu birinchi galda insonning g‘oyat ko‘ngilsiz oqibatlarga olib keluvchi hatosi.

Bu ko‘proq boshqaruv sohasida yuzaga keladigan va boshqaruv qarorlarining sifati bilan bog‘liq hatolarga taalluqli. Albatta, bu yerda, eng avvalo, kadrlar malakasining past darajasi, qarorlar qabul qilishda ma’lumotlarning cheklangan doirasidan foydalanish, muammolarning dastlabki belgilari haqida ogohlantiruvchi ishoralarni inkor etish va ayrim boshqa holatlar risklarning muayyan manbalari hisoblanadi.

Manbalarning ikkinchi guruhi biznes-jarayonlarining buzilishi bilan bog‘liq. Masalan, kontragent bank noto‘g‘ri ko‘rsatilgan hollarda mablag‘larning o‘tkazilishi pul mablag‘larining bexosdan taqdim etilishiga olib kelishi mumkin. Hato o‘tkazilgan mablag‘larni qaytarish uchun hatto normal ishlab turgan bank ham ancha kuch va vaqt sarflashiga to‘g‘ri keladi.

Bankning ichki biznes-jarayonlari bilan bog‘liq operatsion riskning boshqacha tarzda namoyon bo‘lishiga misol tariqasida boshqaruv tizimidagi

hatolar va kredit tashkilotida ichki nazoratning yetishmasligi yoki past sifatini keltirish mumkin. O‘z vaqtida aniqlamagan limitlar oshirilishlari, operatsiya rahbariyati tomonidan ruxsat etilmagan alohida trederlar, operatsiyalar hisobini yuritishdagi suiiste’molliklar bir qator mashhur moliyaviy muassasalarning, xususan, *Barings* bankining sinishini keltirib chiqargan omillar hisoblanadi. Shuning uchun bank faoliyatini ko‘plab oddiy jarayonlarga bo‘lgan holda uning faoliyatini to‘liq tasavvur etish, shuningdek, tezda tashxis o‘tkazish va muammolar paydo bo‘lgan hollarda tezda choralar ko‘rish mumkin.

Xodimlar bilan bog‘liq operatsion risk paydo bo‘lishi manbalarining yana bir guruhi – bu xodimming noinsofligi va ishlab chiqilgan suiiste’molliklar ehtimolini istisno etuvchi tartiblar va harakatlar sifatining pastligi oqibatida yuz beradigan suiiste’mollik va firibgarlik. Firibgarlikka sodir bo‘lishi uchun buning uchun imkoniyat bo‘lishi kerak. Bunday imkoniyatning mavjudligi – ichki muammolar va hatolar natijasi. Kredit tashkilotini xufyona yoki kriminal iqtisobiyot bilan tijorat hamkorligiga jalb etish, bankka ziyon yetkazuvchi bitimlarni atayin amalga oshirish va ularning natijalarini yashirish kabilar firibgarlikka misob bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bilimlar va tajribaning bir insonda to‘planishi riskning boshqacha tarzda namoyon bo‘lishiga misol bo‘la oladi. Xodimlarning cheklangan soniga bog‘liqlik – banklarda uchraydigan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Dasturchi “mustaqil” shaxsga aylanadigan, u hozir bo‘lmaganida esa texnologik jarayon to‘xtab qoladigan vaziyat tez-tez uchrab turadi: **bunday mutaxassis u yoki bu sababga ko‘ra kutilmaganda ishdan bo‘sagan vaqtida ko‘plab banklar yo‘qotishlarga duch kelgan.**

Bundan tashqari, ko‘pincha mijozlar u yoki bu menejer bilan ishlashga odatlanadi, albatta, bir qator mijozlar bankka u yoki bu menejer tomonidan jalb qilinadi. Holbuki, bankdan mijozlar menejeri ketgan hollarda ayrim mijozlarning ham ketishi xatari mavjud.

Ushbu muammoni bank rahbariyati bilan mijozlarni olib kelgan menejer o‘rtasida rasmana kelishuvlarni tuzish hisobidan qisman hal etish mumkin. Biroq, boshqa muammo ham yuzaga kelishi mumkin: ko‘pincha o‘z mijozlarga ega bo‘lgan bank menejeri mijozga u barqaror bankka kelayotganligiga o‘ziga xos shaxsiy kafolatlarni beradi. Agar bankda muammolar paydo bo‘la boshlasa, menejer o‘zini qanday tutishi kerak? Bank korporativligi tamoyilidan kelib chiqqan holda u mijozlarga mablag‘larni bankdan olib ketishni tavsiya qilmasligi lozim, ikkinchi tomondan, bank, agar jalg qilingan mijoz pullarini yo‘qotsa, o‘z obro‘sini tahlikaga qo‘yadi: “o‘z” mijozlari bilan ishslashning tavakkalchiligi ana shunda namoyon bo‘ladi.

Bankning xodimlarning cheklangan soniga bog‘liqligi kredit tashkilotida bozorda mashhur bo‘lgan mutaxassis yoki mutaxassislar guruhi ishlagan hollarda ham namoyon bo‘ladi. Bunday mutaxassisdarning bankdan ketishi yaqin istiqbolda bevosa moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelmasligi mumkin bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan namoyon bo‘ladigan salbiy oqibatlar istisno etilmaydi (reytingga, biznesni baholashga ishbilarmon sheriklar tomonidan ta’sir etish). Afsuski, bu yerda ishslashning standart usullari mavjud emas, biroq ko‘p narsa mutaxassis bilan tuzilgan shartnomaning shartlari va tashkilotning korporativ madaniyati bilan belgilanadi.

Bankirlarga sifatsiz yuridik hujjatlar ham katta ziyon yetkazishi mumkin. Albatta, banklarda o‘rnatilgan shartnomalar va tartiblarga huquqshunos tomonidan viza qo‘yilishi shartligi tartibi ushbu risk darajasini pasaytiradi. Muammolar yuridik xizmat xodimlarining yetarlicha malakaga ega emasligi yoki ularning e’tiborsizligi sababli kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, qonun hujjatlari tez-tez o‘zgarib turadigan sharoitda hujjatlarga o‘zgarishlarni o‘z vaqtida kiritish uchun ko‘p sa’y-harakatlar qilishga to‘g‘ri keladi. Ushbu holatda muammoni normativ bazaning monitoringini o‘rnatish hamda huquqshunoslardan e’tiborini avvalambor pul mablag‘lari yo‘qotilishining har bir bank uchun yakka tartibda aniqlanadigan katta hajmdagi riskni o‘zida mujassam

etgan operatsiyalarga va barcha shartnomalarni yakka tarzda ko'rib chiqish tartibining o'rnatilishiga qaratish orqali hal etish mumkin.

Axborot tizimlarining ishlashidagi ehtimoliy uzilishlar yoki kompyuter dasturlarida yuzaga keladigan hatolar tufayli ularning noto'g'ri ishlashi kabi holatni alohida ajratish lozim. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bankdagi jarayonlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Biroq, ular ham operatsion risk manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunga texnik nosozliklar, hakkerlar hujumlariga duch kelish xavfsizligini ta'minlashning past darajasi, begonalarning foydalanishi va viruslar, elektr ta'minotidagi uzilishlar va hokazolar bilan bog'liq to'xtalishlar tufayli tizimlardan kerakli vaqtida foydalana olmaslik sabab bo'lishi mumkin.

Axborot tizimlarida uzilishlar ro'y bergan hollarda ish rejasining mavjud emasligi yoki bunday rejalarining past sifati ham katta hajmdagi zararlarga va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi to'xtalishlarga olib kelishi mumkin. Har qanday bank tahlilchilarida to'xtab turilgan har bir kun bank uchun qanchaga tushishining hisob-kitobi bo'lishi kerak, bunda bank nufuzining yo'qotilishi xavfi, muhim mijozlarning bankdan ketib qolishi ehtimolini hisobga olish lozim.

Dasturlarni ulardan foydalanishga kirishishdan avval testdan o'tkazish qat'iy tizimi, adekvat texnik hujjatlarning mavjudligi va dastur ishlab chiquvchisi javobgarligining tegishli shartnomalarda aniq qayd etilishi bunday risklar darajasini pasaytiradi.

Bank faoliyat ko'rsatayotgan atrof muhit sharoitlari yuqorida yoritilgan voqealar (firibgarlik, kadrlar siyosati, texnologik va texnik uzilishlar, bankning ichki biznes-jarayonlari) ta'sirini yanada kuchaytiradi. Bu yangi texnologiyalardan foydalanish va iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga muvofiq jarayonlarni avtomatlashtirish darajasining oshishi, mehnat bozori talablari va xodimlar kutishlarining o'zgarishi, amalga oshirilayotgan operatsiyalar murakkabligi va sonining oshishi tufayli yuz berishi mumkin.

Masalan, moliyaviy vositalarning murakkabligi tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlar tavakkalchiligi bankning axborot tizimi buxgalteriya hisobi va ma’lumotlar tahliliy bazasidagi bitimni bir xil tarzda hisobga olishga qodir bo‘lmagan hollarda namoyon bo‘ladi.

Masalan, Rossiya banklari hosila moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarni amalga oshira boshlagan 90-yillarning o‘rtasida ularning ayrimlarida axborot tizimlari kerakli tarzda tayyorlanmagan edi. Natijada, buxgalteriya hisobida hatolar soni oshdi, biroq, yanada achinarlisi, bank tahlilchilari hamma vaqt ham valyuta va foiz risklar haqida aniq tasavvurga ega bo‘la olishmasdi. Bundan tashqari, rahbariyat uchun tahliliy axborotni tayyorlash muddatlari cho‘zildi. Demak, bank uchun yangi bo‘lgan moliyaviy vosita bilan ishlashni axborot tizimlari uni to‘g‘ri aks ettirishiga ishonch hosil qilmasdan turib boshlash mumkin emas. Shuning uchun yangi moliyaviy vositalar bilan ishlash tartibini tasdiqlashning mukammal tartibi ushbu risk darajasini pasaytiruvchi foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, operatsion risk kamdan-kam hollarda yuz beradigan, biroq juda yirik miqdordagi yo‘qotishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan voqealar natijasida ham yuzaga kelishi mumkinligini unutmaslik lozim. Bular – tabiiy ofatlar, terrorchilik harakatlar, moliyaviy bozorlarning yopilishi va b.

5.2. OPERATSION RISKLARINING TURLARI VA ULARNI TASNIFLASH

Operatsion risklarni boshqa mezonlar asosida, masalan, bank faoliyatining mazmuni yoki risklar paydo bo‘lishining sohasiga qarab ham tasniflash mumkin. Operatsion risklarni bank faoliyatining mazmuniga qarab tasniflashda butun faoliyatni shartli ravishda boshqaruv va ishlab chiqarish faoliyatiga ajratamiz. Agar boshqaruv faoliyati bank tomonidan oldinga qo‘yilgan maqsadlar va vazifalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ishlab chiqarish faoliyati – bu bank

xodimlari tomonidan operatsiyalar yoki turli xildagi aktivlar va passivlarni shakllantiruvchi, mijozlarga xizmat ko'rsatish va risklarni xedjirlash uchun birlamchi va hosila moliyaviy vositalardan foydalanuvchi, bankning ichki va xo'jalik faoliyatini ta'minlovchi, axborot va boshqa texnologiyalarni yaratuvchi boshqa harakatlar amalga oshirilishining rasmiylashtirilgan jarayonlari. Ushbu faoliyat turlarini muayyan bloklarni o'z ichiga oluvchi jarayonlar sifatida namoyon etish mumkin.

Boshqaruv faoliyati sohasida bunday bloklar jumlasiga rejashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va nazorat qilish kiradi. Mazkur bloklar jarayonlarini tashkil etishdagi uzilishlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishning sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Ular, masalan, xodimlarning hatolari, shu jumladan jalb etilgan ma'lumotlarni yetishmasligi, ogohlantiruvchi ishoralarning inkor etilishi yoki to'liq hisobga olinmasligi, malakaning pastligi oqibatida yuzaga keladigan hatolar tufayli yuz berishi mumkin.

Ishlab chiqarish faoliyati sohasidagi jarayonlar quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi:

- faoliyat turlari (xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni va jismoniy shaxslarni kreditlash, mijozlar va banklar mablag'larini jalb qilish) bilan bog'liq operatsiyalar, valyuta va banklararo bozordagi operatsiyalar, likvidli pozitsiyani saqlab turish, qimmatli qog'ozlar bilan savdo operatsiyalari, balansdan tashqari operatsiyalar va b.;
- bank operatsiyalari va hisob yuritish texnologiyalari, masalan, operatsiya xizmatlari ko'rsatish, plastik kartalar protsessingi, inkassatsiya, buxgalteriya va boshqaruv hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va ma'muriy-xo'jalik faoliyatining boshqa turlari;
- axborot bazasi hamda axborot tizimlari va dasturlari;
- ishlab chiqarish faoliyati sub'ektlari.

Bank faoliyatining bunday yoritilishiga ko'ra operatsion risk ob'ektlarining quyidagi ikkita guruhini ajratish mumkin:

- bank faoliyatining turlari bilan bog‘liq jarayonlar;
- bank aktivlari va passivlari, bank bozori va bank texnologiyalari vositalari.

Risk ob’ektlarining birinchi guruhi bilan operatsion riskning quyidagi omillari bog‘liq:

- bank strategiyasining noto‘g‘ri tanlanishi;
- boshqaruv jarayonlarining takomillashmaganligi;
- ichki qoidalarning mavjud emasligi yoki sifatsiz ishlab chiqilganligi;
- tashqi voqealar.

Risk ob’ektlarining ikkinchi guruhi bilan, o‘z navbatida, riskning boshqa omillari, xususan, quyidagilar bog‘liq:

- xodimlar hatolari;
- axborot tizimlarining uzilishlari;
- texnologik hatolar;
- nazorat tartiblarining yetarsiz darajasi.

Ushbu omillar Bazel qo‘mitasi tomonidan taklif etilgan operatsion risklarni tasniflashning asosida yotadi. Xususan, operatsion riskning Bazel qo‘mitasi tomonidan taklif etilgan va bozorning barcha ishtirokchilari tomonidan standart ta’rif sifatida qabul qilingan ta’rifida ular bo‘yicha operatsion riskni quyidagi tarzda tasniflash mumkin bo‘lgan manbalar aniq ajratiladi:

- xodimlar hatolari;
- axborot tizimlarining uzilishlari;
- texnologik hatolar;
- tashqi voqealar.

Ayni paytda yuqorida ta’kidlanganidek, tasniflashning boshqa mezonlari ham taklif etiladi.

Qator xorijiy institutlar *Bankers Truist* tomonidan taklif etilgan operatsion risklar tasnifidan foydalanadi. Ushbu tasniflashning asosida risk sohasi mezoni yotadi: ichki va tashqi operatsion risklar.



Operatsion risklar tasnifi


Ichki risklar:

- xodimlar tavakkalchiligi – kompaniya xodimlari bilan bog‘liq barcha risklar, xususan, ularning ruxsatsiz xatti-harakatlari, yetarli bilimlarga ega emasligi, alohida mutaxassislarga bog‘liqlik va h.k.;
- texnologik risk – axborot tizimlari, dasturlar yoki ma’lumotlar bazalari, axborot uzatish tizimlari yoki kompaniya faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa jihozlarning uzilishlari va ishlamasligi tufayli kelib chiqqan risk;

- jismoniy ziyon ko‘rish tavakkalchiligi – tabiiy ofatlar yoki mijozlar bilan o‘zaro hamkorlikdagi qiyinchiliklar natijasida yuzaga keladigan risk;
- ichki nazoratning yetishmasligi.

Tashqi risk – bu tashqi tashkilotlar, jismoniy shaxslarning qasddan sodir etilgan xatti-harakatlari natijasida, shuningdek, davlat siyosati, qonun hujjatlari va tartibga soluvchi organlar talablarining o‘zgarishi sababli yuzaga keladigan risk.

Operatsion risklarni ularning paydo bo‘lishi sohasi mezoni bo‘yicha yanada bat afsil tasniflash ichki risklarni ishlab chiqarish faoliyati, jarayonlar va boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq risklarga bo‘lish lozimligini nazarda tutadi.



rasm. Operatsion risklarni ularning paydo bo‘lishi sohasiga qarab tasniflash

Bundan tashqari, tasniflashning boshqa mezonini, xususan, operatsion risklarni zararlarning paydo bo‘lishi sohasi va ularning oqibatlariga qarab tasniflashni taklif etish mumkin .

17-jadval

Operatsion risklarni zararlarning paydo bo‘lishi sohasi va ularning oqibatlariga qarab tasniflash

Zararlarning paydo bo‘lishi sohasi	Zararlar oqibatlari
Huquqiy majburiyatilar	Sud va boshqa harajatlar
Tartibga soluvchi va boshqa (shu jumladan, soliq) normalarga amal qilish	Jarimalar yoki istalgan boshqa jazolar, masalan, litsenziyaning olib qo‘yilishi natijasida bevosita to‘lovlar
Aktivlar qiymatining yo‘qotilishi	Baxtsiz hodisa (masalan, ehtiyyotsizlik, yong‘in, avariya, zilzila va h.k.) tufayli moddiy aktivlar qiymatining bevosita qisqarishi
Mijozlarga qoplash	Uchinchi tomonlarga bank ular uchun huquqiy javobgarlikka ega bo‘lgan operatsion zararlar hisobiga to‘lovlar
Regressdan ko‘rilgan zararlar	Uchinchi tomonning bank oldidagi majburiyatilarining bajarmasligi tufayli ko‘rilgan, operatsion hatodan yoki voqeadan kelib chiquvchi zararlar
Sanatsiya	O‘g‘irlik, firibgarlik, ruxsat etilmagan xattiharakatlar natijasida aktivlar qiymatining bevosita qisqarishi yoki operatsion voqealar tufayli bozor yoxud kredit zararlari

Yuqorida keltirilgan tasniflarning har biri, bir tomonidan, operatsion riskning ko‘p qirralilagini, ikkinchi tomonidan, ularning bank risklarining boshqa turlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatib turibdi.

Bank risklari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri umuman bank portfelining tavakkalchilida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu hol bog‘liqliklarni aniqlash, operatsion risklarni baholash va boshqarish zaruratin keltirib chiqaradi.

18-jadval

Operatsion riskning bozor va kredit risklari bilan o‘zaro bog‘liqligi

Operatsion risk	Bozor tavakkalchiligi	Kredit tavakkalchiligi
Bitim to‘g‘risidagi ma’lumotlarning noto‘g‘ri kiritilishi	Zarar keltiruvchi savdo pozitsiyasi	Kredit va zahira summasi noto‘g‘ri aniqlangan
Tekshirilmagan bozor axboroti	Joriy qiymatni yoki portfel tavakkalchilagini noto‘g‘ri baholash	Zahira miqdori noto‘g‘ri aniqlangan, kredit portfelining sifati noto‘g‘ri baholangan
Limitlarga rioya etilishini nazorat qilmaslik	Limitlarning oshirilishi	Limitlar, kredit liniyasi miqdorining oshirilishi
Noto‘g‘ri tasdiqlar	Hato xedjirlash	Kredit va zahiraning noto‘g‘ri miqdorlari
Bitimlarni nazorat qilmaslik	Bitimlarni bajarish muddatlarining buzilishi	To‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirmslik
Hisobotlarni taqdim etishdagi kechikishlar	“Dunyo” savdosi	Kreditlarning ruxsatsiz berilishi

Operatsion, bozor va kredit risklari o‘rtasida sababli-oqibatli bog‘lanishidan tashqari salbiy ta’sirni “kumulyativ” oshirish samarasi ham o‘rin tutadi. Noto‘g‘ri axborotning kiritilishi bozor risklarini boshqarishdagi hatolarga

olib keladi, bu esa o‘z navbatida katta miqdordagi zararni keltirib chiqaradi. Hisobotlardagi hatolar, xodimlarning noto‘g‘ri xatti-harakatlari yoki axborot tizimining vaqtincha to‘xtab qolishi bozor yoki kredit tavakkalchiligi natijasida ko‘rilgan dastlabki zararni bir necha marta oshirganiga ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Masalan, Amerika moliyaviy kompaniyalaridan biri diler savdo tizimida operatsiyalarni amalga oshirishda aktsiyalar sonini ularning qiymati bilan chalkashtirganligi tufayli katta miqdorda zarar ko‘rdi. Ushbu hato darhol aniqlanib, to‘g‘rilanganligiga qaramay ko‘p sonli bitimlar o‘ta noqulay shartlarda tuzildi. Risklarning o‘zaro bog‘liqligiga yana bir misol shundan iboratki, axborot resurslaridan foydalanish huquqlarining mos kelmasligi tufayli dilerlar va treyderlar savdo operatsiyalari uchun yangi hisobvaraqlarni ochishlari, bitimlar amortizatsiyasini mustaqil tarzda amalga oshirishlari mumkin. Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olgan holda, shuni ta’kidlaymizki, kredit tashkilotining faoliyati amalga oshirilayotgan operatsiyalarni, xodimlar xatti-harakatlarini tahlil etish va nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan to‘g‘ri, aniq va o‘z vaqtida taqdim etilgan axborotga asoslanishi lozim.

Bazel qumitasining 30 ta yirik komitetga a’zo banklarning tajribasi asosida qo‘yidagi operatsion risklra bo‘yicha xulosalar qilingan:

- a) Bankning ichki nazorati tizimsida va korporativ boshqaruvida o‘zilishlarning mavjudligi buyicha risklari;
- b) Xatoliklar sodir etish, vaqtinchalik ish grafigini buzish- moliyaviy yo‘qotishlarga olib keladi.
- v) O‘z vazifasidan su’iste’mol qilgan dillerlar, kredit inspektorlar va lavozimli shaxslarni noahloqiy va xatarli xatti harakati bankning manfaatiga zarar olib keladi;
- g) Ushbu risklarga avtomatlashgan axborot tizimlarning yirik nosozligi, tabiiy ofatlar, yog‘inlar va hokazolar kiradi.

Operatsion risklar butun bank faoliyatini aniq bir konkret operatsiyalardan to butun bankning faoliyatini yaxlit holatiga qadar qamrab oladi.

Operatsion risklarni tarkibi quyidagilar:

Bank ahloq kodeksiga rioya qilmaslik:

- Qonun talablarni rioya qilmaslik, bank ahloqiy normalarini va ishbilarmonlik urflarni rioya qilmaslik (yoki buzish);
- Huquqi bilan suiste'mol qilish;
- Fuqaroni huquqini, manfaatini va obro'sini paymol qilish va o'z obro'siga ziyon keltirish;
- Ijtimoiy xavfli loyihalarga, dasturlarga, noqonuniy va bema'ni aktsiyalarga (jamoalar yurishiga) qatnashish;
- Qonunda ko'rsatilmagan imtiyozlar va afzalliklarni mijozlarga va sheriklarga ko'rsatish;
- Bank xizmat bozorida afzalliklar holatini ishlatish, suiste'mol qilish (me'yordan oshmaslik kerak);
- Huquqni saqlash va boshqa davlat organlari imkoniyatlarini noqonuniy o'z raqobat kurashida ishlatish;
- O'z faoliyatini siyosiy, diniy, ilmiy va boshqa bosimlar asosida tashkil qilish;
- Ekstremistik, millatchilik, radikal partiyalarni oqimlariga moliyaviy, ahloqiy yordam ko'rsatish.

Tijorat banklarida operatsion risklariga rioya qilmaslik tamoyillari:

1.Resurslarni jalb etish va kredit resurslarini yaratish tamoyili: (depozit, kredit resurslari va hokazo).

2.Haqiqatda mavjud bo‘lgan mablag‘lar doirasida (chegarasida) bank mijozlariga xizmat ko‘rsatish tamoyili: (iqtisodiy me’yorlar bankni likvidligini ta’minlaydi).

3.To‘la iqtisodiy mustaqillik tamoyili: Bank mustaqil ravishda daromad topadi va foydasini o‘zi mustaqil taqsimlaydi. (mustaqillik me’zonlari daromad, risk, likvidlik).

4.Bank faoliyatining tijorat tavsifi, tahlil tamoyili: (daromad, harajat, foyda, mablag‘larni ishlatalishini samaradorligi, investitsiya qilish, bank xavfsizligi va h.k).

5.Mijozlar manfaati tamoyili: Mijozlar manfaatiga mo’ljallash va ularni himoya qilish tamoyili: Hamma narsa mijoz uchun. Biroq bank puli bilan risk qilish mumkin emas. Bank va mijoz o‘rtalariga o‘zaro manfaatdorlik bo‘lishi kerak.

6.Bankning daromadligi va ular faoliyatining universallashuvi tamoyili.

7.Qonunlarga rioya qilish tamoyili.

8.To‘lovlik tamoyili: Bankning hamma xizmatlari daromad keltirishi kerak.

9.Ishbilarmonlik va ahloqiy qoidalar tamoyili: mijozlar bilan o‘zaro ishonch, hurmat va teng huquqli asosda munosabatlarni qurish, shartnomadagi majburiyatlarni buzmaslik.

10.Ratsional (mo‘tadillik) faoliyat tamoyili: Har bir ishda o‘rtacha yondashish kerak.

11.Bank ishida ahloqiy tamoyillar: kasbiy burch hammani teng bilish, faoliyatda shaffoflik, sirni saqlash, javobgarlik.

Bank ishida ahloqiy tamoyilga rioya qilmaslik bilan bog‘liq operatsion risklarni tarkibi quyidagilar:

- Jamiyat va fuqarolar oldida fuqarolik va kasbiy burch;

- Fuqarolarni teng bilib, ularni huquqiy va manfaatini hurmat qilish;
- (Professional) kasbiy faoliyatda shaffoflik, bank sirini saqlangan holda;
- Bank xizmatlari bozorining qatnashchilari tomonidan o‘zaro nazorat;
- Bank xizmatini sifatini yuqoriligidagi kafolat berish va olingan majburiyatlarni shartsiz ravishda rioya qilishi;
- O‘tkazilgan bank operatsiyalarini odilona xavfu-xatar bilan ta’minlash;
- Bank ishini sifati va natijasi bo‘yicha to‘liq javobgarligi;
- Bank faoliyatida noinsof qatnashchilariga qarama-qarshilik ko‘rsatish va to‘g‘ri raqobatni tashkil qilish;
- Qoida buzarlarni dalillari bilan oshkora qilish;
- Bank sohasida jinoiy yo‘l bilan daromad topish va uni rasmiylashtirishga qarama-qarshilik ko‘rsatish; shu jumladan shunga o‘xhash noqonuniy ishlarga qarshilik ko‘rsatish;
- Xalqaro va millatlararo aloqalarda o‘zaro yordam va o‘zaro hurmat qoidalari asosida faoliyat ko‘rsatish.

Ishbilarmonlik va ahloqiy tamoyillariga rioya qilmaslik bilan bog‘liq operatsion risklarni tarkibi quyidagilar:

- Sheriklar bilan o‘zaro ishonch, hurmat va teng huquqli asosda munosabatlarni qurish.
- Ishbilarmonlik munosabatlarda shartnomalarda ko‘rsatilgan majburiyatlarni buzmaslik.
- Sud qarorlarini va boshqa qonunlarda ko‘rsatilgan majburiyatlarni to‘la va vaqtida bajarishlik.
- Munozaralik holatlari paydo bo‘lganda kelishishlik va suhbat asosida hal qilish.

Bazel qo‘mitasi **operatsion riskni** ichki jarayonlar va tizimilarning nomuvofiqligi, xodimlarning mas’uliyatsizligi yoki boshqa tashqi omillar

hisobiga yuzaga keladigan xavf-xatar deb baholaydi. Mazkur tushuncha bank va uning xodimlari tomonidan qonunchilikka, ahloqiy me'yorlarga, shartnomalariga majburiyatlariga rioya etmaslik hamda sud jarayonining ko'zg'atilishi tufayli yuzaga keladigan huquqiy riskni ham ko'zda tutadi. Operatsion risk turlariga quyidagilardan iborat:

- Ichki bo'hton va firibgarlik, ya'ni dillerlar tomonidan bank holati buyicha noto'g'ri ma'lumotlarning berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irliklar, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini sohtalashtirish va boshqalar;
- Tashqi bo'hton va firibgarlik, ya'ni hujjatlarni o'g'irlash va soxtalashtirish, kompyuter aloqalariga ruxsatsiz kirish, kredit olish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
- Mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va hisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik;
- Moddiy aktivlarga zarar yetkazish, ya'ni qo'poruvchilik, terrorizm, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar;
- Ishdagi, axborot va aloqa tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya'ni texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar;
- Hujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o'tkazish va jarayonlarni boshqarish, ya'ni ma'lumotlarni kiritishdagi hatoliklar, huquqiy hujjatlarning yetishmasligi, kredit ta'minotiga tegishli hatoliklar va boshqalar.

5.3. OPERATSION RISKLARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH

Operatsion risklar bilan ishslash usullari va darajasi turli banklarda risk darajasi va turi, bank operatsiyalarining hajmi va turiga bog'liq ravishda turlicha

bo‘ladi. Ammo Bazel-II talablarida kapitalga nisbatan talabni aniqlashda operatsion risklarni o‘lchashning 3 ta usuli: baza ko‘rsatkichlari asosida yondashuv, standartlashgan yondashuv, rivojlantirilgan yondashuvni keltiradi.

Baza ko‘rstakichlari asosida yondashuvda bank operatsion risklarni qoplash uchun oxirgi uch yilda o‘rtacha yillik yalpi ijobiy foydaning **15%** iga teng kapitalni ko‘zda tutishi lozim. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{BIA} = [\sum (GI_{1...n} * \alpha)] / n$$

Bu yerda: **K_{BIA}** - kapitalga qo‘yilgan talab; **GI** - oxirgi uch yilda urtacha yillik yalpi ijobiy foyda; **n** - yillar miqdori (uch yil); **α** - 15% bu kurstakich Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan.

Standartlashgan yondashuvda butun bank faoliyati 8 ta yo‘nalishga ajratiladi: korporativ moliya, oldi-sotdi va sotish, chakana bank xizmatlari, bankning tijorat operatsiyalari, to‘lovlar va hisob-kitoblar, agentlik xizmatlari, aktivlarni boshqarish va chakana brokerlik operatsiyalari. Har bir yo‘nalish bo‘yicha yalpi foyda mazkur yo‘nalish uchun foiz me’yorini aniqlashda asos bo‘ladi. Ushbu foiz me’yori risklarning har bir yo‘nalish bo‘yicha darajasi va turiga bog‘liq holda 12 dan 18 foizgacha tebranadi. Kapitalni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$K_{TSA} = \{ \sum_{yillar1-3} \max [\sum (GI_{1-8} * \beta_{1-8}), 0] \} / 3$$

Bu yerda: **K_{TSA}** - kapitalga qo‘yilgan talab; **GI₁₋₈** - har yil uchun 8 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yillik yalpi ijobiy foyda; **β₁₋₈** - 12-18% bu ko‘rstakich Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan.

Rivojlantirilgan yondashuv operatsion riskni qoplash uchun kerak bo‘ladigan kapital miqdorini hisoblashning xususiy usuliga asoslanadi. Ushbu usulni ma’lum bir sifat va miqdor andozalariga javob beradigan banklar

ishlatishi mumkin. Bank rahbariyati Markaziy bankning operatsion riskni baholash tizimi, ma'lumotlarni jamlash sifati, nazorat mexanizmini shakllantirilganligiga ishontirishi lozim.

5.4. OPERATSION RISKLARNI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Yuqorida ta'kidlanganidek, raqobatning qat'iylashuvi, inqirozlar migratsiyasi, bank mahsulotlari va xizmatlarining murakkablashuvi, yangi turdag'i moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi, ayrim jarayonlarning yetarlicha nazoratsiz boshqa korxonalarga o'tkazilishi, moliyaviy institutlarning texnik ta'minot vositalariga bog'liqligining oshishi va boshqalar butun jahonda bank tizimlarining barqarorligi uchun jiddiy chaqiriq bo'ldi. Ushbu jarayonlarni hisobga olgan holda Bazel qo'mitasi bank faoliyatini tartibga solishga nisbatan yangi yondashuvlarni olg'a surdi.

Bank tizimlari barqarorligining shartlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan talablar ichida uchta asosiy talabni ajratish mumkin: kredit institutlari kapital bazasining risklariga adekvatlik, tartibga soluvchi organlar nazorat faoliyatining sifatini oshirish va bozor intizomiga rioya etish.

Tijorat banklari kapitalining yetarlilikiga nisbatan qo'yiladigan talablar zahiralar yaratilishini talab qiladigan risklar to'plamini kengaytirish hisobidan doimiy ravishda qat'iylashib boradi. Risklarning ana shunday yangi turlari jumlasiga operatsion risklar kiradi. Yaqin kelajakda nufuz va strategik risklarni baholashga nisbatan yondashuvlar ishlab chiqilib, ular asosida xalqaro hisobkitoblar banki yangi tavsiyalarni shakllantiradi.

Xalqaro amaliyotda va Bazel qo'mitasining tavsiyalarida risklarni baholashning standart va yakka tartibdagi modellarini qo'llash nazarda tutilganligini hisobga olgan holda hozirgi bosqichda nazorat faoliyatida asosiy

e'tibor tijorat banklarida amal qilib turgan risklarni boshqarish tizimlarini baholashga, jarayonlarni tashkil etishga, menejerlar faoliyatida yo'l qo'yilgan hatorlarni tahlil qilishga ko'chiriladi.

Bank faoliyati keng jamoatchilik uchun yanada ochiq bo'lishi kerak, bu barcha manfaatdor investorlar uchun oshkorlikni nazarda tutadi va bozor intizomiga rioya etishga nisbatan qo'yiladigan talablar asosida amalga oshiriladi.

Kapitalning yetarliligi to'g'risidagi yangi Bazel kelishuviga muvofiq bankning xususiy kapitali kredit, bozor va operatsion risklarni kapital bilan qoplashga nisbatan qo'yiladigan talablar summasi sifatida belgilanishi lozim. Shu munosabat bilan Bazel qo'mitasi banklarga operatsion risklar uchun zahira qilinadigan kapital miqdorini uchta yondashuv asosida belgilashni tavsiya qiladi:

- bazaviy indikator;
- standart yondashuv;
- operatsion riskni baholashga nisbatan ilg'or yondashuv.

Operatsion risk uchun kapital zahirasining miqdorini hisoblashga nisbatan bazaviy indikator asosidagi soddalashtirilgan yondashuv operatsion risk darajasining bank faoliyatining ko'lamiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi mavjudligini nazarda tutadi. Biroq, mazkur holatda ichki nazorat tartiblari ham, faoliyatning turli yo'nalishlari nuqtai nazaridan riskka moyillik ham hisobga olinmaydi. Biroq, shu bilan birga zahirani hisoblashga nisbatan soddalashtirilgan yondashuv operatsion risklar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zahira sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan ayrim kattaliklarga ega bo'lish imkonini beradi. Kredit tashkilotining faoliyatini tavsiflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkich sifatida yalpi daromad (GI)dan foydalilaniladi. Bazel qo'mitasi ushbu ko'rsatkichni sof foizli daromad va sof foizsiz daromad sifatida ifodalaydi, bu ko'proq yalpi daromad tushunchasiga mos keladi. Mazkur ta'rifga milliy nazorat organlari tomonidan quyidagi shartlarga amal qilgan holda u yoki bu

mamlakatda amal qilib turgan buxgalteriya hisobi va hisobotlar standatlariga muvofiq tuzatishlar kiritilishi mumkin:

- 1) yalpi daromad ssudalar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplash uchun zahiralar chegirma qilingunga qadar hisoblab chiqiladi;
- 2) bank portfelidagi qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirilgan har qanday operatsiyalarning moliyaviy natijasi yalpi daromadga kiritilmaydi;
- 3) yalpi daromad bir martalik, takrorlanmaydigan operatsiyalar natijasini, shuningdek, bitimlarni sug‘urtalashdan olingan daromadni o‘z ichiga olmasligi lozim.

Operatsion risk uchun zahira qilinadigan kapital miqdori (*ORC*) Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan doimiy kattalik – alfa (α) koeffitsiyenti bilan aniqlanadi:

$$ORC = GI \times \alpha \quad (7.1)$$

bu yerda *GI* – oxirgi 3 yil uchun o‘rtacha holatga keltirish yo‘li bilan hisoblangan yalpi daromad;

α – kapitalni zahira qilish koeffitsiyenti.

Operatsion risk oqibatida kutilmagan yo‘qotilarning kapitalni zahira qilish koeffitsiyenti olinadigan daromadning miqdoriga nisbatan o‘rtacha holatga keltirilgan darajasini aks ettiradi. Dastlab Bazel qo‘mitasi alfa (α) koeffitsiyentini yalpi daromad miqdorining 30 foizi darajasida belgilashni taklif etdi. Mazkur holatda operatsion risk uchun zahira qilinadigan kapital bo‘yicha talablar kapital yetarliligi umumiy eng kam normativining taxminan 20 foiziga teng bo‘lar edi. Keyinchalik bunday talablarni asossiz tarzda oshirilgan deb hisoblagan bank hamjamiyatining bosimi ostida ular Bazel qo‘mitasi tomonidan yalpi daromadning 12 foizigacha pasaytirildi, bu kapital yetarliligi umumiy eng kam normativining 17-20 foiziga mos kelgan bo‘lardi. Bank hamjamiyati bilan davomli maslahatlashuvlardan keyin va empirik tадqiqotlar natijalarini tahlil

qilib, Bazel qo‘mitasi ushbu ko‘rsatkichni oxirgi 3 yil uchun yalpi daromad o‘rtacha miqdorining 15 foizi darajasida belgiladi.

Bazaviy indikator asosidagi yondashuv eng qulay hisoblanib, u operatsion risklarni baholashning takomillashgan uslubiyotlarini qo‘llash ular uchun qiyinchilik tug‘diradigan tashkilotlarda muvaffaqiyatlari qo‘llaniladi. Har qanday bank uni qandaydir dastlabki shartlarsiz amaliyatda qo‘llashi mumkin, deb nazarda tutiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv faoliyatning turli sohalarida operatsion risklar paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini bermaydi.

Bankda faoliyatning bir necha namunaviy yo‘nalishlari ajratilishiga va ularning har biri bo‘yicha alohida zahira qilinadigan kapital miqdorining belgilanishiga asoslangan *standart yondashuv* yuqorida yondashuvga qaraganda ancha aniq hisoblanadi. Unga ko‘ra bankning barcha operatsiyalari faoliyatning standart yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflanadi, ularning har biri bo‘yicha bank yalpi daromadining miqdori hisoblab chiqiladi va zahira qilinadigan kapital miqdorini hisoblash uchun beta (β) koeffitsiyenti beriladi. Butun bank uchun kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablar faoliyatning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha zahirani oddiy qo‘shish yo‘li bilan qo‘lga kiritiladi:

$$ORC = \sum(GI_i \times \beta_i), \quad (7.2)$$

bu yerda GI_i – oxirgi 3 yil uchun o‘rtacha holatga keltirish yo‘li bilan hisoblangan i faoliyat turidan olingan yalpi daromad;

β_i – i faoliyat turi uchun kapitalni zahira qilish darajasi.

Bazel qo‘mitasi “birinchi darajali” faoliyatning sakkizta yo‘nalishidan iborat tasnifni va beta koeffitsiyentining ularga mos keluvchi qiymatlarini taklif qildi (19-jadval).

19-jadval

Faoliyatning standart yo‘nalishlari uchun beta koeffitsiyentlari qiymati, %

Faoliyat yo‘nalishi	B
Korporativ moliya	18
Savdo operatsiyalari	18
Chakana bank xizmatini ko‘rsatish	12
Tijorat bank xizmatini ko‘rsatish	15
To‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish xizmatlari	18
Agentlik xizmatlari	15
Aktivlarni boshqarish	12
Brokerlik operatsiyalari	12

Ushbu tasnif mazkur yondashuvni qo‘llovchi barcha banklar uchun yagona bo‘lgan standart tasnif hisoblanadi. Tijorat banklarining vazifikasi faoliyatning standart yo‘nalishlari bo‘yicha yalpi daromadning **dezagregatsiyasini** o‘tkazishdan iborat.

Ayni paytda Bazel qo‘mitasi tomonidan bank nazorati milliy organlariga standart yondashuv bilan solishtirilganda ushbu yondashuvning, masalan, bir risklarning ikki marta hisobga olinishini istisno etish nuqtai nazaridan, afzalligini dalillar asosida isbotlay oladigan banklarga nisbatan “muqobil standart yondashuv”ni qo‘llash huquqi berildi.

Muqobil yondashuvning yagona farqi shundan iboratki, faoliyatning ikkita yo‘nalishi – chakana va tijorat bank xizmatini ko‘rsatish uchun riskka moyillik ko‘rsatkichi sifatida yalpi daromad emas, balki kreditlarning muayyan koeffitsiyent (t)ga to‘g‘rilanadigan hajmidan foydalaniladi. Ushbu ikki faoliyat turining operatsion risklari uchun zahira qilinadigan kapitalning miqdori quyidagi tarzda hisoblab chiqiladi:

$$ORC = \beta \times t \times LA, \quad (7.3)$$

bu yerda LA –korporativ (chakana) qarzdorlarga berilgan kreditlar va ssudalarning ssudalar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplash uchun zahira chegirma

qilinib, risk bo'yicha chamalangunga qadar oxirgi 3 yil uchun o'rtacha holatga keltirish yo'li bilan hisoblangan umumiy summasi;

$$t = 0,035.$$

Muqobil standart yondashuv doirasida banklar chakana va tijorat kreditlarini berish operatsiyalarini unga nisbatan 15 foiz miqdoridagi yagona beta (β) koeffitsiyenti qo'llaniladigan bir yo'nalishga birlashtirishga haqli. O'zining yalpi daromadini faoliyatning jadvalda keltirilgan qolgan oltita yo'nalishi o'rtasida taqsimlay olmaydigan banklar ular uchun zahira qilinadigan kapitalni o'zlarining umumiy yalpi daromadini 18 foizga teng bo'lgan beta (β) koeffitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqishlari mumkin. Huddi standart yondashuvdag'i kabi kapitalga nisbatan qo'yiladigan talablar faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha qo'shiladi va, shu tariqa, operatsion risklar uchun zahira qilinadigan kapitalning umumiy miqdori aniqlanadi.

Quyidagi shartlarga amal qilish bo'yicha talablar operatsion riskni baholashga nisbatan standart va yanada murakkabroq yondashuvlarni qo'llashning muhim sharti hisoblanadi:

- direktorlar kengashi va yuqori bo'g'in rahbarlari operatsion risklarni baholash va ularni boshqarish jarayonni nazorat qilishda faol ishtirok etadi;
- bankda menejment tavakkalchiligi konseptual jihatdan to'g'ri hisoblanadi va kerakli tarzda foydalaniladi;
- bank tanlangan yondashuvni faoliyatning barcha yo'nalishlarida hamda nazorat va audit bo'linmalarida joriy etish uchun yetarli resurslarga ega.

Bundan tashqari, nazorat organlari kapital yetarlilagini baholashning u yoki bu usulini qo'llashga ruxsat etishdan avval (standart usul bundan mustasno) tijorat banklarini ular tomonidan tanlangan operatsion riskni baholash sxemasining asosliligi va yuzaga kelgan amaliyot nuqtai nazaridan tekshirishlari mumkinligi nazarda tutiladi.

Standart yondashuvdan foydalanishni istovchi banklarga nisbatan operatsion risklarni nazorat qilish va boshqarishning ichki tizimiga taalluqli bir qator sifat xususiyatlari talablar qo‘yiladi. Ushbu talablar mohiyati quyidagilardan iborat:

- bank o‘zining tashkiliy tarkibida operatsion riskni identifikatsiyalash, baholash, monitoring va nazorat qilish yoki uni pasaytirish funksiyalarini bajaruvchi operatsion risklarni boshqarish bo‘linmasiga ega bo‘lishi kerak;
- operatsion risklarni boshqarish tizimi bankda risklarni boshqarish jarayonining tarkibiy qismiga aylanishi lozim, bunda ushbu tizimning faoliyat ko‘rsatishi uchun bank faoliyatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha operatsion risk oqibatida moliyaviy va moddiy yo‘qotishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plashi va tahlil qilishi zarur;
- operatsion risk oqibatida yo‘qotishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘linmalar rahbarlari, yuqori rahbariyat va bank direktorlar kengashining hukmiga muntazam havola etilib turilishi lozim;
- bank o‘zi tomonidan foydalilanigan operatsion riskni baholash tizimi haqida bat afsil hujjatlarga ega bo‘lishi kerak;
- operatsion riskni baholash tizim bankning tegishli bo‘linmalarini tomonidan ham, tashqi auditorlar va nazorat organlari tomonidan ham muntazam ravishda tekshirilib turilishi lozim.

Operatsion riskning faoliyatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha tabaqlanishi hisobiga hisoblab chiqilgan kapital miqdorining bazaviy indikatorga asoslangan yondashuvga qaraganda kam bo‘lishi mumkinligi standart yondashuvning yaqqol ustunligi hisoblanadi.

Standart yondashuv bank faoliyatining har bir yo‘nalishi bilan bog‘liq operatsion risklarni aniqroq baholash imkonini beradi. U katta miqdordagi taxminlarga asoslangan, xususan, ushbu yondashuv operatsion risklarning

amalga oshirilishi natijasida ko‘rilgan zararlarning taqsimlanishi ehtimolini va tashkilotda mazkur risklar ustidan nazorat qilish darajasini e’tiborga olmaydi.

Operatsion risklarni nazorat qilish va pasaytirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin (20-jadval):

20-jadval

Tijorat bankida operatsion risklarni nazorat qilish va pasaytirish usullari

Usul	Qo‘llashning ustunligi
Ichki nazorat tizimi va tartibi	Mustaqil nazar
Operatsion risk bo‘yicha limitlar tizimi	Ehtimoliy zararlarni cheklash
Ehtimoliy muammolarni aniqlash uchun hisobotlar tizimi	Operatsion riskni boshqarish uchun rag‘batlantirish
Sug‘urtalar va qayta sug‘urtalash	Riskni sug‘urtalovchiga o‘tkazish
Zahiralarni yaratish (huddi ssudalar bo‘yicha an’anaviy zahiralar kabi)	Ehtimoliy zararlarni kompensatsiyalash imkoniyati
Moliyaviy bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirish tartibi	Oldini olish va amalga oshiriladigan operatsiyalarni nazorat qilish
Moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda axborot tizimlaridan foydalanish	Axborotni olishni markazlashtirish, uning butligi va o‘z vaqtidaligi, axborot foydalanishning cheklanganligi

Kapitalning yetarlilikini hisoblab chiqishning yuqorida ko‘rib chiqilgan uslubiyotlariga xos bo‘lgan kamchiliklarni “operatsion riskni baholashga nisbatan ilg‘or yondashuvlar”ga o‘tish orqali bartaraf etish mumkin. Mazkur yondashuvlar banklarda operatsion risklarni tahlil qilish borasidagi o‘z modellaridan foydalanishni va operatsion zararlar monitoringini nazarda tutadi. Baholashning ushbu modellari yordamida hisoblab chiqilgan yo‘qotishlar kapitalning yetarliligiga nisbatan talablar sifatida qabul qilinadi. Banklar ularni

mazkur usullar muayyan sifat va miqdoriy mezonlarni qanoatlantirgan taqdirda va faqat nazorat organining ruxsati bilan qo'llashlari mumkin.

Dastlab Bazel qo'mitasi operatsion riskni ichki baholash asosida bundan avvalgi usulga asoslangan yondashuvni taklif etdi. Unda huddi standart yondashuvdagi kabi bank faoliyatining bir necha yo'nalishlari ajratilardi, bundan tashqari, qo'shimcha tarzda bank operatsion risklar oqibatida ko'rishi mumkin bo'lgan operatsion zararlarning bir necha turlar ajratildi.

Shunday qilib, agar standart yondashuv faoliyatning ularning har biri uchun kapitalni zahira qilish koeffitsiyenti belgilangan turlari ro'yxatini reglamentlasa, u holda baholashning ichki modellaridan foydalanishda faoliyatning har bir turi va operatsion zararlarning har bir turi uchun risk moyillik ko'rsatkichlari va kapitalni zahira qilish koeffitsiyenti (γ gamma koeffitsiyenti) o'rnatiladi. Ushbu talablar yig'indisini tegishli matritsa ko'rinishida taqdim etish mumkin (21-jadval).

21-jadval

Faoliyatning standart yo'nalishlari va operatsion yo'qotishlar turlari

Faoliyat nomi	Hisob-dan chiqaris h	Mablag'-larning qaytarilmasisligi	Kompen-satsiya	Harajat-lar va chiqimlar	Jarimalar va penyala	Mulkka yetkazilgan ziyon
Korporativ moliya						
Savdo operatsiyalar i						
Chakana bank xizmati ko'rsatish						

Tijorat bank xizmati ko‘rsatish						
To‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish xizmatlari						
Agentlik xizmatlari						
Aktivlarni boshqarish						
Brokerlik operatsiyalar i						

Operatsion zararlar turlarining yuqorida keltirilgan ro‘yxati Bazel qo‘mitasi tomonidan taklif etilgan standart variant hisoblanadi. Ushbu yondashuvda riskni ichki baholash shuni nazarda tutadiki, faoliyat yo‘nalishi va operatsion zararning har bir kombinatsiyasi uchun bank quyidagi qo‘shimcha ko‘rsatkichlarni aniqlashi lozim:

- risk amalga oshirilgan hollarda yo‘qotishlar darajasi;
- operatsion risk ehtimoli.

Mazkur ko‘rsatkichlar boshqaruv hisobi axboroti, operatsion risklardan ko‘rilgan zararlar bo‘yicha to‘plangan statistik, shuningdek, tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblashning ishlab chiqilgan uslubiyoti asosida hisoblab chiqilishi kerak. Mazkur uslubiyot, xususan, operatsion zarar miqdoriga va

uning paydo bo‘lishi ehtimoliga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki nazorat tartiblarini nazarda tutish imkonini beradi.

Kapitalning talab etiladigan miqdorini hisoblash uchun yondashuvda riskni ichki baholash asosida quyidagi formula taklif etilgan

$$ORC = \sum (EI_{i,j} \times PE_{i,j} \times LGE_{i,j} \times \gamma_{i,j}) = \sum EL_{i,j} \times \gamma_{i,j} \quad (7.4)$$

bu yerda $EI_{i,j}$ – i turdagи faoliyat va j xildagi operatsion yo‘qotishlar uchun riskka moyillik ko‘rsatkichi;

$PE_{i,j}$ – i turdagи faoliyat va j xildagi operatsion yo‘qotishlar uchun operatsion risk paydo bo‘lishi ehtimoli;

$LGE_{i,j}$ – i turdagи faoliyat va j xildagi operatsion yo‘qotishlar uchun risk amalga oshirilgan hollarda yo‘qotishlar darajasi;

$\gamma_{i,j}$ – i turdagи faoliyat va j xildagi operatsion yo‘qotishlar uchun kapitalni zahira qilish darajasi;

$EL_{i,j}$ – i turdagи faoliyat va j xildagi operatsion yo‘qotishlar uchun kutilayotgan zarar miqdori.

Mazkur yondashuv doirasida kutilayotgan operatsion zararlar darajasi va ularning paydo bo‘lishi ehtimolini aniqlash uchun foydalaniladigan ko‘plab variantlar va modellar mavjud. Ularning katta qismi bank sohasida operatsion zararlarga doir statistik axborotdan foydalangan holda murakkab matematik hisob-kitoblarga asoslanadi. Biroq, bugungi kunda mazkur sohada yuqorida tilga olingan qiyinchiliklar tufayli operatsion risklarni miqdoriy baholash borasida hozircha muhim natijalarga erishgani yo‘q.

Kapitalning yetarliligi darajasini hisoblashda hisobga olinishi nazarda tutilgan qo‘shimcha omil – bu kutilayotgan va kutilmagan zararlar nisbati. Yuqorida keltirilgan formuladan shu narsa kelib chiqadiki, ushbu yondashuvni qo‘llashda gamma (γ) koeffitsiyentida aks ettiriladigan kutilayotgan va kutilmagan zararlar o‘rtasida doimiy nisbat mavjudligi to‘g‘risida ayrim taxmin nazarda tutiladi. Biroq, agar muayyan bank tarmoq bo‘yicha o‘rtacha

ma'lumotlar bilan solishtirilganda yirik ko'lamli risklarga moyil bo'lsa, ushbu holatni operatsion risklar uchun zahira miqdorini hisoblashda hisobga olish zarur. Shu maqsadda operatsion risklar uchun zahira qilinadigan kapital miqdorini hisoblash formulasiga qo'shimcha ko'rsatkich – tashkilotda tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirilganda kutilayotgan va kutilmagan zararlar o'rtasidagi nisbatni tavsiflovchi risk sohasi indeksi kiritildi (risk sohasi indeksining tarmoq bo'yicha o'rtacha qiymati 1 ga teng deb nazarda tutiladi). Agar kredit tashkilotida ushbu ko'rsatkich tarmoq bo'yicha o'rtacha darajadan katta bo'lsa (kutilmagan zararlar tarmoq bo'yicha o'rtacha darajadan yuqori bo'lsa), u holda risk sohasi indeksining qiymati 1 dan katta, teskari holatda esa 1 dan kichik bo'ladi. O'z navbatida, ushbu og'ishlar operatsion risklar uchun zahira qilinadigan kapitalning umumiyligi miqdorini hisoblashda o'z aksini topadi:

$$ORC = \sum (EI_{i,j} \times PE_{i,j} \times LGE_{i,j} \times \gamma_{i,j} \times RPI_{i,j}) \quad (7.5)$$

bu yerda $RPI_{i,j}$ – i turdag'i faoliyat va j xildagi operatsion yo'qotishlar uchun risk sohasining indeksi.

Keyinchalik Bazel qo'mitasi "riskni ichki baholash" tushunchasiga yuqorida ko'rib chiqilgan ichki baholash asosidagi yondashuvdan tashqari, zararlar ehtimollarini taqsimlashga asoslangan boshqa "baholash kartochkalari" asosidagi yondashuvni ham kiritgan holda uning talqinini kengaytirdi. Shu va boshqa shunga o'xshash uslubiyotlar riskni baholashga nisbatan "ilg'or yondashuvlar" umumiyligi nomini oldi. Zararlar ehtimollarini taqsimlashdan foydalanish faoliyatning alohida yo'naliishlari yoki ularning ishonch darajasi yuqori bo'lgan guruhlari bo'yicha operatsion VaRni hisoblashni nazarda tutadi.

Bazel qo'mitasining operatsion riskni ilg'or yondashuvlar yordamida baholash borasidagi taklifi bank hamjamiyatida bir xil ma'noda qabul qilinmadni. Tarmoq amaliyoti uzoq vaqt o'rganilib, turli yondashuvlar ochiqcha muhokama etilganidan va dastlabki tadqiqotlar natijalari tahlil qilinganidan keyin Bazel qo'mitasi operatsion riskni tahliliy baholashning qandaydir bir yoki bir necha

usulini kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablarni eng zamonaviy yondashuvlar va modellar yordamida hisoblashni istovchi banklar uchun normativ usullar belgilamaslikka qaror qildi. Buningn o‘rniga u miqdoriy va sifat mezonlarining ro‘yxatini taklif etdi.

Sifat mezonlari asosan yuqorida sanab o‘tilgan, standart yondashuv doirasida belgilangan talablarga o‘xshash.

Miqdoriy mezonlar operatsion riskni baholashning foydalanilayotgan modeliga taalluqli bo‘lib, quyidagilardan iborat:

- operatsion riskni hisoblashda ishonch darajasi va vaqt doirasi huddi ichki reytinglar asosida kredit tavakkalchilagini baholashga nisbatan yondashuvdag'i kabi bo‘lishi kerak;
- zahira qilinadigan kapitalning eng kam miqdori operatsion risk oqibatida kutilayotgan va kutilmagan zararlarning bankning ichki modeli yordamida hisoblab chiqiladigan summa sifatida aniqlanadi;
- operatsion riskni baholashning ichki modeli operatsion riskning asosiy omillarini hisobga olish uchun detallashtirilgan bo‘lishi lozim;
- zahira qilinadigan kapitalning eng kam miqdori operatsion riskning alohida turlari bo‘yicha yo‘qotishlar hajmini qo‘sish yo‘li bilan hisoblab chiqiladi.

Shu bilan birga nazorat organi bankka, agar bank o‘zi tomonidan qo‘llanilayotgan korrelyatsiyalarni aniqlash uslubiyotini asoslay olsa, kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablarni hisoblashda operatsion riskning turli omillari bilan yakka baholari o‘rtasidagi korrelyatsion o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olishga ruxsat etishi mumkin.

Ushbu mezonlarga qo‘shimcha ravishda Bazel qo‘mitasi operatsion risk oqibatida yo‘qotishlar bo‘yicha ichki modellarda foydalaniladigan ichki va tashqi ma’lumotlarga, ssenariyali tahlilni o‘tkazishga hamda tashqi muhitni hisobga olishga va ichki nazorat tizimlariga nisbatan qo‘yiladigan talablarni ifodaladi. Masalan, mazkur yondashuv doirasida bank operatsion yo‘qotishlar

bo‘yicha xususiy ma’lumotlar bazasini yaratishi lozim. Ushbu bazadan riskni empirik baholash yoki model bo‘yicha hisoblab chiqiladigan prognoz baholarini verifikatsiyalash uchun asos sifatida foydalanish mumkin. Ta’kidlash lozimki, operatsion riskning kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablarni hisoblash uchun foydalilaniladigan bank ichidagi baholari amida 5 yil mobaynida operatsion yo‘qotishlar bo‘yicha ichki statistikaga asoslanishi kerak (operatsion riskni baholashga nisbatan AMA yondashuvlariga o‘tishda to‘plangan ma’lumotlarning chuqurligi kamida 3 yilni tashkil qilishi kerak).

Bank o‘z hisob-kitoblarida operatsion risk oqibatida yo‘qotishlar bo‘yicha ichki ma’lumotlardan foydalanishi lozim. Bunda ko‘rilgan yo‘qotishlar haqidagi ochiqcha axborot yoki umuman bank sektori bo‘yicha yalpi statistika tushuniladi. Tashqi ma’lumotlar o‘z ko‘lamiga ko‘ra juda katta zararlarni keltirib chiqarishga qodir bo‘lgan kamdan-kam yuz beradigan voqealarni modellashtirishda juda foydali bo‘lishi mumkin. Tashqi ma’lumotlardan foydalanish malakali ekspertlar tomonidan o‘tkaziladigan ssenariyali tahlil bilan mustahkamlanishi kerak. Uning maqsadi katta hajmdagi yo‘qotishlar holatini prognoz qiishdan iborat. Bundan tashqari, ssenariyali tahlil operatsion riskning turli omillari o‘rtasidagi korrelyatsion o‘zaro bog‘liqlikning buzilishi oqibatlarini baholash uchun ham zarur.

Va nihoyat, butun bank miqyosida operatsion riskni baholashda bankning operatsion riskka moyilligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tashqi muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini va ichki nazorat tizimining mavjudligini e’tiborga olish lozim. Bunday omillar kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablarni aniqlashda tuzatishlar sifatida hisobga olinishi lozim.

AMA yondashuvlarining eng muhim ustunligi shundan iboratki, banklarga operatsion riskning bahosini va sug‘urtadan foydalanishda kapitalga nisbatan qo‘yiladigan ularga asoslangan talablarni operatsion risklar uchun zahira qilinadigan kapital umumiylar miqdorining ko‘pi bilan 20 foiziga

pasaytirishga ruxsat etiladi. Operatsion riskni sug‘urtalash quyidagi talablarni qondirishi kerak:

- sug‘urtalovchi A va undan yuqori reytingga ega (kredit reytingi emas, balki sug‘urta reytingi, ya’ni sug‘urtalovchi tomonidan o‘zi ishtirokida tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovlarning amalga oshirishlishi ehtimolini aks ettiruvchi reyting);
- sug‘urta polisi kamida 1 yillik dastlabki amal qilish muddatiga ega, bunda agar nihoyasiga yetguncha qolgan muddat 1 yildan kamni tashkil qilsa, bank ushbu pasayishni kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablarni hisoblashda sug‘urta qoplamasini tegishlicha (90 kun va undan kam muddat qolganida 100 foizgacha) kamaytirish yo‘li bilan aks ettirishi lozim;
- sug‘urta polisi sug‘urta qildiruvchi bankni shartnomani buzish va cho‘zishni rad etish haqida xabardor qilishning muayyan davrini nazarda tutadi;
- sug‘urta polisi sug‘urta qildiruvchi bank uchun ham (nazorat organi tomonidan unga nisbatan ta’sir etish choralari ko‘rilgan hollarda), tashqi boshqaruvchi uchun ham (bank bankrot bo‘lgan horllarda) uning amal qilishini bekor qiluvchi yoki chekovchi qoidalarni o‘zida mujassam etmaydi;
- sug‘urta qoplamasi operatsion riskning aynan ushbu bank unga duchor bo‘lgan omillariga nisbatan amal qiladi;
- sug‘urta bankka nisbatan mustaqil bo‘lgan sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladi;
- kapitalga nisbatan qo‘yiladigan talablarni hisoblashda operatsion risklardan sug‘urtani hisobga olish uslubiyoti asoslangan va kerakli tarzda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak;
- bank sug‘urta yordamida zahira qilinadigan kapital miqdorini pasaytirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkora e’lon qiladi.

Operatsion riskni baholashga nisbatan ilg‘or yondashuvlar tashkilotda operatsion risklarning o‘ziga xos xususiyatini yanada aniqroq hisobga olish va

zahira qilinadigan kapitalning risklar va tashkilot faoliyatining ko‘lamiga mos keluvchi summasini aniqlash imkonini beradi. Ta’kidlash lozimki, ular banklarga ichki nazoratning ishonchli tizimidan foydalanish hisobiga operatsion risklar uchun zahiralar darajasini kamaytirish imkonini beradi. ushbu tizimning mavjud bo‘lishi kutilayotgan va kutilmagan zararlarning miqdoriga ham, ularning paydo bo‘lish ehtimoliga ham ta’sir ko‘rsatadi.

5.5. OPERATSION RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH

Operatsion riskni to‘g‘ri boshqarish uchun tijorat bankida tegishli kunlik nazorat va ma’lumotlarni jamlash jarayoni tashkil etilgan bo‘lishi darkor. Markaziy bank tijorat banklaridan ular darajasiga, risklar miqdori va turiga, banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligiga mos operatsion risklarni baholash va boshqarish mexanizmini yaratilishini talab qilishga xaqlidir. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan operatsion risklar bo‘yicha qoida va talablarga rioya etilishi yuzasidan doimiy va alohida nazoratni olib borishi lozim.

Tijorat banklari o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqalarga nisbatan ko‘proq o‘rganishlari talab etiladi. Chunki tijorat banklari o‘z faoliyati bilan bir tomondan o‘z aktsiyadorlari oldida javobgar bulsalar, ikkinchi tomondan o‘z mablag‘larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar. **1-jadvalda** operatsiyalar o‘tkazganda paydo bo‘ladigan xavf-xatar nuqtai nazaridan bank mahsulotlari xilma-xilligi ko‘rsatilgan.

22- jadval: Bank mahsulotlarini risk darajasi.⁴²

⁴² «Bank ishi» I.R.Toymuhamedov, 2005yil, 106-bet.


№	Bank mahsulotlari	Mahsulotlarning tovar-kiymat xususiyati	Xavf-xatar parametralri (potensiali)
1	Ssuda operatsiyalari	Qarzdorlarga kredit berish	Kredit riski (imkonini bor va ommabop)
2	Depozitlarni boshqa banklarga joylash, Tirish	Moliyaviy resurslar savdosi	Foizli risk (axborotlarga ega bo‘lish saviyasiga ko‘ra)
3	Depozitlarni mijozlardan jalb etish	Moliyaviy resurslarni sotib olish	Foizli risk
4	Mijozlar talabiga ko‘ra hisob-kitoblarni amalgaga oshirish	Xizmatlar savdosi	Tijorat riski imkoniyati
5	Kapital qo‘yilmalarni bankning shaxsiy mablag‘lari hisobidan moliyalash	Moliyaviy resurslar savdosi	Risklarning yuqori ehtimolliligi
6	Qimmatbaho qog‘ozlarni olish	Qimmatbaho qog‘ozlar portfelini shakllantirish uchun bank harajatlari	Tizimli risk imkoniyati
7	Kafolatnomalarni berish va kafolatlash	Xizmat ko‘rsatish	Kafolat tasnifiga bog‘liq risk
8	Valyuta oldi-sotdisi va uni sotib olish	Oldi-sotdi savdosi	Valyuta riski
9	Lizing operatsiyalarini amalgaga oshirish	Ijara	Ahamiyatsiz risk

10	Xizmatlar ko'rsatish va tovar yetkazib berish bazasidan	Oldindan to'lov, pul mablag'lari savdosi	Pul mablag'larini yo'qotish riski (ahamiyatli)
-----------	---	--	--

Operatsion risklarni boshqarish – moliya, shu jumladan bank sohalarida eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Boshqaruv maqsadi kredit tashkilotining faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olish, biznes-jarayonlar ustidan nazoratni kuchaytirishdan iborat.

Ma’lumki, menejment nazariyasida boshqaruv funksiya sifatida ko‘rib chiqiladi. Ayni paytda, ta’kidlash lozimki, boshqaruv risklarni identifikatsiyalash, ularni baholash, qarorlar qabul qilish va monitoringga asoslanuvchi uzluksiz jarayonni o‘zida namoyon etadi. Boz ustiga, bizningcha, boshqaruv – bu tizimli jarayon, ya’ni operatsion risklarni boshqarish unsurlarning muayyan to‘plamiga ega bo‘lgan tizimni o‘zida namoyon etadi.

Operatsion risklarni boshqarish jarayonini sxema ko‘rinishida taqdim etamiz (4-rasm).




4-rasm. Operatsion risklarni boshqarish jarayoni

4-rasmdan ko‘rib turganimizdek, operatsion risklarni boshqarish jarayonini tashkil etishning asosida tijorat banking jarayonlarni optimallashtirish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan ishbilarmonlik siyosati yotadi. Boshqaruv jarayoni riskni identifikatsiyalash bosichidan boshlanadi, so‘ngra u baholanadi, biroq ushbu bosqich alohida murakkablik bilan ajralib turadi.

Albatta, moliyaviy risklarni baholash uchun tijorat banklarining ixtiyorida yetarlicha axborot mavjud, chunki ular tomonidan voqealar sodir bo‘lishining oqibati sifatida foyda yoki yo‘qotishlar qonuniyatları va hajmini aniqlash imkonini beruvchi ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. Operatsion risklarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ularning aksariyat omillari ichki operatsion muhitga taalluqli, shuning uchun bu yerda alohida pozitsiyalar, operatsion yo‘qotishlar ehtimoli va miqdori o‘rtasidagi aniq matematik-statistik bog‘liqlikni aniqlash qiyin. Operatsion risklar bilan bog‘liq voqealar, odatda, statistik taqsimlashning “dumida”, oqilona ishonchli oraliq tashqarisida bo‘ladi. Shu munosabat bilan Value at Risk (VaR) kabi statistik usullarni qo‘llash avvalambor ma’lumotlar **reprezrativ**ligining yetarli emasligi tufayli murakkablashgan. Boshqacha aytganda, bu yerda muayyan qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, chunki statistik tanlovlari va modellar mazkur holatda, odatda, ishlamaydi. Uchinchi bosqichda riskni baholash amalga oshirilganidan keyin tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. **7.4**-rasmda “iqtisodiy kapital” deb nomlangan yana bir bosqich ajratilgan bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, operatsion risklar oqibatlari, boshqa risklar oqibatlari kabi, ikkita muqobil variantning mavjud bo‘lishini nazarda tutadi: foyda yoki zararlar. Shu munosabat bilan, bir tomonidan, banklar ushbu risklar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar uchun zahiralarini yaratishlari, ikkinchi tomonidan esa operatsion risklar ham foydani yaratishi lozim. Bunda menejmentning vazifasi ushbu

risklar foyda keltirishi va bankning iqtisodiy kapitalini shakllantirishini ta'minlashdan iborat.

Operatsion risklarni boshqarish sohasidagi chet el amaliyotining sharhi menejment tavakkalchiligining vujudga kelishidagi bir necha bosqichlarni ajratish imkonini beradi (5-rasm).




5-rasm. Menejment operatsion tavakkalchiligining rivojlanishi bosqichlari

Rasmda keltirilgan axborot shundan dalolat berib turibdiki, dastlabki bosqichlarda kredit tashkilotlarining menejmenti operatsion risklarning salbiy ta'sirini anglash bilan cheklandi, banklar esa ularning mavjudligini tan oldi. Ushbu dalillar nazariy masalalarning rivojlanishiga xizmat qildi, xususan, operatsion risklarni tasniflashga nisbatan yondashuvlar ishlab chiqila boshladi, so'ngra ularni, avvalambor, bo'linmalar yoki biznes-jarayonlar nuqtai nazaridan (quyidan yuqoriga) tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Asosiy e'tibor operatsion risklar paydo bo'lishining salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablariga qaratildi.

Keyinchalik operatsion risklar faoliyatning yakuniy natijalari – “yuqoridan quyiga”, ya'ni operatsion risklar keltirib chiqaradigan oqibatlar (masalan, axborot tizimlarining to'xtab qolishi yoki xodimlar xatosi natijasida

ko‘rilgan zararning umumiyligi summasi) nuqtai nazaridan ko‘rib chiqila boshladi. Va nihoyat operatsion risklarning kredit tashkilotining menejment tavakkalchiliga integratsiyalashuvi yuz berdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, operatsion risklarni boshqarish bir vaqtning o‘zida unsurlarning muayyan to‘plamiga ega bo‘lgan tizim hisoblanadi. Operatsion risk sohasidagi menejment tavakkalchiligining tizimini grafik ko‘rinishda quyidagi tarzda taqdim etish mumkin.



6-rasm. operatsion risklarning menejment tavakkalchiligi tizimi


Sxemada menejment tavakkalchiligi tizimining uchta unsuri ajratilgan: controlling, ichki jarayonlarni operatsion nazorat qilish va ogohlantiruvchi signallar tizimi. Kontrolling maqsadlarni belgilashni, risk paydo bo'lishi sohalarini aniqlash uchun axborot to'plash va unga ishlov berishni, tegishli axborot oqimlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Ikkinchi unsur – ichki tizimlar tezkor nazorati – jarayonlarni va joylardagi axborot tizimlarini nazorat qilishni, faoliyatning tashqi va ichki normalariga rioya etilishini nazorat qilishni, shuningdek, operatsion risklarning salbiy ta'siridan himoyalash tadbirlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Tizimning uchinchi unsuri riskning ogohlantiruvchi signallarini identifikasiyalashga yo'naltirilgan. Ushbu maqsadda ehtimoliy risklar sohalari va ularning paydo bo'lishi sabablari belgilanadi. Masalan, xodimlarning kasal bo'lishi va ishdan bo'shashi sabablari, kompyuter tizimlari ishlashidagi uzilishlarga barham berish tartiblari va hokazolar tahlil qilinadi. Ogohlantiruvchi signallar asosida axborot tizimlariga ortiqcha yuklamalarning oldini olish, xodimlar salomatligini muhofaza qilish, xodimlarning ishlashi sharoitlarini

yaxshilash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Ogohlantiruvchi signallarni tahlil qilish asosida yakunlar yasalib, ularning natijalari tegishli choralar ko‘rish maqsadida yuqori bo‘g‘in menejerlariga topshiriladi.

Bank xodimlarining o‘zini-o‘zi anglashi operatsion riskning menejment tavakkalchiligi tizimini joriy etish shartlaridan biri hisoblanadi, chunki ushbu risklar xodimlar hatolari, axborot tizimlarining ishlashidagi uzilishlar hamda biznes-jarayonlarning buzilishi oqibatida bo‘linmalar darajasida paydo bo‘ladi. Ushbu maqsadda tijorat banklari xodimlarni testdan o‘tkazadi. Bank xodimlariga tegishli savollarni o‘zida mujassam etgan so‘rovnomalar tarqatiladi. Ular ushbu savollarga javob berishadi, shu jumladan ilgari ko‘rilgan zararlar hajmini ko‘rsatishadi. Bunday axborotga ishlov berish, birinchidan, ayrim statistik ma’lumotlarga ega bo‘lish, ikkinchidan, zararlarning paydo bo‘lishi sohalariga aniqliklar kiritish, so‘ngra kelgusida ularning yuzaga kelishi ehtimolini baholash imkonini beradi. Ayrim holatlarda operatsion risklarni identifikasiyalash “agar, unda” tamoyili bo‘yicha amalga oshiriladi. Masalan, agar kompyuterlar ishida uzilishlar bo‘lsa, hotolarni o‘zida mujassam etgan dasturiy maqsulotlar qo‘llanilsa, bo‘lim qancha zarar ko‘rgan bo‘lar edi va h.k. Ushbu usullar, odatda, sanoat korxonalarining tajribasidan o‘zlashtiriladi. To‘plangan axborot asosida ehtimoliy yo‘qotishlardan ogohlantirish va ularning oldini olish imkonini beruvchi tadbirlar belgilanadi.

Ogohlantiruvchi signallar tizimlari borasida xorijiy tijorat banklari risk indikatorlarini ishlab chiqadi. Ushbu indikatorlar darajaga qarab uchta zonaga bo‘linadi.



7-rasm. Turli risk hududlari ko‘rsatkichlari

Abssiss grafigining o‘qi bo‘ylab risk indikatorlari joylashgan, ordinat esa – kuzatish davri – yil choragi sanalari. Grafikning yuqori qismi hajmiga ko‘ra eng katta yo‘qotishlarni namoyon etadi va mazkur zona kritik zona sifatida baholanadi. Bu hol menejment bunday yo‘qotishlarning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqishi lozimligini anglatadi. Grafikning o‘rta qismi yo‘l qo‘yiladigan risk zonasini, ya’ni bank yo‘qotishlarning bunday hajmini ep ko‘rishi mumkinligini aks ettiradi, va nihoyat grafikning quyi nuqtasi eng qulay hisoblanadi, chunki yilning to‘rtinchi choragida operatsion risklardan ko‘rilgan yo‘qotishlar eng kam miqdorni tashkil qildi. Ushbu misol Bazel qo‘mitasi tomonidan tartibga soluvchi organlarga bozor risklarini baholashning tijorat banklari tomonidan qo‘llaniladigan yakka modellari, xususan VaR modelining adekvatligini baholash uchun tavsiya etilgan svetofor tamoyiliga asoslangan. Qizil zona (Bazel bo‘yicha) yakka modelning noadekvatligini anglatса, sariq zona riskka yo‘l qo‘yish mumkinligini anglatadi, biroq ushbu holatda nazorat organlari zahira qilish hajmini oshiruvchi jarima koeffitsiyentlaridan

foydalanishadi, va nihoyat, yashil zona foydalanilayotgan modelning belgilangan mezonlarga mosligini anglatadi.


Shu nuqtai nazardan risk indikatorlarini aniqlash operatsion risklarni baholash yakka modelining eng murakkab muammosi hisoblanadi. Masalan, xodimlar omilkorligining yo‘qotilishi bilan bog‘liq risk quyidagi indikatorlar yordamida o‘lchanishi mumkin: ish o‘rinlarining yo‘qotilishi (asosiy emas); mijozlar, bo‘linmalar rahbarlari va boshqa xodimlardan tushgan shikoyatlar va tanqidiy fikrlar; xodimning ish staji. Xodimlarning muvaffaqiyatli ishlashi natijasida yuzaga keladigan risklar ish kunining davomliliginini va ular salomatligining holatini tahlil qilish asosida o‘lchanishi mumkin. biznes-jarayonlar bilan bog‘liq boshqa indikatorlarni ham ajratish mumkin.

Albatta, operatsion risklarni baholashga nisbatan yondashuvlar hozircha shakllanish bosqichida turibdi. Ularni rivojlantirish uchun baholashning kamida ikkita turiga ega bo‘lish zarur: zarar ko‘rish hajmi va yo‘qotishlar ehtimoli.

Asosiy muammo aynan mazkur axborotga ega bo‘lish, uni ro‘yxatga olishdan iborat. Ushbu muammoni hal etish uchun Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya tijorat banklari operatsion risklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash borasida o‘z sa’y-harakatlarini birlashtirishdi. Ular anonim asosda bir-biriga ichki risklar to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishadi, bu ma’lum ma’noda operatsion risklar paydo bo‘lishi ehtimolini baholash imkonini beradi.

Operatsion risklarni boshqarish yuzasidan qarorlar qabul qilish bosqichida risk ehtimolining aniqlangan darajasida va zararning aniqlangan summasida

qanaqa riskni qabul qilish lozimligi to‘g‘risidagi masala paydo bo‘ladi




8-rasm. Risk ehtimoli va zararning hajmiga qarab boshqaruv qarorlarini qabul qilish variantliri

Ushbu grafik paydo bo‘lishi ehtimoli va zarar summasiga qarab riskni qabul qilish variantlirini ko‘rsatib turibdi. Agar riskning paydo bo‘lishi ehtimoli kam bo‘lib, yo‘qotishlar hajmi katta bo‘lsa, bank riskni boshqalarga o‘tkazishi, masalan, yong‘indan, kompyuter dasturlaridagi uzilishlardan, tamoqdagi uzilib qolishlardan sug‘urta qildirish lozim. Agar ehtimollik darajasi past bo‘lib, zarar summasi kichik bo‘lsa, riskni qabul qilgan ma’qul. Voqeа sodir bo‘lishi ehtimolining darajasi yuqori bo‘lib, zarar summasi katta bo‘lgan hollarda riskning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Va nihoyat, quyi o‘ng to‘g‘ri burchak voqeа sodir bo‘lishi ehtimoli kattaligini va zarar summasi kichikligini anglatadi. Mazkur holatda ham risk darajasini pasaytirish choralarini ko‘rish zarur.

Muayyan vaziyatni anglab yetish risklarni tartibga solish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Risklarni tartibga solishning ikkita to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi usuli mavjud: oldini olish va boshqarish. Agar bank operatsion risklarni qabul qilsa, u mazkur risklarni boshqarish usullarini ishlab chiqishi lozim. Xususan, boshqarish usullari jumlasiga quyidagilar kiradi: yetarlicha zahiralarni yaratish, sug‘urta, risklarni kamaytirish,

kapitalni ko‘paytirish, shu jumladan qo‘shimcha daromadlar va foyda olish hisobiga. Risklarni boshqarish ehtimoliy usullarining to‘plamini sxema ko‘rinishida quyidagi tarzda taqdim etish mumkin.



rasm. Operatsion risklarni tartibga solish usullari

Operatsion risklarni istisno etishga yo‘naltirilgan ssenariy nomaqbul ekanligi bois menejmentning e’tibori risklarni boshqarish usullariga qaratilishi kerak. An’anaviy tarzda risklarning salbiy ta’sirini yumshatish uchun ishonchli kredit tashkilotida asosiy kapitalni himoya qiluvchi zahiralar tashkil etiladi. Shu munosabat bilan Bazel qo‘mitasi tomonidan operatsion risklar borasida riskni baholashga nisbatan va zahiralarni yaratishga nisbatan talablar taklif etildi. Risk uchun zahirani shakllantirishdan tashqari banklar riskni uchinchi shaxslarga o‘tkazgan holda, uni sug‘urta qildirishi ham mumkin. Katta hajmlardagi yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymaslik va zahiralarni tashkil etish bilan bog‘liq harajatlarni tejash uchun risklarni kamaytirishga yo‘naltirilgan siyosatni amalgash yoki kredit tashkilotining kapital bazasini oshirish manbai hisoblangan daromadlar va foydaning o‘sishiga erishish mumkin.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Operatsion riskka ta'rif bering?
2. Operatsion risklarga qaysi risklar kiradi?
3. Bazel kelishuvi haqida nimalarni bilasiz?
4. Bank ahloq kodeksi-bu?
5. Operatsion riskni aniqlashning qanday usullarini bilasiz?

VI-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLILIK RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.

6.1. LIKVIDLILIK RISK TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI

Me'yoriy hujjatlarda **likvidlilik tavakkalchiligi** - bankning o'z moliyaviy majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik -deb ta'rif berilgan.⁴³

Bankning likvidlilik tavakkalchiligi asosan, aktiv va passivlarning so'ndirilish muddatlarining o'zaro nomuvofiqligi oqibatida yuzaga keladi. Bankning likvidlilik tavakkalchiligini boshqarish "Tijorat bankining likvidliligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 559, 1998 yil 2 dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi.

Tijorat bankining faoliyati va uning samaradorligi, eng avvalo uning likvidligiga bog'liq. Likvidligi bo'lman bank to'lovga layoqatli bo'la olmaydi. Amalda aynan nolikvidlik banklarning to'lovga layoqatsizligining asosiy sababi bo'lib, ularni bankrotlikka va bank tizimining beqarorligiga olib keladi.

O'tgan yili respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga, 2000-yilga nisbatan esa 46 barobardan ziyod ko'paydi. Natijada bugungi kunda banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil yetmoqda, bu esa bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz yetib belgilangan talabdan uch barobar ko'pdir.

Bank tizimining likvidligi 65 foizdan ziyod bo'lib, bu jahon amaliyotida umumiy tarzda qabul qilingan, «yuqori» deb ataladigan ko'rsatkichdan 2,2 barobar ortiqdir.⁴⁴

⁴³O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sodan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom

«Likvidlik» atamasi lotincha «*Liquidus*» so‘zidan olingan bo‘lib, suyuq, oquvchi ma’nosini beradi. U turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olish (qarzni to‘lash) imkoniyatini bildiradi.

Barqaror talabga ega bo‘lgan pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qog‘ozlar, moddiy aylanma vositalar va pulga tez aylantiriladigan aktivlar likvid vosita (mablag‘)lar deb yuritiladi.

«To‘lovga layoqatlilik» likvidlik tushunchasiga nisbatan kengroq bo‘lib, bank zarur muddatlarda omonatchilar, kreditorlari va davlat oldidagi majburiyatlarini to‘la summada bajara olish layoqatini bildiradi.

To‘lov qobiliyati bankning qisqa muddat ichida o‘z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Bank likvidligi – o‘z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda pul mablag‘lariga tezda aylantirish yo‘li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyatidir

Shularni hisobga olgan holda jahon banki nazariyasi va amaliyotida likvidlik “zahira” yoki «oqim» deb tushiniladi. Likvidlik zahira shaklida tijorat bankining mijozlari oldidagi o‘z majburiyatlarini belgilangan vaqt mobaynida aktivlar tarkibini ularning hali ishlatilmagan rezervlariga aylantirish yo‘li bilan qoplashni ko‘zda tutadi.

Tijorat bankining likvidligi uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch assosiq qism o‘rtasidagi doimiy sub’ektiv mutanosiblikni saqlashdan iboratdir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablag‘lar va joylashtirilgan mablag‘lardir. Bu mutanosiblik esa, yuqoridaqilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

⁴⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.

Bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘la-to‘kis bajara olish qobiliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli “Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida”gi nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag‘lari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta’rif berilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda to‘lovga qobiliyatilik likvidlikka nisbatan ham keng, ham tor kategoriya sifatida ko‘riladi. Keng kategoriya sifatida o‘rganilganda to‘lovga qobiliyatilik ichki va tashqi omillar doirasida ko‘rib chiqiladi, likvidlik esa, faqat ichki omillar doirasida qaraladi. Ba’zi qarashlarga ko‘ra, likvidlik bankning dinamik holatini belgilaydi, to‘lovga qobiliyatilik esa, ma’lum bir sanaga belgilangan to‘g‘ri keluvchi holatni, ya’ni majburiyatlarini qoplay va to‘lay olish qobiliyatini bildiradi.

6.2. LIKVIDLILIK RISKLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH

Shunday qilib, tijorat banklari likvidligi va to‘lovga layoqatligi tahlilining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- balans asosida aktivlarning likvidlik holatiga baho berish;
- bank likvidlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularning o‘zgarishini o‘rganish;
- bank aktivlarining joylanishi va resurslar jalb qilishning o‘zgarish tendensiylarini o‘rganish;
- bank likvidligi ko‘rsatkichlari asosida, likvidligini baholash va uni yaxshilash bo‘yicha chora – tadbirlar ishlab chiqish;
- bankning to‘lovga layoqatliligi ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularning o‘zgarishlarini o‘rganish va shu kabilar.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib boriladi:

Retrospektiv tahlil. Tahlilning ushbu yo‘nalishida Markaziy bank tomonidan banklar uchun o‘rnatilgan iqtisodiy normativlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko‘rsatkichlari va belgilarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning ushbu yo‘nalishi quyidagi sohalar: likvidlilik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning yetarliligi va boshqarishning sifati tahlillaridan iborat.

Perspektiv tahlil. Moliyaviy barqarorlikni perspektiv tahlil qilishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognoz qilish hisoblanadi.

Bank likvidligening yana bir jihatni bankning to‘lovga qobiliyatatligi bo‘lib, uning asosiy belgisi bankning o‘z oldida turgan majburiyatlarini o‘z vaqtida qondira olish qobiliyatidir.

“Likvidlik” va “to‘lovga qobiliyatatlilik” mazmuni, omillari va uni ta’minlovchi sabablarga ko‘ra bir-biriga yaqin tushunchalardir. Likvidlik muammosi tashqi jihatdan to‘lov majburiyatlarini bajarish jarayonida vujudga keladi va likvid mablag‘lar yo‘qligi bilan bog‘liq qiyinchiliklar tug‘ilganda namoyon bo‘ladi.

Likvidlik nafaqat to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishni nazarda tutadi, balki o‘zining tijorat manfaatlari bilan birga omonatchilar tomonidan ishonch bildirilgan mablag‘larning saqlanishini ta’minlaydi.

Bankning to‘lovga qobiliyatatligi bankka quyilgan to‘lovlari bo‘yicha talablar ayni vaqtida qondira olish qobiliyatini bildiradi. To‘lovga qobiliyatatlilikni ma’lum moliyaviy holatning natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, to‘lovga qobiliyatatlilik likvidlikka nisbatan ikkilamchidir. Chunki, bankda to‘lovga qobiliyatatlilik muammosi sodir bo‘lishi mumkin, ammo uning likvid balansi, bankning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olishini ta’minlovchi qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.


Bank likvidligi ko‘proq bank balansining likvidligi bilan belgilanadi va uning mazmuni, mohiyati aktiv va passiv operatsiyalarning muddati bo‘yicha mos kelishidan iborat. Bank balansining likvidligi ssuda va fond operatsiyalariga yo‘naltirilgan mablag‘larning xatarlilik darajasi, pul bozorining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Bank likvidligiga ta’sir qiluvchi omillarni quyidagi ichki va tashqi omillarga bo‘lib tahlil qilish mumkin.

I.Ichki omillar:

- bankning mustahkam kapital bazasi;
- bank aktivlarining sifati;
- depozitlar sifati;
- tashqi manbalarga unchalik bog‘liq emaslik;
- aktiv va passivlarning muddatlar bo‘yicha muvofiqligi;
- bankdagi menejment darajasi;
- bankning birinchi darajali imiji (nufuzi).

6-chizma




6-chizma. Banklar likvidliligiga ta’sir etuvchi ichki omillar⁴⁵

⁴⁵Muallif tomonidan tuzildi.

II. Tashqi omillar:

- mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat;
- pul va qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi;
- banklararo bozorning barqaror va rivojlanganlik darajasi;
- Markaziy bankning moliyalashtirish imkoniyati;
- Markaziy bankning nazorat funksiyasi va uning samaradorligi.

7-chizma



7-chizma. Banklar likvidliligiga ta’sir etuvchi tashqi omillar⁴⁶

Bankning mustahkam kapital bazasi, eng avvalo, uning o‘z kapitalining mustahkamligini ta’riflaydi. O‘z kapital qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik bankning likvidligi yuqori bo‘ladi. Chunki aynan mustahkam kapital omonatchilar va depozitorlarning ishonchli himoyachisi bo‘lib-gina qolmay, u moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi kuchli vosita hamdir.

⁴⁶ Muallif tomonidan tuzildi.

Bank aktivlarining sifati quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- likvidlik;
- risklilik;
- daromadlilik;
- diversifikatsiyalanishi, ya’ni har tomonlama rivojlanish imkoniyati.

Bank aktivlarining yalpi riski qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik bank ko‘p daromadga ega bo‘ladi.

Aktivlarning diversifikatsiyalanishi quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topadi:

- resurs quyilmalarining yo‘nalishlari bo‘yicha aktivlar tarkibi;
- ob’ektlar va sub’ektlar bo‘yicha kredit quyilmalarining tarkibi;
- valyuta operatsiyalarini bajarishda ishlatiladigan valyuta tarkibi;
- qimmatli qog‘ozlar portfeli tarkibi va boshqalar.

Aktivlar qancha diversifikatsiyalangan bo‘lsa, bank likvidligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Depozitlarning sifati ularning barqarorligi bilan belgilanadi. Depozitlar qanchalik barqaror bo‘lsa, bank likvidligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Chunki depozitlar, ya’ni jamlangan resurslar bankni tark etmaydi. Depozitlarning barqaror qismining oshib borishi bankning likvid aktivlarga bo‘lgan ehtiyojini pasaytiradi.

Banklararo kreditlar bank likvidligiga deyarli xuruj qilmaydi, aksincha, ular bankning qisqa muddatli likvidli mablag‘larga bo‘lgan yetishmovchiligini to‘ldiradi.

Summalar va muddatlar bo‘yicha **aktiv va passivlarning o‘zaro muvofiqligiga** rioya qilmaslik asosan jalb qilingan mablag‘lar hisobiga faoliyat ko‘rsatuvchi banklarni nihoyatda tang ahvolga tushirishi mumkin. Natijada bank kreditorlar oldidagi o‘z majburiyatlarini bajara olmaslik holatiga tushishi muqarrar. Shuning uchun ham, bank investitsiya qilinayotgan pul

mablag‘larining muddati va summasini omonatlar bilan kelishgan holda o‘rnatishi lozim.

Bankda menejmentning holati ham uning likvidligini aniqlab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Boshqaruv samaradorligi quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- bank siyosatining mavjudligi va pishiqligi;
- bankning yuksak darajadagi joriy va strategik vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan tashkiliy maqbo‘l tarkibi;
- aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishning ishlab chiqilgan mavjud mexanizmi;
- mas’ul qarorlarni qabul qilish imkoniyatlari va h.k.

Imij, ya’ni nufuzning yuqori bo‘lishi mazkur bankka boshqa banklarga nisbatan o‘z faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni oson va zudlik bilan bartaraf etishga, bo‘sh mablag‘larni jalb qilishga, depozitlar barqarorligini ta’minlashga imkon yaratadi.

6.3. LIKVIDLILIK RISKLARNI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Tijorat banklarining likvidliliqi likvidlilik ko‘rsatkichlarining ma’lum me’yorlar asosida aniqlanadi. Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me’yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to‘lov muddati 30 kungacha bo‘lgan barcha likvidlik aktivlari, bank quyilmalarining bir marta bo‘lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki avval berilgan ssudalarni to‘lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o‘tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi nisbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo‘lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich 30 foizdan kam bo‘lmasligi kerak, ya’ni bankning joriy likvidligi:

$$M_4 = JA/OB$$

JA- qaytarish muddati 30 kungacha bo‘lgan joriy aktivlar va kreditlar

OB- qaytarish muddati 30 kungacha bo‘lgan talab qilib olingunga qadar bo‘lgan majburiyatlar.

Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyent bankning yuqori likvid mablag‘larining (bular bankning g‘aznasidagi naqd pul mablag‘lari va vakillik hisobvaraqaqasidagi mablag‘lar) joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy to‘lovlarni tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga talab qilib olingunga qadar bo‘lgan depozitlar bo‘yicha majburiyatlar, yaqin orada to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa banklardan olingan kreditlar bo‘yicha majburiyatlar va boshqalar kiradi. Shunday qilib,

$$Mz = LA/JM$$

Bu yerda:

LA- bankning pul shaklidagi aktivlari,

JM-bankning talab qilib olingunga qadar bo‘lgan varaqalar bo‘yicha majburiyatları.

Bu me’yor bank aktivlarining likvid qismi bankning eng nobarqaror resurslarini qanchalik darajada sug‘urtalay olish imkonini ko‘rsatadi. Shuning uchun maqsadli likvidlilikni banklar har kuni tekshirib borishlar va uning minimal miqdori 0,25 dan kam bo‘lmasligini ta’minlashlari lozim.

Qisqa muddatli likvidlilik koeffitsiyenti to‘lov muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan bank aktivlarining bankning muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan depozitlari va jalb qilingan mablag‘lari va kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi, ya’ni

$$M_5 = A/D+K,$$

Bunda:

A- to‘lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan bank aktivlari;

D- muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan jalg qilingan depozitlar va jalg qilingan resurslar;

K- bank kapitali.

Bu ko‘rsatkichning hajmi 1 ga teng bo‘lishi zarur.

Undan tashqari, tijorat banklari likvidlilagini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilinishi mumkin.

1. Likvid aktivlar (zahiraning ortiqcha qismi, erkin ayirboshlanadigan valyuta, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari) /Jami aktivlar.

2. Doimiy bo‘lmagan majburiyatlar (yirik depozitlar/ ma’lum manbalardan olingan qarzlar) /Jami aktivlar.

3. Yuqorida keltirilgan barcha ko‘rsatkichlar quyidagi ma’lumotni aks ettiradi — ushbu ko‘rsatkichlarning pasayishi bankning resurslari barqaror bo‘lmagan manbalarga tayanganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvidli aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

4. Kreditlar/Depozitlar — depozitlarning, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror manbaidir. Ko‘rsatkichning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va/yoki o‘sishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingan qisqa muddatli qarzlar) manbalariga bo‘lgan talabning pastligini bildiradi.

5. Garovga quyilgan qimmatli qog‘ozlar /Jami qimmatli qog‘ozlar — garovga quyilgan qimmatli qog‘ozlar umumiy ko‘rsatkichi bo‘lib, u likvidlilikka tezkor talablarni qoplash uchun qo‘llanilmaydi.

23-jadval

Bankning likvidlik koeffitsiyentlari⁴⁷

	Ko‘rsatkichlar	Hisoblashtartibi	Izoh
	2	3	4
1.	Lahzalik likvidlik koeffitsiyenti (Kll)	$K_{ll} = \frac{PSHA}{JM}$	PSHA – bankning pul shaklidagi aktivlari MJ – bankning talab qilgunga qadar bo‘lgan joriy majburiyatları
2.	Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Kjl)	$K_{jl} = \frac{LA}{MM}$	LA – likvid aktivlar va bankning to‘lash muddati 30 kungacha bo‘lgan quyilmalari (muddati uzaytirilgan yoki o‘tgan ssuda bo‘yicha qarzlar hisobga kirmaydi) MM – talab qilib olgunga qadar bo‘l-gan mablag‘lar va to‘lash muddati 30 kungacha bo‘lgan majburiyatlar
3.	Qisqa muddatli likvidlik koeffitsiyenti (Kqm)	$K_{km} = \frac{A}{D+BK}$	A – to‘lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan bank aktivlari D – muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘l-gan jalb qilingan depozitlar va resurslar
4.	Bitta qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan maksimal risk darajasi (Kqord)	$K_{kord} = \frac{YK}{BK}$	YK – bitta mijozga berilgan eng yirik kredit miqdori qo‘shilgan depozitlar bilan ta’minlanganligini chegirgan holda shu mijozga bank tomonidan berilgan majburiyatlarning 75 foizi
5.	Barcha yirik	$K_{ykrd} = \frac{JYK}{BK}$	JYK – jami yirik kreditlar. Jami be-rilgan

⁴⁷ Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010.-341b.

	kreditlar uchun maksimal risk darajasi (Kykrd)		yiriik kreditlar miqdori bank ka-pitalining 3 barobaridan ko‘p bo‘lmas-ligi kerak.
6.	Bir kreditor (jamg‘armachi)ga to‘g‘ri kelgan maksimal risk (Kkmr)	$K_{knr} = \frac{\sum M}{BK}$	$\sum M$ – bankning jamg‘armalar, olingan kreditlar, depozit varaqlar bo‘yicha bir mijozga to‘g‘ri keluvchi jami majburiyatlar Kkmr ning darajasi 1,0 atrofida bo‘lishi lozim.

Quyida keltirilgan bankning likvidlik koeffitsiyentlari uchun ma’lum darajada me’yoriy norma darajalari belgilangan.

24-jadval

Likvidlik koeffitsiyentlarining me’yoriy darajalari

Koeffitsiyentlar	Me’yor darajalari
Kll	0,25
Kjl	0,30
Kqm	1,00
Kqord	0,25
Kykrd	>3,00
Kkmr	1,00

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan normativlar ham mavjud. (25-jadvalga qarang)

25-jadval

Tijorat banklari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan normativlar⁴⁸

	Normativlar	Hisobl ash tartibi	Izoh
	2	3	4
1.	Bank majburiyatlarini cheklovchi koeffitsiyent (K_1)	$K_1 = \frac{\sum M}{O'K}$	$\sum M$ – bankning jami majburiya-ti; QK – bankning o‘z kapitali
2.	Aholi omonatlarini cheklovchi koeffitsiyent (K_2)	$K_2 = \frac{AO}{O'K}$	AO – aholi omonatlari summasi
3.	Bitta zayomchiga to‘g‘ri kelgan maksimal risk hajmi (K_3)	$K_3 = \frac{SK}{O'K}$	SQ – bitta zayomchiga to‘g‘ri kelgan ssuda qarzi
4.	Bank balansi joriy likvidlik koeffitsiyenti (K_4)	$K_4 = \frac{IA}{M_{30}}$	LA – likvid aktivlar M_{30} – 30 kungacha bo‘lgan bank majburiyatları
5.	Bank balansining o‘rta muddatli likvidlik koef-fitsiyenti (K_5)	$K_5 = \frac{A}{M}$	A – bir yildan ortiq muddat-dagi aktivlar M – bir yildan ortiq muddat-dagi majburiyatlar

Tijorat banklari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan normativlar uchun ma’lum darajada me’yoriy norma darajalari belgilangan.

26-jadval

Chegaralangan normativlar

Normativlar	Me’yor darajalari
K_1	0,5

⁴⁸ Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010.-341b.

K ₂	1,0
K ₃	0,5
K ₄	0,3
K ₅	1,0

O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining dastlabki davrlaridan boshlaboq tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlashga katta e’tibor berildi.

Banklar faoliyatini muntazam ravishda tartibga solish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari likvidliliga nisbatan bir necha normativlar joriy etgan.

Tijorat banklari faoliyatiga nisbatan respublika Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan dastlabki, asosiy iqtisodiy normativlardan biri bank kapitalining minimal miqdori ko‘rsatkichidir. 2011 yil 1 yanvardan boshlab bank kapitali minimal miqdori qo‘yidagicha qilib belgilandi:

- tijorat banklari uchun 10 mln YEVRO miqdori ekvivalentida;
- xususiy banklar uchun 5 mln YEVRO miqdori ekvivalentida.

OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan oxirgi besh davomida to‘liq rioya etib kelgan. Buni qo‘yidagi jadvalda bankning har yili 31 dekabr holati ma’lumotlari asosida ko‘rishimiz mumkin⁴⁹:

(ming so‘mda)

27-jadval

Yillar	31.12.2007y	31.12.2008y	31.12.2009y	31.12.2010y	31.12.2011y
Bank kapitali minimal	6 631 797	11 631 797	14 131 797	24 131 797	31 631 797

⁴⁹OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

miqdori					
---------	--	--	--	--	--

Tijorat banklari faoliyatiga nisbatan qo‘llanilayotgan ikkinchi normativ **bank kapitalining yetarlilik darajasi** hisoblanadi. Ushbu normativ bank jami kapitali summasini bank aktivlarining riskka tortilgan summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi va uning minimal miqdori 0,10 qilib belgilangan.

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga 2007 y, 2008 y, 2010 yillar to‘liq rioya etgan holda, 2009 yil - 0.014 va 2011 yil -0.007 normadan kam miqdorda bajargan.⁵⁰:

OATB “Kapitalbank”ning bank kapitalining yetarlilik darajasi tahlili,

(ming so‘mda)

28-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Kapital yetarlilik koeffitsiyenti - N1	0.116	0.114	0.086	0.114	0.093
Belgilangan norma (ko‘rsatkich birlikda)	Min 0.10				

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2007, 2008 va 2010 yillarda mazkur normativga amal qilingan, ammo 2009 va 2011 yillarda normativ biroz bajarilmagan.

3-diagramma (ko‘rsatkich foizda)



⁵⁰OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

Diagrammani nomlang

Respublikamiz tijorat banklariga nisbatan qo'llanilayotgan iqtisodiy normativ bank asosiy kapitalining, ya'ni **birinchi darajali bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti** deb ataladi.

Qo'yidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, OATB "Kapitalbank" ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to'liq rioya etib kelgan.⁵¹:

Jadvalni nomlang

(ming so'mda)

29-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Birinchi darajali bank kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti - N2	0.120	0.117	0.086	0.080	0.082
Belgilangan norma (ko'rsatkich birlikda)	Min 0.05				

4-diagramma(ko'rsatkich foizda)

⁵¹OATB "Kapitalbank"ning o'sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

Diagrammani nomlang

Koeffitsiyentning mazmuni shundan iboratki, har bir tijorat bankida asosiy kapitalning jami kapitaldagi ulushi 50 foizdan kam bo‘lmasligi lozim. Amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, respublikamizning barcha tijorat banklarida ushbu normativga rioya etish bilan bog‘liq muammolar mavjud emas. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, banklar kapitalining asosiy qismi ustav kapitalidan iborat, ikkinchidan, banklar aktivlarining tarkibida yuqori riskli aktivlarning ulushi rivojlangan xorijiy davlatlar tijorat banklaridagi kabi yuqori emas. Shu sababli, banklar ushbu normativni bajarishda qiyinchiliklar sezishmaydi.

Respublikamiz tijorat banklariga nisbatan qo‘llanilayotgan uchinchi iqtisodiy normativ **Leveraj koeffitsiyenti** hisoblanadi. U Birinchi darajali kapitalni nomoddiy aktivlarni jami aktiv ayirib tashlanganiga bo‘lish orqali topiladi.

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida 2008 va 2011 yillar to‘liq rioya etib kelgan. Biroq 2007, 2009, 2010 yillar mos ravishda o‘rnatalagan normadan -0.005, -0.01, -0.008 dan kam natija ko‘rsatgan:⁵² **Jadvalni nomlang**


(ming so‘mda)

30-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Leveraj - N3	0.055	0.070	0.050	0.052	0.069
Belgilangan norma (ko‘rsatkich birlikda)	Min 0.06				

⁵²OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

5-diagramma (ko'rsatkich foizda)



Diagrammani nomlang

Respublikamiz tijorat banklarining joriy faoliyatining barqarorligini tavsiflovchi normativ joriy likvidlilik koeffitsiyenti hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyentning minimal darajasi 0,30 qilib belgilangan.

Qo'yidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, OATB "Kapitalbank" ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to'liq rioxasi etib kelgan:⁵³

Jadvalni nomlang

(ming so'mda)

31-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Joriy likvidlik koeffitsiyenti - N4	0.305	0.339	0.407	0.412	0.441
Belgilangan norma	Min 0.30				

⁵³OATB "Kapitalbank"ning o'sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

Joriy likvidlilik koeffitsiyenti (JLK) quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$JLKQ = (LAQYAQQ) / (TDQ YATT)$$

Bunda:

LA - likvidli aktivlar.

YAQQ - yaqin 30 kun ichida qaytariladigan quyilmalar.

TD - transaksion depozitlar.

YATT - yaqin 30 kun ichida to‘lanadigan to‘lovlar.

Joriy likvidlilik koeffitsiyentining darajasiga kuchli va bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omil transaksion depozitlar miqdorining o‘zgarishi hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida, xususan, Germaniya, Avstriya, Yaponiya davlatlarining bank amaliyotida joriy likvidlilik koeffitsiyenti qo‘llaniladi. Biroq bu ko‘rsatkich ularning markaziy banklari tomonidan direktiv tarzda joriy qilinmagan, balki har bir tijorat bankining o‘zi mustaqil ravishda belgilaydi. Buning ustiga, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida pul mablag‘lari ko‘rinishidagi aktivlarning jami aktivlar hajmidagi salmog‘i kichik, transaksion depozitlarning bank depozit bazasidagi salmog‘i 48 - 50 foizni tashkil etadi. Shu sababli, ularda joriy likvidlilik koeffitsiyentining qo‘llanilishi O‘zbekiston tijorat banklaridagi kabi cassali aktivlarni yirik miqdorda to‘planib qolishiga olib kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining deyarli barchasi bank likvidligi bo‘yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarga to‘liq rioya qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bank tizimini barqaror tarzdagi faoliyatini ta’minlamoqda.

6.4. LIKVIDLILIK RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH

Likvidlikni yo‘qotish riski Bazel qo‘mitasi talablariga ko‘ra passivlarni qisqarishini yoki aktivlarni o‘sishini moliyalashtirishni tartibga solishdagi bankning qobiliyatsizligi tushuniladi.⁵⁴

Likvidlikni yo‘qotish yuzasidan zahiralar shakllantirish bo‘yicha kapitalga aniq talablar belgilanmagan. Likvidlikka qo‘yiladigan umumiylab aktivlar va majburiyatlar muddatlarining o‘zaro mos kelishidir. Balans va balansdan tashqari moliyaviy instrumentlar har xil harakterdagi likvidlikka ega hamda bu likvidlikni yo‘qotish riskini baholashda (har xil qaytarish muddatlarida likvidliklarni oqib kelishi yoki oqib ketishi) hisobga olinadi. Masalan, Germaniya hukumati tomonidan 5 yil muddatga chiqarilgan obligatsiya bank uchun, kichik nemis kompaniyasiga bank tomonidan 1 yil muddatga berilgan kreditga nisbatan, likvidli hisoblanadi. Chunki, bankka likvidlikni ta’minlash va moliyaviy resurslar tanqisligini tugatish zarur bo‘lib qolganda berilgan kreditga nisbatan obligatsiyani sotish osonroq bo‘ladi. Banklar uchun likvidlik favqulotda ahamiyatga ega. Nazorat organlari banklardan likvidlikni yo‘qotish riskini boshqarishning adekvat strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladilar. Mazkur strategiya moliyaviy resurslarga bo‘lgan sof ehtiyojlarni joriy baholash, monitoring va boshqarishni o‘z ichiga olishi lozim. Bundan tashqari, strategiya bank faoliyati harakteri va murakkabligiga mos kelishi hamda bank direktorlar kengashi tomonidan tegishli nazoratni o‘z ichiga olishi lozim.

Banklar tomonidan aktivlar va majburiyatlar (jumladan, balansdan tashqari moddalar) bo‘yicha qaytarish muddatlarining mos kelmasligini aniqlash uchun, likvidlik pozitsiyani qaytarish muddatiga bog‘liq ravishda hamda turli valyutalar bo‘yicha har xil guruhlarga bo‘lib chiqish jarayoni qaytarish muddatlarining «zinapoya»si («lestnitsa»)ni tuzish deb nomlanadi.

⁵⁴ Международная конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: новые подходы. Базельский комитет по банковскому надзору, Банк международных расчетов, июн 2004 г. стр. 179

Banklar o‘zlarining likvidligini boshqarish yuzasidan omonatchilarning o‘zgarmas ishonchlaridan foydalanish orqali tegishli ehtiyot choralar ko‘rishlari lozim. Chunki omonatchilargina banklar faoliyatini moliyalashtirib boradilar. Omonatchilar ishonchlarining yuqotilishi bankdan omonatlarning ommaviy olinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa bankni omonatchilarning talablarini bir vaqtida qondirish uchun moliya resurslarining boshqa turlari, ya’ni banklardan kredit olish, aktivlarini sotish yoki qaytarish orqali qisqartirish kabi turlaridan foydalanishga majbur qilishi mumkin. Shu narsa e’tiborliki, biror bir bankdagi likvidlik muammosi banklararo bozor orqali tarqaluvchi umumtizim oqibatlari («domino effekti»)ga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ham rivojlanayotgan boshqa davlatlar kabi ma’lum bir valyutaviy cheklashlar mavjud. Ularning eng asosiysi bo‘lib, milliy valyutani erkin konvertirlanadigan valyutalarga tulakonli konvertirlashning yukligidir. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: rakobatbardosh mahsulotlar ishlab chikarmokchi bo‘lgan korxona o‘zining tarkibini yaxshilashga, yangi texnologiyalar kiritishga, malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezadi.

Bir qator davlatlarning tajribasi shuni kursatadiki, erkin konvertatsiyaga faqatgina iqtisodiyotning ma’lum bir rivojlanish boskichida erishiladi,

Hatto, Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubi-Sharkiy Osiyoning boshqa rivojlanayotgan davlatlari kabi mamlakatlar o‘zoq vaqt mobaynida turli shakldagi valyutaviy cheklashlarni kullashga majbur bo‘lganlar.

O‘zbekiston Respublikasidagi valyuta munosabatlarini takomillash- tirish, valyuta bozori va undagi mavjud valyuta operatsiyalarini, yuqorida zikr etilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida, yanada rivojlanishi bu borada hozirgi kunda mavjud bir qator muammolar va ularni hal etilishi bilan bog‘liqdir.

Ushbu muammolardan **birinchisi**, respublikada valyuta bozori shakllari rivojlanmaganligida. Hozirgi kunda valyuta amaliyotida faqat Respublika Valyuta Birjasasi va Birjadan tashqari bozorlar mavjud. Valyuta birjasasi faoliyati

va milliy valyuta “so‘m” kursini shakllanishiga tijorat banklari sezilarli ta’sir eta olmaydilar, chunki birjadagi savdolarning asosiy ishtirokchisi Markaziy bank bo‘lib, u savdoni nazoratini olib boradi va valyuta kursini belgilaydi.

Ushbo‘lardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasida valyuta to‘lovlarni hamda jalb etilayotgan va joylashtirilayotgan vaqtincha bo‘sh valyuta mablag‘lari va xorijiy kapital muomalasini tezlashtirish imkonini beradigan banklararo valyuta bozorini yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarur.

Ikiinchi muammo, respublika ichkarisida hali ham valyutaning qora bozorini mavjudligida. Qora bozor faoliyati noqonuniy bo‘lib, uning asosiy ishtirokchilari jismoniy shaxslardir. Ushbu bozorni mavjudligiga asosiy sabab, bu birjadan tashqari bozorning valyuta kursi va qora bozor valyuta kursi orasidan sezilarli farqdir. Mazkur kurslar farqlarini bartaraf etish uchun hukumat va Markaziy bank xorijiy valyutaga bo‘lgan talabni bozor tamoyillariga asoslangan holda qondiradigan mehanizmni shakllantirishi va ushbu mehanizm faoliyatini erkin amalga oshishi uchun sharoitlar yaratib berishi darkor.

Uchinchi muammo, naqd valyuta muomalasi, ya’ni valyuta ayrboshlash shahobchalari operatsiyalarini soddalashtirish va ko‘lamini kengaytirishdir. Hozirgi kunda valyuta ayrboshlash shaxobchalarida faqat xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish operatsiyalari amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlar amaliyotida esa valyuta ayrboshlash shaxobchalari, vositachilik haqi evaziga, muomalaga yaroqsiz bo‘lib qolgan erkin muomalada yuradigan valyuta yaroqlisiga almashtiriladi hamda ushbu nosavdo operatsiyalar bankka sezilarli daromad keltiradi.

To‘rtinchi muammo, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta zaxiralarini shakllantirish bilan bog‘liq. Ma’lumki ushbu zaxirani to‘latishning muhim manbasi, bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tashqi iqtisodiy faoliyati natijasida olgan xorijiy valyutadagi tushumdan majburiy sotuv shaklida to‘laydigan to‘lovidir. Ushbu to‘lovning hajmi esa bevosita xorijiy valyutadagi tushum hajmiga bog‘liqdir.

Beshinchi muammo, albatta yuqorida bayon etilgan barcha muammolar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan milliy pul birligi “so‘m”ni boshqa xorijiy valyutalarga erkin ayirboshlanish muammosidir. Albatta, milliy valyutani erkin ayirboshlanish muammosini xal etilishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib bergen bo‘lur edi.

Oltinchi muammo, respublikamiz ichki bozorida forward, fyuchers, opson, svop valyuta operatsiyalari va ularning taaluqli bozorlarini rivojlanmaganligidir. Ushbu operatsiyalarning rivojlanmaganligiga yuqorida barcha ko‘rsatib o‘tilgan mamlakatimiz ichki valyuta bozorida mavjud muammolar sabab bo‘la oladi. O‘z navbatida ularni hal etib borilishi bilan ushbu valyuta operatsiyalari turlari va bozorlarining rivoji uchun sharoit tug‘iladi.

Bir qator mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki milliy valyutani erkin ayirboshlanishiga ular iqtisodiy rivojlanishning hamda bozor iqtisodiqtiga o‘tishning qaysidir bosqichida erishganlar. Bunday maqsadga erishish tovar ishlab chiqarishning, mehnat samaradorligini, milliy mahsulotlarning sifatini, eksport salohiyatini oshirishning yanada tubdan yaxshilanishini talab etadi. Misol tariqasida shuni aytish lozimki, hatto jadal ravishda rivojlanib kelayotgan Ispaniya, Portugaliya, Gresiya, Isroil, Janubiy Koreya, Tailand kabi davlatlar milliy valyuta konvertatsiyasini ta’minalashga tegishli XVFning VIII moddasiga faqat 90-yillarga kelibgina imzo qo‘yganlar.

Yettinchi muammo, Respublikaning yana bir jiddiy makroiqtisodiy muammolaridan biri bu uning tashqi savdo balansining holatidir. Bu yerda bir fikrni aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston paxta, oltin va boshqa rangli metallar ko‘rinishidagi eksport salohiyatiga ega bo‘lib, ushbu bozorlarda jahon konyukturasini barqaror halati mavjud bo‘lganda o‘zining savdo balansida ijobiy saldoni hamda kerakli oltin va valyuta zaxiralarini shakllantirish bo‘yicha katta imkoniyatlarga ega.

(tijorat bankning jogli ma’lumotlari urganilmagan)

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Likvidlilik riski deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini qanday usullar yordamida tahlil qilish mumkin?
3. Aktivlar sifatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti qanday topiladi?
5. Joriy likvidlik koeffitsiyenti qanday topiladi?
6. Leveraj koeffitsiyenti 6 puntdan past bo'lsa bankka qanday baho berish mumkin?

VII-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING BOZOR RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.

7.1. BOZOR RISKI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI

Me'yoriy hujjatlarda **bozor tavakkalchiligi** - bankning qimmatli qog'ozlar portfelidagi instrumentlari narxlarining, shuningdek, chet el valyutasi va qimmatbaho metallar kurslarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik. Bozor tavakkalchiligi fond, valyuta va foiz tavakkalchiliklarini o'z ichiga oladi, bunda:

fond tavakkalchiligi - qimmatli qog'ozlari portfelidagi instrumentlarning bozor narxlaridagi salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik;

valyuta tavakkalchiligi - chet el valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo'yicha shu chet el valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik -deb ta'rif berilgan.⁵⁵

Valyuta operatsiyalarining keng kulamda rivojlanishi tijorat banklariga ushbu bozorda erkin harakat qilishga va ayni vaqtda ularni tartibga solishga imkoniyat tug'diradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy iqtisodiyotni faqat shu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barcha ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Demak, mamlakatlar o'rtasida eksport-import operatsiyalari albatta amalga oshishi yuz beradi.

⁵⁵O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sen bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: valyuta bozorlarining ahamiyati milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvida namoyon bo‘ladi.

1993 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to‘g‘risida"gi qonunida xorijiy valyutaga ko‘yidagicha ta’rif berilgan:

— xorij davlatlarida muomalada yuruvchi va qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadigan pul birliklari, shuningdek muomaladan olinayotgan yoki olingan bo‘lsada, respublikamiz pul birliklariga ayirboshlanishi ko‘zda tutilgan banknotlar;

— chet el davlatlarining pul birliklari va xalqaro pul birliklarining hisobvaraqlardagi va depozitlardagi mablag‘lari.

Yukorida kayd etilgan valyuta operatsiyalarini tijorat banklaridan faqatgina "vakolatli banklar" nomini olganlari amalga oshira oladilar. Vakolatli banklarga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi Bosh litsenziyasini olgan hissadorlik-tijorat, tijorat, kooperativ va xususiy banklar, shu jumladan, chet el ishtirokidagi qo‘shma banklar (filiallar, vakolatxonalar) ham kirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan 2005 yil 31 avgustidan boshlab qo‘yidagi cheklovlар o‘rnatilgan edi:

- tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasining miqdori uning regulyativ kapitalining 10 foizidan oshib ketmasligi lozim.

- tijorat bankining barcha valyutalardagi yakuniy netto valyuta pozitsiyaning miqdori uning regulyativ kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Xorijiy valyutadagi operatsiyalar ikki turga, ya’ni *joriy va kapital harakati* bilan bog‘liq valyuta operatsiyalariga bo‘linadi.

Joriy valyuta operatsiyalari:

- ◆ tovarlarni (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) eksport va import qilish bo'yicha hisob-kitoblar, valyuta qimmatliklarining oldi-sotdisi, intellektual mulkka egalik huquqini sotish, qarz mablag'larini jalg qilish yoki taqdim etishni ko'zda tutmagan, kechiktirilmaydigan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar;
- ◆ bank omonatlari, kredit, investitsiya va boshqa moliyaviy operatsiyalardan olingan xorijiy valyutadagi daromadlarni chet elga va chet eldan foiz, dividend va boshqa ko'rinishdagi o'tkazmalar;
- ◆ nosavdo tusdagi (ish haqi, nafaka, meros va shu kabilarni) o'tkazmalar, shuningdek shunga o'xshash boshqa operatsiyalar kiradi.

Valyuta risklarining mavjudligi — valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalar amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarni barpo etish orqali bank operatsiyalari bozori baynalmilallashuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog'liq.

Shu sababdan riskka bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko'rsatish mumkin.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayriboshlash kurslari o'zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalari amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi — valyuta kurslari o'zgarishi hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina hollarda ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq va shu sababli kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, hujalik sub'ektlari o'z bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma'qul ko'radilar.

Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursini o‘zgarishi bilan bog‘liq valyuta yo‘qotishlari xavfi kiritiladi.

Valyuta riskining hajmi valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq, shu sababli u bitim imzolangan va to‘lovni amalga oshirish muddati o‘rtasidagi vaqt oralig‘ining farqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

7.2. BOZOR RISKLARIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH

Valyuta riskini uch kategoriya bo‘lish mumkin:

1. Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk – xorijiy valyutada ifodalangan (misol uchun, xorijdagi filialning hisobotlari) firma yoki bankning moliyaviy hisobotlari natijalarini milliy valyutaga o‘tkazish (misol uchun, firmaning moliyaviy hisobotlari konsolidatsiya qilish vaqtida);
2. Tranzaktsiya (bitimlar) riski – to‘lovni kelajakdagi bir sanada amalga oshirishda milliy valyutaning qiymatini yoki bitimning daromadliligining noaniqligini aks ettiradi. Bunga misol qilib, importerga kredit taqdim etilgan holda importer valyutasida tovarlarni eksport qilib olishi xizmat qiladi.
3. Iqtisodiy risk: kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining o‘zgarishi natijasida xorijiy valyutada ifodalangan firma aktiv va majburiyatlarining milliy valyutadagi qiymatining o‘zgarishi. Bunga misol qilib, firmaning xorijiy bo‘linma va filiallarining aktivi va majburiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk – bu hisob-kitob amaliyotida yuzaga kelib, xorijiy valyutada ifodalangan firma yoki bankning aktiv va majburiyatlarining milliy valyutaga o‘tkazishda davriy ravishda ayirboshlash kursi o‘zgarib turishidir. Agarda milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta

qimmatlashsa, u holda firma yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari, majburiyatları va mol-mulki ham milliy valyutaga nisbatan qiymat jihatidan oshadi. Xorijiy valyuta ayirboshlash kursining qadrsizlanishi yuqoridagi holatning aksi bo‘lib chiqadi.

Xalqaro amaliyotda yuzaga keladigan har qanday risk eksport qiluvchi (sotuvchi)ning buyniga tushadi.

Milliy moliya bozorlarida risklarni ma’lum bir sezilarli miqdorda tahmin qilish mumkin. Hududiy va xalqaro moliya bozorlarida esa bundan farqli o‘larok risk darajalarini taxminlashtirish sezilarli darajada mushkul hisoblanadi.

Tijorat banklaridagi valyutani ayirboshlash bo‘linmalari ham odatda ochiq pozitsiyalarni ushlab turishga harakat qilishadi: «uzun» pozitsiyani (xorijiy valyuta zahiralarini ko‘paytiradilar) yoki «qisqa» pozitsiyani (xorijiy valyuta zahiralarini kamaytiradilar) qoldiradilar. Bu holat odatda bank iqtisodchisi yoki bosh valyuta dileri tomonidan tayyorlangan va yuqori rahbariyat tomonidan ma’qullangan «bog‘liq» valyuta prognozlashga asoslangan maqsadli risklarni qabul qilishdir, u esa o‘z navbatida bank uchun katta xatar keltiradi. Shunday qilib, valyuta savdosida bank menejmenti uchun eng samarali siyosat bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) mijozlar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tijorat tranzaktsiyalari (savdo bitimlari asosida bo‘lgan) uchun valyuta bitimlarini cheklash;
- b) korporativ mijozlar tomonidan doimiy ravishda talab qilinadigan valyuta kassalari uchun overnayt amaliyotiga qattiq cheklovlar o‘rnatish hamda asosiy konvertirlanadigan valyutalar uchun limitlarni cheklash;
- v) bankning valyuta savdosida aktiv bo‘lgan barcha korporativ va boshqa mijozlari uchun bankning ish vaqtini va overnayt vaqtida valyutani ayirboshlashga limitlar, shuningdek, ularning faoliyati ustidan monitoring o‘rnatish.

7.3. BOZOR RISKLARINI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Iqtisodiy risk – mazkur valyuta riskining uchinchi ko‘rinishi bo‘lib, multimilliyl firma uchun eng muhim risk hisoblanadi va firmaning aktiv qiymatiga ayirboshlash kursining o‘zgarishining uzoq muddatli ta’sirini o‘lchaydi.

Valyuta-iqtisodiy riskni o‘lchanishi mushkul vazifadir. Chunki, valyuta kursining o‘zgarish samarasini bir vaqtning o‘zida nisbiy inflyatsiya sur’atlari (uning asosida yotgan va har bir valyuta bilan bog‘liq) pul oqimlariga ta’sirini oldini olish tahlilsiz mumkin emas.

Valyuta kurslarini o‘zgarishlarini aniqroq prognozlashtirish, valyuta risklarini sug‘urtalashdan (xejirlash) foydalanish zarurdir.

Banklar barqaror siyosatni ishlab chiqishlari lozim. Ya’ni, xorijiy valyutada barcha aktiv va majburiyatlar miqdori va muddatlariga limitlash o‘rnatishlari hamda har bir alohida valyuta limitlari bo‘yicha doimiy monitoring va davriy kuzatishni amalga oshirishlari zarur. Bunday siyosat bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va limitlar bankning kredit siyosatida mukammal belgilanishi shart.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, hozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini amalga oshirish doirasini jahon amaliyotiga muvofiq kengaytirishga yordam beradigan O‘zbekiston valyuta bozorini erkinlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, manfaatdor organlarga xalqaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan o‘rganish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sirlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini qo‘llash uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va

dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organidir⁵⁶.

Bu masalaning dolzarbliji asosan, ko‘pgina yirik vakolatli banklarning aktivlarining asosiy qismini valyuta sohasiga yo‘naltirilganligi, ya’ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish prinsiplari va valyuta qimmatliklari bilan ishslash tartibi O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq, O‘zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan bog‘liq barcha hisob-kitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo‘lgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo‘lgan tijorat banklari vakolatli bank hisoblanadi.

Valyutani tartibga soluvchi davlat organi o‘z vakolatlari doirasida:

- O‘zbekiston Respublikasida chet el valyutasining hamda chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlarining muomalasi tartibini belgilaydi;
- milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash mexanizmini belgilaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda norezidentlar tomonidan milliy valyutada hamda rezidentlar va norezidentlar tomonidan chet el valyutasida hisob varaqlar ochish va ularni yuritish tartibini belgilaydi;
- Rezident yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi banklarda hisob varaqlar ochish tartibini belgilaydi;
- rezidentlar va norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy valyutada chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini belgilaydi;
- O‘zbekiston Respublikasida va undan tashqarida barcha turdag‘i valyuta operatsiyalarini amalga oshiradi;

⁵⁶«Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi Qonun 10-modda

- chet el valyutasi bilan bog‘liq bo‘lgan hosila moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar o‘tkazish tartibini belgilaydi;
- kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi;
- vakolatli banklar reestrini yuritadi va e’lon qiladi;
- vakolatli banklar uchun ochiq valyuta mavqeい limitlarini belgilaydi;
- valyutani tartibga solish masalalari bo‘yicha barcha yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi majburiy bo‘lgan normativ hujjatlar qabul qiladi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlardir⁵⁷.

O‘zbekiston Respublikasida rezidentlar va nerezidentlar tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini valyutani nazorat qiluvchi organlar o‘z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda nazorat qiladilar.

Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga imkon beruvchi bir qator asoslar mavjud bo‘lib, ulardan asosiyları sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ✓ Markaziy bankning yetarli miqdorda oltin–valyuta zaxiralariga ega bo‘lishi;
- ✓ Markaziy bankning xorijiy mamlakatlar banklari bilan keng tarmoqli korrespondent(vakillik) munosabatlarining mavjudligi;
- ✓ Markaziy bankka valyuta operatsiyalirini amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlarni mavjudligi;
- ✓ Chet el valyutalari bilan savdo qilishda mavjud bo‘lgan savdo udumlariga rioya qilish.

⁵⁷ «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonun 20-modda

7.4. BOZOR RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH

Valyutani tartibga solish sohasidagi mavjud chora-tadbirlar ichki bozorni jahon bozorlaridagi raqobatga bardosh bera olmagan xorijiy mahsulotlarning endigina o‘z ishlab chiqarishini qayta qurayotgan o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarga oqib kelishidan himoya qilishga qaratilgan. Valyutani tartibga solish shartlari, shu jumladan, konvertatsiya tartib-qoidasi ayni shunday mollarning ko‘plab keltirilishiga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy binkining monetar siyosati o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimida Markaziy bankning pul-kredit va valyuta siyosatining iqtisodiyotga ta’siri kapitallarni eksport va import qilishni rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi. Buning mazmuni milliy valyuta kursini barqaror saqlab turish bilan belgilanadi. Milliy valyuta kursini barqaror ushlab turish uchun esa, hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish topshirilgan. Shunday qilib, iqtisodiyotni monetar siyosat orqali tartibga solish jarayonlarini va unda Markaziy bankning tutgan o‘rni va mavqeini tadqiq qilish, hozirgi vaqtda, O‘zbekiston Respublikasi uchun dolzarb masala hisoblanadi.


Valyuta riskini boshqarishda asosiy e’tibor valyuta kursining o‘zgarishi tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlarni oldini olishga qaratiladi va tijorat banklari, multimilliylar korxonalar va boshqa xo‘jalik sub’ektlari muddatli valyuta bozori bitimlarini tuzish orqali valyuta riskidan pul mablag‘larini himoya qiladilar. Bunda valyuta kursining tranzaksion, iqtisodiy va translatsion kabi turlari ajratib ko‘rsatiladi.(9-chizmaga qarang).

Tranzaksion riskning vujudga kelishi tijorat banklarining kelajakdagi pul o‘tkazmalariga valyuta kursining ta’sir qilishi bilan tushuntiriladi. Odatda tovar va xizmatlarning sotilishi va ular bo‘yicha pul to‘lovlarining sotuvchi hisobraqamiga kelib tushishi bir vaqtda sodir bo‘lmaydi. Xorijiy valyutada

savdo qiluvchi yirik kompaniyalarning kelajakdagi pul oqimlari valyuta ayirboshlashdagi o‘zgarishlar tufayli riskka duchor bo‘ladi. Shu sababli kompaniyalar kelajakda qancha miqdorda milliy valyuta olishini aniq bilmaydi. Chunki suzib yuruvchi valyuta kursi rejimida valyuta kursi talab va taklif asosida shakllanadi va doimiy o‘zgarib turadi.

8-chizma

Valyuta risklari va ularni boshqarish usullarining tasniflanishi⁵⁸



Tranzaksion risk mavjud bo‘lar ekan, firmalar 3 ta yirik vazifani bajarishi lozim bo‘ladi: (1) risk darajasini aniqlash; (2) riskni xedjirlash kerakligi yoki zarur emasliligi borasida qaror qabul qilish; (3) agar riskni barchasini yoki bir qismini xedjirlashga qaror qilinsa, mavjud xedjirlash vositalaridan eng maqbulini tanlash.

Tranzaksion riskni xedjirlashning quyidagi vositalari amaliyotda keng tarqalgan:

- ✓ Fyuchers orqali xedjirlash;
- ✓ Forward orqali xedjirlash;
- ✓ Pul bozori xedjiri;

⁵⁸ Muallif tomonidan tuzilgan

- ✓ Valyuta opzioni orqali xedjirlash.

Xedjirlash vositalarini tanlashdan avval firmalar har bir vosita taqozo qiladigan pul oqimlarini batafsil taqqoslashlari lozim. Turli xedjirlash vositalarining nisbiy afzalliklari vaqt o'tgan sayin o'zgarishi tufayli eng maqbul xedjirlash vositasi ham o'zgarib turadi.

Fyuchers orqali xedjirlash

Valyuta fyuchersini harid qilish. Valyuta fyuchersini sotib olgan firma belgilangan muddatda, o'rnatilgan bahoda, kelishilgan valyutada va belgilangan miqdorda valyutani sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Kelajakdagi xorijiy valyutadagi kreditorlik qarzlari bo'yicha to'lovlarni xedjirlash uchun firma yaqin kelajakda zarur bo'lgan valyuta uchun valyuta fyuchersini sotib olishi mumkin.

Forvard orqali xedjirlashda bitimlar ma'lum makonda-birjada emas, balki virtual tuzilishi ham mumkin. Bundan tashqari forward bitimi summasi bitim ishtirokchilari talabidan kelib chiqib tuziladi, ya'ni fyuchersga o'xshab standartlashtirilmaydi. Shunday bo'lsada, bu bitim ishtirokchilariga nisbatan qat'iy majburiyat yuklaydi.

Pul bozori xedjiri deyilganda o'zgarish ehtimoli mavjud valyutada ma'lum pozitsiyani egallash tushuniladi. Bunda egar korxona ma'lum muddatdan so'ng xorijiy valyutani to'lashi lozim bo'lsa va xorijiy valyuta qadri oshishi kuzatilayotgan bo'lsa, milliy valyutada bankdan kredit oladi va bu mablag'ni xorijiy valyutaga ayriboshlab, bankka belgilangan muddatga qadar depozitga joylashtiradi.

Valyuta opzioni orqali xedjirlash nisbatan qimmat va o'z navbatida qulay hisoblanadi, u haridoriga majburiyat emas, balki huquq beradi. Agar opson bitimi kursi amaldagi kursga nisbatan noqulay bo'lsa, unda haridor opsonidan foydalanmaydi va uni muddati o'tgandan so'ng bekor bo'lishiga yo'l qo'yib beradi va qulay bahoda bozordan zarur mablag'ni harid qiladi.

Hozirgi vaqtida respublika bank tizimida valyuta risklarini tartibga solish mexanizmi Markaziy bankning 1998 yil 28 martdagি 392- sonli xati, ya’ni “Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalari”ga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi miqdori vakolatli bank tomonidan sotib olingan va sotilgan chet el valyutasi summalarini o’rtasidagi farq sifatida belgilanadi. Bunda har qandaybir turdagи chet el valyutasi bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion ish kuni oxirida 5 foizdan, uning summa limiti esa - vakolatli bank o‘z mablag‘larining – 20 foizdan oshmasligi kerak.

Banklarning ochiq valyuta pozitsiyasini yuritishmexanizmi valyuta bozorida jamg‘arish (to‘plash) maqsadlarida tijorat banklari tomonidan chet el valyutasining harid qilinishiga doir operatsiyalarini nazorat qilish hamda ba’zi bir darajada ayrboshlash kursining noqulay o‘zgarishi natijasidatijorat banklarini mumkin bo‘lgan yo‘qotishlardan himoyalash imkonini beradi.

Valyuta ayrboshlash kurslari tebranishi natijasida tijorat banklarining ko‘zda tutilmagan zararlarini kamaytirish uchun valyuta riskini tartibga solish sohasida quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- ◆ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bu boradagi amaldagi yo‘riqnomasini ochiq valyuta pozitsiyasini chet el valyutasidagi aktivlar va passivlar o’rtasidagi farq sifatida, deb tasniflanib, o‘zgartirilishiga erishish;
- ◆ barcha banklar ochiq valyuta pozitsiyasining amaldagi miqdorlarini ularning chet el valyutasidagi aktivlari va majburiyatlari nisbatini qiyoslash yo‘li bilan aniqlash;
- ◆ AQSH dollari va YEVRO bo‘yicha valyuta pozitsiyalari limitlarini diversifikatsiya qilish. Bunda ular valyuta hisob-kitoblarining asosiy birliklari ekanligini nazarda tutish kerak;
- ◆ vakolatli banklarga mamlakatlar, korrespondent-banklar va operatsiyalar turlari bo‘yicha mustaqil ravishda limitlarni ishlab chiqishni

tavsiya etish. Korrespondent-banklar bo‘yicha limitlar mamlakatlarga doir limitlar miqdori doirasida o‘rnatilishi lozim.

Markaziy bankning valyuta siyosatining ta’sirchanligini oshirish uchun valyuta cheklovlarini biroz bo‘lsada yengillashtirish zarur, shuningdek, valyuta qonunchiligidagi tijorat banklari uchun o‘rnatilgan jiddiy cheklovlarini qayta ko‘rib chiqish, ya’ni yengillashtirish zarur.

Yuqorida qayd etilgan masalalar to‘la hal etilsa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosatini yanada takomillashtirish, demakki, natijada bank tizimini yanada rivojlantirish hamda banklar jozibadorligini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Markaziy bank ochiq bozorda operatsiyalar amalga oshirish yo‘li bilan bank tizimining zaxiralariga ikki usul bilan ta’sir qilishi mumkin:

1. Agar Markaziy bank kreditinstitutlariningixtiyoridagi pul massasini ko‘paytirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unda u, ochiq bozorda qimmatli qog‘ozlarni sotib oluvchi bo‘lib qatnashadi. Bunda u qimmatliqog‘ozlarga qat’iy belgilangan kurs o‘rnatishi va kurs o‘sha darajaga yetishi bilan taklif qilingan barcha qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yo‘lidan foydalanishi mumkin. Yoki taklif qilingan paytdagi kursidan qat’iy nazar, ma’lum turdagи qimmatli qog‘ozlarni sotib olish miqdorini belgilashi mumkin.

2. Agar Markaziy bank bank tizimining zaxiralarini kamaytirishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unda bozorda sotuvchi bo‘lib ishtirok etadi. Bunday holatda ham Markaziy bank quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- Markaziy bank ma’lum kursni e’lon qilishi va qimmatli qog‘ozlarning kursi o‘sha darajaga yetishi bilan istalgan miqdordagi qimmatli qog‘ozni sotish majburiyatini olishi mumkin;

- Markaziy bank qo‘srimcha tarzda ma’lum miqdordagi qimmatli qog‘ozlarni taklif qilishi mumkin. Ochiq bozor siyosati bunday yo‘sinda amalga oshirilganda davlatningqimmatli qog‘ozlaridan keladigan daromadi ko‘payadi. Buning natijasida kredit institutlarining Davlat qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan

qiziqishi ortadi, oqibatda tijorat banklarining kredit resurslari imkoniyati kamayadi va bank kreditining foiz stavkalari oshadi. Foiz stavkalarining shu yo‘sinda o‘sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi mumkin. Bu holatni Nemis Federal bankining tajribasidan ham kuzatish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi davrda tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining ko‘lamni tobora kengayib bormoqda, buni hisobga olgan holda banklar har bir operatsiyalari bo‘yicha valyuta risklarini boshqarishda turli xil usullarni qo‘llash yo‘li bilan ushbu operatsiyalarda yuzaga keladigan risk miqdorini kamaytirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasida valyuta bozori va valyuta operatsiyalarini rivojlantirish hamda ularni takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirishni taklif etamiz:

◆ birjadan tashqari valyuta bozorini, ayniqsa banklararo valyuta bozorini yanada rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish. Ya’ni, banklararo bozor faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi qonun qoidalarni qabul qilish, ushbu bozor faoliyatini ta’minlovchi moliyaviy vositachilar va erkin muhit hamda moliyaviy ma’lumotlar yoki axborotlar ochiq-oydinligini ta’minalash.

◆ ”Qora bozor”ni yo‘q qilish va valyuta kursini Markaziy bank tomonidan nazorat etilishi hamda muvofiqlashtirilishini ta’minalash uchun **birinchidan**, naqd xorijiy valyuta muomalasi borasida mavjud valyuta cheklolarini bekor qilish, **ikkinchidan**, valyuta birjasiga savdo jarayonida ishtiroy etuvchi sub’ektlar va operatsiyalar ko‘lamiga bo‘lgan cheklolar bekor qilinishi lozim. ya’ni, Markaziy bank va tijorat banklari valyuta resurslari yordamida valyuta ayirboshlash shahobchalari orqali jismoniy shaxslarning naqd valyutaga bo‘lgan talabini qondirish va ushbu orqali naqdli valyuta kursini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

♦ valyuta birjasida bo‘ladigan savdo sessiyalarida xorijiy valyutaga bo‘lgan talab va taklif tendensiyalarini hisobga olgan holda valyuta zahiralari hisobiga intervensiya instrumentidan foydalangan holdadavlatning iqtisodiy siyosatiga muvofiq valyuta kursiga ta’sir etish va uni muvofiqlashtirish jarayonlarini o‘z nazoratiga olish.

♦ naqd valyuta muomalasi, ya’ni valyuta ayirboshlash shahobchalari operatsiyalarini soddallashtirish va ko‘lamini kengaytirish uchun shahobchalarning sotuv va sotib oluv opreatsiyalariga mavjud barcha cheklovlar va sotuvchi hamda sotib oluvchilarni maxsus ro‘yxatga olish tartibini bekor qilish zarur. Bundan tashqari, valyuta shahobchalari nafaqat valyutalarni oldi-sottisi, balki muomala uchun yaroqsiz bo‘lib qolgan kupyuralarni yaroqlilariga almashtirish operatsiyalari bilan shug‘ullanishi lozimligini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta zahiralarini kengaytirish uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish va ularni xorijiy valyutada tushumlar olishini yanada kengaytirishga manfaatdorligini kuchaytish maqsadida ushbu valyuta tushumlaridan tovar turlariga muvofiq amalga oshiriladigan majburiy sotuv me’yorlarini pasaytirish zarur.

Valyuta tavakkalchiliklarini bartaraf etish yoki ularni samarali boshqarish, risklarni kamaytirish uchun tijorat banklarida muddatli valyuta operatsiyalari turlarini (forward, f'yuchers, opson) rivojlantirish zarur.

Valyuta riskini esa, quyidagi usullar yordamida minimallashtirish mumkin (32-jadvalga qarang).

32-jadval. Valyuta riskini minimallashtirish usullari⁵⁹

	Usullar	Izoh

⁵⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

1.	Forvard kursini hisobga olish	<ul style="list-style-type: none"> Kredit shartnomasida o‘rnatilgan forward kursini hisobga olib boshqa valyutada qaytarish sharti bilan biror bir valyutada ssuda berish. Bunday tadbirlar bankni kredit valyutasi kursining pasayishi ehtimolligidan himoya qiladi.
2.	Forvard valyuta shartnomalari	<ul style="list-style-type: none"> Bunday operatsiyalar bitim summasini va forward almashuv kursini shartnomada qat’iy o‘rnatib xorijiy valyutani oldi-sotdisi bo‘yicha bank va mijoz o‘rtasida muddatli kelishuv imzolanishni nazarda tutadi.
3.	Valyutaviy fyuchers shartnomalari	<ul style="list-style-type: none"> Fyucherslar ma’lum bir miqdordagi xorijiy valyutani kelgusida aniq bir kunda sotish yoki sotib olish kelishuvni o‘zida aks ettiradi.
4.	Valyuta svoplari	<ul style="list-style-type: none"> Bu usul ikki tomon o‘rtasida turli valyutalar-dagi to‘lovlarning kelajakda almashinishi haqida-gi kelishuv asosida amalga oshiriladi.
5.	Valyuta riskini sug‘urtalash	<ul style="list-style-type: none"> Bunday tadbir barcha riskni sug‘urta tashkilotiga o‘tkazishni nazarda tutadi.

Bozor riskini esa, quyidagi vositalar yordamida minimallashtirish mumkin:

- Qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisiga tuzilgan fyuchers shartnomalari.** Ular shartnoma egalariga oldindan o‘rnatilgan kurs bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi.
- Fond opsonlari.** Bu aktsiyalarni (yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarni, agar ular fond birjasida aylanayotgan bo‘lsa) kelishilgan muddat davomida sotish yoki harid qilish huquqini beradi.
- Investitsiya portfelining diversifikatsiyasi.** Bu usul qimmatli qog‘ozlarni qadrsizlanishdan himoya qilishning eng maqbo‘l usulidir.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Bozor riski deganda nimani tushunasiz?
2. Valyuta riski deganda nimani tushunasiz?
3. Fond riski deganda nimani tushunasiz?
4. Vakolatli bank qanday bank?
5. “Valyutani tartibga solish to’g’risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?
6. Valyuta riskisini boshqarishning qanday usullari mavjud?

VIII-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING FOIZ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.

8.1. FOIZ RISKI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA ULARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI

Me'yoriy hujjatlarda **foiz tavakkalchiligi** - aktivlar, passivlar va ko'zda tutilmagan holatlardagi instrumentlar bo'yicha foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq **tavakkalchilik**-deb ta'rif berilgan.⁶⁰

Iqtisodiy adabiyotlarda foiz riski tushunchasiga turli nuqtai nazarlardan ta'riflar keltirgan. Foiz riski pul bozorida foiz stavkalarini salbiy o'zgarishi natijasida yo'qotishlarni yuzaga kelish xavfi hisoblanadi jumladan, foiz marjasini tushib ketishida, kapitalni bozor qiymati (narxi)ga bir vaqtning o'zida mumkin bo'ladigan salbiy ta'sirlarni ko'rsatib uni nolga yoki salbiy miqdorga keltirishda o'z aksini topadi.

Tijorat banklarida foiz riski deganda bankning sof foydasi qisqarishi riskidan to foiz stavkalari darjasining o'zgarishi natijasida uning kapitali qiymatining yo'qolishigacha, natijada jalb qilingan mablag'larning o'rtacha qiymati joylashtirilgan mablag'lar qiymatidan oshib ketishi holatiga olib kelish jarayonini tushunish kerak. Bunday holatda foiz riski kredit tashkiloti moliyaviy holatining foiz stavkasining salbiy o'zgarishiga duchor bo'lishi darajasini aks ettiradi. Bankning foiz riskini qabul qilish normal holat bo'lib, u qo'shimcha foyda olishda manba sifatida xizmat qiladi. Foiz riski odatda pul bozorining kelgusi holati haqida noto'g'ri axborot olish, shuningdek, makroiqtisodiy

⁶⁰O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sodan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom

ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, ya’ni inflyatsiya, byudjet defitsiti hajmi, YAIM va boshqa ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi natijasida paydo bo‘ladi.

Bank kuzatuvi(nazorati)ni asoslovchi prinsiplarida (Bazel qumitasi materiallarida tariflanishiga) foiz riski bank moliyaviy holatini foiz stavkalarini salbiy o‘zgarishiga potensial tarzda uchrash riski sifatida ta’riflaydi.

Tijorat bankingmoliyaviy holatiga foiz riskini salbiy ta’siri bank menejmentining o‘ziga xos alohida e’tiborga ega bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlanadi.

Shu sababli, bank kapitali va daromadlariga foiz riskini ta’siri ikki aspekt (jihat) bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, bu foiz riskiga odatiy yondashuv hisoblanib, bankni sof foiz daromadiga foiz stavkalari o‘zgarishini ta’siriga diqqat e’tibor jamlanadi. Biroq foiz daromadlari bilan bog‘liq bo‘lmagan bank operatsiyalarining umumiyligi hajmini o‘sib borish darajasi bo‘yicha, foizli va foizsiz tahlilda sof operatsion daromadni umumiyligi so‘mmasiga bo‘lish, foiz riskini daromad va kapitalga ta’sirini baholashga asoslangandir.

Ikkinci yondashuvga ko‘proq ustunlik (afzallik) beriladi. Kreditlarga xizmat ko‘rsatish va aktivlar sekyuritizatsiyasini turli dasturlari uchun bank tomonidan olinadigan komission mukofotlash singari foizsiz daromadlar bozorda foiz stavkalarini o‘zgarishiga o‘ta sezgir bo‘lishi mumkin. Masalan, kreditlashni tashkil etishda tijorat banklari kreditni so‘ndirish grafigini tuzishda o‘z mijozlariga yordam beradi, ular uchun mumkin bo‘lgan kafolatlarni qidirishni amalga oshiradi, garovni saqlashni tashkil etadi, buning uchun miqdori taqdim etiladigan kredit summasiga bog‘liq bo‘lgan qo‘sishimcha mukofotlar oladi. Agar bu vaziyatda bunday kreditlar uchun foiz stavkalari o‘sab boshlasa, unda unga bo‘lgan talab ahamiyatli darajasida qisqaradi, natijada bank kredit uchun foizlar olish imkoniyatidan ham, kreditlashdan olinadigan qo‘sishimcha daromadlardan ham mahrum bo‘ladi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga foiz stavkalari dinamikasi ta'sirini yanada kengroq ko'rib chiqish zaruriyatini kuzatuv (nazorat) organlari oldiga foiz riski muammolarini ikkinchi aspektini tushunish uchun qo'yadi: foiz stavkalari tebranishi bank aktivlari, passivlari qiymati (narxi)ga natijada bank kapital bazasini yetarlicha bog'liq bo'ladi.

Foiz riski o'zida foiz stavkalari darajasining o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'kotishlar ehtimolini aks etadi.

Bazel Qo'mitasi foiz riskining paydo bo'lishi quyidagi omilarni aniqladi:

1. Narhlar o'zgarishini riski. Bunda foiz riski aktiv va passivlarning to'lov muddatlari bo'yicha balanslashtirilmaganligi orqali aniqlandi.

2. Egri daromad o'zgarishi riski. Aktiv va passivlar bo'yicha foiz stavkalari o'zgarishida vaqtlar bo'yicha mos kelmasligi natijasida olinayotgan daromad tengligining buzilishi.

3. Bazaviy risk. Moliyaviy instrumentlarni qayta baholash vaqtida olingan va to'langan foizlarni boshqarishda noaniq korrelyatsiya o'tkazish.

4. Opcionlar bilan bog'liq risklar. Aktiv va passivlar muddatlari bo'yicha o'zgarishi opcion bitimlarda foiz risklarini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2011 yil 25 maydag'i "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risidagi" 2229-sonli Nizomiga muvofiq foiz riski bozor riskining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi:

Bozor riski - bankning hosilaviy moliyaviy instrumentlari, savdo portfelining moliyaviy instrumentlar bozor qiymatining, shuningdek xorijiy valyuta va qimmatlibaho metallar kursi o'zgarishi natijasida bankda zararlarning vujudga kelishi riski deb qaraladi. Bozor riski o'z ichiga fond bozori, valyuta va foiz risklarini oladi:

• **fond bozorlari riski** - fond bozorlarida savdo portfeli va hosilaviy moliyaviy instrumentlarning bozor narhining salbiy o'zgarishi natijasida vujudga keladigan risk;

- **valyuta riski** - xorijiy valyutalar va qimmatbaho metallar kursining yoki ular bo'yicha ochiq pozitsiyalarning o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan risk. Valyuta risklariga majburiy me'yorlar ham o'rnatiladi: operatsion kun oxirida barcha valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) ochiq pozitsiyalar bank o'z kapitalining 20% idan oshmasligi kerak va operatson kun oxirida har bir xorijiy valyutalar bo'yicha uzun (qisqa) ochiq pozitsiyalar bank o'z kapitalining 10% idan oshmasligi kerak.

- **foiz riski** - bankning aktiv va passivlari bo'yicha foiz stavkalarning salbiy o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qolishlarning paydo bo'lish riski.

8.2. FOIZ RISKLARINING TURLARI VA ULARNI TASNIFlash

O'zbekiston banklari uchun tijorat banklarida foiz riskini tartibga solish uchun bir neche iqtisodiy normativlar belgilagan. Jumladan:

Bir emitentning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyaning maksimal miqdori 0,15 qilib belgilangan.

Qo'yidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, OATB "Kapitalbank" ushbu normativga tahlil qilingayotgan yillar davomida to'liq rioya etib kelgan:⁶¹

(ming so'mda)

33-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Bir emitent qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning maksimal miqdori - N8	0.000	0.000	0.000	0.000	0.000
Belgilangan norma	Mak 0.15				

⁶¹OATB "Kapitalbank"ning o'sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

Mazkur normativning bajarilishi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar portfelinin diversifikatsiya qilish darajasini tavsiflaydi.

Respublikamiz tijorat banklariga nisbatan qo‘llanilayotgan navbatdagi iqtisodiy normativ **sotish - sotib olish uchun qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning maksimal miqdori** deb ataladi. Mazkur normativning maksimal miqdori 0,25 qilib belgilangan.


Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to‘liq rioya etib kelgan:⁶²

(ming so‘mda)

34-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.1y
Oldi-sotdi uchun qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiya larning maksimal umumiy miqdori - №9	0.222	0.123	0.131	0.127	0.190
Belgilangan norma (ko‘rsatkich birlikda)	Mak 0.25				

7-diagramma (ko‘rsatkich foizda)



⁶²OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

Diagrammani nomlang

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarini risk darajasiga ko‘ra ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

⇒ Davlatning qisqa muddatli obligatsiyalariga qilingan investitsiyalar. Bu operatsiyalarning risk darajasi past bo‘lib, ular bankka qat’iy belgilangan foiz ko‘rinishida barqaror daromad keltiradi. Buning ustiga, banklarning ushbu qimmatli qog‘ozlardan oladigan daromadlari soliqqa tortilmaydi.

⇒ Tijorat qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar. Bu shakldagi investitsiyalarning risk darajasi yuqori bo‘lib, bunda qimmatli qog‘ozlar-ning bozor bahosini o‘zgarishi va emitentlarning to‘lovga qobilligi kafolatlanmagan.

Respublikamiz banklariga nisbatan Markaziy bank tomonidan qo‘llanilayotgan iqtisodiy normativlardan yana biri **barcha emitentlarning ustav kapitali va qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalarning maksimal miqdori** hisoblanadi. Bu normativning maksimal miqdori 0,50 qilib belgilangan.

Qo‘yidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OATB “Kapitalbank” ushbu normativga tahlil qilinayotgan yillar davomida to‘liq rioya etib kelgan:⁶³

(ming so‘mda)

35-jadval

Yillar	31.12.07y	31.12.08y	31.12.09y	31.12.10y	31.12.11y
Barcha emitentlarning ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga qilingan	0.050	0.019	0.038	0.015	0.074

⁶³OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari asosida muallif hisob kitobi

investitsiyalarning maksimal umumiy miqdori - N10					
Belgilangan norma	Mak 0.50				

8.3. FOIZ RISKLARINI ANIQLASH, ULARNI BAHOLASH METODLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Foiz riskini jorish darajasini tahlil qilish, aktivlar va passivlar strukturasining o‘zgarishlarini oldindan aytish va bozor stavkalari o‘zgarishlarini oldindan aytish foiz riskini boshqarish taktikasi va strategiyasiga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Buning asosida esa bank resurslarini joriy boshqarish amalga oshiriladi.

Foiz riskini baholashda foiz marjasidan foydalaniladi.

Foiz marjası daromad keltiruvchi aktivlar bo‘yicha foiz daromadlar bilan bankning majburiyatları bo‘yicha foizli harajatlari o‘rtasidagi farq tushuniladi. Foiz marjası quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_{\text{haq}} = \frac{Df - Xf}{Ad} \times 100\%$$

bu yerda: **Mhaq** - foiz marjasining haqiqiy hajmi;

Df- foizli daromad;

Xf- foiz to‘lovleri bo‘yicha harajatlar; keltiruvchi aktivlar;

Ad- foizli daromad keltiruvchi aktivlar;

Foiz marjası quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilinadi:

- haqiqiy foiz marja bilan uning bazasi bilan solishtirish, natijada foizlar bo‘yicha daromadning o‘sishi yoki kamayishini aniqlash mumkin;
- foiz marjaning standartlarga yoki bank qoidalariga mos kelishini nazorat qilish;
- qaysi turdagи daromad (harajat) foiz marjasining o‘zgarishiga ta’sirini aniqlash uchun uning tarkibini tahlil qilish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foiz marjasining o‘zgarishi chegaralarini aniqlash.

Foiz marjasining hajmiga ta’sir qiluvchi omillarga kredit qo‘yilmalarining tarkibi va hajmi hamda ularning manbasi, to‘lovlar muddati, foiz stavkalarining foydalanimishi va ularning harakati kiradi.

Ta’minlangan va yuqori riskli ssudalarni uzoq va qisqa muddatlarda joylashtirish, shuningdek kreditlash hajmi daromad qo‘yilmalarni aniqlaydi. Foiz marjasining hajmiga kredit qo‘yilmalari va ularning to‘lov vaqtлari bo‘yicha manbasi nisbati, shuningdek foiz stavkalarini ko‘rib chiqish muddatlari ta’sir qiladi. Bizda asosan o‘rnatilgan (kredit to‘liq qaytarilmaguncha o‘zgarmaydi) foiz stavkalar qo‘llaniladi. Shu shartlar doirasida aktivlar va passivlar to‘rt guruhga bo‘linadi:

- bozor shartlarining o‘zgarishida foiz stavkalarining to‘liq ko‘rib chiqilishi bo‘yicha aktiv va passivlar;
- uch oy davomida to‘liq boshqariladigan aktiv va passiv;
- uch oydan ko‘proq muddatda ko‘rib chiqilidagan stavkalar bo‘yicha aktiv va passiv;
- o‘rnatilgan stavkalar bo‘yicha aktiv va passivlar.

Birinchi ikki guruh bankning foiz marjasini o‘zgarishini sezuvchi majburiyatlar va aktivlarni aks ettiradi. Ularning nisbati foiz riskini aniqlash imkonini beradi (APS).

APS quyidagi yondashuvlarda boshqariladi:

- yuqori likvidlikni ta'minlash maqsadida stavkalarning, muddatlarning, aktivlarning diversifikatsiyasini qo'llab-quvvatlash;
- foiz stavkaning o'zgarish bosqichlariga bankning aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasini mos tanlash. Masalan, past foiz stavkalarning o'sishi kuzatilganda majburiyatlar bo'yicha mablag'lar muddatini oshirish, o'rnatilgan foiz stavkalardagi kreditlar hajmini kamaytirish, investitsiya muddatlarini qisqartirish, uzoq muddatli qarzlarni jalb qilish va kredit limitlarini yopishga to'g'ri keladi.

Aktiv va passivlar, foiz stavkalarning muddatlariga bog'liq holda foiz marjasining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{M} = \mathbf{APS} \times \mathbf{I}$$

bu yerda: M - foiz marjasi;

I - foiz stavkalarining o'zgarishining kutilishi.

Bankning foiz riskiga tushib qolish darajasini baholashda ko'yidagi ko'rsatkich qo'llaniladi:

$$Fr = \frac{\mathbf{APS}}{\mathbf{Aktivlar}} \times 100\%$$

Foiz siyosatini erkin yuritilishi uchun bank, uning xizmatlari qiymati koeffiitsenti qaysi chegaralarda olib borilayotganligini bilish kerak. Ushbu ko'rsatkich ta'minlanmagan harajatlar hajmini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich **minimal foiz marjasi (Mmin)** ko'rinishida aniqlanadi, ya'ni harajatlarni qoplash imkonini beruvchi, biroq foyda olib kelmaydigan aktivlar va passiv operatsiyalar bo'yicha minimal stavkalarni ko'rsatadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{mi} = \frac{X_t - X_b}{X_t} \quad 4$$

x x 100%

Ad

N

bu yerda: Ax - harakatdagi bank aktivlari;

Xt - bank faoliyatini ta'minlovchi harajatlar;

Xb - bankning boshqa harajatlari;

N - ko'rيلayotgan hisobot davridagi choraklar soni.

Mo'ljallanayotgan foiz marjasি (Mm) - mazkur ko'rsatkich orqali bank kredit shartnomasiga kirishdan oldin, harajatlarni qoplashgina qolmay, balki rejalashtirilgan foydani olish imkoniyatiga ega bo'ladi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Mm = 0,1 QR + Mmin + Pmin ;$$

bu yerda:

0,1 QR - majburiy zaxiralar fondini shakllantirish bilan bog'liq jalg qilingan resurslarga qo'shimcha (jalg qilingan resurslar qiymatining 10% i qo'shiladi).

Pmin - minimal risklar bo'iyach bankning aktiv operaitsyalarining minimal foydalilik me'yori.

Bank aktiv operaitsyalarining minimal daromadliligi (Dmin) :

$$Dmin = QR + 0,1QR + Mmin + Pmin .$$

8.4. FOIZ RISKLARINI KAMAYTIRISH VA BOSHQARISH

Foiz riskini boshqarish umumiyl bank boshqaruvining muhim bug'ini hisoblanadi. Shuning uchun foiz risklarini boshqarishdavujudga keladigan bog'liqlik va aloqa munosabatlariningumumiy ko'rinishini tasavvur qilish,

ularni boshqarishning har xil usullarpini tadbiq eta olish zarur. Ushbu muammo nazariy jihatdan to‘liq ishlab chiqilmagan hisoblanadi, hamda har doim ham amaliyotda hal etib bo‘lmaydigan oqibat (natija) hisoblanadi. Gap shundaki, butun mohiyati bilan foiz riski bank faoliyatiga faqat barqaror iqtisodiyot sharoitida moliya bozorining rivojlangan iinfratuzilmasida va keskin raqabat (konkurensiya) natijasida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Barqaror iqtisodiyotda esa, kuchli inflatsiya holatida, tijorat banklari odatda stavkalarni jalb qilish va joylashtirish o‘rtasidagi katta farqni o‘rnata turib, foiz riskini mijozlarga yuklaydi. Bunda mijozlarning to‘lov qobiliyati pasayadi va shunga muvofiqtijorat banklarining likvidli riskini oshiradi, biroq oxirgi paytlarda O‘zbekiston tijorat bankilarining foiz riskiga qiziqishi oshdi.

Bu turdagи riskning alohida yutug‘i shundaki, u o‘z mohiyatiga ko‘ra, uning vujudga kelishining barcha manbalari uchun to‘g‘ri o‘lchash va adekvativ ta’sirga javob berish hisoblanadi. Hozirgi paytdatijorat banklari foiz riskini boshqarishda qimmatli qog‘ozlar bozori doirasida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan aniq usullar mavjud. Ta’kidlash lozimki, hozirgacha O‘zbekistontijorat banklarining asosiy muammosi foiz riski muammosi hisobladi. Kuchsiz rivojlangan huquqiy baza vafoizlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagan mexanizmi muhim (katta) yuqotishlarga olib keladi. Vaqt o‘tishi bilan foizli operatsiyalarini yuqoridarajada ishonchli o‘tkazishni ta’minlaydigan usullar ishlab chiqildi. Foiz riski turli banklarda doim silliqlanib (kekislanib) turadi. Shuning uchun hozirgi paytda bank ishiing foydasini oshirib borishda muhim yo‘nalish boshqarishni butunligicha takomillashtirish hisoblanadi. Bu boshqaruvga birinchi navbatda foiz riskini boshqarish kiradi. Buguntijorat banki barqarorligi va raqobatbardoshligi aynan sifatli boshqaruvga bog‘liq.

Foiz riskini boshqarish tizimi elementlar bloki yig‘indisidan iborat bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

- boshqaruv sub’ektlari, foiz riskini identifikasiyalash;
- foiz riskini baholash va tahlil qilish;

- risk monitoringi va tartibga solish usullari;

Foiz riskini boshqarishning vazifasi likvidlikka rioya qilish shartlari bilan risk va foyda o'rtasidagi optimal munosabatlarni topishdan iboratdir.

Mazkur vazifani yechilishi qiyin bo'lgan vazifalar qatoriga kiradi, masalan, Bazel prinsiplarida (Bazel qumitasining "foiz stavkalari risklarini boshqarish prinsiplarida") boshqaruv maqsadi ta'riflangan (formulirovka qilingan) – bank tomonidan belgilangan parametr (ko'rsatgich)lar doirasida foiz riski miqdorini ta'minlash (ushlab turish). Shu sababli bank foiz riskini maqbul (optimal) darajasini belgilash zarur.

Foiz riskini samarali boshqarish tizimini tuzish uchun quyidagi konkret (aniq) vazifalarni yechish talab etiladi:

1) Konsetual darajada bank foiz risklarini boshqarishni vazifalari, strategiyasi va yuritishni aniq formulirovkalash (ifodalash) hamda ularni o'zaro bog'liqliq va ichki logika asosida aniqlashtirib olish zarur;

2) Riskni ta'riflash prinsiplari, baholash va liagnostika qilishni prinsiplarini belgilash, ular zaminida ustuvor strategiya va vazifalarqo'yilgan bankka aloqador bo'lgan barcha shaxslarning manfaatlari tengligi himoya qilinishi ta'minlansin.

3) Mazkur prinsiplardan boshqaruv nazoratini muhim protseduralarini, jumladan, tashkiliy struktura (tarkib)ni sxemasini tuzishda, vakolat (huquq, polnomochiy), hamda texnik topshiriqlarni o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni tayyorlash uchun baza sifatida foydalaniladi;

4) Nazorat tizimi va risklarni boshqarishni prinsiplariga mos ravishda faoliyat natijalarini baholash va o'z-o'zini baholash, javobgarlikni ta'minlash protseduralarini belgilash, mazkur protseduralardan boshqaruv jarayonini takomillashtirish faktori sifatida foydalanish;

5) Yuqorida qayd etilgan prinsip va protseduralarga asoslanib, baholash va tekshirishni yuqori sifatini ta'minlash, ularga rioxayot qilish maqsadida monitoring va teskari aloqa mexanizmini ishlab chiqish.

Foiz riskini samarali boshqarishni tuzishda bank ichki va tashqi muhitini o‘ziga xos ta’sirini hisobga olib boshqaruv elementlarini o‘zaro bog‘liqligidan iborat tizimli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fond riskini boshqarish tizimini amal qilish samaradorligi uni tashkil etishga bog‘liqdir. Tashkil etishga mos ravishda xorijiy davlatlarda quyidagilarni ko‘rish mumkin:

- bank tarkibida doimiy tarzda foiz riskini boshqarish tizimini amal qilishi uchun javobgar (mas’ul) bo‘lgan organning mavjudligi;
- riskni identifikatsiyalash, baholash, tahlil qilish va bevosita risk pozitsiyalarini tashkil etishga tegishli bo‘lgan pozitsiyalar bo‘yicha hujjat aylanuvining mavjudligi;
- foiz riskini boshqarishni barcha etap (bosqich) larida metodika va protseduralarga rioya qilish hamda tushunish;
- foiz riskini boshqarish jarayoniga jalb qilingan bo‘linmalar, hamda risk pozitsiyalarini yaratish va riskni baholash, tahlil qilish bo‘yicha xodimlar majburiyatini bo‘linishi o‘rtasida o‘zaro aniq aloqalarni mavjudligi;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar, ehtiyyotsizlik va personalni ishga sovuqqonlik bilan munosabati ustidan nazorat, “to‘rtta ko‘z” prinsipidan foydalanish.

Foiz riskini boshqarish jarayonini modellashtirish xorijda quyidagi etap (bosqich)lardan iborat:

1) Logikali modelni tuzish – uning elementlarini o‘zaro aloqalarni logikasini tavsiflovchi moledir. U bankda yuz beradigan jarayonlarni yoritishni shakllantirishga hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni va ularni ishtirokchilarini aniqlashga imkon beradi;

2) logikali modelni detallashtiruvchi foiz riskini boshqarish jarayonida axborot (ma’lumot)lar modelini tuzish. Bu yerda gorizontal va vertikal ichki bank kommunikatsiyalari (axborotlar oqimi), ularga ishlov berish harakteri hamda mazkur jarayonni amalga oshiruvchi ijrochilar yoritiladi;


3) funksional modellashtirish – foiz riskini boshqarish jaryonida amalga oshiriladigan operatsiya (funksiya)lar ro‘yxati tuziladi, hamda yagona jarayonni mavjudligini izohlovchi o‘zaro aloqalar ko‘rsatiladi;

4) Tashkiliy modellashtirish – bo‘linmalar bo‘ysunish strukturasiga keltiriladi, ularni vakolatlari va majburiyatlari ifodalanadi (belgilanadi);

5) iqtisodiy qonunlar asosida va bank faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yordamida, kredit tashkiloti faoliyatini turli kshrsatgichlari dinamikasi va bog‘liqligini ifodalovchi matematik-logikali model tuziladi.

Boshqaruv ishining barcha aspektlarida barcha modellar kombinatsiyasidan foydalanish bankda foiz riskini maksimal darajada samarali boshqarishga erishish imkonini beradi.

9-chizma




9-chizma Foiz riskini boshqarish jarayonining mantiqiy modeli.

Foiz riskini boshqarish sohasidagi bank strategiyasi:

- foiz riskini boshqarish jarayonida bank bo‘linmalarini o‘zaro aloqalar tartibi;

- krizis (inqirozli) sharoitlarda foiz riskini boshqarish bo'yicha instruksiya (yo'riqnama);
- foiz riskini boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish shakllari;
- boshqaruv qarorlarini registratsiya (qayd) qilish shakllari;
- foiz riskini boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimlaridan iborat. (10-chizmaga qarang)

10-chizma



10- chizma. Foiz riskini boshqarish axborot (ma'lumot)li modeli.

Foiz riskini boshqarish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- foiz riskini joriy baholash;
- foiz riskini boshqarish bo‘yicha operativ (tezkor) qarorlar qabul qilish;
- foiz riskini kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish, qarorlarni ijro etish;
- foiz riskini boshqarish bo‘yicha strategik qarorlarni qabul qilish;
- bankda foiz riskini boshqarishni tartibga soluvchi normativ (me’yoriy) hujjatlarni ishlab chiqish;
- foiz riskini boshqarish jarayonini nazorat qilish.

Foiz riskini boshqarish jarayonida ishtirok etuvchi tashkiliy birliklar:

- kredit tashkilotining rahbariyati;
- risklarni boshqarish bo‘yicha komitet;
- reja-iqtisod bo‘linmasi;
- foiz riskini baholash va tahlil qilish bo‘limi;
- ichki nazorat bo‘linmasi;
- bankni boshqa bo‘linmalari.


Foiz riskini boshqarishni ta’minlovchi axborot modelini shakllantirishga ta’sirko‘rsatuvchi asosiy hujjat bo‘lib, bank rivojlanish strategiyasi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan chizmada (4.3.chizma) bunday hujjat foiz riskini boshqarish sohasidagi bank strategiyasi deb nomlangan.

Tabiiyki, strategiyada qayd etilgan ichki talablar asoslangan hujjat ko‘rinishida amal qilmasdan, mazkur kredit tashkilotida “Foiz riskini boshqarish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi qoidalar” elementni sifatida yoki bozor riski sohasida bank strategiyasini tarkibiy qismi sifatida, namoyon bo‘ldi. Biroq qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarini asoslanganligi, ketma-ketligi va samaradorligini ta’minalash uchun mazkur hujjat qanday ko‘rinishda bo‘lmisin bank rahbariyati o‘zi uchun quyidagilarni aniq belgilab olishi zarur: Foiz riskini baholash qaysi metodlar yordamida o‘tkaziladi, olingan natijalar u yoki bu masalalarni olishda qanday hisobga olinadi, hamda riskni mazkur turini minimallashtirishni qandaydir usullaridan foydalilanidimi?

Qayd qilingan qoidalalar tijorat banki rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan rahbariyat hujjatida o‘z aksini topishi kerak (strategiyalarda qoidalarda, dasturda va h.k).

Strategiyada kiritilgan tasdiqlar prinsipial harakterga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli, ularni amaliyatga tadbiq etish uchun, hamda ta’riflangan qoidalalar asosida ularni talqin etishda qandaydir kelishmovchilik (bahs)larni bartaraf etish uchun mazkur kredit tashkilotida foiz riskini boshqarish tartibi batafsил yoritilgan me’yoriy (normativ) hujjatlar to‘plami mavjud bo‘lishi kerak.

Foiz riskini boshqarishni funksional modeli quyidagi 11-chizmada aks ettirilgan.



11-chizma. Tijorat bankida foiz riskini boshqarishning funksional modeli.

Bankning foiz riskini boshqarishda asosiy o‘rinni bank foiz siyosati egallaydi:

Bankning foiz siyosatini amalga oshirish bosqichlari:

I bosqich - past foiz stavkalar (o‘sish kuzatilmoqda):

- qarz mablag‘lari muddatini oshirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni qisqartirish;
- portfel investitsiyalar muddatini qisqartirish;
- qimmatli qog‘ozlarni sotish;
- uzoq muddatli qarzlarni sotish;

- kredit liniyalarni yopish.

II bosqich - o'suvchi foiz stavkalar (maksimal o'sish kuzatilmoqda);

- qarz mablag'larni muddatini qisqartirish;
- investitsiyalar muddatini uzaytirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini oshirish;
- fiksirlangan stavkalardagi qarzlarni muddatidan oldin qaytarish.

III bosqich - yuqori foiz stavkalar (pasayish kuzatilmoqda):

- qarz mablag'lari muddatini qisqartirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni ulushini oshirish;
- investitsiyalar portfeli muddatlarini oshirish;
- aktivlarni sotish rejasini tuzish.

IV bosqich - kamayuvchi foiz stavkalar (minimal tushish mumkin):

- qarz mablag'lari muddatini uzaytirish;
- investitsiya muddatlarini kamaytirish;
- o'zgaruvchan foiz stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni kamaytirish;
- uzoq muddatli qarzlarni oshirish.

Shunday qilib, foiz riski tijorat banklari faoliyatida juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank rahbariyati foiz riskini oldini olish va uni kamaytirish borasida doimiy ravishda chora-tadbirlar olib borishlari lozim hisoblanadi.

Foiz xatarini boshqarishdan maqsad esa, bozor foiz stavkalarini tebranishlarining bank rentabelligiga salbiy ta'sirni minimallashtirishdan iborat. Foiz stavkalarining o'zgarish xatari farqlantiruvchi xususiyati shundan iboratki, uning ta'siri bank uchun ham salbiy, ham ijobjiy bo'lishi mumkin.

Foiz xatarini boshqarish bankni foiz shaklida sof foyda olish vazifalarini qo'yishga va bankning foiz xatariga qanchalik duch kelganligini chamalab

ko‘rishga majbur etadi. Buning uchun yo tafovutni tahlil qilish usuli (ing. GAP - uzilish, interval), yohud davomiylikni tahlil qilish usulidan foydalaniladi.

Bank portfelining shakllanish doirasida foiz stavkalarini o‘zgarish riskini boshqarishda ikki xil strategiya bo‘lishi mumkin:

- foiz stavkalarining dinamikasini prognoz qilish;

• foiz stavkalarini prognozlanayotgan o‘zgarishining salbiy ta’sirini minimallashtirish maqsadida bank portfeli tuzilmasini o‘zgartirish tadbirlarini o‘tkazish.

Agar foiz stavkalarining o‘zgarish tendensiyalarini oldindan aytib bo‘lmasa yoki foiz stavkalarini tartibsiz tebranib tursa, u holda tafovutni boshqarishning **mudofaa strategiyasini** qo‘llash o‘rinli bo‘ladi. U bank portfelini boshqarishga passiv yondashishni bildirmaydi va bank operatsiyalarini boshqarishda g‘oyaning yuksak faol bo‘lishini talab qiladi.⁶⁴

Foiz riskini quyidagi usullar vositasida minimallashtirish mumkin:

1. Foiz riskini quyi bo‘g‘indagi tegishli sug‘urta tashkilotiga o‘tkazish yo‘li bilan sug‘urtalash.

2. Kreditlarni suzuvchi foiz stavkasida berish. Bu usul bankka berilgan kreditlarning foiz stavkasiga bozordagi foiz stavkalarining tebranishini hisobga olib tegishli o‘zgartirishlar kiritishga imkoniyat beradi va bank ssuda foizining bozor normasining oshishi natijasida ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararlardan qochish uchun sharoit yaratib beradi.

3. Muddatli kelishuvlar. Bank va mijoz o‘rtasida belgilangan summa va o‘rnatilgan foizda, ma’lum bir kelishilgan kunda ssuda bilan ta’minalash to‘g‘risida maxsus **forward** bitimi imzolanadi. Bunday bitimni tuzish yordamida bank ssudalarni berish vaqtida bozor foiz stavkalarining tushib ketishi xavfidan o‘zini himoyalaydi. Bunda ancha past to‘lov evaziga kredit olgan mijoz yutadi.

4. Foizli fyuchers shartnomalari. Bu usul bozor foiz stavkalarining tebranishidagi spekulatsiya (chayqovchi)lar hamda foiz riskini qoplash uchun

⁶⁴ Bozor, pul va kredit jurnali. 1999 yil mart oyi soni.

qo‘llaniladi.

5. Foiz opsonlari. Bu opson egasiga qat’iy o‘rnatilgan bahoda kelgusida belgilangan kunda yoki ungacha qisqa muddatli depozit yoki ssudani sotish yoki sotib olish huquqini (majburiyat emas) beruvchi kelishuvidir.

6. Foiz svoplari. Bu usul bitta summaga, biroq turli shartlarda tuzilgan kredit majburiyatlari bo‘yicha banklar o‘rtasida bo‘ladigan foiz to‘lovlar almashinushi bo‘lib, foiz riskini minimallashtirishga bir qadar yordam berishi mumkin.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Foiz riski-bu?
2. Foiz riskining qanday turlarinin bilasiz?
3. Bankning foiz siyosati kim tomonidan tuziladi?
4. Foiz riskini minimallashtirishning qanday usullari mavjud?
5. Foiz opsonlari deganda nimani tushunasiz?
6. Foiz svoplari deganda-chi?

IX-MAVZU: TIJORAT BANKLARINING MAMLAKAT VA HUQUQIY HATTI-HARAKATLARI BILAN BOG'LIQ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI.

9.1. TIJORAT BANKLARINING MAMLAKAT RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Me'yoriy hujjatlarda **mamlakat tavakkalchiligi** - bankning xorijiy hamkorlari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar sababli o'z moliyaviy majburiyatlarining bajara olmasligi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik -deb ta'rif berilgan.⁶⁵

Mamlakat miqyosida makrodarajada iqtisodiy risklarni aniqlash juda muhim bo'lib, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish, chetdan investitsiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy qo'yilmalar jalg qilishda katta ahamiyatga egadir. Har bir mamlakatning rivojlanish mavqeい bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy risklar, halqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va xisob operatsiyalari sohasida bo'lgan risklar bilan bevosita bog'liq. Bu risklarning bo'lishi va ularning darajasi esa importchi yoki eksport davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog'liq. Har bir mamlakatda iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi iqtisodiy risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo'shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo'lgan bank tashkilotlari uchun dorlzarbdir. Bank amaliyotida uning raxbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto'g'ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin.

SHuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o'rnatishda, ayniqsa kredit va xisob-kitoblar bilan bog'liq munosabatlarni olib borishda,

⁶⁵O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sodan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom

undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Jahon amaliyotida shu maqsadda tavsiya etiladigan yo‘llardan biri bu mamlakat iqtisodiy risklari hajmini tahlil qiluvchi BERI indeksidan foydalaniladi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi. Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek amaliy ma’lumotlar va nisbatlarni o‘rganishga asoslangan miqdor ko‘rsatkichlariga tayanishi kerak. Tahlilning ikki turi (sifat va miqdor)ning uyg‘unlashuvi aniq va ravon bo‘lishi barcha jadvallar va taqqoslangan ma’lumotlar tahlilni engil qilish va uning samaradorligini oshirish uchun qisqartmalarni olib berilishini o‘z ichiga olishi kerak. 21 Shu asosiy tamoyillar mamlakat riskini aniqlashda tahlil qilinayotgan statistik va analitik yo‘nalishlarning ikki pog‘onali tizimini tashkil qilishga olib keladi.

Birinchi pog‘onada o‘lkadagi holat to‘g‘risidagi xisobot tashkil kilinadi (qiskacha iqtisodiy ahvol ta’rifi). Eng avvalo tahlilning muhim bo‘limi keltiriladi, ya’ni mamlakat iqtisodiy riskining darjasini haqida xulosa, ya’ni mamlakatning iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy ma’lumotlar va asosiy xulosalar tahlil qilinadi. Tahlilning ikkinchi pog‘onasida aniq iqtisodiy-siyosiy vaziyat tahlil qilinadi, marketing tadqiqining natijalari ko‘rib chiqiladi va omillar riski chizmasi bo‘yicha davlatning iqtisodiy riski darjasini aniqlanadi.

Makrodarajada mamlakat iqtisodiy riskini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar tahlil qilinishi mumkin: - iqtisodiyotning samaradorligi (bunda YAMMning o‘rtacha yillik o‘sishi hisoblanadi); - siyosiy risk darjası; - jahon banki ma’lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo‘yicha qarzdorlik darjası, kreditni qaytib tulash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar; - bank kreditlarini olish imkoniyati; - qisqa muddatli kreditlash imkoniyati; - uzoq muddatli kreditlash imkoniyati; - fors-mojor holatlarining yuzaga kelishi; - mamlakatning kreditga layoqatlilik darjası; - tashqi karzlar bo‘yicha to‘lanmagan majburiyatlar. Iqtisodiyotning mezo va mikrodarajalarida

risklarning turlari va ta'sirchanlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida risklarga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq 22 bo'ladi. Xo'jalik sub'ektlari faoliyatida mavjud risklarga ta'sir etuvchi barcha omillarni shartli ravishda ikki guruhga: ob'ektiv va sub'ektiv yoki boshqarilmaydigan va boshqariladigan omillarga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga korxona yoki firmaga bevosita bog'liq bo'lman omillar (inflyasiya, raqobat, iqtisodiy inqirozlar, ob-havo sharoitlari) kiradi. Ikkinci guruhga muayyan korxona yoki firmanın faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan omillar (ishlab chiqarish – texnikaviy imkoniyati, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, texnika xavfsizligi darajasi va h.k.), shuningdek firmanın xo'jalik-moliyaviy faoliyatida juda muhim xisoblangan kontragent firmalar (mol etkazib beruvchilar, subpudratchilar, loyihalashtiruvchilar) va raqobatchi firmalarni tafsiflovchi omillar kiradi. Iqtisodiyotning mezodarajadagi risklarining salmoqli turi - sanoat riski ma'lum tarmoqning ichida ham, boshqa tarmoqlarga nisbatan ham alohida olingan tarmoq iqtisodiy ahvolning o'zgarishi, uning rivojlanishi va amal qilishining o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Xo'jalik tarmog'iga nisbatan soliq me'yorlaridagi, tarmoq yo'riqnomalari, kredit olish shartlari va boshqalardagi o'zgarishlar risk manbai bo'lib xisoblanadi. Sanoat riskini baholashda quyidagilarni e'tiborga olish kerak: - alohida olingan tarmoqning bir-biriga bog'liq tarmoqlar bilan o'zaro aloqada ma'lum vaqt mobaynidagi faoliyati (tarmoqning hayotiy davri); - bir-biriga bog'liq tarmoqlar faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan qanchali barqaror bo'lishi; - korxona yoki firmalarning o'z kapital qo'yilmalarini boshqa tarmoqlarga o'tkazish imkoniyati; - firmalarning bajarayotgan ish hajmi, ishlaydiganlar soni, tarmoq ichidagi ularning xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari bo'yicha qay darajada tasnif qilinganligi va h.k. Ijtimoiy-siyosiy risklarga avvalo huquqiy omillar kiradi.

Davlat savdo va valyuta orqali iqtisodiyotni tartibga solishni amalga oshiradi, valyuta cheklowlari va valyuta 23 intervensiyalari, kvotalash, litsenziya

berish, bojxona bojlari, subsidiyalar va boshqalardan foydalanadi. Bunda barcha vositalar o‘zaro uzviy bog‘liq. Ijtimoiy siyosatdagi o‘zgarishlar ish bilan bandlik, daromadlar darajasi, milliy mahsulot ishlab chiqarish hajmi, import va eksport miqdorlariga ta’sir qiladi. Risklar va ularning ijtimoiyiqtisodiy siyosatning barcha vositalariga ta’sir darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish muhim. Chunki har bir harakat risk bilan bog‘liq bo‘ladi va demak, risklar birbiridan alohida amal qilolmaydilar. Fiskal-monetary risk ham ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida bo‘lib, u davlatning fiskal-monetary siyosatini o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Davlatning fiskal va monetary siyosati iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlashtirishga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Fiskal-monetary risklar davlatning daromadlar va xarajatlar sohasidagi antitsiklik chora-tadbirlar yordamida tarmoq va firmalarning ish bilan faoliyot sohasini aniqlashni talab qiladi. Fiskal risklarning tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy-byudjet siyosati hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, iqtisodiyotning tabaqalik darajasidagi risklarning asosiy qismi banklar faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu risklar bankning turi va xususiyatiga, uning faoliyati, xarakteri, hamda uning mijozlari tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Ixtisoslashgan, tarmoqlashgan va universal tijorat banklarining har birida riskning hamma turlari mavjud bo‘ladi, biroq ularning paydo bo‘lish extimoli va xususiyati bank muassasasining turiga bog‘liqdir. Halqaro bank amaliyotida universal tijorat banklarining faoliyati turlicha bo‘lib, ular iqtisodiyot bilan bog‘liq hamma xizmat turlari bilan shug‘ullanadilar. Ixtisoslashtirilgan tijorat banklari asosan o‘z faoliyatlarini aniq bir sohaga xizmat ko‘rsatishga, ya’ni aniq bir ob’ektga yo‘naltirilgan faoliyatga qaratgan bo‘ladi. SHu jihatdan iqtisodiyotning shu sohasida mavjud risklar ixtisoslashgan banklar faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun, faoliyati bo‘yicha innovatsion, investitsiyaviy, ssuda, jamg‘arma, ipoteka, depozit, kliring, ma’lum bir mijozlar turiga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan, tarmoq bo‘yicha yoki funksional belgisi bo‘yicha faoliyat olib boruvchi banklar keng qamrovli faoliyat ko‘rsatib

turli xil iqtisodiy risklarga duchor bo‘lishlari mumkin. 24 Undan tashqari halqaro bank amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan tijorat banklarining faoliyati iqtisodiyotning rivojlanishiga, bozorga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular hududiy, hududlararo va transmilliy bo‘lishi va hududlar, mintaqalarda yuzaga keluvchi ob’ektiv va sub’ektiv risklar ular faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin.

Ichki risklarning har xil turlari va darajalari bilan tijorat banklarining to‘qnashishi asosan ular faoliyatining xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarining sub’ektlari xisoblangan korxonalar, xorijiy investorlar, davlat, yakka xujaliklar va ular bilan bog‘liq ashyoviy (tovar) va monetar (pul) oqimi tebratadi. Xujalik oborotining g‘ildiragi bu – pul mablag‘lari bo‘lib, ular banklar va boshqa moliyaviy muassasalar orqali oqib o‘tadi. SHuning uchun iqtisodiyotning qaysidir bir sohasi yoki kanalida mavjud risklar banklar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Iqtisodiyotda nafaqat pul oqimida, balki barcha jarayonlarda riskning yuzaga kelishi uni yuzaga keltiruvchi manbalarga bog‘liq bo‘ladi. Aniqrok qilib aytadigan bo‘lsak, risk bu faoliyat ko‘rsatuvchi sub’ektlar amaliyotida yuzaga kelib iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda aniq va echimi bo‘lmagan holatning son va sifat jihatdan bog‘liq bo‘lgan vokeliqni anglatadi.

Mamlakat riski - o‘z navbatida konvertatsiya riski, transport riski, moratoriya to‘lovi riskiga bo‘linsa, valyuta riski esa ikki guruhga bo‘linib, u tijorat va translyatsion riskidan iborat.

Mamlakat riski. Mamlakat riski xalqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari qo‘shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida 24 bo‘lgan risklar bilan bevosita bog‘liq. Bu risklarning bo‘lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy - iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq. Har bir mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo‘shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dolzarbdir.

Bank amaliyotida uning rahbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto‘g‘ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o‘rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog‘liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy - siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Mamlakat riskini konvertrlangan risklar, transfert risklari yoki maratoriya to‘lovlari bo‘yicha risklarga turkumlash mumkin. Mamlakat riskini prognoz qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdeq amaliy ma’lumotlar va nisbatlarni o‘rganishga asoslangan miqdor ko‘rsatkichlariga tayanishi kerak. The Economist jurnali tadqiqot guruhining har yili turli mamlakatlar iqtisodiyotini investitsiyalash riskini qiyosiy bahosini nashr etadi¹². Ma’lumotlar 27 omillar bo‘yicha (siyosiy barqarorlik, iqtisodiy siyosat, YAMM o‘sishi va boshqalar) jahon mamlakatlari bo‘yicha hisoblanib, maksimal risk -100% Stranovo.

Страновый risk — eto stepen riska togo, chto deystviya suverennogo pravitelstva povliyayut na sposobnostdoljnika, svyazannogo s dannoy stranoy, ispolnit svoi obyazatelstva. Razlichayut riski pryamie i kosvennie.

Strani s naimenshim urovнем riska:

1. Lyuksemburg — 100
2. Norvegiya — 98
3. Shveysariya — 98
4. Daniya — 95
5. SSHA — 94
6. Shvesiya — 94
7. Finlyandiya — 93
8. Irlandiya — 93

9. [Niderlandi](#) — 93
10. [Avstriya](#) — 93
11. [Velikobritaniya](#) — 92
12. [Kanada](#) — 92
13. [Belgiya](#) — 91
14. [Germaniya](#) — 91
15. [Fransiya](#) — 90
16. [Avstraliya](#) — 90
17. [Islandiya](#) — 89
18. [Yaponiya](#) — 89
19. [Singapur](#) — 88
20. [Ispaniya](#) — 88

20 samix riskovannix stran[pravit | pravit viki-tekst]

166	Malavi	26.80
167	Eritreya	26.54
168	Gvineya	26.11
169	Gaiti	25.42
170	San-Tome i Prinsipi	25.31
171	Liviya	24.87
172	Burundi	22.65
173	Solomonovi Ostrova	22.08
174	Gvineya-Bisau	21.24
175	Zimbabwe	19.90
176	Federativnie Shtati Mikronezii	19.28

177	<u>Respublika Kongo</u>	17.83
178	<u>Liberiya</u>	17.58
179	<u>Demokraticeskaya Respublika Kongo</u>	16.41
180	<u>Marshallovi ostrova</u>	12.10
181	<u>Kuba</u>	11.75
182	<u>Somali</u>	11.11
183	<u>Irak</u>	5.17
184	<u>Afganistan</u>	4.24
185	<u>KNDR</u>	3.66

Keyingi yillarda iitisodchi olimlarning ilmiy ishlarida almashinuv kursining salbiy tebranishi, ya’ni valyutalar bryicha aktiv va passivlar mos emasligi oiibatida zarar krrish eutmoli valyuta riski sifatida taliin etilmoida. Valyuta kursi foiz stavkalari μarakati bilan belgilanadi. Foiz stavkalari μarakati esa, asosan kredit riski ta’sirida kechadi. Bu μolat valyuta riski trans- feri va transformatsiyasini aynan kredit riski belgilab berishini anglatadi⁸. Anii bir valyutaga brlgan talab uning jozibadorligi oriali aniilanganda, mazkur mamlakat riski yuzaki baμolanganligi namoyon brladи. Investorlar kam riskli deb, μisoblagan valyutalar misolida shunday baμolashning salbiy oiibat- lari yaiol kuzatilganligini iayd etish mumkin.

Mamlakat riski, halqaro bank amaliyatida va bank tashkilotlari, qo’shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo‘lgan risklar bilan 14 bevosita bog‘liq. Bu risklarning bo‘lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy- iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq. Har bir mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo’shma banklar va bosh litsenziyaga ega

bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dolzarbdir. Bank amaliyotida uning rahbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto‘g‘ri baho berish natijasida ancha xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o‘rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog‘liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim.

Mamlakat riskini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish lozim:

- iqtisodiyotning samaradorligi (bunda davlat bo‘yicha yalpi milliy mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sishi hisoblanadi);
- siyosiy risk darjasи;
- jahon banki ma’lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo‘yicha qarzdorlik darjasи, kreditni qaytib to‘lash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar;
- bank kreditlarini olish imkoniyati;
- qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;
- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;
- fors-mojor holatlarining yuzaga kelishi;
- mamlakatning kreditga layoqatlilik darjasи;
- tashqi qarzlar bo‘yicha to‘lanmagan majburiyatlar va boshqalar.

9.2. TIJORAT BANKLARINING HUQUQIY HATTI-HARAKATLARI BILAN BOG‘LIQ RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORA- TADBIRLARI

Me’yoriy hujjatlarda **huquqiy tavakkalchilik** - bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioxasi qilinmaslik, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto‘g‘ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni

noto‘g‘ri tuzilishi) yo‘l qo‘yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklar, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik -deb ta’rif berilgan.⁶⁶

Bank tizimining bazaviy huquqiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq ifodalangan bo‘lib, mamlakatimizda pul va kredit sohasidagi munosabatlarni qonunchilik asosida muvofiqlashtirish, banklarning moliyaviy barqaror faoliyat yuritishini ta’minalash Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan.

Bank tizimi mamlakatimiz moliya tizimining muhim tarkibiy qismi sanalib, bugungi kunda xalqaro moliya bozorlarining faol ishtirokchisidir. Shu bois tizimda xalqaro standartlarga asoslangan iqtisodiy-huquqiy me’yorlarga qat’iy rioya qilish doimo dolzarblik kasb etadi.

Bank qonunchiligining takomillashib borishi davlatning milliy bank tizimi, turli moliya institutlarining erkin faoliyat yuritishi va kengayishi, moliyaviy operatsiyalarga xos bo‘lgan tavakkalchiliklarni oqilona boshqarish, moliyaviy xizmatlar iste’molchilarini himoya qilishdan manfaatdorligi ifodasidir.

Markaziy bankning qonun ijodkorligi banklarning pul-kredit siyosatining dolzarb yo‘nalishlariga muvofiq iqtisodiyotni o‘z vaqtida va samarali moliyalash, bank tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining belgilangan parametrlariga erishish, ya’ni jamg‘armalarni investitsiyalarga yo‘naltirish, kredit tashkilotlari va real sektor uzviyilagini ta’minalash, mijozlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari hamda bank-moliya xizmatlari sifatini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilmoqda.

Bank nazorati va asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha xalqaro iqtisodiy-huquqiy me’yorlarning qo‘llanilishi, bank tizimi va mijozlarning o‘z vaqtida bundan

⁶⁶O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-sodan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom

xabardor etib borilishi banklar faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, tizimdagি huquqiy munosabatlar madaniyati va xodimlar etiketi rivojlanishini ta'minlab, pirovardida milliy iqtisodiyotning bosqichma-bosqich o'sib borishiga xizmat qilmoqda.

Bank qonunchiligining tadrijiy rivoji yangi qonunlar va amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib borilishida aks etmoqda. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotida va moliya bozorida sodir bo'layotgan kon'yunkturaviy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

"Xususiy bank va moliya institatlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilish tashabbusi davlatimiz rahbarining "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi"da ilgari surilgan edi.

Ushbu qonun talay o'ziga xosliklarga ega. Unga binoan tashkil etilayotgan yangi xususiy banklar va moliya institutlarining ustav kapitalining kamida 50 foizi muassislar – jismoniy shaxslar ulushiga teng, qolgan qismi esa davlatga qarashli bo'lmagan yuridik shaxslarga tegishli bo'lishi lozim.

Xususiy banklar va boshqa moliya institutlariga o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida vazirliklar va idopalap, mahalliy hokimiyat va boshqaruв organlari rahbarlarining tijorat banklari va ularning filiallari faoliyatiga, shu jumladan filiallarning rahbar xodimlarini tayinlashga aralashishlari, bank mablag'lari hisobidan turli xil to'lovlar va badallarni talab qilishlari, shuningdek, nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza etuvchi organlarning bank-kredit portfeli va aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarish bo'yicha banklarning faoliyatiga aralashishlari ma'n etilgan.

Shuningdek, qonunda xususiy banklar hamda moliya institatlari sub'ektlari faoliyatini tekshirishdan o'tkazish tartibi aniqlashtirilgan: ularning

moliya-xo‘jalik faoliyati maxsus vakolatli organning qaroriga asosan rejali tartibda ko‘pi bilan besh yilda bir marta amalga oshiriladi.

O‘tgan yillar tajribasi ushbu hujjat bank-moliya tizimini yanada mustahkamlash, xususiy bank va moliya institutlari hamda xususiy mulkka asoslangan lizing, sug‘urta kompaniyalari, mikromoliyaviy tashkilotlarni tashkil etishning qonunchilik asoslarini shakllantirish hisobiga bank-moliya sohasiga xususiy kapitalni jalg qilish, bank va boshqa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kengaytirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga, yuksak xalqaro standartlar talabiga mos zamonaviy bozor infratuzilmasining rivojlanishiga xizmat qilishini isbotladi.

Xususiy banklar boshqa banklar singari o‘z faoliyatini universal tarzda, ya’ni qonunchilikda va bank litsenziyalarida ko‘zda tutilgan barcha operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega. Kichik banklarning universallik maqomi milliy bank tizimining bazaviy prinsiplariga javob beradi va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Xususiy banklar va moliya tashkilotlari aholi va kichik korxonalarining mablag‘larini jamlash va xizmat ko‘rsatish, ularning loyihibarini moliyalash bilan bozordagi o‘z o‘rnini topdi. ularning ayrimlari bugungi kunda xalqaro moliya tashkilotlarining respublikamizda amalga oshirilayotgan dasturlarida ishtirok etmoqda.

Siyosiy va huquqiy tavakkalchiliklarni davlat zarur hollarda xususiy sektorga kafolatlar taqdim etish bilan o‘z zimmasiga oladi. Siyosiy va huquqiy tavakkalchiliklar uch sohaga oid bo‘lishi mumkin:

- ✓ tabiiy hodisalar, fors-major, harbiy holat yoki fuqarolik ko‘tarilishlari;
- ✓ qonunchilikdagi o‘zgarishlar;
- ✓ hukumat siyosatidagi, aniqrog‘i muvofiqlashtirish qoidalariga oid o‘zgarishlar, shuningdek, hukumat o‘zining shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajara olmasligi.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Mamlakat riski deganda nimani tushunasiz?
2. Huquqiy risk deganda nimani tushunasiz?
3. Xususiy bankka ta’rif bering va ularga misollar keltiring?
4. Bank xodimlari qancha muddatda attestatsiyadan o’tkazilib turadi?
5. Texnik-iqtisodiy o’quv nima maqsadda o’tkaziladi?

X-MAVZU: TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI TARTIBGA SOLISH VA ULARNI KAMAYTIRISHDA MARKAZIY BANKNING O'RNI

10.1. BANK RISKLARINI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Har qanday davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni, yuqori bandlikni, barqaror ichki baholarning mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida erishiladi. Pul-kredit siyosati, byudjet siyosati, narxnavo siyosati, ish haqi va bandlik siyosati iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Mazkur pul-kredit siyosati deyarli barcha davlatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda u Milliy bank deb ham yuritiladi.

Bank faoliyati deyarli barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Va albatta, nazoratning asosiy maqsadi aholini qolaversa, mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir.

Bank nazoratini amalga oshirishning bir qator sabablari manfaatlar nuqtai-nazaridan kelib chiqadi va ular qo'yidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Birinchidan, banklar mamlakat aholisining jamg'armasini asosiy saqlovchisi hisoblanadi. Banklar faoliyatini nazorat qilish mamlakat aholisini moddiy zarar ko'rishdan saqlash uchun tashkil etiladi. Chunki banklarning asosiy maqsadi daromad olishga qaratilgan bo'lib, bank daromadliligi uning likvidligi bilan teskari mutanosiblikda bo'lgan holda risk bilan to'g'ri

mutanosiblikdadir. Bu esa ba’zi hollarda banklarning investitsion va kredit portfelining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, bank kreditorlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo’llaniladi. Xo‘jalik yurituvchi sube’ktlar va individual shaxslar o‘z faoliyatlarini rivojlantirish, turmush faravonliklarini oshirish uchun tijorat banklarining turli xil kreditlaridan foydalanishadi. Ushbu kreditlar keng omma uchun yo‘naltirilishini hamda bank xizmatlarining narxini oshib ketmasligini ta’minalash maqsadida hukumat, bank nazoratining bilvosita vositasi bo‘lgan banklar o‘rtasidagi kuchli raqobatni ta’minalab erishadi.

Uchinchidan, hukumat o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil qilishga harakat qiladi. Banklar hukumatning fiskal agenti bo‘lish bilan birga ularning o‘zlarini ham mamlakat byudjetiga soliq to‘lovlarini amalga oshirishlari bilan hukumat tomonidan ularning yuqori daromadliligi qo’llab-quvvatlanadi va shu bilan birga, yuqori daromadlilik past darajadagi likvidlilikni keltirib chiqarib, o‘z navbatida yuqori risk tufayli mamlakatda tizimli riskni keltirib chiqaradi.

To‘rtinchidan, bank aktsiyadorlari va ishchi-xodimlar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati tashkil etiladi.

To‘g‘ri, bank faoliyatini tartibga solishda haddan tashqari nazorat qilish va raqobatning rivojlanishiga xalaqit beradigan omilga aylanadigan chegarani belgilash oson emas. Shuning uchun, jahonda umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo’llaniladi.

Shu o‘rinda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda, xususan Yevropa Ittifoqi davlatlarida, AQSH, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda bank nazoratining zarurligi 1975 yilga kelib o‘z aksini topdi, ya’ni rivojlangan davlatlar bank nazoratini faqat moliyaviy sektorda emas, balki, umuman iqtisodiyotda asosiy rol o‘ynashini tan oldilar. Natijada bank nazorati bo‘yicha xalqaro tashkilot

“Bazel qo‘mitasi” vujudga keldi. Banklarning tizimli riskni keltirib chiqarishi,bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo‘lgan davlatlarni ham iqtisodiy inqiroz yoqasiga olib kelishi mumkin. Bu huddi Lorensning “Kapalak effekti” nazariyasiga o‘xshaydi. Unga ko‘ra, Braziliyada qanot qoqqan kapalaklar Texasda tornado bo‘lishiga olib keladi. Bunday inqirozlar ehtimolining ortishi mamlakatlar o‘rtasida mintaqaviy bank nazoratini tuzish zarurligini keltirib chiqardi.

Hozirgi kunda bank nazorati tizimini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin.(1-chizmaga qarang)

1-chizma



Chizmadan ko‘rinadiki, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish Markaziy bankda tashkil qilingan uch departament tomonidan olib boriladi. Tijorat banklariga litsenziya berish va ularning faoliyatini tartibga solish departamenti masofadan turib, distansion nazoratni amalga oshirsa, tijorat banklarini nazorat

qilish departamenti banklar faoliyatini joyida tekshirish bilan shug‘ullanadi. Tijorat banklari ustav fondini tashkil etishni nazorat etish departamenti esa tijorat banklari ustav fondini tashkil etishda bank kapitali adekvatligini nazorat qiladi.

Barcha davlatlardagi bank nazorati tizimlari oldida 2 ta muhim vazifa turadi:


1. Bank tizimini mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘sishiga hamkorlik qilish.
2. Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.

Respublikamizda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilinishining asosiy maqsadi tijorat banklariga biron bir iqtisodiy chora ko‘rish emas, balki bank faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etib, bank tizimining barqarorligini oshirish natijasida bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Qo‘yidagi chizmada O‘zbekiston Respublikasida bank nazoratining tashkil etilishini ko‘rishimiz mumkin: (2-chizmaga qarang)

2-chizma

Ўзбекистон Республикасида банк назоратининг ташкил этилиши



Iqtisodchi olim M.A.Kotlyarov bank nazoratiga davlatning eng asosiy iqtisodiy va ijtimoiy funksiyasi sifatida qarab, uning asosiy maqsadlari omonatchilar manfaatlarini himoya qilish va bank tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi⁶⁷.

Bank nazorati funksiyalari borasida G.G.Fetisov bank nazoratining uchta – oldini olish(preventiv), xabar berish va tekshirish funksiyalarini ajratib ko'rsatadi:

⇒ Oldini olish(preventiv) funksiyasi kredit tashkilotlarining bank sohasiga kirib kelish jarayonlarini va ular faoliyatini tartibga solish bo'yicha bank nazoratida maxsus instrumentlarning mavjudligini anglatadi. Mazkur funksiya bank nazorati bo'yicha maxsus vakolatli organning bank tizimini shakllantirish va barqarorligini ta'minlash uchun kredit tashkilotlariga nisbatan tartibga solish normalari va talablari bilan ta'minlanganligini nazarda tutadi.

⇒ Xabar berish funksiyasi banklar faoliyatida salbiy tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beruvchi tashhis qo'yish va harakat qilish instrumentlarining mavjudligini anglatadi. Mazkur funksiya bank nazorati bo'yicha maxsus vakolatli organga hamda bevosita bankka yuzaga kelayotgan muammolar to'g'risida xabar beradi va ularni faol harakat qilishga chorlaydi.

⇒ Tekshirish funksiyasi tartibga soluvchi normalardan chetga chiqish holatlarini, ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, kredit tashkiloti hamda bank nazorati bo'yicha maxsus vakolatli organning muammolarni oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha harakatlarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Ushbu funksiyaning asosiy instrumenti - bu joylarda o'tkaziladigan tekshirishlar uslubi.

O.I.Lavrushinining fikriga ko'ra, turli mamlakatlarda bank nazorati bo'yicha milliy tizimlar turlicha shakllangan bo'lsa-da, ularning barchasi uchta asosiy maqsadga yo'naltirilgan:

⁶⁷«Bozor, pul va kredit» jurnali, №3, 2012y.

- pul va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ya'ni banklarning bankrot bo'lishining oldini olish va ularni sog'lomlashtirish bo'yicha choralar ko'rish;
- aktivlar sifatini oshirish va potensial xatarlarni kamaytirish evaziga bank tizimi samaradorligini oshirish;
- omonatchilar manfaatlarini himoya qilish.

Bank nazorati bo'yicha milliy tizimlarning makro mikro yondoshuvda maqsadlarining umumiyligini kuzatish mumkin. Ushbu yondoshuvlarning umumiy mezonlari hamda o'zaro solishtirma tahlili qo'yidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Mezonlar	Makro yondoshuvda	Mikro yondoshuvda
Qisqa muddatli maqsadi	Tizimdagi salbiy jarayonlarni chegaralash	Alahida kredit tashkilotlaridagi salbiy jarayonlarni chegaralash
Uzoq muddatli maqsadi	Yalpi ichki mahsulot kamayishining oldini olish	Omonatchilar va kreditorlar (mijozlar) manfaatlarini himoya qilish
Xatar ta'rifi modeli	Endogen (qisman)	Ekzogen
Tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik	Yuqori	Tasdiqlanmagan
Prudensial nazorat choralarini tanlanishi	Tizimdagi salbiy jarayonlarni baholash asosida	Alohidida kredit tashkilotlaridagi tavakkalchilik(risk)larni baholash asosida

O.I.Lavrushin xususiy tijorat banklarining likvidli aktivlari depozitlarning nobarqaror qismi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkonini berishi kerak, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, har uchala shakldagi bank depozitlarning, ya’ni joriy depozitlar, jamg‘arma va muddatli depozitlarning barqaror qismi mavjud bo‘lib, ular jami depozitlarning 75 foizidan kam bo‘lmagan qismini tashkil etishi lozim. Likvidli aktivlar esa, jami depozitlarning 25 foizi miqdorida majburiyatlarni bajarishga yetadigan miqdorda mavjud bo‘lishi lozim.⁶⁸

Bizning fikrimizcha, xususiy tijorat banklarining likvidli aktivlarining miqdorini depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan emas, balki joriy depozitlar va jamg‘arma depozitlariga nisbatan belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan shu depozitlarning nobarqarorlik darajasi yuqori bo‘lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, depozitlarning barqaror qismining jami depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotiga xos bo‘lgan holat hisoblanadi.

T.Bobokulov o‘zining “Milliy valyutaning barqarorligini ta’minalash: muammolar va yechimlar” mavzusidagi monografiyasida tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida tartibga solishni takomillashtirish masalasini tadqiq qilgan⁶⁹. Uning fikriga ko‘ra, Markaziy bank tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarining miqdorini kunlik nazorat qilib turishi zarur.

Hozirga kunda respublikamizda milliy valyuta kursining chet el valyuta kurslariga nisbatan doimiy ravishda o‘sib borish tendensiyasini hamda baholarning muntazam o‘sishini inobatga olgan holda kredit Uchun garov sifatida qabul qilingan mol-mulk bahosini har oy yoki har chorak yakuniga qayta baholashni yo‘lga qo‘yish zarurdir⁷⁰.

⁶⁸О.И.Лаврушин “Управление деятельностью коммерческого банка”. 2003 й 228 с

⁶⁹Т.И.Bobokulov “Milliy valyutaning barqarorligini ta’minalash: muammolar va yechimlar” Monografiya

⁷⁰“Iqtisod va moliya” jurnali №2, 2012 y

Yuqoridagi olimlar fikridan ham ma'lum bo'ldiki, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish maqsadida har bir mamlakatda har xil nazorat qiluvchi organlar mavjud: (2-jadvalga qarang)

2-jadval. Butun dunyoda bank nazoratining tashkil etilishi⁷¹

⁷¹Manba: James R. Barth, Gerard Caprio, Jr. Ross Levine "The Regulation and Supervision of Banks Around the World" A New Database February 2001. 1998 yil ma'lumotlari asosida.

Davlatlar	Bank nazoratini tashkil etuvchi organ	Boshqa nazorat organi bormi?	Nazorat organining hisobdorligi
Avstriya	Moliya Vazirligi	Yo‘q	Parlament
Bahrayn	Bahrayn Monetar Agentligi	Yo‘q	Direktorlar Kengashi
Bangladesh	Bangladesh Banki	Yo‘q	Davlat
Belorusiya	Belorusiya Milliy Banki	Bor	Prezident
Belgiya	Bank va Moliya Komissiyasi	Yo‘q	Iqtisodiyot Vazirligi va Moliya Vazirligi
Bostvana	Moliyaviy Institutlar Departamenti, Botsvana Banki	Yo‘q	Moliya va Rivojlanishni Rejalashtirish vazirligi
Braziliya	Braziliya Markaziy Banki	Yo‘q	Moliya vazirligi
Burundi	Markaziy Bank Inspeksiyasi	Yo‘q	Markaziy Bank raisi
Xitoy	Xitoy Xalq Banki	Yo‘q	Davlat Konsuli
Chexiya Respublikasi	Milliy Bank, Bank nazorati, qimmatli qog‘ozlar komissiyasi	Bor	Milliy Bank Direktorlar Kengashi
Daniya	Daniya Moliyaviy nazorati	Yo‘q	Iqtisodiyot Vazirligi
Misr	Misr Markaziy Banki	Yo‘q	Markaziy bank mustaqil organ
Estoniya	Bank nazorati Departamenti	Yo‘q	Parlament
Finlandiya	Moliyaviy nazorat	Yo‘q	Parlament
Gresiya	Gresiya Banki	Yo‘q	Parlament
Vengriya	Bank va Kapital Bozorini Nazorat qilish; Vengriya Markaziy Banki	Bor	Moliya Vazirligi
Hindiston	Moliyaviy Nazorat Boshqarmasi	Yo‘q	Hindiston Rezerv Banki
Isroil	Markaziy Bankning Bank nazorati Departamenti	Yo‘q	Markaziy Bank raisi
Quvayt	Quvayt Markaziy Banki	Yo‘q	Moliya

			vazirligi
Latviya	Latviya Banki; Kredit Institutlarini nazorat qilish Departamenti	Bor	Ma'lumot yo'q
Koreya Respublikasi	Bank Nazorati Organi va Moliyaviy Nazorat Komissiyasi; Moliya Vazirligi va maxsusbanklarni iqtisodiy nazorat	Bor	Hukumat
Makedoniya	Makedoniya Respublikasi Milliy Banki, Nazorat Departamenti	Yo'q	Parlament
Malayziya	Malayziya Markaziy Banki	Yo'q	Moliya Vazirligi
Rossiya	Rossiya Federatsiyasi Markaziy Banki		Davlat Dumasi
Singapur	Singapur Monetar Ograni	Yo'q	Hukumat
Sloveniya	Sloveniya Banki	Yo'q	Parlament
Shvesiya	Finansinspektionen (Moliyaviy nazorat)	Yo'q	Hukumat
Shveysariya	Banklarning Federal Komissiyasi	Yo'q	Parlament va Hukumat
Tayvan	Markaziy Bank, Moliya Vazirligi, Markaziy Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi	Bor	Premer-Ministr
Tojikiston	Tojikiston Milliy Banki Bank Nazorati Departamenti	Yo'q	Tojikiston Markaziy Banki

Mamlakatimizda Prezidentimizning 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438 Qarori bilan qabul qilingan dasturda bank

nazoratini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.⁷²

Respublikamizda xalqaro andozalarga mos keladigan bank nazoratini tashkil qilishda Jhon bankining “O‘zbekiston Respublikasida moliya sohasini isloh qilish” loyihasi ham katta ahamiyatga ega. Loyihada ishtirot etgan Jhon banki mutaxassislari yordamida bank nazoratiga tegishli 30 ga yaqin me’yoriy hujjatlar yaratilib, unda Markaziy bank talablari yozib chiqildi. Bundan tashqari, tijorat banklari faoliyatini joyiga chiqib tekshirish bo‘yicha “Camel” tizimi joriy qilindi.

Ma’lumki, 1980 yillarda xalqaro bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining 25 ta asosiy tamoyillari e’lon qilingan edi. Ushbu tamoyillarda samarali bank nazoratini tashkil etish asoslari yoritilgan.

Bazel qo‘mitasining talablariga asosan banklar barqarorligini asosiy ko‘rsatkichi, bu bank kapitali yetarliligi koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu koeffitsiyent bank kapitalining tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi. 1993 yilda bank kapitalining sifat va miqdor jihatdan tavakkalchilikli aktivlardan keladigan zaralarni qoplashga yetarlilik darajasini aniqlash bo‘yicha Bazel kelishuvi (Bazel I) joriy qilingan edi.

2006 yilda Bazel kelishuvi (Bazel II) amaliyotga joriy qilindi. Ushbu kelishuvda ham kapital yetarliligi koeffitsiyenti 8 foiz qilib belgilandi. Yangi kelishuv 3 ta – kapital minimal miqdoriga talab, kapital yetarliliginini Markaziy bank tomonidan tahlil etish. Ma’lumotlarni keng ommaga e’lon qilish qismlaridan iborat.

Bazel qo‘mitasi tomonidan “Bazel III” talablari 2009 yilning sentyabr oyida e’lon qilindi. Qo‘mitaning 2009 yil 8-9 dekabrdagi yig‘ilishida standartlar va monitoring bo‘yicha taklif va tavsiyalar ma’qullandi.

⁷²Prezidentimizning 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438 Qarori

Respublikamiz tijorat banklarining xalqaro Bazel talablariga asoslangan bank kapital yetarligi koeffitsiyenti keyingi yillarda oshib borgan holda 24 foizdan yuqori ko‘rsatkichga yetdi.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruв asoslarini mustahkamlash maqsadida Respublikamiz Markaziy banki taklifi bilan har bir tijorat banki tarkibida ichki nazorat boshqarmasi tashkil qilingan bosh bankda boshqarma va uning har bir bank filialida bittadan xodimi bo‘lib, filialda o‘tayotgan barcha bank operatsiyalarini tahlil qilib, bosh bank tarkibidagi nazorat boshqarmasiga hisobotlarini taqdim qiladi. Ushbu nazorat tizimining tashkil qilinganiga ko‘p vaqt bo‘lmasa-da, uning samarasi yaqqol ko‘rinmoqda⁷³.

Mamlakatimiz bank tizimini isloh qilish Markaziy bank hamda tijorat banklari faoliyatining qonuniy asoslarini yaratishdan boshlangan edi. Dastlab, 1992 yilda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi bilan respublikada ikki pog‘onali bank tizimiga asos solindi.

Keyinchalik, 1995-1996 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi bilan bank tizimini xalqaro prinsiplar va standartlar asosida rivojlantirishning yangi asoslari yaratildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 26 ta tijorat banki faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan 3 tasi davlat tijorat banki, 11 tasi aktsiyadorlik tijorat, 7 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi⁷⁴.

Shuningdek, banklar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni kamaytirish, tavakkalchiliklarni boshqarishga qaratilgan qator talablarning belgilanishi ham banklarning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlamoqda. Xususan, banklar asosiy hamda regulyativ kapitalining minimal darajasiga hamda bir qarozdor yoki o‘zaro dahldor qarzdorlar guruhibiga to‘g‘ri keluvchi

⁷³Bank axborotnomasi №16, 18.04.2012y

⁷⁴Cbu.uz-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.

tavakkalchilikning eng yuqori darajasiga nisbatan talablarning joriy qilinishi banklar kapitalini zarur miqdorda ta'minlash va aktivlarning tavakkalchilik darajasini boshqarish uchun samarali mexanizm bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, banklarnig likvidlik holati bo'yicha minimal talablarning belgilanishi avtivlar va majburiyatlarning o'zaro mutanosib ravishda boshqarilishini ta'minlamoqda.

10.2. RISLARNI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI VA TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1999 yildan boshlab va hozirgi paytda ham tijorat banklari uchun qo'yidagi iqtisodiy normativlar belgilangan:

1. Bank ustav kapitalining minimal miqdori. 2011 yil 1 yanvardan boshlab bank kapitali minimal miqdori qo'yidagicha qilib belgilandi:

- tijorat banklari uchun 10 mln YEVRO miqdori ekvivalentida;
- xususiy banklar uchun 5 mln YEVRO miqdori ekvivalentida.⁷⁵

2. Kapitalning yetarlilik darjasи. Ushbu normativ bankning jami kapitali summasini bank aktivlarining riskka tortilgan so'mmasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi va uning minimal miqdori 10% qilib belgilangan. Ushbu normativning mohiyati shundan iboratki, tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlar miqdori kapitalining 10 barabardan oshmasligi lozim. Agarda bank aktivlari miqdorini oshirmoqchi bo'lsa kapitalini ko'paytirishi lozim, bo'lmasa iqtisodiy normativ buziladi.

"Tijorat banklari kapitalining yetarlilikiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomga Xalqaro Bazel qumitasining Bazel III talablari inobatga olingan holda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra⁷⁶ reguliyativ kapitalini tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblangan aktivlarning umumiyligi summasi

⁷⁵O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2010 yil 27 mayda 2014-1-son bilan ro'yxatga olingan «Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi Nizom.

⁷⁶O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2013 yil 30yanvarda 949-7-son bilan ro'yxatga olingan.

+ (bozor riski (BR) + operatsion riski (OR)) summasiga nisbati **2016 yil 1 yanvardan boshlab 11,5% foizni** tashkil qilishi lozim. **2019 yil 1 yanvardan boshlab** esa bufer kapital konservatsiyasi (3% foiz) qo'shib, jami 14,5 % foizni tashkil qilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida kapital yetarlik darajasi 23,8% tashkil qilyapti, ya'ni Bazel 3 tomonidan o'rantiadigan me'yorni bajarilishi qiyin emas.

Bunda **OR-10***(oxirgi uch yilgi umumiylar daromadining o'rtacha summasi*15%).

BR-10*(ochiq valyuta pozitsiyasi umumiylar summasi*10%).

Bufer kapital konservatsiyasi- Tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblangan aktivlarning umumiylar summasining 3% i miqdorida yig'ilgan summasini tashkil qiladi.

3. Birinchi darajali kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti. Bankning birinchi darajali kapitali riskka tortilgan aktivlarining 5 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Bazel III talablarini joriy qilish natijasida birinchi darajali kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti 7,5% foizni tashkil qiladi. 2014 yil davomida tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 525,2 mlrd. so'mlik, shu jumladan, «O'zsanoatqurilishbank»ning 222,6 mlrd. so'mlik, «Agrobank»ning 30,0 mlrd. so'mlik, «Asaka» bankning 68,8 mlrd. so'mlik, «Ipoteka-bank»ning 43,2 mlrd. so'mlik «Orient Finans» bankning 19,5 mlrd. so'mlik, «Asia Alliance Bank»ning 23,7 mlrd. so'mlik va «Qishloq qurilish bank»ning 33,3 mlrd. so'mlik aktsiyalari investorlar orasida joylashtirilib, shundan 209,2 mlrd. so'mlik aktsiyalar nodavlat sektor sub'ektlariga sotildi.

4. Leveraj koeffitsiyenti. Bankning birinchi darajali kapitali jami aktivlari(nomoddiy aktivlardan tashqari)ning 6 foizidan kam bo'lmasligi lozim.Bu bankning birinchi darajali kapitali jami aktivlar(nomoddiy aktivlardan tashqari)ga joylashtirishda qanchalik yetarligini bildiradi.

2014 yilda qo'shimcha aktsiyalar va qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini jalgilish ko'lamlarini kengaytirish hamda boshqa vositalardan samarali foydalanish orqali tijorat banklarining umumiyligi kapitali hajmi 2013 yilga nisbatan 25 foizga oshib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 6,9 trln. so'mni tashkil etdi. Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 28,2 foizga oshib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 56,2 trln. so'mga yetdi (1-diagramma).

1-diagramma



5. Joriy likvidlik koeffitsiyenti. Bankning likvidli aktivlar va qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan aktivlar (bunda bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan yoki avval berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar bundan istisno) i bankning talab qilib olinguncha va qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlarining 30 foizidan kam bo'lmasi lozim.

"Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi Nizomga xalqaro Bazel qumitasining Bazel III talablari inobatga olingan holda

kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra⁷⁷ 2015 yil 1 yanvardan boshlab joriy likvidlik koeffitsiyenti 100 foizni tashkil qilishi lozim.

6. 2018 yil 1 yanvardan yangi normativ **Sof barqaror moliyalashtirish normasi** joriy etiladi. Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi barqaror moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan summaning 100 foiziga teng yoki undan ko‘p bo‘lishi lozim.⁷⁸

Barqaror moliyalashtirish mavjud summasiga Bank kapital summasi, haqiqiy qaytarish muddati 365 kun va undan ko‘p bo‘lgan bank majburiyatları, qaytarish muddati 365 kundan kam yoki qaytarish muddati noma’lum bo‘lgan boshqa depozitlar va qarz mablag‘larining 30%i kiradi.

Barqaror moliyalashtirishga zarur summasiga qaytarish muddati 365 kun va undan ko‘p bo‘lgan muddatgacha qolgan barcha bank aktivlari, sud jarayonidagi yoki o‘rnatilgan tartibda undirilmagan aktivlar, qaytarish muddati 365 kungacha bo‘lgan boshqa aktivlar(likvidli aktivlar bundan mustasno) summasining 30%i kiradi.

7. Bitta qarzdorga yoki o‘zaro aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan kreditlar uchun riskning maksimal miqdori birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshib ketmasligi kerak.⁷⁹

8. Bitta qarzdorga yoki o‘zaro aloqador qarzdorlar guruhiga berilgan ishonchli kreditlar miqdori birinchi darajali kapitalining 5 foizidan oshmasligi lozim.⁸⁰

9. Bankning barcha yirik kreditlar uchun riskning maksimal miqdori. Mazkur normativ birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilangan bo‘lib, uning maksimal miqdori 8,0 qilib belgilangan. Ya’ni, bank tomonidan

⁷⁷O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2013 yil 1yanvarda 559-1–son bilan ro‘yxatga olingan.

⁷⁸Shu manba.

⁷⁹O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998 yil 25 sentyabrdagi 422-sod qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 2 dekabrda 557-sod bilan ro‘yxatga olingan “Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to‘g‘risida”gi Nizom.

⁸⁰Shu manba.

berilgan barcha yirik kreditlar miqdori birinchi darajali bank kapitali so‘mmasidan 8 martadan oshib ketmasligi lozim.⁸¹

Yirik kredit deganda bitta mijozga beriladigan, birinchi darajali kapitalning 10 foizidan oshadigan kreditga aytildi. 2014 yilda tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari umumiy hajmi 2013 yilga nisbatan 31,2 foizga o‘sib, 2015 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, 34,8 trln. so‘mnitashkil etdi (2-diagramma).

2-diagramma



10. **Bankning muayyan yuridik shaxs ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga kiritgan investitsiyalari** birinchi darajali kapitalning 15 foizidan oshib ketmasligi lozim.⁸²

11. **Bankning barcha yuridik shaxslar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga kiritgan investitsiyalari** birinchi darajali kapitalning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.⁸³

⁸¹Shu manba.

⁸²O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining 2008 yil 27 dekabrdagi 30/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan, Adliya Vazirligi tomonidan 2009 yil 2 fevralda 1894-sun bilan ro‘yxatdan olingan, “Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom.

⁸³Shu manba.

12.Oldi-sotdi uchun qimmatli qog‘ozlarga kiritilgan bank investitsiyalarning miqdori birinchi darajali kapitalning 25 foizidan oshib ketmasligi lozim.⁸⁴

Tijorat banklarining muomalaga chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari hajmi 2015 yilning 1 yanvar holatiga 1,0 trln. so‘mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 310,2 mlrd. so‘mni va depozit sertifikatlari miqdori 689,7 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda.

13.Bankka daxldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan bitta kreditning umumiyligi hajmi bir yoki o‘zaro daxldor qarz oluvchilar guruhiga beriladigan bitta kredit tavakkalchiligining maksimal miqdoriga nisbatan tartibga solinadi. Ya’ni, ssudalar birinchi darajali kapitalning 25 foizidan oshmasligi lozim.⁸⁵

14.Bankka daxldor shaxslarga (insayderlarga) beriladigan ishonchli kreditlar summasi birinchi darajali kapitalning 5 foizidan oshmasligi lozim.⁸⁶

15.Bankning barcha daxldor shaxslarga (insayderlariga) berilgan kreditlarlarning umumiyligi summasi birinchi darajali kapitalining 100 foizidan oshmasligi lozim.⁸⁷

Bulardan tashqari tijorat banklariga valyutaviy risklarni oldini olish maqsadida ochiq valyuta pozitsiyasi(mavqeい) bo‘yicha normativ belgilangan:

Chet el valyutasining har bir alohida turi bo‘yicha ochiq valyuta mavqeい har bir operatsion kunning yakuni bo‘yicha regulyativ kapitalning 10 foizidan oshib ketmasligi kerak.⁸⁸

⁸⁴Shu manba.

⁸⁵O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankni Boshqaruvi tomonidan 1998 yil 2 noyabrla tasdiqlangan va Adliya vazirligida 1998 yil 2 dekabrda 556-1-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan “Banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar to‘g‘risida” gi Nizom.

⁸⁶Shu manba.

⁸⁷Shu manba.

⁸⁸O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2005 yil 28 maydagi 610-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 15 iyulda 1497-son bilan ro‘yxatga olingan “Ochiq valyuta mavqeini yuritish qoidalari”.

Ochiq valyuta mavqeining umumiyligi summasi har bir operatsion kunning yakuni bo‘yicha regulyativ kapitalning 20 foizidan oshib ketmasligi kerak.⁸⁹

10.3. RISLARNI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O’ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI

Bank riskini boshqarish banklar faoliyatini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo‘yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo‘jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlarini mukammal bilishni talab etadi.

Bank riskini boshqarishda bank boshqaruvchisining asosiy vazifasi bank faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan daromad bilan unda yuzaga keluvchi risklar o‘rtasidagi optimal variantni topishdan iborat.

Bank risklarini boshqarishda muayyan tamoyillar va talablarga tayaniлади. Ular quyidagilardan iborat:

Tamoyillar, talablar:

- o‘z kapitalidan ortiq summaga risk qilmaslik;
- kam daromad olish imkoniyatida risk qilishga intilmaslik;
- bir mijozga yoki bir-biri bilan bog‘liq qarzdorlar guruhiga berilgan yirik kreditlar ko‘pincha banklarning inqirozga sabab bo‘lishini unutmaslik;
- bir qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdori bankning ustav kapitali miqdorining 10 foizidan yuqori bo‘lmasligini asos qilib olish;
- bank tomonidan beriladigan yirik kredit bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 10 foizidan oshmasligiga rioxha qilish;

⁸⁹Shu manba.

- bir qarz oluvchiga yoki o‘zaro bog‘liq qarz oluvchilar guruhiga to‘g‘ri keluvchi maksimal miqdor bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 15 foizidan oshmasligini asos qilib olish;
- ishonchli (blankali) kreditlar bo‘yicha maksimal risk miqdori bank kapitalining birinchi darajasi miqdorining 5 foizidan oshmasligiga rioya qilish;
- bank tomonidan berilgan yirik kreditlarning umumiyligi summasi bank regulyativ kapitalining birinchi darajasidan 8 martadan oshmasligini asos qilib olish;

Xalqaro bank amaliyotida:

- biron bir qarz oluvchi bank asosiy kapitalining 10 foiz ekvivalentidan ortiqcha mablag‘ ololmaydi;
- bir tarmoqqa beriladigan kredit miqdori bankning umumiyligi kredit portfelining 25 foizidan oshmasligi lozim;
- bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keluvchi taxminiy risk (garovga quyilgan mulk baholangandan keyin) bank asosiy kapitalining 1 foizidan oshmasligi kerak;
- taxminiy (kutilayotgan) risk ko‘lami mijozdan olinishi ehtimol qilinayotgan yillik foyda miqdorining 3 baravaridan oshib ketmasligi kerak.

Prof. Sh.Abdullayevanining fikriga ko‘ra, bank bir sohaga kredit berganda, shu soha uchun berilgan kreditlar ko‘lami bank kredit portfelining 35 foizidan oshmasligi lozim. Bu ham kredit riskining oldini olishning omillaridan biri bo‘lishi mumkin.⁹⁰

Tijorat banklari faoliyatini boshqarishning asosiy vazifasi bankning barqarorligini ta’minlagan holda, uning foydasini kupaytirish va bozor qiymatini oshirishdir. Bu vazifalarni bajarish uchun mavjud resurslarni to‘g‘ri joylashtirish va samarali foydalanish, beriladigan kreditlarning xatarlilik darajasini

⁹⁰Абдуллаева Ш. Банк рисклари ва кредитлаш. – Т.: Молия, 2002.– 145-bet.

pasaytirish hamda bank faoliyatini rivojlantirish uchun yetarli marjani ta'minlaydigan foiz stavkalarini belgilashdir.

Hozirgi paytda turli mamlakatlardagi boshqaruв organlarining tijorat banklari faoliyatini baholash tizimlari quyidagi chizmada berilgan. (5-chizmaga qarang)

Ba'zi mamlakatlardagi tijorat banklari faoliyatini baholash tizimlari

5-chizma⁹¹

Mamlakat	Nazorat organi	Tizimlari	Joriy etilgan yil	Tizim turi
Fransiya	Bank kompaniyasi	ORAP(xatarning oldiniolish harakatlarini tashkil etishva mustaxkamlash)	1997	Distansiyali reyting tizimi
		SAABA– statistik tahlil usuli	1997	Tezkor harakat tizimi
Germaniya	Banklar ustidan nazorat Federal idorasi	BAKLS (Axborotlar tizimi)	1997	Moliyaviy koeffitsiyentlar va ayrim bank guruhlari tahliliy tizimi
AQSH	Uchala nazorat organi	CAMELS	1980	Reytinglar tizimi
Italiya	Italiya banki	PATROL	1993	Distansiyali reyting

⁹¹Tijorat banklari faoliyatini nazorat kilish tizimlari. BPK. jurnali № 7, 2002 y. 21 bet.

				tizimi
Buyuk Britaniya	Moliyaviy siyosat buyicha idora	RATE (xatarni baholash va nazorat me'yori tizimi)	1998	Bank xatarlarini baholash kompleks tizimi

Mamlakatdagi moliyaviy muassasalar va banklar to‘lov qobiliyati mustahkamligini ta’minlash, tartibga solish va nazoratini amalga oshirish nuqtai nazardan quyidagi modellarga guruhash mumkin.

1. Germaniya modeli. Tashkil etilgan maxsus nazorat organi faqat banklarning faoliyatini tartibga solish va nazorat bilan shug‘ullanadi. Masalan, Germaniyada Federal moliyaviy nazorat muassasasi (BAFin) shu vazifani amalga oshiradi.

2. Angliya modeli. Agentlik turli moliya sektorlari (sug‘urta kompaniyalari, bank muassasalari, fond bozorlari) faoliyatini tartibga solish va nazorati bilan megoregulyatorlar shug‘ullanadi. Banklarning moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyati mustahkamligi nazorati hujjatlar va hisobotlarni tekshirushi asosida amalga oshiriladi.

3. Amerika modeli. Bank faoliyatini tartibga solish va nazoratini amalga oshirish funksional jihatdan emas, balki maqsadli tamoyiliga asoslanadi. Masalan, banklar milliy to‘lov tizimi barqarorligini ta’minlash bilan Federal zaxira tizimi (FZT) shug‘ullansa, kreditor va omonatchilarning manfaatlarini himoya qilish boshqa tartibga soluvchi organlar zimmasidadir. (Masalan, Depozitlarni sug‘urta qilish Federal korporatsiyasi). Ushbu modelning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bankning moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatining mustahkamligi bo‘yicha shubhali hisoblangan banklar inspektorlar tomonidan joyiga chiqib nazoratdan o‘tkaziladi.

Xorij mamlakatlaridan Angliya banki faoliyat ko‘rsatishga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatishga ega. Daniya va Avstriya Markaziy banklari esa pul-kredit siyosati yuritishda hukumatning aralashuvidan mustaqillik darajasi bo‘yicha oldingi o‘rinlarda turadilar.

Avstriya Milliy banki faoliyati ustidan Moliya Vazirligi nazorat olib boradi. Moliya vaziri bank faoliyatining qonuniyligi bo‘yicha qonun oldida javobgardir.

Germaniya va Shveysariyada shuni alohida ko‘rsatish mumkinki, bu davlatlarning Markaziy banklari eng mustaqil hisoblanadi. Bu mamlakatlar qonunchiligidagi davlat Markaziy bankining pul-kredit siyosatiga aralashuvi ko‘rsatilmagan. Shveysariya Markaziy bankini hukumat iqtisodiy siyosatiga moslashishi xususida qonunchilikda qayd qilinmagan. Germaniyada Markaziy bank siyosati mamlakat hukumatidan qonun bo‘yicha mustaqil qilib belgilab qo‘yilgan.

Bank risklarini Markaziy bank tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi juda muhim hisoblanadi. Shu asnoda, ayrim rivojlangan mamlakatlar bank nazorat tizimlari bilan tanishish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida bank nazoratining tashkil etilishi.

AQShda 12000dan ortiq tijorat banklari, taxminan 3000 ta jamg‘arma banklari va ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyalari faoliyat yuritadi. Shuningdek, 13000 ta kredit uyushmalari bank xizmatlari bozorida samarali faoliyat olib bormoqda.⁹²

Bank nazoratining vujudga kelishi hamda uning rivojlanish jarayonlarini AQShda kuzatadigan bo‘lsak, albatta ayrim tegishli qonunlarga to‘xtalib o‘tish lozim. 1863 yildagi «Milliy bank to‘g‘risida»gi qonunga asosan mamlakatning milliy valyutasi joriy etildi va Milliy bankka banknotalar chiqarish huquqi berildi. Mazkur qonunga asosan mamlakatda pul muomalasini tartibga solish va Milliy bank uchun pul rezervlarini ta’minalash maqsadida «Pul muomalasini

⁹²Питер С. Роус “Банковский менеджмент” Москва, 1997

nazorat qiluvchi ofis» nomli mahsus xizmat turi tashkil etildi. Biroq u kreditor vazifasini bajarmadi.

Shuni ta'kidlash joizki, AQShda 1913 yilga qadar Markaziy bank yoki uni funksiyasini bajaruvchi boshqa birorta organ faoliyat ko'rsatmagan. Bu davrga kelib esa, AQShda Federal Rezerv Tizimi (FRT) tashkil etildi. Federal banklar va Federal Rezerv tizimining tashkil etilishi o'z navbatida, banklar likvidligini oshirish imkonini berdi hamda u kreditor vazifasini bajara boshladi. Bundan tashqari, FRT tomonidan foiz stavkalari miqdorini belgilash, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish va tijorat banklari rezervlarini nazorat qilish kabi vazifalar ham amalga oshirila boshlandi.

AQShda banklar faoliyatini tartibga solish 2 ta muhim tamoyilga asoslanadi:

1. Kredit institutlarini barqarorligini ta'minlash va ularning bankrot bo'lishini oldini olish (ushbu tamoyilni amalga oshirish maqsadida yuqori xatarli bank operatsiyalari bo'yicha qonuniy tarzda chegaralar o'rnatildi. Shulardan biri bitta qarz oluvchiga beriladigan kredit miqdoridir).

2. Sarmoyalarning kamchilik banklar qo'lida to'planishini cheklash va pul bozorini monopol tarzda nazorat qilinishiga yo'l qo'ymaslik. (Ushbu tamoyilga asosan banklarning bo'limlarini ochish bo'yicha bitta shtat me'yorida chegaralar belgilandi, xolding kompaniyalarini tashkil etish ustidan FRT nazorati joriy etildi).

AQShda banklar faoliyati ustidan nazorat juda murakkab tizimga ega bo'lib, u ikki bo'g'inda olib boriladi:

- 1) Milliy banklar tizimi Federal hukumatiga, ya'ni pul muomalasini nazoratchisiga bo'ysunadi;
- 2) Shtatlar banklari tizimi ayrim shtatlarga bo'ysunadi.

Buyuk Britaniyada bank nazoratining tashkil etilishi

Buyuk Britaniyada yaqin davrga qadar banklar faoliyatini nazorat qilish to‘g‘risida qonun mavjud bo‘lmagan. Kredit muassasalari ustidan amalga oshirib kelingan nazorat esa yashirin va norasmiy harakterga ega edi.

Buyuk Britaniya banklarining faoliyati davlat aralashuvi va qonuniy tartibga solinishdan ozod edi. Banklar faoliyatini tartibga solish «Aksioner kompaniyalari to‘g‘risida»gi qonun doirasida amalga oshirilgan.

Banklar faoliyati ustidan kuchli nazoratning yo‘qligi natijasida mablag‘larni konsentratsiyalashuvi oqibatida mamlakatda banklarning birlashmalarini tashkil topdi. Bu holat, bank operatsiyalarining asosiy qismi «Katta to‘rtlik» banklari, ya’ni «Lloyds», «Midlend», «Barklayz» va «Neyshnl Vestminister» banklari hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, kredit resurslari ham mazkur banklar qo‘lida to‘planib, mamlakatda naqd pulsiz oborot to‘laligicha ushbu banklar tomonidan amalga oshirila boshlandi.

70-yillarning oxiriga kelib Buyuk Britaniyada kredit institutlari ustidan nazorat birmuncha kuchaytirildi. 1979 yildagi qonunga asosan tijorat banklari faoliyati uchun majburiy ruxsatnoma olish joriy etildi hamda depozitlarning umummilliy jamg‘arma fondi tashkil etildi va Buyuk Britaniya Markaziy banki - Angliya bankiga nazorat organi maqomi berildi.

1987 yildagi bank qonuniga asosan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidasi joriy etildi. Bundan tashqari, aynan shu qonun asosida auditorlik tekshiruvlari amal qila boshladi.

Bank rahbariyati bilan suhbat o‘tkazish Buyuk Britaniya nazorat tizimining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 1982 yilga qadar Angliya banklarida inspeksion tekshiruvlarni o‘tkazish amaliyoti mavjud bo‘lmagan. Hozirgi paytda joylarga chiqib inspeksion tekshirish tashkil etilgan bo‘lib, bu maqsadda Angliya bankining xodimi bo‘lmagan 3 ta bank xizmatchisi va 5 nafar buxgalterlar xizmatidan foydalaniladi.

Bundan tashqari, Angliya banki tarkibida 11 nafar buxgalterdan iborat mahsus kuzatuv bo‘limi tashkil etilgan bo‘lib, mazkur bo‘lim tomonidan maslahatlar berish va zaruriy hollarda huquqni himoya qilish organlari bilan birgalikda ayrim shubhali banklarda kuzatuvlar olib borish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Germaniyada bank nazoratining tashkil etilishi

Germaniyada esa banklar ustidan nazoratning huquqiy asosi, «Germaniya Federativ Respublikasi banklari to‘g‘risida»gi va «Nemis Federativ banki to‘g‘risida»gi qonunlar hisoblanadi. Mazkur mamlakatda kredit institatlari ustidan nazorat mahsus organlar, ya’ni banklar ustidan nazorat bo‘yicha Federal nazorat boshqarmasi hamda Nemis Federal banki (Bundesbank) tomonidan amalga oshiriladi.

Banklar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Federal boshqarma Bundesbank bilan kelishilgan holda kredit institatlari faoliyati uchun majburiy iqtisodiy me’yorlar o‘rnatib boradi. Ushbu o‘rnatilgan iqtisodiy me’yorlarga qo‘yidagilar kiradi:

- ✓ tijorat banklarining riskka ega bo‘lgan aktivlari miqdori aksionerlik kapitalining 18 barobaridan ko‘p bo‘lmasligi lozim;
- ✓ har operatsiya kunining chet el valyutasi bo‘yicha yopilmagan qismi aktsiyadorlik kapitalining 30 foizidan oshmasligi lozim;
- ✓ bir qarz oluvchiga berilgan «Katta» kreditlar (bank sarmoyasining 15% dan yuqorisi) to‘g‘risida zudlik bilan Bundesbankga xabar berish kerak;
- ✓ mazkur kreditlarning umumiyligi summasi bank sarmoyasining 8 barobaridan oshmasligi lozim.

Yuqorida keltirilgan me’yorlarga amal qilmagan banklarga nisbatan Bundesbank tomonidan ularning faoliyatini to‘xtatish, hattoki vaqtincha yopishgacha bo‘lgan choralar qo‘llaniladi.

Germaniyada banklar faoliyatini tartibga solish Buyuk Britaniya nazorat tizimsidan farq qiladi. Bunda asosiy e’tibor tashqi mustaqil auditorlik

tekshiruvlariga qaratiladi. Qonunga asosan, Germaniya banklari o‘zining ishonchli aktivlarini yetarli darajada saqlab turmoqlari lozim. Bu aktivlar bankning ishonch-liligini va operatsiyalari samaradorligini ta’minlaydi. 1977 yildan boshlab mamlakatda «Depozitlarni himoya qilish fondi» faoliyat ko‘rsata boshladi. Mazkur fondga a’zo bo‘lish majburiy emas, chunki fond davlat tasarrufida tashkil etilmagan. Biroq, Germaniya banklarining Federal assotsiatsiyasiga a’zo bo‘lgan banklar mazkur fondning a’zosi bo‘lishlari shartdir.

Italiyada bank nazoratining tashkil etilishi

Bank va moliya nazorati kreditlar va omonatlar bo‘yicha vazir-liklararo qo‘mita, Italiya banki va moliya kompaniyalari hamda fond birjasi ustidan nazorat olib boruvchi milliy Komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organlarning birinchisi Moliya vaziri tomonidan boshqariladi. U kredit siyosati va omonatlarni himoyalash bo‘yicha umumiy nazorat uchun javob beradi. Italiya Markaziy Banki qo‘mita rezolyutsiyasi bo‘yicha nazorat borasidagi qarorlar va takliflar loyihasini tayyorlaydi, uning qoidalarini o‘rnatadi va bevosita hujjat shaklida, shuningdek, masofaviy shaklda nazorat olib boradi. Moliya kompaniyalari va fond birjalari nazorati bo‘yicha Komissiya kredit-moliya tashkilotlarini qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini nazorat qiladi.

Italiyadagi nazorat faoliyatining asosiy tamoyillari 1993 yil qabul qilingan “Banklar to‘g‘risida”gi qonunda belgilab berilgan. Unda bank va moliya nazorati organlari maqomi, nazoratni amalga oshirish va bank qiyin ahvolga tushib qolgan holatda uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish tartiblari ko‘rsatilgan.

Fransiyada bank nazoratining tashkil etilishi

Fransiyada bank faoliyati ustidan nazorat Fransiya bankidan mustaqil holda faoliyat olib boruvchi, biroq unga uzviy bog‘langan davlat boshqaruv organlari – bank komissiyasiga yuklatilgan. Komissiyani Fransiya banki boshqaruvchisi boshqaradi. Banklar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq komissiya ishchi organi xodimlari, ya’ni bosh sekretariat a’zolari faqat Markaziy bank

xizmatchilari bo‘lishi mumkin. Bank komissiyasi majburiyatlariga kredit tashkilotlari faoliyati shartlarini o‘rganish ularning moliyaviy holatini nazorat qilish, shuningdek, bank xodimlari professional etikasini tekshirish kiradi. Komissiya nafaqat Fransiyadagi, balki chet eldagি barcha kredit tashkilotlari filiallari operatsiyalarining qonuniyligini nazorat qiladi.

Fransiyada tijorat banklarining likvidliligin baholashda ishlatiladigan koeffitsiyentlari umumiy talab qilib olingunga qadar muddatli depozitlarning (3 oygacha bo‘lgani) va boshqa resurslarning aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi. U yerda bu koeffitsiyentning hisoboti nazorat organlariga har kvartalda taqdim etiladi. Bu koeffitsiyent 60% dan kam bo‘lmasligi kerak. Bankning likvidlik ko‘rsatkichlaridan ayrimlarini 9-jadval ma’lumotlaridan ko‘rshimiz mumkin.

Bank faoliyatini bashqarishning Amerika tizimi

Amerika Qo‘shma Shtatlarida tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilishning «CAMELS» tizimi rivojlangan «CAMEL» so‘zi, bir necha so‘zlarning bosh harflaridan tuzilgan bo‘lib, banklar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish mohiyatini o‘z ichiga oladi. Bu tizim 1979 yil amalda qo‘llay boshlangan bo‘lib, AQSH dagi 3ta nazorat organi: Federal zaxira tizimi, Depozitlarni sug‘urtalash Federal korparatsiya va valyuta nazorati qo‘llaniladi. Bu so‘zdagi bosh harf «S» - kapitalning adekvatligi ma’nosini anglatib, tijorat banklari kapitallarining huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan me’yorlarga javob berishligini bildiradi. «A» harfi-aktivlar sifatini anglatib, tijorat banklari aktivlarining joylashtirilganligi va sifatliligi nazorati belgisidir. Ma’lumki, bank aktivlari daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga hamda xatar darajasi bo‘yicha ham guruhlanadi. Shuning uchun ham bank aktivlari to‘g‘ri joylashtirilishi va sifati doimo nazorat qilinishi lozim. «M»-harfi menejment sifatini bildiradi.

Tijorat banklari faoliyati ko‘rsatkichlari boshqaruvining (menejmentning) sifatiga bog‘liq. To‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilingan boshqaruv qarorlari-muvaffakiyat garovidir. «E»-harfi operatsiyalar sifati va daromadlilik darajasini

bildiradi. «L»-harfi-likvidlik darajasini bildiradi. Tijorat banklari bankrot bo‘lmasliklari uchun, likvidlik darajasini muntazam ravishda tahlil qilib turishlari lozim.

«S» harfi-bozor xatarligiga sezgirlik mezonini bildirib, bozor munosabatlari sharoitida ayrim paytlarda uchrab turadigan «buhron»larga banklarning sezgirligini baholaydi. Umuman olganda bu reyting tizimi, tijorat banklari faoliyat natijalarini, mavjud aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashda muhim bo‘lgan umumiyligi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. «CAMELS» da har bir elementini tashkil etuvchi komponentlar ko‘rstkichlari alohida (masalan «C»)-kapitalning adekvatligi) va umumiyligi – yakuniy reyting baho aniqlanadi. Har bir element va umumiyligi yakuniy reyting 5 ballik shkala asosida baholanadi. 1-ball reyting eng yuqori baholi ko‘rsatkich hisoblanadi va bozorda tijorat bankining barqarorligidan dalolat beradi. 5 ball esa eng past baho bo‘lib, tijorat bankining ahvoli yomonligidan, bank aktivlarini noto‘g‘ri joylashtirib, samarasiz foydalanayotganidan, likvidlik darajasi past ekanligidan, demak, muntazam ravishda faoliyatini taqlil kilib, nazoratni kuchaytirish lozimligini bildiradi.

AQShda ham tijorat banklari likvidliliginini baholashda bir qator ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bular quyida keltirilgan formulalardir:

I-darajali rezervlar (Kassa+MB dagi vakillik schetlari)

$$L_1 = \dots ;$$

Depozitlar

I-darajali rezervlar + II-darajali rezervlar (qimmatli qog‘ozlar)

$$L_2 = \dots .$$

Depozitlar

L_1 bank likvidligini ta’minlashi uchun 5-10% dan yuqori bo‘lishi kerak.

L_2 da esa banklar 15-25% dan yuqori rezervlar yig‘ishlari kerak.

L_3 da kreditlarning umumiyligi aktivlarga nisbatan salmog‘ini topib bank faoliyatiga baho berish mumkin.

Kreditlar

$$L_3 = \dots \quad 100\%$$

Umumiyligi aktivlarga

L_3 ko‘rsatkichimiz 60-70% oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asosiy depozitlar

$$L_4 = \dots \quad 100\%$$

Umumiyligi depozitlar

Bu ko‘rsatkich banklarga quyilgan depozit qay darajada barqaror ekanligini aniqlab, bank faoliyatiga baho berishda yordam beradi.

L_4 koeffitsiyent 75% yuqori bo‘lishi lozim .

Bank faoliyatini boshqarish va nazorat qilishning Yaponiya tizimi

Yaponiyadagi barcha faoliyat yurituvchi sub’ektlarida biznes mustaqilligi hamda yaxshi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga munosib rag‘batlantirish muhim o‘rin egallaydi. Yaponiyada korporatsiyalar ko‘p bo‘lib, ularni boshqarishda, bo‘linmalar (filiallar) foyda ko‘rish markazlari usuli qo‘llanadi.

Foyda ko‘rish markazlari faoliyati samaradorligi boshqaruv hisobi asosiy muammosi -bankni saqlab turish bilan bog‘liq umumiyligi harajatlarning ushbu tuzilmaviy birliklarga to‘g‘ri taqsimlashdir. Yaponiyada hozirgi zamon EHM imkoniyatlaridan to‘liq foydalangan holda, Z deb alaluvchi boshqaruv nazariyasini ko‘p qo‘llaniladi.

Z – nazariyasining asosiy tamoyillari qo‘yidagilar:

- menejerlar va xodimlar o‘rtasida ishonchli munosabat;
- umumiyligi ahloqiy aqidalarga chuqrish ishonchlilik;

- to‘la bandlik siyosati («umrbod yollanish»);
- mehnatga shaxsiy manfaatdorlik;
- qaror qabul qilishda xodimning shaxsan ishtirok etishi;
- asoslangan nazorat;
- xodimga nisbatan holisano yondashuv: shaxsi butunlikning oliy shakli sifatida, xodimlarning barcha ehtiyojlarini qondirish masalasi.

O‘zbekistonda ham tijorat banklari faoliyati tahlil qilinadi. Bu borada O‘zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi huzuridagi «Axbor-reyting» banklararo reyting kompaniyasi sezilarli ishlarni olib bormoqda. Kompaniya bir necha yillardan beri mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatiga holisano reyting baholarini berib kelmoqda. 2005 yil 27 dekabr Tokioda bo‘lib utgan Osiyo kredit reyting agentliklari assotsiatsiyasining (Association of Credit Rotting-Aencies in Asia) yillik majlisida O‘zbekiston Banklar Asotsiatsiyasi huzuridagi, «Axbor-reyting» banklararo reyting kompaniyasi ushbu xalqaro tashkilot a’zoligiga qabul qilindi. Bu «Axbor-reyting» kompaniyasiga ishonch belgisi bo‘lib, bu kompaniyaning tijorat banklari faoliyatiga reyting baho berishda axborot va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratadi, xalqaro talablarni tadbiq etib, reyting baholash tizimini takomillashtirishga olib keladi.

Harakatdagi bank nazoratiga tegishli me’yoriy hujjatlar Jahon banking O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish loyihasi bo‘yicha ishlagan chet ellik maslahatchilar ko‘magida yaratilgan bo‘lib, xalqaro andozalarga moslashtirilgandir.

Limit o‘rnatishning asosiy sababi vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishdir. Chunki vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo‘ysa va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo‘lishi mumkin (bu o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotining sekin-astalik bilan inqirozga yuz tutishiga olib keladi). Shuning oldini olish maqsadida bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi muhim o‘rin tutadi. Bunga zarurat Markaziy bank tomonidan mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishga qaratilgan siyosat bilan izohlanadi.

Valyuta pozitsiyasiga limit har bir davlatda, uning iqtisodiyotining holati va mamlakatning moliyaviy tizimining o‘ziga xosligidan kelib chiqib o‘rnatalishi ma’lum. Qo‘yida keltirilgan ma’lumotlar bunga yorkin dalil bo‘ladi.

Dunyoning ayrim davlatlarida ochiq valyuta pozitsiyasi qo‘yidagicha miqdorda belgilangan⁹³:

Avstriya: Bir valyuta turi bo‘yicha kun davomida 30 foiz va umumiylarida valyuta pozitsiyasi bo‘yicha 50 foiz qilib belgilangan.

Xitoy: Kun davomida moliya institatlari xorijiy valyutani oldi-sotdi qilishlarida kapitalga nisbatan 20 foiz hajmdan oshirmasliklari lozim. Shu bilan birga kunning oxirida, ya’ni valyuta pozitsiyalarini so‘ndirishda kapitalga nisbatan 1 foiz miqdorda ochiq limit caqlashiga ruxsat etilgan.

Buyuk Britaniya: Bu yerda ochiq valyuta pozitsiyasiga qatiy limit o‘rnatilmagan. Biroq faqat foizsiz depozitlarning 0,35 foizi Angliya bankida saqlanishi kuzda tutilgan.

Australiya: Ochiq valyuta pozitsiyalariga limitni o‘rnatish tashqi valyuta bozorida ishtirok etuvchi dilerlarga vakolat berilgan.

Shvesiya: Bir valyuta turi bo‘yicha kun davomida 15 foiz va umumiylarida valyuta pozitsiyasi bo‘yicha 30 foiz qilib belgilangan.

Vetnam: Kapitalga nisbatan umumiylarida valyuta pozitsiyasi bo‘yicha 15 foiz limit belgilangan.

⁹³Жумаев Н.Х, Махсумов Э.М. “Халқаро молия муносабатлари: валюта операцияларини бошқариш механизми”. Ўкув қўлланма. Т. 2006 й. 34-бет

Litva: Bir valyuta turi bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasi bankning kapitaliga nisbatan 20 foiz va umumiy valyuta pozisiyasi bo‘yicha 30 foizdan oshmasligi belgilangan.

Yevropaning ba’zi davlatlarida: Ochiq valyuta pozitsiyalari Yevropa Hamjamiyatining direktivalari bilan tartibga solinadi.

Tijorat banklari likvidlilagini ta’minalashning xorij tajribasi

Ko‘pgina davlatlarda banklar likvidlilik ko‘rsatkichlari muddatlari bo‘yicha guruhlangan, balansning aktiv va passiv moddalari nisbati asosida hisoblanadi. Masalan, **Fransiyada** bunday muddat 3 oy hisoblanadi. Fransiyada banklar likvidlilagini ta’minalash uchun bank majburiyatlarini jalb qilganda aynan ana shu muddatga ularni joylashtirgan. Tijorat banklari bu hisob-kitob natijalarini nazorat organlariga har chorakda taqdim etishlari shart. Mazkur ko‘rsatkichlarning minimal darajasi 60% dan kam bo‘lmasligi kerak.

Buyuk Britaniya tijorat banklari Angliya banki (Markaziy bank)da har oyda pul mablag‘lari, “Nostro” hisobraqamlaridagi qoldiqlar, talab qilib olguncha depozitlar va bir kun muddatga joylashtirilgan qimmatli qog‘ozlar va qayta hisobga oluvchi veksellarni barcha jalb qilingan resurslarga nisbati orqali aks ettiruvchi likvidlilik me’yoriga riosa qilganlik to‘g‘risida ma’lumot beradi. Bundan tashqari tijorat banklari Angliya banki oldida hisobotni talab qilmaydigan boshqa likvidlilik me’yorlarini ham hisoblaydilar. Ularga:

—bir oy muddatga joylashtirilgan aktivlarni so‘ndirilishi xuddi shu muddatli majburiyatlarga nisbati;

— olti oy muddatga joylashtirilgan aktivlarni xuddi shu muddatli majburiyatlarga nisbati orqali ifodalanadi.

Germaniya tijorat banklari ham har oy Germaniya Federal banki oldida balans likvidliliqi to‘g‘risida hisobot beradi. Germaniyada me’yor bilan tijorat banklariga quyidagi nisbatlarga amal qilish majburiyati belgilangan.Ularga:

—qisqa muddatli va o‘rta muddatli qo‘yilmalarni (4 yilgacha) shunga teng muddatli jalb qilingan resurslar va omonatlarga nisbati;

—uzoq muddatli qo‘yilmalarni (4 yil va undan ortiq muddatga) xuddi shu muddatga jalb qilingan resurslarga nisbati.

Bu me’yorlarning talab etilayotgan darajasi 100% bo‘lib, asosan uzoq muddatli qo‘yilmalarni qoplash imkoniyatini nazarda tutadi.

Pul mablag‘lari oqimi asosida bank likvidliliginin baholash amaliyoti Yaponiya, AQSH va ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida mavjud.

Misol sifatida, **Yaponiyada** tijorat banklarini likvidliliginin baholash metodikasi bilan tanishaylik. Unga ko‘ra likvidli aktivlar va majburiyatlar muddatlari va summalar bo‘yicha balanslashmaganlik, ya’ni aktiv va passivlar guruhlari bo‘yicha jadval tuzish tavsiya etiladi.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda katta e’tibor bank likvidliliginin ta’minlashda kredit risklarini cheklashga qaratiladi.

Masalan, **AQShda** 1970-yillar o‘rtasida 2 ta ko‘rsatkich qonunlashtirilgan: berilgan kreditlar bank kapitaliga nisbati 11 martadan ko‘p bo‘lmasligi kerak yoki berilgan kreditlar kapitalga nisbati 0,1 dan oshmasligi kerak.

Fransiyada bir qarz oluvchi yoki bir guruhdagi barcha qarz oluvchilarga berilgan kredit hajmi bank o‘z mablag‘larining 75% dan oshmasligi kerak.

Germaniyada berilgan kreditlar va sindikatda qatnashishlar summasi bank o‘z mablag‘larining 18 martasidan katta bo‘lmasligi kerak. Har bir 5 ta yirik kredit (bank o‘z mablag‘larining 15 % dan ortig‘ini tashkil etuvchi) bank o‘z mablag‘larni 3 martadan ko‘proqqa oshmasligi kerak, har 5 ta kreditning barchasi esa bank o‘z mablag‘laridan 8 marta katta bo‘lmasligi kerak. Eng yirik kredit bank o‘z mablag‘larining 75% dan oshmasligi kerak.

Tijorat banklari likvidliliginin **Rossiyada** markazlashtirilmagan holda boshqaruvi bevosita o‘z ichiga mavjud aktiv va passivlarni boshqarish, ya’ni balansdan tashqari likvidlilik va to‘lov qobiliyati riskini oldini olish maqsadida balansdan tashqari operatsiyalarni boshqarishni ham tushunish mumkin. Shu bilan birga likvidlilik va daromadlilik o‘rtasidagi bog‘lanishni optimal darajada

tashkil qilishni zikr etib o‘tish zarur. Rossiya banki har bir tijorat banklari uchun mavjud talablarni⁹⁴ inobatga olib likvidlilikni boshqarish siyosati hujjatini ishlab chiqishi va boshqaruv organi tomonidan tasdiqlashi lozim.

Rossiyada banklar likvidlilik ko‘rsatkichlari tahlili va baholash jarayoni o‘z ichiga bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda, iqtisodiy me’yorlarni me’yoriy darajasini ifodalovchi jadval tuzish zaruriyatidir. Bu esa quyidagi jadvalda ko‘rinadi.

9-jadval

Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki o‘rnatgan likvidlilik me’yorlari chegara me’yorlari, (foizda hisobida)⁹⁵

№	Majburiy likvidlik me’yorlari	Me’yor chegarasi
1.	Lahzali likvidlilik koeffitsiyeti	min 20
2.	Joriy likvidlilik me’yori	min 50
3.	Uzoq muddatli likvidlilik me’yori	max 120
4.	Umumiy likvidlilik me’yori	min 20
5.	Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha likvidlilik me’yori	min 10

Ushbu jadval orqali bank har oylik likvidlik ko‘rsatkichlarini o‘zgarishini kuzatib borishi mumkin. Yuqorida zikr etib o‘tilganidek, likvidlilikni boshqarishda iqtisodiy me’yorlar, ya’ni me’yorlar metodi Rossiyada oddiy va juda ko‘p tarqalgan usul hisoblanadi.

U o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- likvidlilik ko‘rsatkichlari tarkibini aniqlashni va ularning me’yoriy chegarasi;

⁹⁴Рекомендации ЦБ РФ по анализу ликвидности кредитных организаций от 27 июля 2000 г., письмо №139-8

⁹⁵ Муаллиф томонидан тузилди.

- likvidlilik ko'rsatkichlari tahlili va baholash holatini quyidagilar asosida:

- mavjud me'yolarga amaliy holatini taqqoslash;
- amaliy ko'rsatkichlari holatini tahlil dinamikasi;
- o'zgarishlarni mavjud holatini hosil qilishda tahlil omili;

tahlil uchun informatsion bazani mukammallashtirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinch bosqichda, har bir likvidlilik ko'rsatkichini haqiqiy darajasini me'yoriy darajaga solishtirishdir. Bu yerda asosiy e'tibor joriy likvidlilikni o'zida aks ettiruvchi oxirgi hisobot davriga qaratiladi. Ana shu tahlil jarayonida banklar likvidliligini boshqarishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi omillar, aniqrog'i:

- asosiy ko'rsatkichlarni (ahamiyatli bo'lmanini ham) me'yor darajasini buzish, ya'ni bu naqd likvidlik bo'yicha muammolar borligini anglatadi;
- likvidlilikni boshqarish bo'yicha bankda nazorat yo'qligidan dalolat beruvchi asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarni yuqori darajasini buzishdir;
- "ortiqcha" likvidlilikka asoslangan, ya'ni ko'rsatkichlar bo'yicha me'yordan oshishi yoki ko'payishidir.

Uchinchi bosqichda, har bir ko'rsatkichni hosil bo'lgan tahlikali jarayonda mustahkamligiga ishonch hosil qilish uchun ularni dinamik holatida ko'rib o'tish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga likvidlilik ko'rsatkichlari dinamikasi holatiga qarama-qarshi bo'lgan bir qancha omillar bo'lib, bularga:

- bir yoki bir necha ko'rsatkichlar me'yorini bir necha marta buzish;
- bir yoki bir necha ko'rsatkichlar me'yorini buzish orqali likvidlilikni yomonlashuv tendensiyasi;
- qo'shimcha ko'rsatkichlarni pasayish tendensiyalari kiradi.

Nihoyat, *to'rtinchi bosqichda*, omilli tahlil o'tkazishdir. Asosiy likvidlilik me'yolalar holatini hosil qilish uchun omilli tahlil quyidagi birlik sxemada aks ettiriladi:

- oxirgi hisobot davrida mavjud ko‘rsatkichlar haqiqiy darajasi va o‘zgarish o‘tgan davrga nisbatan solishtiriladi;
- hisobot davrida qo‘llanilgan chora tadbirlar ta’siri o‘rganiladi;
- mavjud o‘zgarishlarga qo‘llanilgan chora-tadbirlar ta’siri qay darajada ekanligi tahlil etiladi;
- bir yoki bir necha ko‘rsatichlar holati yomonlashuvida ko‘rsatilgan tahlili bir necha davrda o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi.

10.4. RISLARNI MARKAZIY BANK TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA KAMAYTIRISH SAMARALI YO'LLARI

Iqtisodiy normativlar holati bo'yicha ma'lumotni tijorat banklari Markaziy bankga bir oyda bir marotaba topshirishadi va ushbu tartib tijorat banklarga hisobot paytida ayrim normativlarni to'g'rilab olishga imkoniyat beradi. Bu esa tijorat banklarida iqtisodiy normativlarga har doim ham amal qilmayotganligini bildiradi. **Bizning fikrimizcha, Markaziy bank tomonidan iqtisodiy normativlarni doimiy ravishda to'satdan (tasodifiy kunda) monitoring qilinishi lozim.**

Ayrim xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilganimizda ma'lum bo'ldiki, ularda bitta omonatchiga to'g'ri keladigan omonatning maksimal summasi o'rnatilgan. **Bizning fikrimizcha, O'zbekiston bank tizimiga ham ushbu normani joriy etish bank xatarini minimallashtirishga ko'maklashadi.**

Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston bank tizimining kapital yetarlilik darajasi 24 foizni tashkil qiladi va Bazel III talablarini inobatga olsak ham bu ko'rsatkich belgilangan 14,5 foizdan ancha balandligi bois, uni ijro etishda tijorat banklarida qiyinchilik sezilmaydi.

O'zbekiston bank tizimida joriy likvidlik koeffitsiyenti 64 foizni tashkil qiladi, ya'ni hozirdagi o'rnatilagn 30% foizli normasidan ziyod. Ammo Bazel III ning 100% foizlik talabidan kam. Ushbu talabni bajarish uchun tijorat banklari keskin choralar ko'rishlari kerak. Undan tashqari Bazel III talablariga binoan uzoq muddatli likvidlik koeffitsiyenti o'rnatilishi tavsiya qilingan. **Bizningcha, bu normaning o'rnatilishi bugungi kun bank amaliyotida ko'p uchrayotgan muammoni, ya'ni qisqa muddatli resurslar hisobidan uzoq muddatli aktivlar joylashtirilayotligini oldini oladi.**

Bazel III talablari birinchi navbatda xalqaro bozorlarda qatnashuvchi banklar uchun o'rnatiladi va ushbuni inobatga olib, **bizning fikrimizcha, Bazel III talablari(xususan, joriy va uzoq muddatli likvidlik koeffitsiyentlar)ini**

eksperiment sifatida dastlab xalqaro bozorlarda qatnashuvchi yirik banklar uchun joriy qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Ushbu talablarni bajarish maqsadida 2015 yilda respublika bank tizimining barqarorligini yanada oshirish, bank nazorati tizimini Bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, tijorat banklarining resurs bazasini yanada mustahkamlash, ularning investitsion faolligini kuchaytirish hamda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo‘yicha investitsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning ishtirokini yanada kengaytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejallashtirilmoqda.

Yuqoridagi iqtisodiy normativlarni ishlab chiqishda xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan normativlardan keng ko‘lamda foydalanilgan. Bazel qo‘mitasi butun dunyo mamlakatlari uchun bank nazorati tamoyillarini ishlab chiqadi va mintaqaviy bank nazoratida banklar faoliyati, ularning nazorat qilish tamoyillari ishlab chiqilib, davlatlar uni o‘zlarining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda bank nazorati bo‘yicha standartlariga muvofiqlashtirishadi.

TEST TOPSHIRIQLARI VA MASALALAR:

1. Markaziy bank deb nimaga aytildi?
2. Bugungi kunda qanday iqtisodiy normativlar amal qiladi?
3. Bank nazoratining qanday turlari mavjud?
4. “Camels” tizimining omillar tavsifini aytib bering?
5. “Bazel III” talablarida qanday talablar o’rin olgan?
6. Bufer kapital konservatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Sof barqaror moliyalashtirish normasi qanday topiladi?

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2002. – 304b.
2. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi”. Darslik. T. “Iqtisod-Moliya” 2017.-732 b.
3. Abdullayeva Sh.Z., Omonov A.A. “Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish”. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-Moliya” 2006.-120b.
4. Abdullayeva Sh.Z., Qoraliyev T.M., Ortikov U.D. “Bank resurslari va ularni boshqarish”. Monografiya. –T.: “Iqtisod-Moliya” 2009.-104b.
5. «Analiz bankovskix riskov» X. Van Gryuning, S.B.Bratanovich, Moskva-2004 yil.
6. Банковские риски. Учебное пособие. Под редакцией д.э.н., проф. И.О.Лаврушина и д.э.н., проф. Н.И.Валенцевой. М. : КНОРУС, 2007. – 232 с.

QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 2011y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati haqida”gi Qonuni. T. “O‘zbekiston” 1996 y.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”giQonuni. T. 2003 y.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni. T. 2008 y.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga

erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi. PQ-1438-sonli Qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2010 y.27 noyabr

- 7.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: O‘zbekiston, 2005. -528 b.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2011 yil 25 mayda 2229-son bilan ruyxatga olingan “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi” Nizom
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2010 yil 27 mayda 2014-1-son bilan ro‘yxatga olingan «Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2013 yil 30yanvarda 949-7-son bilan ro‘yxatga olingan. “Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom
11. Adliya Vazirligi tomonidan 2013 yil 1 yanvarda 559-1-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida”gi Nizomi
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi № 422-sonli “Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darjasini to‘g‘risida”gi Nizomi
13. Adliya Vazirligi tomonidan 2009 yil 2 fevralda 1894-son bilan ro‘yxatdan olingan “Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom
14. Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 2 dekabrdagi 556-1-son bilan davlat ro‘yxatiga olingan “Banklar va ularga daxldor shaxslar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar to‘g‘risida” gi Nizom

15. Adliya Vazirligi tomonidan 2005 yil 15 iyulda 1497-son bilan ro‘yxatga olingan “Ochiq valyuta mavqeini yuritish qoidalari”
16. Jumayev N.X, Maxsumov E.M. “Xalqaro moliya munosabatlari: valyuta operatsiyalarini boshqarish mexanizmi”. O‘quv qo‘llanma. T. 2006 y. 34-bet
17. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi Bank tizimi. T.2001.
18. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi Bank tizimi.T.2011.
19. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va yechimlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 184 b.
20. Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidliliginin ta’minlashni takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. olish uchun diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 15 b.
21. Omonov A.A. “Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish”. T.: “Fan va texnologiya” Monografiya, 2008 yil. 248 b.
22. O.I.Lavrushin “Upravleniye deyatelnostyu kommercheskogo banka”. 2003 y 228 b
23. «Riski v ekonomike» L.N.Tepman, professor V.A.Shvandarning redaktsiyasi ostida, Moskva-2002 yil.
24. «Sistema straxovaniya bankovskix riskov» Yu.A.Sokolov, N.A.Amosova, Moskva-2003 yil.
25. P. S. Rouz “Bankovskiy menedjment” Moskva, 1997
26. James R. Barth, Gerard Caprio, Jr. Ross Levine “The Regulation and Supervision of Banks Around the World” A New Database February 2001.
27. Tog‘ayev S.S. “Bank risklarini boshqarish jarayonida Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy normativlarning o‘rni va roli”. Magistrlik dissertatsiyasi. S. 2012y
28. Muxitdinov J.X, Tog‘ayev S.S. “Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda iqtisodiy normativlarning o‘rni” maqolasi. BPK jurnali. 2015 yil 5-soni 4-10 betlar.

29. Tog‘ayev S.S. “Mijozni jalb qilish sirlari yohud aholining bank va bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirishning samarali yo‘llari” nomli ilmiy maqolasi. 2012 y.
30. “Bozor, pul va kredit” jurnalining 1999 y. №3; 2000 y №12, 14-bet; 2002 y. №4; 2004 y . №10, 21 bet; 2011y №9; 2012 y №3; 2014 y №1, 21-bet.
31. “Iqtisod va moliya” jurnali №2, 2012 y
32. Bank axborotnomasi №16, 18.04.2012 y, 2014 yil 16 aprel, №16
33. Halq so‘zi gazetasi 2005 yil 27 dekabr
34. OATB “Kapitalbank”ning o‘sha yillardagi audit natijalari

Internet saytlari:

www.cbu.uz

www.lex.uz

www.ahbor.uz

www.bpk.uz

www.bank.uz

www.finance.uz

www.banking.com

www.kapitalbank.uz

www.google.uz

QAYDLAR UCHUN

Salim Sobirovich Togayev

BANK RISKLARI

O`quv qo`llanma